

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-8/2**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2023**

**Бош муҳаррир:**

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

**Таҳрир хайати:**

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.  
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.  
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,  
т.ф.д., проф.  
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.  
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.  
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.  
Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.  
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.  
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.  
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.  
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.  
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.  
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.  
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.  
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.  
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.  
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.  
Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc  
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.  
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.  
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.  
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.  
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.  
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.  
Мирзаева Гулнора Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.  
Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.  
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.  
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,  
проф.  
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.  
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.  
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.  
Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.  
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.  
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.  
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.  
Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.  
Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,  
б.ф.д., академик  
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.  
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.  
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.  
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.  
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.  
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.  
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.  
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.  
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.  
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.  
Худайберганова Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№8/2 (105), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 206 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2023

**МУНДАРИЖА**  
**ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

<b>Abdiyeva F.B.</b> Rivojlangan mamlakatlarning farmatsevtika sanoatini rivojlantirish tajribalaridan samarali foydalanish	5
<b>Abdug'oiyeva M.A.</b> Sun'iy intellektning mehnat unumdorligiga ta'siri	8
<b>Ahmedov SH.</b> Xorazm viloyati chakana savdo tarmog'ini rivojlanishini baholash yo'nalishlari	11
<b>Fayzieva F.A., Hayitova Sh.J.</b> Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigining ekoturizmni rivojlantirishdagi o'rni	16
<b>Hoshimov J.R.</b> Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish	21
<b>Isroilova D.T.</b> Farg'ona viloyati turistik rekreatsiya faoliyatining SWOT tahlili	24
<b>Isroilova D.T.</b> O'zbekiston Respublikasida turistik-rekreatsiya faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	27
<b>Jaksimova Z.R., Abishov M.S.</b> Rights of farmers, farms and landsowners	30
<b>Jo'rayev F.D., Aralov G'M.</b> Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va resurs samaradorligining statistik tahlili	32
<b>Mahmudova X.</b> Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda televideniyeining roli	39
<b>Mirzayev M.U., Abdumo'minova S.O.</b> Respublikamizda turizmni rivojlantirish omillari	43
<b>Murotjonova M.D.</b> Digital technologies in shaping the electronic business environment	45
<b>Murotjonova M.D.</b> Implementation of electronic data protection	49
<b>Murotjonova M.D.</b> Price formation in the economy, price theory and product price	52
<b>Muxtarov Sh.K.</b> Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining talabalarni ish bilan ta'minlashda yuzaga kelinadigan muammolar	56
<b>Muxtarov Sh.K.</b> O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini iqtisodiy tahlillar asosida aniqlash	59
<b>Qalandarov R.H.</b> Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida go'sht ishlab chiqarishni oila iqtisodiy farovonligiga ta'sirini takomillashtirishning nazariy asoslari	61
<b>Shamuratov U.</b> Raqamli iqtisodiyotning zamonaviy hayotda tutgan o'rni	69
<b>Xodiyeva G.B.</b> Axborot kommunikatsiya xizmatlari bozorini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish	73
<b>Xolov A.</b> O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllanishida davlatning yuqori texnologiyali sanoat va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish roli	76
<b>Абдуллаев А.Ж., Раимова Д.Д.</b> Қорақалпоғистон Республикасида транспорт соҳасида олиб борилаётган ислохотлар ва уларнинг натижалари	80
<b>Абдуллаев А.Ж., Эгамбердиев О.Б.</b> Ўзбекистонда тадбиркорликнинг ривожланиш йўналишлари	83
<b>Асимова Ф.А.</b> Саноат корхоналарида инновацион фаолиятга таъсир қилувчи омиллар	86
<b>Ахмедов М.Ш.</b> Персонал мотивациясининг япония тажрибаси таҳлили	89
<b>Бекжанов Д.Й.</b> Инновацияларни жорий қилинганлик даражасини аниқлаш орқали туристик дестинацион менежмент механизмларини такомиллаштириш	93
<b>Гиёсидинов Б.Б.</b> Маркетинговые исследования в развитии деятельности общественного транспорта	98
<b>Джуманиязов У.И.</b> Трансформация – олий таълимда сифатни бошқариш механизми сифатида	102
<b>Загидуллина К.Р.</b> Горно-металлургические предприятия Республики Узбекистан в современных условиях цифровой экономики и инноваций	106
<b>Калимулина Н.В.</b> Ўзбекистонда қурилиш соҳасини модернизациялаш ва ислохотларни чуқурлаштиришнинг айрим жиҳатлари	109
<b>Қудайбергенов А.Ш.</b> Компаниянинг корпоратив ахборот тизимларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш	113
<b>Курбанова Д.А.</b> Глобал озиқ-овқат бозоридаги иқтисодий-ижтимоий вазият: муаммо ва имкониятлар	118

<b>Маткаримов Ф.Б.</b> Саноат ишлаб чиқариш корхоналарининг атроф-муҳитга таъсири ва уларни тўғри жойлаштириш йўллари	121
<b>Махмудов С.Қ.</b> Молиявий инструментларнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш масалалар	126
<b>Муродова Д.Ч.</b> Банк тизимининг барқарорлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган муаммоларни ҳал қилиш йўллари	129
<b>Нажимов И.П.</b> Қурилиш материаллари ишлаб чиқаришда маҳаллий хом ашёлардан фойдаланиш асосида қишлоқ жойларда қурилишнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш	136
<b>Нуриллаев Ж.Я.</b> Актуальные вопросы социально-экономических и экологических реформ по повышению эффективности каракулеводства	140
<b>Олимжонова Г.</b> Ўзбекистонда кейинги йилларда божхона соҳаси истиқболлари	143
<b>Сатторкулов О.Т., Умаралиев О.Р., Халимжонов Д.Э.</b> Таркибий ўзгаришларда аграр соҳанинг ўрни ва аҳамияти	146
<b>Худайбердиева Н.Н.</b> Хизмат кўрсатиш корхоналарида инновация фаолиятини ривожлантиришнинг назарий асослари	153
<b>Худайназарова Д.Х.</b> Тўқимачилик саноати корхоналари иқтисодий рискларини инкрементал инновацион фаолият механизми асосида самарадорликни ошириш	160
<b>Худайназарова Д.Х.</b> Тўқимачилик саноати корхоналарида рискларни пасайтириш механизмлари самарадорлигини прогнозлаштириш	166
<b>Ғиёсидинов Б.Б.</b> Шаҳарда жамоат транспорти хизматини ривожлантириш афзалликлари	172
<b>Ғиёсидинов Б.Б.</b> Тошкент шаҳар жамоат транспорти фаолиятини ривожлантиришда маркетинг тадқиқотлари	176

#### АРХИТЕКТУРА ФАНЛАРИ

<b>Собирова О.И.</b> Талабалар турар-жойларнинг функционал эҳтиёжлари	180
---	-----

#### ТЕХНИКА ФАНЛАРИ

<b>Azizov Sh.M.</b> Yangi konstruksiyadagi jin mashinasi ishchi kamerasing hajmini va arrali silidrlarni kamerada joylashuvini o'zgarishiga qarab paxta tolasini va chigitni shikastlovchi kuchlarni taxlili	185
<b>Ишмуратов Х.К., Абдурахманов А.Э.</b> Зависимость контактной прочности зубчатых колес от материала и размеров передачи	196
<b>Каландаров П.И., Ҳайитов А.Н., Шарифов Ҳ.Ш.</b> Математик моделлаштириш ва донни майдалаш жараёнини тизимли таҳлили	199

UO'K 338:615(575-1)

**RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING FARMATSEVTIKA SANOATINI  
RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH****F.B.Abdiyeva, tayanch doktorant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent**

**Annotatsiya.** Rivojlangan mamlakatlarda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish orqali yer yuzi aholisining hayot faoliyatini yaxshilashda muhim yutuqlarga erishilmoqda. Raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun butun dunyodagi farmatsevtika korxonalari ilg'or xorijiy tajribalarni faol ravishda o'rganmoqdalar va o'zlashtirmoqdalar. Ushbu maqola farmatsevtika sanoatining o'sishidagi tajribalarning ahamiyatini o'rganib, ularning yangi dori vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va tartibga solishni tasdiqlash jarayonlaridagi rolini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** farmatsevtika sanoati, innovatsiya, farmatsevtika bozoriga kirish, hamkorlik, xalqaro tajriba, tadqiqot va ishlanmalar.

**Аннотация.** Благодаря развитию фармацевтической промышленности в развитых странах достигается значительный прогресс в улучшении жизнедеятельности населения земли. Для получения конкурентного преимущества фармацевтические компании по всему миру активно изучают и перенимают передовой зарубежный опыт. В этой статье исследуется важность экспериментов в развитии фармацевтической промышленности, подчеркивается их роль в процессах разработки, производства и утверждения новых лекарств регулирующими органами.

**Ключевые слова:** фармацевтическая промышленность, инновации, доступ на фармацевтический рынок, сотрудничество, международный опыт, исследования и разработки.

**Abstract.** Thanks to the development of the pharmaceutical industry in developed countries, significant progress is being made in improving the livelihoods of the world's population. To gain a competitive advantage, pharmaceutical companies around the world are actively studying and adopting advanced foreign experience. This article explores the importance of experimentation in the development of the pharmaceutical industry, highlighting its role in the development, production, and regulatory approval of new drugs.

**Key words:** pharmaceutical industry, innovations, access to the pharmaceutical market, cooperation, international experience, research and development.

**Kirish.** Mamlakatimizda aholi salomatligini saqlashga davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb e'lon qilinishi ijtimoiy sohaga bo'lgan e'tiborni yildan yilga ortib borayotganligidan dalolatdir. Aholi hayoti va va sog'lom turmush tarzini yaxshilash, birlamchi tibbiyot tizimi faoliyatini tubdan isloh qilish, arzon va sifatli dori-darmon ta'minotini yaxshilash bilan bog'liq amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar yangicha mazmun kasb etmoqda. O'zbekistonda farmatsevtika mahsulotlariga bozor talabi va hajmi mamlakat aholisining ko'payishi va sog'liqni saqlashga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bilan bog'liq. Business Monitor International (BMI) hisobotiga ko'ra, O'zbekiston farmatsevtika bozori 2026-yilga borib 1,5 milliard dollarga yetishi va 2021 yildan 2026 yilgacha yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) 10,7 foizga o'sishi kutilmoqda[1].

Farmatsevtika sanoatini tubdan isloh qilishga qaratilgan sa'y harakatlarga qaramay hamon import dori vositalariga qaramlik, sifatli kadrlar yetishmasligi, xom ashyo zahirasi va boshqa muammolar rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda. Bu kabi muammolarni bartaraf etishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va O'zbekiston sharoitiga mos ravishda tadbir etish maqsadga muvofiqdir.

Global farmatsevtika sanoatida AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Hindiston, Fransiya, Italiya, Birlashgan Qirollik, Kanada va Ispaniya kabi xorijiy mamlakatlar yetakchi o'rin egallaydi (1-

jadval). Ushbu mamlakatlarning dunyo farmatsevtika bozoridagi bozor ulushini yuqori bo'lib, yetakchi farmatsevtika korxonalari ham aynan ushbu davlatlarda joylashganligini qayd etish lozim.

1-jadval

2022 yilda dunyo bo'ylab yetakchi 10 ta davlatlarning farmatsevtika bozoridagi ulushi (%)

№	Davlatlar	Bozor ulushi
1	AQSH	42,6
2	Xitoy	7,6
3	Yaponiya	4,5
4	Germaniya	4
5	Hindiston	3
6	Fransiya	2,8
7	Italiya	2,4
8	birlashgan qirollik	2,3
9	Kanada	2
10	Ispaniya	1,9











**Mavzuning dolizarbligi va hozirgi holati:** Farmatsevtika sanoati importi hajmi 1 584 968,8 ming dollarni tashkil etsa eksport esa 24 980,2 ming dollarga teng, bu ko'rsatkich eksportga qaraganda ancha yuqori. Shu boisdan davlat tomonidan importni qisqartirishga qaratilgan choratadbirlar ko'rilmogda. Rivojlangan mamlakatlarda farmatsevtika sanoatidagi yutuqlarga erishishda qaysi jihatlarga ahamiyat qaratilganligini va O'zbekistondagi mavjud muammolarga yechim topishda xorij tajribasidan samarali foydalanish mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlari bir necha o'n yillar davomida farmatsevtika sanoatida sezilarli yutuqlarga erishishda global yetakchi bo'lib kelmoqda. Mamlakat farmatsevtika sohasi ilg'or ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar, mustahkam me'yoriy-huquqiy baza va innovatsiyalarga katta e'tibor qaratilgani bilan ajralib turadi.

-Tadqiqot va ishlanmalar (R&D) mukammalligi: AQSh farmatsevtika sohasida innovatsion kashfiyotlar olib boradigan dunyoga mashhur tadqiqot institutlari, akademik markazlari va biotexnologiya kompaniyalari bilan masghurdir. Mamlakatning ilmiy-tadqiqot investitsiyalariga katta e'tibor qaratilishi ko'plab kasalliklar uchun yangi dori vositalari va davolash usullarini ishlab chiqishga olib keldi[2].

2-jadval

Dunyodagi TOP 10 ta farmatsevtika kompaniyalari daromadi va ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga kiritilgan investitsiya hajmi (2022-yil)

Logotip	Kompaniyalar	Yillik daromadi (milliard AQSH dollar)	Tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar (milliard AQSH dollari)
	Pfizer	79.643	13.829
	AbbVie	56.141	6.518
	J&J	52.128	9.041
	Novartis	51.621	11.781
	Roche	48.593	13.080
	BMS	46.469	9.531
	Merck & Co. (MSD)	42.859	12.245
	AstraZeneca	37.431	7.98
	Sanofi	36.634	6.150
	GSK	32.1	6.573

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib, dunyo farmatsevtika sanoatidagi raqobatbardosh korxonalar aynan rivojlangan davlatlarda joylashganligini aytib o'tish lozim. 2-jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Pfizer dunyoning TOP 10 ta farmatsevtika korxonalarini ichida 1 o'rinda, uning daromadi 72 milliard AQSH dollarini tashkil etib, shundan, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga kiritilgan investitsiya 13 milliardga teng. Ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu TOP 10 ta korxonalarining aksariyati AQSH va Yevropa Ittifoqida joylashgan. COVID-19 vaksinalari va davolovchi preparatlari homiy kompaniyalarga katta daromad keltirishda davom etmoqda

-Biotexnologiya innovatsiyasi: AQSh biotexnologiya innovatsiyalari bo'yicha birinchi o'rinda turadi, bu dori vositalarini ishlab chiqishda inqilob qildi. Biotexnologiya kompaniyalari biologiya, gen terapiyasi va shaxsiylashtirilgan tibbiyotni kashf etish va ishlab chiqarishda muhim rol o'ynadi va bemorlar uchun yangi davolash usullarini taklif qildi.

-Sog'lom tartibga soluvchi muhit: Amerika Qo'shma Shtatlari Oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi (FDA) o'zining qat'iy va ilmiy asoslangan tartibga solishni tasdiqlash jarayoni bilan keng tan olingan. Agentlik dori vositalari bozorga chiqmasdan oldin qat'iy xavfsizlik va samaradorlik standartlariga javob berishini ta'minlaydi, bu ham bemorlarga, ham tibbiyot xodimlariga ishonch uyg'otadi[3].

-Bozor hajmi va talabi: AQShda bemorlarning katta va xilma-xil populyatsiyasi farmatsevtika kompaniyalari uchun muhim bozorni ta'minlaydi va ularni tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritishga undaydi. Innovatsion davolash usullariga bo'lgan yuqori talab farmatsevtika kompaniyalarini doimiy ravishda innovatsiyalar va yangi dori vositalarini ishlab chiqishga undaydi[4].

-Intellektual mulkni himoya qilish: AQShning kuchli intellektual mulk qonunlari farmatsevtika kompaniyalariga ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarga sarmoya kiritish uchun imtiyozlar beradi. Patentlarni himoya qilish kompaniyalarga investitsiyalarini qoplash imkonini beradi va ularni innovatsion tadqiqotlar olib borishga undaydi.

-Akademik-sanoat hamkorligi: Farmatsevtika kompaniyalari va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlik dorilarni kashf qilish va rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Hamkorlik bilim almashinuvi va ilg'or texnologiyalardan foydalanishga yordam beradi, tadqiqot natijalarini yangi davolash usullariga tadbiiq qilishni tezlashtiradi.

-Venchur kapitali va investitsiya: AQShda biotexnologiya va farmatsevtika startaplarini moliyalashtiradigan jonli venchur kapital ekotizimiga ega. Ushbu moliyaviy yordam innovatsion startaplarning o'sishiga yordam berdi, dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot texnologiyalari sohasidagi yutuqlarni rag'batlantirdi.

-Global hamkorlik: AQSh farmatsevtika kompaniyalari ko'pincha xalqaro hamkorlar bilan hamkorlik qiladi, bilim, resurslar va tajriba almashadi. Ushbu global hamkorliklar turli xil bemorlar uchun butun dunyo bo'ylab yangi davolash usullarini kengaytiradi.

-Sog'liqni saqlash sohasidagi favqulodda vaziyatlarga javob berish: AQSh OIV/OITS inqirozi va Ebola va COVID-19 kabi so'nggi avj olish kabi favqulodda vaziyatlarda resurslar va tajribani safarbar qilish qobiliyatini namoyish etdi[5]. Tez va muvofiqlashtirilgan javoblar vaksinalar, davolash usullari va diagnostika vositalarini ishlab chiqishga olib keldi.

**Olingan natijalar tahlili:** AQShning farmatsevtika sanoatida yutuqlarga erishish tajribasi uning tadqiqot va innovatsiyalarga sodiqligi, qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish muhiti, mustahkam davlat-xususiy hamkorlik va global sog'liqni saqlash muammolarini hal qilishga qaratilganligi bilan bog'liq. Bu omillar AQShni farmatsevtika taraqqiyoti va butun dunyo bo'ylab bemorlarga yordam ko'rsatishni yaxshilashning asosiy omili sifatida joylashtirdi. AQShning quyidagi tajribalari O'zbekiston uchun farmatsevtika sanoatini yanada rivojlanishiga olib kelishi mumkin:

1. Ilmiy-tadqiqot investitsiyalarini kuchaytirish: O'zbekiston ilmiy-tadqiqot imkoniyatlarini mustahkamlash, iste'dodlarni jalb qilish va innovatsiya madaniyatini rivojlantirish uchun mablag' ajratishi kerak.

2. Tartibga solish jarayonlarini soddalashtirish: O'zbekiston investitsiyalarni jalb qilish va dori vositalarini o'z vaqtida tasdiqlashni ta'minlash uchun tartibga solish tartib qoidalarini xalqaro standartlarga moslashtirishi lozim.

3. Davlat-xususiy sheriklikdan foydalanish: ilmiy doiralar, davlat muassasalari va xususiy sanoat o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish O'zbekiston farmatsevtika sektorini olg'a siljitishi mumkin.

**Xulosa:** AQSh tajribasini o'rganish va ushbu qimmatli saboqlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston farmatsevtika sohasidagi taraqqiyotini tezlashtirish imkonini beradi. AQSH tajribasini organar ekanmiz, ta'lim-ishlab chiqarish o'rtasida doimiy uzviy aloqa ta'minlanishi soha natijadorligini oshiradi. Bu esa O'zbekistonda farmatsevtika innovatsion klasterlarini tashkil qilish soha rivojiga o'z hissasini qo'shishini ko'rsatmoqda. O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasini yaxshilashga intilar ekan, AQSh tomonidan ilhomlantirilgan strategiyalarning integratsiyalashuvi tibbiy tadqiqotlar, bemorlarni parvarish qilish va dori vositalarini ishlab chiqarish va rivojlantirish sohasida o'zgaruvchan yutuqlarga yo'l ochadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Business Monitor International. (2021). Uzbekistan Pharmaceuticals & Healthcare Report Q2 2021. Retrieved from <https://www.fitchsolutions.com/pharma-healthcare/uzbekistan-pharmaceuticals-healthcare-report-q2-2021>

2. Pammolli, F., Magazzini, L., & Riccaboni, M. (2011). The productivity crisis in pharmaceutical R&D. *Nature Reviews Drug Discovery*, 10(6), 428-438.

3. AQSh oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi (FDA) - Dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligini ta'minlashda dori vositalarini tasdiqlash, qoidalar va FDA ning roli haqida ma'lumot beruvchi rasmiy veb-sayt.

4. Kesselheim, A. S., Avorn, J., & Sarpatwari, A. (2016). The high cost of prescription drugs in the United States: Origins and prospects for reform. *JAMA*, 316(8), 858-871.

5. Ang, S. H., & Sutherland, E. (2019). The impact of pharmaceutical marketing on patient treatment decisions. *Expert Review of Pharmacoeconomics & Outcomes Research*, 19(1), 83-93.

UO'K 004:331.101.6

### SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGIGA TA'SIRI

*M.A.Abdug'oipova, talaba, Andijon Mashinasozlik instituti, Andijon*

**Annotatsiya.** Maqolada sun'iy intellektning mehnat unumdorligiga ta'siri muhokama qilinadi. U sun'iy intellektga asoslangan avtomatlashtirishning potentsial afzalliklarini, shuningdek, ish joylarini almashtirish va tengsizlik bilan bog'liq tashvishlarni ko'rib chiqadi va sun'iy intellektni mas'uliyatli boshqarish va inson-mashina hamkorligi zarurligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, mehnat unumdorligi, samaradorlik, umumiy ishchi kuchi, mavjud ish o'rinlari, Yalpi ichki mahsulot, avtomatlashtirish, raqamli texnologiya, real ish haqi.

**Аннотация.** В статье обсуждается влияние искусственного интеллекта на производительность труда. В нем рассматриваются как потенциальные преимущества автоматизации на основе искусственного интеллекта, так и опасения по поводу смещения рабочих мест и неравенства, подчеркивая необходимость ответственного управления ИИ и сотрудничества человека и машины.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, производительность труда, эффективность, общая рабочая сила, свободные рабочие места, ВВП, автоматизация, цифровая технологии, реальная заработная плата.

**Abstract.** The article discusses the implications of artificial intelligence on labor productivity. It examines both the potential benefits of artificial intelligence-driven automation as well as concerns over job displacement and inequality, emphasizing the need for responsible Artificial intelligence governance and human-machine collaboration.

**Keywords:** artificial intelligence, labor productivity, efficiency, total workforce, available jobs, GDP, automation, digital technology, real wages.

Globalashgan dunyoda rivojlanishning asosiy omili texnik va texnologik taraqqiyot bilan belgilanadi. Shuningdek, ilmiy-texnologiyalar tarmog'i, iqtisodiyot va xavfsizlik ham bir necha asrlardan beri bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatib, sinxron tarzda rivojlanib keladi. Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy hayotga yangi omil – sun'iy aql jadallik bilan kirib keldi va kundalik turmushimizda faol ishtirok etmoqda. Sun'iy intellekt deganda insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizim tushuniladi. Ushbu atama, shuningdek, o'rganish

va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday texnologiyaga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Sun'iy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Sun'iy intellekt dunyosi deyarli cheksizdir, u o'sib borayotgan muhandislik va kompyuter imkoniyatlari hisobiga katta ta'sir ko'rsatish qudratiga ega bo'lib bormoqda. Turli tor funksiyalar, vazifalar va faoliyatlar allaqachon inson qobiliyati va undan yuqori darajada amalga oshirilishi mumkin, ba'zan esa insonga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Keng tarqalgan Goldman Sachs tadqiqotiga ko'ra, kelasi o'n yil ichida mavjud kasblarning taxminan 65%iga ta'sir qilishi va odamlar hozir qilayotgan ishlarning 25%dan 50%gacha algoritmlar, sun'iy intellekt tomonidan bajarilishi mumkin. Sun'iy intellekt dunyoda 300 milliongacha ish o'rni ishchi kuchining taxminan 18 foiziga ta'sir qilishi mumkin. Hisobotga ko'ra, sun'iy intellekt AQShda joriy ishlarning 25% va Evropada 24% ni o'rnini bosa oladi, qolgan ishlarning ko'p qismini to'ldiradi. Tadqiqotlariga ko'ra sun'iy intellekt yordamida har yili jahon iqtisodiyoti 4,4 trillion dollarga oshadi. Shu bilan birga, u mehnat bozori uchun jiddiy qiyinchiliklar va xavflarni ham keltirib chiqaradi, chunki u hozirda inson ishchilari tomonidan bajariladigan ko'plab vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin.

Sun'iy intellektning turli kasblar va sohalarga ta'siri avtomatlashtirishga ta'sir qilish darajasiga va qo'shimcha ko'nikmalar mavjudligiga bog'liq. Hisobot avtomatlashtirish ta'sirini aniqlaydigan to'rtta omilni aniqlaydi: ijodkorlik, ijtimoiy intellekt, jismoniy epchillik va domen bilimi. Ushbu omillarning yuqori darajasini talab qiladigan vazifalarni sun'iy intellekt tomonidan avtomatlashtirish ehtimoli kamroq, muntazam, takroriy va standartlashtirilgan vazifalar esa avtomatlashtirilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, ofis va ma'muriy yordam kasblari sun'iy intellekt tomonidan avtomatlashtirilishi mumkin bo'lgan vazifalarning eng yuqori nisbatiga ega (46%), undan keyin yuridik kasblar (44%), arxitektura va muhandislik kasblari (37%), hayot, jismoniy va ijtimoiy fanlar (36%) va biznes va moliyaviy operatsiyalar (35%). Boshqa tomondan, binolar va maydonlarni tozalash va texnik xizmat ko'rsatish kasblari sun'iy intellekt tomonidan avtomatlashtirilishi mumkin bo'lgan vazifalarning eng past ulushiga ega (1%), undan keyin montaj, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash kasblari (4%), qurilish va qazib olish kasblari (6%), ta'lim, o'qitish va kutubxona kasblari (7%) va sog'liqni saqlash amaliyotchilari va texnik kasblar (8%) bo'lishi kutilmoqda.

Sun'iy intellektning turli mamlakatlarga ta'sirini ularning bandlik tarkibi va daromad darajasiga qarab tahlil qilinadi. Gonkong, Isroil, Yaponiya, Shvetsiya va AQSh sun'iy intellekt avtomatizatsiyasidan eng ko'p zarar ko'rgan davlatlar bo'lsa, Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Filippin va Vetnam kabi Osiyoning rivojlanayotgan davrlari eng kam ta'sir ko'rsatadigan davlatlardir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan bozorlarga qaraganda avtomatlashtirishga duchor bo'lgan ko'proq ish joylariga ega, ammo ular o'zgarishlarga moslashish uchun ko'proq resurslar va imkoniyatlarga ega. Sun'iy intellekt bugungi kunda mavjud bo'lmagan yoki joriy ma'lumotlarga ega bo'lmagan yangi ish o'rinlari va tarmoqlarni yaratishi mumkinligini tan oladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt mehnat unumdorligi o'sishini oshirishi va vaqt o'tishi bilan global YaIMni 7% ga oshirishi mumkin. Biroq, agar tegishli siyosat va qoidalar bilan birga bo'lmasa, daromadlar tengsizligi va ijtimoiy tabaqalanishni ham oshirishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. Hisobot ta'lim va o'qitish, ijtimoiy himoya va xavfsizlik tarmoqlari, mehnat bozorining moslashuvchanligi va harakatchanligi, innovatsiyalar va tadbirkorlik, sun'iy intellekt uchun standartlar va boshqaruvga ko'proq sarmoya kiritishni talab qiladi.

Texnologiyaning iqtisodga ta'sirini kuzatishning asosiy ko'rsatkichi - bu ishchilar unumdorligining o'sishi - xodim soatiga qancha ish ishlab chiqarishi mumkinligi bilan belgilanadi va u ishchining har bir ish soati uchun qancha pul topishi mumkinligi bilan bevosita bog'liq. Boshqacha aytganda, yuqori mahsuldorlik yuqori ish haqiga olib kelishi mumkin. Sun'iy intellekt mahsulotlari yozma, grafik va audio kontentni yoki insonning minimal ishtiroki bilan dasturiy ta'minot dasturlarini ishlab chiqarishga qodir. Reklama, ko'ngilochar va ijodiy va tahliliy ish kabi kasblar sun'iy intellektning ta'sirini birinchi bo'lib his qilishlari mumkin. Ushbu sohalardagi ishchilar sun'iy intellektdan foydalanilishidan xavotirlanishlari mumkin, ammo iqtisodchilar umuman ishchi kuchining samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlarni ko'rishadi. O'tgan yillardagi sur'atlarga

yaqinlashadigan mahsuldorlikning bunday o'sishi iqtisodchilar tomonidan ham, nazariy jihatdan ham ishchilar tomonidan ma'qullanadi.

Pandemiya qanchalik halokatli bo'lsa-da, 2020 yilda boshlanganidan keyin ishchilarning unumdorligi oshdi ; soatiga ishlab chiqarish global miqyosda 4,9% oshdi. Ushbu keskin o'sishning katta qismi texnologiya yordam berdi: ko'proq bilimga ega bo'lgan yirik kompaniyalar - tabiatan ko'proq samarali bo'lganlar - masofaviy ishlashga o'tdilar, videokonferentsaloqa va boshqa aloqa texnologiyalari kabi raqamli texnologiyalar orqali uzluksizlikni ta'minladilar va qatnov vaqtini tejaydilar .

Raqamli texnologiyalar bilim xodimlarining mahsuldorligini oshirishga yordam bergani aniq bo'lsa-da, boshqa ko'plab sohalarda katta avtomatlashtirishga tez o'tish yuz berdi, chunki ishchilar o'z xavfsizligi uchun uyda qolishlari va blokirovkalarga rioya qilishlari kerak edi. Go'shtni qayta ishlashdan tortib restoranlar, chakana savdo va mehmondo'stlik kabi sohalardagi kompaniyalar robotlar va avtomatlashtirilgan buyurtmalarni qayta ishlash va mijozlarga xizmat ko'rsatish kabi avtomatlashtirishga sarmoya kiritdilar , bu esa ularning mahsuldorligini oshirishga yordam berdi. 2020-2022 yillarda texnologiya sohasiga investitsiyalarning o'sishi , avtonom transport vositalari va pitsa ishlab chiqaruvchi robotlar haqidagi shov-shuvlar ham barbod bo'ldi . Boshqa ko'pikli va'dalar, masalan, metaverse-ning inqilob qiluvchi masofaviy ishlashi yoki treningi ham fonga o'tib ketganday tuyuldi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt muayyan ishlarda ishchilarning mahsuldorligini oshirishi mumkin - masalan, 2023 yilda bir tadqiqotda sun'iy intellektga asoslangan suhbat bo'yicha yordamchining bosqichma-bosqich joriy etilishi mijozlarga xizmat ko'rsatish xodimlarining mahsuldorligini 14 foizga oshirganini ko'rsatdi . Shunga qaramay , sun'iy intellektning eng jiddiy xavflarini ko'rib chiqish va ularga jiddiy munosabatda bo'lishga chaqiriqlar allaqachon ortib bormoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellektning astronomik hisoblash va atrof-muhit xarajatlarini tan olish uning rivojlanishi va ishlatilishini cheklashi mumkin.

COVID-19-dan keyingi ish joyi shaxsiy va masofaviy ishlash o'rtasidagi muvozanatni qidirar ekan, unumdorlikka ta'siri va bu boradagi fikrlar noaniq va barqaror bo'lib qoladi. 2022 yilgi tadqiqot uzoqdan ishlash samaradorligini ko'rsatdi, chunki kompaniyalar va xodimlar uydan ishlash tartibida qulayroq bo'lishdi, ammo 2023 yilda o'tkazilgan alohida tadqiqotga ko'ra, menejerlar masofaviy ishlash unumdorlikni pasaytiradi deb hisoblashadi. Xodimlar buning aksiga ishonadilar.

Ta'sir qilingan 300 million ish o'rni yoki global iqtisodiyotga yillik 4,4 trillion dollarlik o'sish kabi raqamlar diqqatni tortadi. Bundan tashqari, "ta'sir qilingan ish joylari" yo'qolgan ish o'rinlarini anglatmaydi; bu ish o'rinlarining ko'payishi yoki hatto yangi ishlarga o'tishni anglatishi mumkin. Goldman yoki McKinsey's kabi tahlillardan ish va ishchilarning kelajagi haqidagi ishonchli stsenariylar haqida tasavvurimizni uyg'otish uchun foydalanish yaxshidir. Menimcha, qaysi biri haqiqatda sodir bo'lishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ko'plab omillar to'g'risida proaktiv ravishda miya hujumi qilish, erta ogohlantirish belgilarini izlash va shunga mos ravishda tayyorgarlik ko'rish yaxshiroqdir.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning mehnat unumdorligiga ta'siri juda katta. Sun'iy intellektga asoslangan avtomatlashtirish va mashinani o'rganish integratsiyasi turli sohalarda samaradorlikni sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega. Takroriy vazifalarni avtomatlashtirish, xatolarni kamaytirish va aniqlikni oshirish orqali sun'iy intellekt ishchilarga e'tiborni yanada murakkab va qo'shimcha qiymatli faoliyatga o'tkazish imkonini beradi. Biroq, ish joyini almashtirish va potentsial tengsizliklar bilan bog'liq xavotirlar paydo bo'ladi. Mas'uliyatli sun'iy intellekt boshqaruvi ushbu muammolarni hal qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ishchilarning o'zgaruvchan mehnat bozoriga moslashishini ta'minlash uchun ularning malakasini oshirish va malakasini oshirish imkoniyatlarini ta'minlashga e'tibor qaratish lozim. Odamlar va mashinalar o'rtasidagi hamkorlik sun'iy intellektning salbiy ta'sirini yumshatish bilan birga uning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun ham muhimdir. Texnologik taraqqiyot va ishchi kuchi farovonligini birinchi o'ringa qo'yadigan

muvozanatli yondashuvga erishish sun'iy intellekt salohiyatidan to'liq foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish uchun juda muhimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdurahmonov Q.H, Holmo'minov Sh.R. «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi». Toshkent-2004 yil,
2. Abdullayev A., Aybeshov X. Yulchiyev E., Marketing - T.: "Fan va texnolo-giyalar", 2010 y.
3. Ortiqov A., Sanoat iqtisodiyoti, T.: Mehnat, 2008
4. Abduraxmonov K. va boshqalar, Personalni boshqarish. –T.: «Sharq», 1998
5. www.stat.uz
6. www.cer.uz
7. https://fortune.com

UO'K 339.37

**XORAZM VILOYATI CHAKANA SAVDO TARMOG'INI RIVOJLANISHINI  
BAHOLASH YO'NALISHLARI**

*SH.Ahmedov, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyati chakana savdo tarmog'ining rivojlanish ko'rsatkichlarini chiziqli, eksponentsial, kvadratik va darajali funktsiyalar orqali baholash yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan hamda chakana savdo tarmog'ining rivojlanishiga qaratilgan xulosa va takliflar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Chakana savdo, chakana savdo aylanmasi hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo aylanmasi hajmi, determinatsiya koeffitsienti, eksponentsial funktsiya, kvadratik funktsiya, darajali funktsiya.

**Аннотация.** В данной статье показаны направления оценки показателей развития розничной торговой сети Хорезмской области с помощью линейной, экспоненциальной, квадратичной и градуировочной функций, а также изложены выводы и предложения, направленные на развитие розничной торговой сети.

**Ключевые слова.** Розничная торговля, объем розничного товарооборота, объем розничного товарооборота на душу населения, коэффициент детерминации, экспоненциальная функция, квадратичная функция, степенная функция.

**Abstract.** This article shows the directions for assessing the indicators of the development of the retail trade network of the Khorezm region using linear, exponential, quadratic and calibration functions, as well as the conclusions and proposals aimed at developing the retail trade network.


**Keywords.** Retail trade, volume of retail trade turnover, volume of retail trade turnover per capita, coefficient of determination, exponential function, quadratic function, power function.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar butun mamlakat iqtisodiyotiga xos bo'lgan jarayonlarning xususiyatlari va dinamikasini aks ettiradi, bu esa o'z navbatida, chakana savdo holati va rivojlanishiga ta'sir qiladi. Mamlakatimiz mintaqalarida chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish an'anaviy va raqamli savdo munosabatlari taraqqiy ettirish bilan emas, balki aholining oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Taraqqiyot strategiyasida "Respublika hududlarida savdo va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish" [1] vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda tuman va shaxarlarda chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni o'z vaqtida bartaraf qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Iste'molchilar uchun ahamiyati jihatidan chakana savdoni rivojlantirish uchun hududlardagi bozor va do'kon savdolarining savdo stereotiplarini aniqlash va ushbu masala bo'yicha aniq tahlillarni olib borish maqsadga muvofiq.[5] Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida chakana savdo tarmog'i tomonidan hal qilinadigan ijtimoiy vazifalarga aholining iste'mol tovarlari va xizmatlariga bo'lgan samarali talabini maksimal darajada qondirish va foydani ko'paytirish kiradi. [6] Mazkur holat chakana savdo tarmog'ining moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish,


xarajatlarni optimallashtirishda turli xil taxlil usullaridan samarali foydalanish mintaqaviy iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi. Xorazm viloyatida chakana savdo tarmog'i statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilib, ikki xil ko'rsatkichlarga ajratilgan holda, ya'ni chakana savdo xajmi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo xajmi quyidagi grafiklar asosida tahlil qilib chiqildi (1-rasm).



**1-rasm. Xorazm viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)**

**Manba: Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi**


1-rasmda berilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, viloyat chakana savdo tarmog'i faoliyati yillar kesimida o'sish tendensiyasiga ega. Viloyat chakana savdo tarmog'i taxlil qilinayotgan davrda o'rtacha o'sish sur'ati 111.2 foizni tashkil qiladi, tumanlar kesimida chakana savdo aylanmasi ulushi taxlillar natijalariga ko'ra jamiga nisbatan Urganch shaxri o'rtacha 38%, Xiva shaxri o'rtacha 4%, Bog'ot tumani o'rtacha 5%, Gurlan tumani o'rtacha 6%, Qo'shko'pir tumani o'rtacha 5%, Urganch tumani o'rtacha 9%, Xazorasp tumani o'rtacha 10%, Tuproqqal'a tumani o'rtacha 2%, Xonqa tumani o'rtacha 6%, Xiva tumani o'rtacha 6%, Shovot tumani o'rtacha 6%, Yangiariq tumani o'rtacha 4%, Yangibozor tumani o'rtacha 3% tashkil qilgan. Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib xududlar rivojlanishidagi tafovutlarni yo'qotish xisoblanadi. Chakana savdoni mintaqaviy jihatdan rivojlantirishda tumanlardagi ulush bo'yicha tavofutlarni kamaytirish maqsadga muvofiq. Xorazm viloyatida chakana savdo hajmini o'zgarishlarini aniqlash uchun turli funktsiyalar orqali baholash maqsadga muvofiq. Bu borada dastlab Xorazm viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmini ifodalovchi chiziqli funktsiya tuzilib, shu usulda baxolash amalga oshirildi (2-rasm).



**2-rasm. Xorazm viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmini chiziqli funktsiya asosida baxolash**


**Manba: Muallif ishlanmasi**

Ushbu rasimga asosan, Xorazm viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  $y = 938,78x - 1732,4$  ko'rinishdagi chiziqli funktsiya ko'rinishiga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,8683$ ni tashkil etadi. Determinatsiya koeffitsientining 1 qiymatga biroz yaqin natijaga ega bo'lishi modelning qisman ishonchliligini aks ettira oladi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich eksponensial funktsiya asosida ham baxolanib, uning natijasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi. (3-rasm)




3-rasm. Xorazm viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmini eksponensial funksiya asosida baxolash  
Manba: Muallif ishlanmasi

Ushbu rasmga asosan, Xorazm viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  $y = 802,56e^{0,2128x}$  ko'rinishdagi eksponensial funksiya ko'rinishiga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,9972$  ni tashkil etadi. Bu funktsiyada ham determinatsiya koeffitsientining 1 qiymatga teng eng yaqin natijaga ega bo'lishi modelning ishonchliligini aks ettira oladi hamda shu funktsiya natijalari asosida chakana savdo tovar aylanmasi hajmini o'rta muddatga prognoz qilish imkoni yaratiladi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich kvadratik funksiya asosida ham baxolanib, uning natijasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi. (4-rasm)



4-rasm. Xorazm viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmini kvadratik funksiya asosida baxolash ko'rinishi. Manba: Muallif ishlanmasi




5-rasm. Xorazm viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmini darajali funksiya asosida baxolash  
Manba: Muallif ishlanmasi

Mazkur rasmga asosan, viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  $y = 106,43x^2 - 551,21x + 1992,6$  ko'rinishdagi kvadratik funksiya ko'rinishiga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,991$  ni tashkil etadi. Bu funktsiya orqali hisoblangan determinatsiya koeffitsientining 1 qiymatga teng eng yaqin natijaga ega bo'lishi ham modelning ishonchliligini aks ettirib, shu funktsiya natijalari asosida ham chakana savdo tovar aylanmasi hajmi ko'rsatkichini turli muddatga prognoz qilish

imkoni yaratiladi. Mazkur ko'rsatkich qiymati darajali funksiya asosida ham baxolanib, uning natijasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (5-rasm).

Mazkur rasmga asosan, viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  $y = 614,37x^{1,0125}$  darajali funksiya ko'rinishiga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,8704$  ni tashkil etadi. Bu funksiya orqali hisoblangan determinatsiya koeffitsientining 1 qiymatga yaqin emasligi modeldan foydalanishning ishonchliligi kamligini aks ettiradi. Umuman olganda viloyat chakana savdo xajmi taxlillari asosida keltirib o'tilgan econometrik modellardan foydalanib qisqa va o'rta muddatli prognoz qiymatlarini aniqlash mumkin. Uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari dinamik econometric modellar asosida aniqlanishi maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.


Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo hajmini o'zgarishlarini aniqlash uchun ushbu ko'rsatkichlarning 2010-2022 yillardagi o'zgarish sur'atlari tahlil qilindi (6-rasm)



**6-pasm. Xorazm viloyati bo'yicha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (ming so'mda)**


**Manba: Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi**

Ushbu rasmga asosan, Xorazm viloyati bo'yicha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2010 yilda 1005,9 ming so'mga teng bo'lgan bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkich hajmi 2022 yilda 13414,8 ming so'mni tashkil etgan yoki qariyb 13 martaga oshgan. Xorazm viloyatida ushbu aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo hajmini o'zgarishlarini aniqlash uchun ham turli funktsiyalar orqali baholash maqsadga muvofiq. Bu borada dastlab mazkur ko'rsatkich hajmini ifodalovchi eksponensial shakldagi funksiya tuzilib, shu usulda baxolash amalga oshirildi (7-rasm).




**7-pasm. Xorazm viloyati bo'yicha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasini eksponensial funksiya asosida baxolash Manba: Muallif ishlanmasi**

Ushbu rasmga asosan, Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  $y = 802,56e^{0,2128x}$  ko'rinishdagi eksponensial funksiya ko'rinishiga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,9972$  ni tashkil etadi. Determinatsiya koeffitsientining 1 qiymatga juda yaqin natijaga ega bo'lishi modelning to'liq ishonchliligini aks ettira oladi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich darajali funksiya asosida ham baxolanib, uning natijasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (8-rasm):




**8-pacm. Xorazm viloyati bo'yicha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasini darajali funksiya asosida baxolash Manba: Muallif ishlanmasi**

Ushbu rasimga asosan, Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  $y = 614,37x^{1,0125}$  ko'rinishdagi darajali funksiya ko'rinishiga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,8704$  ni tashkil etishi orqali bu funktsiya uchun hisoblangan determinatsiya koeffitsientining 1 qiymatga yaqin emasligi deb qarab, modeldan foydalanishning ishonchliligi kamligini aks ettirishini kuzatish mumkin. Shular qatori ushbu ko'rsatkich qiymati kvadratik funksiya asosida ham baxolanib, uning natijasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (9-rasm):



**9-pacm. Xorazm viloyati bo'yicha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasini kvadratik funksiya asosida baxolash Manba: Muallif ishlanmasi**

Ushbu rasimga asosan, Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  $y = 106,43x^2 - 551,21x + 1992,6$  ko'rinishdagi kvadratik funksiya ko'rinishiga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,991$  ni tashkil etadi. Determinatsiya koeffitsientining 1 qiymatga juda yaqin natijaga ega bo'lishi modelning to'liq ishonchliligini aks ettira oladi.



**10-pacm. Xorazm viloyati bo'yicha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasini chiziqli funksiya asosida baxolash. Manba: Muallif ishlanmasi**

Shuningdek, ushbu ko'rsatkich chiziqli funksiya asosida ham baxolanib, uning natijasi quyidagi keltirilgan rasmdagi ko'rinishga ega bo'ldi (10-rasm).

Ushbu rasmga asosan, Xorazm viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  $y = 938,78x - 1732,4$  ko'rinishdagi chiziqli funktsiya ko'rinishiga ega bo'lib, determinatsiya koeffitsienti  $R^2 = 0,8683$  ni tashkil etgan. Determinatsiya koeffitsientining 1 qiymatga yaqin emasligi bevosita modeldan foydalanishni ishonchligi pastligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyati bo'yicha umumiy chakana savdo aylanmasi hajmi va aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmlarini iqtisodiy-statistik tahlil qilish natijasi ikkita ustuvor yo'nalishlarga ajratilib o'rganildi. Natijada, Xorazm viloyati misolida chakana savdo tovar aylanmasi hajmini exponensiyal va kvadratik funktsiya asosida baxolash o'rinni, deb hisoblaymiz. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo tovar aylanmasi hajmini ham exponensiyal, kvadratik funktsiya asosida baxolash samarali bo'ladi, deb hisoblaymiz.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz>
2. Amit P. and Kameshvari B., (2012), "A Study on Consumer Behaviour of Organized and Unorganized Retail Outlets in Vadodara City" International Journal of Engineering and Management Sciences, Vol. 3, (4), pg 466-474.
3. Tang A., Lim S., (2008), "Retail Operations – How to Run Your Own Store", Pearson Prentice Hall, 2nd Edition., 4. Millstein, Alan G. "2001: A Retail Odyssey." Forecast (March/April 1996), p. 33.
4. Дудакова, И. А. Формирование розничных торговых сетей: эволюция, проблемы, противоречия и перспективы (инвестиционный аспект) Текст. : монография / И. А. Дудакова; под ред.В. П. Федыко / Шахты: изд-во ЮРГУЭС, 2005.-211 с.
5. Васькин Е.В. Инновационное развитие торгового предприятия в современных рыночных условиях: монография/ Е.В.Васькин. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство «Палеотип», 2005. - 132с.
6. I.S. Abdullayev Marketing (Darslik)-T.: «Innovatsiyon rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2020, 324 bet;
7. Якубов А.Ф. Чакана савдо корхоналари рақобатбардошлигини бошқариш тизимини такомиллаштириш PhD автореферати Урганч 2022 58 бет

UO'K 504/ 338. 48

### BUXORO IXTISOSLASHTIRILGAN "JAYRON" PITOMNIGINING EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

*F.A.Fayzieva, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro  
Sh.J.Hayitova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan yangiliklar keltirilgan. Hozirgi kunda ekoturizmni rivojlantirishning yangi imkoniyatlari qurilish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirilishi hamda xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilishning usul va vositalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Pitomnik, Ekoturizm, Ekologik, O'zbekiston, Buxoro, Xorijiy, Mahalliy, Sayyoh, Flora, Fauna, Landshaft, Biologik xilma xillik, Mehmonxona.

**Аннотация.** В статье представлены новости развития экотуризма в бухарском специализированном питомнике «Джайрон». В настоящее время обсуждаются новые возможности развития экотуризма при выполнении строительных и созидательных работ, а также методы и средства привлечения иностранных и местных туристов.

**Ключевые слова:** Питомник, Экотуризм, Экологический, Узбекистан, Бухара, Зарубежный, Местный, Туристический, Флора, Фауна, Пейзаж, Биоразнообразие, Гостиница.

**Abstract.** The article presents the news of the development of ecotourism in the Bukhara specialized nursery "Jayron". Currently, new opportunities for the development of ecotourism in the implementation of construction and creative work, as well as methods and means of attracting foreign and local tourists are being discussed.

**Key words:** Nursery, Ecotourism, Ecological, Uzbekistan, Bukhara, Foreign, Local, Touristic, Flora, Fauna, Landscape, Biodiversity, Hotel.

**Kirish.** Bugungi kunda ekoturizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biriga aylannib ulgurdi. Ekspertlarning fikricha, bu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat

kasb etadi. Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ortiq ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 770 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston ham boy tabiiy resurslar, betakror o'simlik va hayvonot olamiga ega. Ushbu salohiyatni asrash va ko'paytirish maqsadida ko'plab milliy dastur va loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Boisi, mamlakatimizda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiatimizga jalb etish, balki iqtisodiy sharoitni yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Prezident farmoni, 2017 yil 4 maydagi PQ- 2953 sonli "2017-2021 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Prezident Qarorini kiritish mumkin. Mamlakatimiz turizmini rivojlantirishda Buxoro viloyati mintaqasi va undagi Buxoro shahrining o'ziga xosligi muhim o'rin tutadi. Bu esa mintaqaning turizm imkoniyatlarini kengaytirish hamda baholash asosida tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini oshirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi. Mavjud turizm ko'pincha qadimiy shaharlar va tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigida ham olib borilgan kuzatish ishlaridan ma'lum bo'lishicha, tog'li hududlarga xos bo'lgan turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud.

Ekoturizmni rivojlantirishning zarur shart-sharoiti ekoturistik salohiyatining mavjudligi bo'lib, ular noyobligi, ekologik jozibadorligi, davolash- sog'lomlashtirish xususiyatlari, ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadigan tabiiy-ekologik komponentlar, landshaftlar, xo'jalik faoliyati obyektlaridan tarkib topadi.

Buxoro viloyatida joylashgan "Jayron" pitomnigida biologik xilma-xillikni saqlash, hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga hamda dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar natijasida soni kamayib ketayotgan turlarga muhofaza maqomi berildi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni kengaytirilmoqda, hayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratidan keng foydalanish amaliyotga joriy etish boshlandi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanishni ta'minlash" vazifasi belgilab berilgan

**Tadqiqotning maqsadi:** Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, uning ekotizimidagi o'rni, tabiatdagi ahamiyatini baholash. Noyob va yo'qolib borayotgan turlarni ko'paytirish orqali muhofaza qilishning mukammal chora tadbirlarini ishlab chiqish orqali ekoturizmni yo'lga qo'yish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining ekoturizmni rivojlantirishda o'simlik turlari xilma xilligining o'rini aniqlash;
- Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining ekoturizmni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" ga kiritilgan hayvon turlari biologik xilma xilligini o'rganish;
- Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining ekoturizmni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" ga kiritilgan hayronlarni tutqinlikda saqlash borasidagi chora-tadbirlarni joylarda kuzatish va tahlil qilish;
- Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining ekoturizmni rivojlantirishda xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb qilishni tahlil qilish;
- Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining ekoturizmni rivojlantirish uchun mehmonxonalar, dam olish va turli tadbirlarni o'tkazish ishlarini amalga oshirish ishlarini tahlil qilish.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Tadqiqotning ob'ekti – Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigining o'simlik va hayvonot dunyosi.

**Tadqiqot predmeti** Mahalliy va xorijiy sayyohlar u yerdagi mehmonxonalar.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotlar asosan dala, kuzatuv va taqqoslash uslublari asosida va iqtisodiy olinadigan daromadlarni tahlil qilish.

O'simliklar aniqlagichi, hayvonlarning sonini, uning yillik dinamikasini aniqlashda N.Kashkarov (1927), A.Novikov (1949) metodlaridan foydalanildi.

Dala tadqiqotlarini olib borish jarayonida o'simliklardan gerbariyalar tayyorlandi, uzoqdagi hayvonlarni yaxshi ko'rishni ta'minlash maqsadida binokl, ko'rish trubasi, JPS navigator, Canon fotoapparati kabi zamonaviy asbob – uskunalaridan foydalanildi.

So'nggi yillarda biz ekoturizm haqida ko'p eshityapmiz va yangi ma'lumotlarga ega bo'lyapmiz. "Ekoturizm - bu hududning tabiiy va madaniy hamda etnografik xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun, ekotizimlar yaxlitligini buzmaydigan va shunday iqtisodiy sharoitlarni yaratadigan, tabiati inson oyog'i nisbatan tegmagan joylarga sayohatni o'z ichiga olgan turizmdir. Bunda tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun foydali bo'ladi.

Ekoturizm yoki "yashil" turizm mas'uliyatli yoki barqaror turizm sifatida tasniflanadi. "Yashil" turizmning maqsadi tashrif buyurilgan joylarni himoya qilish va mahalliy aholining hayotini qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan turizm xizmatlaridan foydalangan holda yovvoyi tabiat va madaniy qadriyatlarni saqlashga yordam berishdir.

O'zbekiston Respublikasida 1 ta davlat tabiiy pitomnigi mavjud: Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi (Buxoro viloyati, Davlat Ekologiya qo'mitasi tasarrufida). 1976 yilda Buxoro viloyat ijroiya komitet va O'zbekiston davlat o'rmon xo'jaligi komitetining buyrug'i asosida tashkil qilingan. Markaz uchun ajratilgan hudud Qoravulbozor tumaniga tegishli bo'lgan.

Bugungi kunda, Buxoro ixtisoslashgan "JAYRON" pitomningida hayvonlarni parvarishlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Markazning yaratilishi, nafaqat jayronlar, balki boshqa ko'plab noyob o'simliklar, sutemizuvchilar, qushlar, baliqlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar sonining ko'paytirilishiga imkon berdi. Qo'riqxonada, uzun tikonli tipratikonlar va qulonlar, Prjevalskiy otlari va Buxoro tog' qo'ylari, aylanma shoxli echkilar va pushti saqoqushlar, turnalar va oqqushlar, burgutlar va lochinlar, kulrang echkamarlar va O'zbekistondagi cho'l gududlarida yashovchi boshqa ko'plab hayvonlarini ko'rish mumkin. Buxoro ixtisoslashgan "JAYRON" pitomningi (1 – rasm).



**1-rasm. Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomningi**

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi faoliyatida zamonaviy uslublar va texnologiyalardan foydalanish natijasida turlarning sonini hamda ularning yashash muhitining barqarorligini saqlashga erishildi. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida uchrovchi hayvonot va o'simlik turlar ro'yxatini tuzishga, istiqbolli turlarni iqlimlashtirishga O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan turlar sonining kamayib ketishining oldini olishda, biotexnik tadbirlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda hamda amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ekoturizm va uning rivojlanishi nafaqat o'rganilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga bog'liq bo'libgina qolmasdan balki shu hududning tabiiy sharoitiga, unda ekoturistik ob'ektlarning mavjudligiga va ularning geografik o'rniga ham bog'liqdir. Chunki tabiiy sharoit xususiyatlari hududning ekoturistik imkoniyatlarini va uning qaysi turlarini

rivojlantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi. Respublikamiz o'zining turistik resurslari bo'yicha Markaziy Osiyoda oldingi, dunyoda noyob turistik potentsialga ega bo'lgan 10-15 ta davlat orasida joy egallaydi. Uning hududida har xil tarixiy davrlarga mansub noyob arxitektura, tarixiy va tabiat yodgorliklari mavjud. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi mahalliy va xorijlik sayyohlarni jalb qiluvchi asosiy omil bu uning maftunkor tabiati, hayvonot va o'simlik turlarning xilma-xilligi, iqlimi, ob havosi yil davomida dam olish, geografik o'rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Ekologik turizm tabiat bilan kishilarning uzviy bog'liqligi va bevosita muloqotini rivojlantirishga va tabiatda huzur-halovat, madad, quvvat, bilim, tashkil etuvchilarga esa katta daromad olishga umuman ekologik iqtisodiy barqarorlik va muvozanatni saqlagan holda faol dam olishga asoslanadi.

Respublikamizda turizm salohiyatini oshirish bo'yicha M.Pardayev, I.Tuxliyev, G'.Qudratov, A.Eshstayev, O.Xomidov, B.Turayev, D.Usmanova, N.Ibadullayev, R.Amriddinova, B.Safarov va M.Alimovalar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida ilmiy-tadqiqot ishlari u tashkil etilgan dastlabki yillardan beri o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Zoologiya Instituti (1979) va Botanika Instituti, O'simlik va Hayvonot dunyosi genofondi Instituti, AKN Samarqand filiali, Veterinariya Instituti bilan hamkorlikda turli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bundan tashqari Hayitboyev R, Matyaxubov U, Xamidov O, Nig'matov A kabilarning adabiyotlarida atroflicha yoritilgan. Ekomarkaz bo'yicha ilmiy maqolalari hozirda 300 taga etib qolgan. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigi tashkil etilgan dastlabki yillardan Rossiya Tabiatshunoslik ilmiy-tadqiqot intuit (1978), Ekologiya va Morfologiya instuti bilan birgalikda cho'l hayvonlari biologiyasini o'rganish dasturini ishlab chiqilgan. A.N.Seversov nomidagi Geografiya instuti, Biogeografiya laboratoriyasi (rus AKN, 1979) da turli ilmiy ishlar qilingan. Bundan tashqari, Cepreeva T.K, Allcockm A, Jones B, Lane S, Grant J, Zalatan A, Gastom A.R kabilarning adabiyotlarida uchraydi.

1977 yilda Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigining hududiga 42 bosh jayron, 3 bosh Prjevalskiy oti va 4 bosh kulan qo'yib yuborilgan edi. Jayron"pitomnigining ilmiy ma'lumotlariga ko'ra, bu yerdagi chegaralangan hududda 28 o'simlik oilasiga mansub 250 dan ziyod o'simlik turlari o'sadi. Yil davomida markaz hududida 257 turdagi qushlarni uchratish mumkin. Bu esa O'zbekiston ornitofunasining 37 foizini tashkil qiladi. Shular ichidan qushlarning 63 turi in qurib yashaydi, ularning 23 turi noyob hisoblanadi, 20 turi O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan. Bu hududda sudraluvchilarning 21 turi (O'zbekistonda uchraydigan xilma-xillikning 25 foizi), bundan tashqari 33 turdagi sut emizuvchi (O'zbekiston xilma-xilligining 23 foizi), 2 turdagi amfibiya (O'zbekistonning xilma-xilligining 40 foizi), 150 turdagi umurtqasizlar va 15 turdagi baliqlar ham yashaydi.

Eng muhimi, "JAYRON" pitomnigining kelgusi avlod uchun butunlay yo'q bo'lib ketish xavfiga uchragan hayvonlarning noyob turlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi va Markaziy Osiyoda noyob hayvonlarni qirilib ketishdan qutqarish markaziga aylandi.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida qurilgan "Tashrif-markazi" binosi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida yiliga o'rtacha ikki ming nafarga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Ularning 30 foizini xorijiy mehmonlar tashkil etmoqda. Tabiiyki, bu yerda sayyohlar oqimini ko'paytirish, yoshlarni ona-tabiatga mehr-muruvvat ruhida tarbiyalash borasidagi imkoniyatlar katta.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigining ekoturizm salohiyatidan unumli foydalanish va ekoturizmni samarali tashkil etish maqsadida zamonaviy infratuzulma yaratish uchun Davlat Ekologiya qo'mitasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 4,5 mlrdga yaqin mablag' ajratilib, uning hisobiga pitomnikda 20 o'rinli zamonaviy tashrif markazi barpo qilindi. Ana shundan kelib chiqqan holda Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnigida mamlakatimizdagi ana shunday go'shalar orasida birinchi bo'lib tashrif markazi qurilib foydalanishga topshirildi.

Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnidagi bu obyekt muzey, dam olish xonalaridan iborat. Shuningdek, yovvoyi tabiatni yuqoridan turib binokllar orqali tomosha qilish uchun zarur sharoit bor. Tashrif markazi xorijiy va mahalliy ekotadqiqotchilarning samarali ilmiy izlanishlar olib borishlarida ham qo'l keladi. (2-rasm)



### 2-rasm. Tashrif markazi tashqi va ichki ko'rinishi

Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigidagi ushbu bino 3 qavatdan iborat tashrif markazini qurulishi 2020 yilning sentyabr oyida boshlangan bo‘lib 2021 yilning yakuniga qadar qurulish ta‘mirlash ishlari to‘liq yakunlanib foydalanishga topshiriladi.

1-qavatda: qabulxona, 40 o‘rinli konferensiyalar zali, ochiq muzey burchagi, laboratoriya xonasi, 2 ta ma‘muriyat uchun mo‘ljallangan xona, ov qurollarini saqlashga mo‘ljallangan maxsus xona va sanitariya xonalari mavjud.

2-qavatda: bilyard zali va har biri 2 kishiga mo‘ljallangan 10 ta zamonaviy xonalar mavjud. Bilyard (fransuzcha: billiard, fransuzcha: bille - shar) - gorizontaal yuzasiga movut qoplangan to‘g‘ri to‘rtburchak stol, shuningdek shu stolda o‘ynaladigan o‘yin. Billiard Hindiston va Xitoyda kelib chiqqan. XVI—XVIII asrlarda Yevropa (Fransiya)da tarqaldi. Billiard stolining to‘rt burchagi va ikki yonining o‘rtasi teshik bo‘lib, teshiklarga to‘r xaltacha osilgan. Billiard o‘yinida fil suyagidan yoki mastikadan qilingan shar (diametri 61-61,5 mm), pishiq yog‘ochdan yasalgan tayoqcha - kiy (uzunligi 140-150 sm) bilan urib teshikka tushiriladi. Ikki yoki to‘rt kishi tarafma-taraf bo‘lib o‘ynaydi. Hozirgi vaqtda „amerikancha“, „ruscha“, „snuker“ o‘yinlari keng tarqalgan.

3-qavatda: 40 o‘rinli yozgi oshxona mavjud. Shartli ravishda yozgi oshxonalar yopiq va ochiq binolarga bo‘linadi. Birinchi ko‘rinish devorlar, derazalar va eshiklar bilan to‘la bino. Ochiq oshxona - bu tomga pechka, lavabo, stol va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlari o‘rnatiladigan soyabon yoki bejirimdan boshqa narsa emas. Yozgi oshxonaga teras yoki veranda birlashtirilishi mumkin. Bunday me‘moriy ansambl uchun ko‘plab dizayn variantlari mavjud. Oshxona to‘liq yopiq bino sifatida barpo etilgan va shu bilan birga ayvonga ayvon qo‘yilgan. U old eshik bilan devorga ulashgan. Ammo teras alohida sayt sifatida o‘rnatiladi. Bundan tashqari, u nafaqat kirish eshigida, balki oshxona binosining narigi tomonida yoki umuman binoning atrofida joylashgan bo‘lishi mumkin. Veranda va teras ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin. Siz transformator yasashingiz mumkin - yozda ochiladi va qishda yopiladi.

Ayni vaqtgacha barcha infratuzilma maxsus mebel va kerakli jihozlar bilan to‘liq ta‘minlanib, barcha xonalarga konditsionerlar o‘rnatilgan.

Bundan tashqari bino atrofi yuzasi loyihada ko‘rsatilgan shaklda beton qoplama yotqizildi, bruschatka terildi, asfalt yotqizildi. Tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi.

2021 yilning 18 dekabr sanasida ushbu “Tashrif markazi” binosining ochilish marosimi o‘tkazildi. Tadbirda Davlat Ekologiya qumitasi raisi o‘rinbosari Kazbekov Jusipbek Sdikbekovich, Boxilmaxillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar Bosh boshqarmasi boshlig‘i A.Sadikov, Buxoro viloyati Ekologiya borshqarmasining bir guruh xodimlari va Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi xodimlari ishtirok etdi.

Flora va fauna noyob va xilma-xildir. Buxoro ixtisoslashtirilgan “JAYRON” hududida yashaydigan umurtqali hayvonlarning 50 ga yaqin turi va umurtqasiz hayvonlarning 6 turi Milliy va Xalqaro qizil kitoblarga kiritilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrda "Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi 914-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 484 son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2- jild. Toshkent, 2019. – 102 - 175 b.
5. Солдатов Н. Паспорт Бухарского специализированного питомника "Джейран" // 2014. – С. 2-8.
6. Мармазинская Н.В. Размножение джейрана Газелла субгугтурса (*Artiodactyla bovidae*) в Экоцентре "Джейран" // Труды заповедников Узбекистана, Выпуск 1. – Ташкент Изд. "Фан" 1996. – С. 53-62.
7. Солдатов Н.В., Салимов Х.В. Современное состояние, численность, размещение и стратегия охраны популяции джейрана в Бухарской области // Труды заповедников Узбекистана, Выпуск 2. – Ташкент "Мехнат" 1997. – С. 84-94.
8. Yorqulov J., Toshev P. Jayron pitomnigi va unga yaqin hududlarning kamyob qushlari // Tabiiy fanlarning dolzarb masalalari mavzusidagi II-xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. I-bo'lim. – Nukus "NMPI" 2021. — S. 235-238.
9. T.Z.Zohidov Zoologiya ensiklopediyasi, Sut emizuvchilar Toshkent 1960 yil.
10. Rakhmonov R.R., Rayimov A.R. Structure and distribution of animals in the Bukhara region // Nature of inner asia 2019. – № 2 (11). – P. 65-68.

UO'K 330.322:332.1

## HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*J.R.Hoshimov, PhD, Toshkent moliya instituti, Toshkent*

**Annotatsiya.** *Maqolada hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning mazmuni va mohiyati shuningdek, xorijiy investitsiyaga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlari ta'rifi keltirilgan. Xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xorijiy investitsiya, to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiya, YaIM, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar.*

**Аннотация.** *В статье представлены содержание и характер иностранных инвестиций в развитие регионов, а также определения зарубежных и отечественных экономистов относительно иностранных инвестиций. Разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности иностранных инвестиций.*

**Ключевые слова:** *иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, ВВП, предприятие с иностранными инвестициями.*

**Abstract.** *The article describes the content and nature of foreign investments in the development of regions, as well as the definition of foreign and local economists regarding foreign investment. Proposals and recommendations on increasing the efficiency of foreign investments have been developed.*

**Keywords:** *foreign investment, foreign direct investment, GDP, enterprise with foreign investment.*

**Kirish.** Mamlakatlar milliy iqtisodiyotini tashkil etish va davr talabiga hamohang rivojlantirishda har bir iqtisodiy kategoriya o'ziga xos vazifalarni bajarib muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy kategoriyalar tarkibi xilma-xil va rang-barangdir, lekin ularning har biri milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatga ega. Shu maqsadda biz xorijiy investitsiyalar samaradorligini hududlar kesmida ko'rib chiqamiz.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, hududlarni faol ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarga muhim vosita sifatida qaralmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "...iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi" deb ta'kidlagan [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati hamon turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganini ta'kidlab o'tmoq lozim.

Xorijiy investitsiyalar aktivlar egasining to'liq yoki qisman nazorati ostida moddiy boylik yaratish maqsadida foydalanish uchun moddiy va nomoddiy boyliklarni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazilishini anglatadi [2].

Xorijiy investitsiyalar – chet ellik investorlar tomonidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obyektlariga joylashtiriladigan pul qiymatidagi mulkiy va nomulkiy huquqlardir [3].

J.R.Hoshimov tadqiqotida xorijiy investitsiyalarga quyidagicha ta'rif bergan, subyektlar tomonidan nisbatan yuqori darajada foyda olish maqsadida bir mamlakat hududidan mutloq boshqa mamlakat hududiga muayyan muddatga joylashtiriladigan turli ko'rinishdagi boyliklarga xorijiy investitsiyalar deyiladi [4].

F.U.Umarov tadqiqotlarida iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiya jalb qilish ko'lamini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Mamlakat va hududlarning investitsion jozibadorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hududning investitsion salohiyatidir. Iqtisodiyotning rivojlanishi va shakllanishida investitsion salohiyatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lib, bu orqali har qanday investor o'z imkoniyatini belgilashi bilan bir qatorda sarmoyasining kafolatlanganlik darajasini ham aniqlashi mumkin bo'ladi.

Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish bo'icha biz Samarqand viloyatini tanlab oldik va viloyatga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar oqimini yillar kesmda ko'rib chiqamiz 1-jadval.

1-jadval


2017-2021 yillarda Samarqand viloyatiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi, mln. AQSH dollari [6]

№	Hudud nomi	Yillar					2021 yilda 2017 yilga nisbatan o'zgarishi, foizda	2021 yilda jamiga nisbatan o'zgarishi, foizda
		2017	2018	2019	2020	2021		
Samarqand viloyati		186,3	192,0	214,1	225,7	228,7		
<i>Shu jumladan, tuman va shaharlar kesmda</i>								
1	Samarqand sh.	49,2	49,8	53,6	70,94	47,60	96,7	20,8
2	Kattaqo'rg'on sh.	5,8	6,1	7,9	4,26	10,02	172,8	4,4
3	Bulung'ur	5,1	5,5	6,5	3,23	10,75	210,8	4,7
4	Jomboy	9,3	9,2	10,6	25,99	13,63	146,6	6,0
5	Ishtixon	3,9	4,1	4,4	5,13	7,92	203,1	3,5
6	Kattaqo'rg'on	10,5	10,9	12,5	3,00	8,15	77,6	3,6
7	Qo'shrabot	0,7	1,4	0,8	3,26	2,90	414,3	1,3
8	Narpay	0,9	1,3	1,0	6,11	6,51	723,3	2,8
9	Nurobod	12,8	13,6	23,2	9,43	15,54	121,4	6,8
10	Oqdaryo	7,3	7,5	8,6	23,86	3,72	51,0	1,6
11	Payariq	3,3	3,8	3,6	5,28	0,94	28,5	0,4
12	Pastdarg'om	6,3	6,6	7,3	4,63	5,23	83,0	2,3
13	Paxtachi	2,9	3,1	2,2	9,14	14,18	489,0	6,2
14	Samarqand	23,8	24,7	25,8	28,01	29,22	122,8	12,8
15	Tayloq	8,8	8,5	8,7	8,42	28,13	319,7	12,3
16	Urgut	35,7	35,9	37,3	15,07	24,27	68,0	10,6

2017-2021 yillarda Samarqand viloyati iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmining o'zgarishidan shuni ko'rish mumkinki, 2017 yilda viloyat iqtisodiyotiga 186,3 mln. AQSH dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb etilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich o'tgan yillar davomida doimiy o'sib borgan. Jumladan, 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 122,7 foizga o'sib, 228,7 mln. AQSH dollarni tashkil etgan. Shuningdek, viloyatning bir qancha tuman va shaharlari investitsion faol ekanligini ko'rish mumkin.

Xususan, viloyatning investitsion faol tumanlariga Samarqand shahri, Samarqand, Tayloq va Urgut tumanlarini kiritish o'rinlidir. 2021 yilda Samarqand shahri viloyat iqtisodiyotiga jalb etilgan jami xorijiy investitsiyalar hajmida 20,8 foiz, Samarqand tumani 12,8 foiz, Tayloq tumani 12,3 foiz, Urgut tumani 10,6 foiz ulushga egalik qilgan. Bu orqali mazkur hududlarning investitsion faolligida hududlarda joylashgan maxsus iqtisodiy zonalarining ahamiyati salmoqli ekanligidan dalolat beradi.

Hududlarda to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qator yo'nalishlardagi ustunliklar ta'minlanishi va investorning diqqatini jalb qila olish lozim. Shu sababli hududning xorijiy investorlar uchun jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi qo'shimcha omillarni keltirib o'tamiz (1-rasm).



1-rasm. Hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni joylashtirishga ta'sir qiluvchi qo'shimcha omillar [7]

Keltirib o'tilgan omillar bo'yicha hududlar kesimida statistik ma'lumotlarni shakllantirish va har bir ko'rsatkich bo'yicha hududning o'rnini belgilab olgan holda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qaysi yo'nalishda muammolar mavjudligini aniqlash, bu yo'nalishda asosli va to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratib beradi.

Hududlarga xorijiy investitsiya jalb qilishda bugungi kunda quyidagi muammolar sabab investorlar tomonidan viloyatlarga investitsiya jalb qilishda muammolarga duj kelishmoqda. Hududlarda qulay investitsiya muhiti yaratilmaganligi, xususan raqobat muhiti, xususiy mulk daxlsizligi, moliya bozorlari, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasida tizimli muammolarning mavjudligi sababli hududlarga xorijiy investitsiya jalb qilishi yildan yilga pasayib bormoqda. Bundan tashqari, eksport salohiyati yuqori bo'lgan - mashinasozlik, elektrotexnika, metallurgiya, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarida asosiy kapitalni shakllantirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning darajasi pastligicha qolmoqda.

Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yo'naltirilmasligi mamlakatda yuqori darajadagi inklyuziv o'sishga erishish va kambag'allik darajasini qisqartirish kabi maqsadlarga erishish jarayonini xavf ostiga qo'ymoqda. Investitsiya muhitini yaxshilash sohasida asosiy qadam xususiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlar orqali to'liq va samarali institutsional asosni shakllantirish lozim.

**Xulosa va takliflar.** Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin. Mahalliy hokimliklarning xorijiy investorlarni hudud to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmayotganligi xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil, xom-ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir hudud bo'yicha «Viloyat investitsiya salohiyati» veb-portalini tashkil etilmaganligi bilan izohlash mumkin.

Ya'na bir jihatini aytib o'tadigan bo'lsak, tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlarining yetarli darajada emasligi-hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini takomillashtirilmaganligi ko'rishimiz mumkin.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududlar investitsion jozibadorlikni oshirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

— xorijiy investorlarni mamlakatning iqtisodiy-investitsion salohiyati, biznes yuritish uchun yaratigan shart-sharoitlar va huquqiy kafolatlar to'g'risida keng xabardor qilish maqsadida xalqaro anjumanlar va investitsion forumlar tashkil etishni jadallashtirish, bu borada videoroliklar tayyorlash;

— qo'shma korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini hamda ushbu turdagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdorini yanada kamaytirish; maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish ishlarini yanada jadallashtirish, ushbu zonalarga yirik strategik investorlarni jalb qilish;

— O'zbekistonning xarqaro reyting va indekslardagi o'rnini mustahkamlash; chet ellik investorlarga investitsion obyektlarni taqdim etishning samarali tizimini yaratish (axborot bilan ta'minlash, reklama, hukumat va biznes vakillarining qo'shma uchrashuvlari, ishlab chiqarish infratuzilmasi ta'minoti va .k.);

— yirik sanoat sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar, tijorat banklari kabi tashkilotlar ustav kapitallaridagi davlat aksiyalarini chet ellik salohiyatli investorga sotish; davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishga chet ellik investorlarni jalb qilish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi //Xalq so'zi. 2020 yil 29 dekabr.
2. Международное право об иностранных инвестициях | Высшее образование в Кембридже (cambridge.org).
3. Семочкина М. А. Инвестиционная деятельность с участием иностранных инвесторов в Российской Федерации (правовой аспект). Дисс. на соиск. уч. ст. канд. юрид. наук. – М.: МГУ. – С. 152.
4. J.R.Hoshimov. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi Avtoreferati. – T.: TMI, 2022. – 14 b.
5. Umarov F.U. Innovatsion-investitsiya faol tadbirkorlikning muhim omili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil
6. Samarqand viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi ma'lumotlari aosida muallif tomonidan tayyorlangan.
7. Z.T.Raximov. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning ekonometrik modellari bo'yicha Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi Avtoreferati. – T.: TMI, 2022. – 15 b.

UO'K:332.012.322+378.4

### FARG'ONA VILOYATI TURISTIK REKREATSIYA FAOLIYATINING SWOT TAHLILI *D.T.Isroilova, mustaqil tadqiqotchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona*

**Annotatsiya.** Maqolada Farg'ona viloyatining turistik rekreatsiya faoliyati SWOT tahlildan o'tkazilib kelajakda turistik rekreatsiya faoliyatini boshqarishda samarali natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** turist, turizm, rekreatsiya, Covid-2019, pandemiya, SWOT tahlil, OAV.

**Аннотация.** В статье проведен SWOT анализ туристско-рекреационной деятельностью Ферганской области и разработаны предложения, которые в будущем могут привести к эффективным результатам в управлении туристско-рекреационной деятельностью регионе.

**Ключевые слова:** турист, туризм, рекреация, Ковид-2019, пандемия, SWOT анализ, СМИ.

**Abstract.** The article SWOT analysis of tourism recreation activities of Fegana region was carried out and proposals that in the future can lead to effective results in the management of tourist and recreational activities in the region.

**Keywords:** tourist, tourism, recreation, Covid-2019, pandemic, SWOT analysis, Mass Media.

Dunyo turizm industriyasi yil sayin rivojlanib turistik-rekreatsiya xizmatlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Jumladan, 2021 yil natijalariga asoslanadigan bo'lsak turistik xizmatlar eksportining 80%i rekreatsiya hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatni tanitish, yangi xizmat turlarini rivojlantirish maqsadida yurtimizning diqqatga sazovor, tabiiy iqlim resurslariga boy bo'lgan mintaqa va hududlarida turistik-rekreasiya faoliyatini rivojlantirish ayni muddao hisoblanadi.

Farg'ona viloyati qadimdan o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, qulay geografik joylashuvi, iqlimi va g'ozal tabiati bilan mashhurdir. Viloyatning turistik salohiyatini oshirish borasida mahalliy va xukumat idoralari tomonidan yillik dasturlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Natijada viloyatga tashrif buyiruvchi turistlar soni yil sayin ortib bormoqda.

**Farg'ona viloyatiga tashrif buyurgan turistlar soni (2018-2022 yillar)**

Xorijiy turistlar	Yillar	O'lchov birligi	2018	2019	2020	2021	2022
	reja	ming nafar	50,00	230,400	430,40	470,400	300,00
	amalda	ming nafar	75,756	271,763	276,963	338,165	232,100
	bajarilishi	foiz	151,5	118,2	64,4	71,9	77,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2018-2019 yillar mobaynida viloyatga xorijiy turistlarning tashrifi rejadagidan 18% dan 50% gacha o'sgan. Lekin 2020-2021-2022 yillar davomida 35,6% dan 22,6% gacha pasaygan. Bunga asosiy ta'sir etuvchi omil sifatida xalqaro COVID-2019 pandemiyasini olishimiz mumkin. O'rtacha miqdorlar taqqoslamasini hisoblab chiqsak o'rganilayotgan davrdagi (2018-2022) reja bajarilish ko'rsatkichi 80,7 % ni tashkil etgan bo'lib 19,3% ga pasaygan. Jahon miqyosida solishtirsak bu pasayish pandemiya hisobiga tabiiy hol hisoblanadi. Bunday davrda turistik zonalar moliyaviy holatini saqlab qolishning eng maqbul usuli vaqtinchalik o'z faoliyatini boshqa sohaga yo'naltirish hisoblanadi.

Masalan: Farg'ona viloyatidagi bir qancha turistik-rekreasiya markazlari COVID-2019 pandemiya davrida ushbu kasallikka chalingan bemorlarni davolash markazlariga aylantirildi va bu o'sha vaziyatdan chiqishning eng maqbul usuli hisoblanadi.

Har bir hududni tadqiq etishning eng samarali usuli bu uni tahlil etishdir. Tahlilni amalga oshirishda biz jahon miqyosida sinovdan o'tgan SWOT tahlilini qo'llaymiz.

SWOT qisqartmasi birinchi marta 1963-yilda Garvard biznes siyosati konferensiyasida professor Kennet Endryu tomonidan kiritilgan. 1965 yilda Garvard universitetining to'rt nafar professori – Leraned, Kristensen, Endryu va Gut kompaniyaning hatti-harakatlar strategiyasini ishlab chiqish uchun SWOT modelidan foydalanish texnologiyasini taklif qildi.

SWOT bunda S (strengths)-hududning kuchli tomonlari, W(weaknesses) –hududning kuchsiz, zaif tomonlari, O(opportunities) –hududning imkoniyatlari, T(havf-hatar omili) – hududning havf-hatar omili tahlili.

**Farg'ona viloyati turistik rekreasiya resurslarining SWOT tahlili**

<b>S – (strengths) hududning kuchli tomonlari</b>	<b>W (weaknesses) –hududning kuchsiz, zaif tomonlari</b>
Turistlar uchun hududiy havfsizlik darajasining yuqoriligi; qulay geografik joylashuv; shifobaxsh suvlari; toza havo; qadimiy tarixiy yodgorliklar; tabiiy mevalar; hunarmandchilik markazlari; mehmondo'st xalqi; tabiiy atlas, adras matolari; mazali taomlari; malakali turistik xizmatlar ko'rsatuvchi markazlar; qulay mexmonxona xizmatlari; qulay investitsion sharoit;	moddiy-texnik bazasining yetarli emasligi; moddiy-texnik bazasining ma'naviy-moddiy jihatdan eskirganligi; turistik sohada kadrlarning yetishmasligi va qo'nimsizligi; turistik-rekreasiya resurslarida sanitariya-gigiena holati; turistik-rekreasiya markazlarida infratuzilma holatining talab darajasida emasligi va boshqalar.
<b>O(opportunities)–hududning imkoniyatlari</b>	<b>T(havf-hatar omili)</b>
investitsiya kiritish; yangi zamonaviy turistik rekreasiya resurslarini tashkil etish; turistik faoliyat ko'rsatuvchi firmalar malakasini oshirish; turistik xizmatlar ko'rsatuvchi kadrlar salohiyatini oshirish; hudud turistik salohiyatini oshirish uchun davlat subsidiyalarini ajratish;	ekologik muammolar; dunyoning ijtimoiy-siyosiy holati; pandemik vaziyat; raqobatchilardan ortda qolish va boshqa omillarning ta'siri.

SWOT tahlilning ijobiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- universal usul bo'lib, iqtisodiyot va boshqaruvning turli sohalarda qo'llash mumkin;
- bu maqsadlarga qarab tahlil qilinadigan elementlarni erkin tanlashga ega moslashuvchan usul;
- uni operatsion baholash uchun ham, uzoq muddatli rejalashtirish uchun ham qo'llash mumkin;
- tahlilda maxsus bilim va tor profilli ta'limni mavjudligini talab etmaydi.

Kamchiliklari:

- SWOT tahlili faqat umumiy omillarni ko'rsatadi. Maqsadlarga erishish uchun aniq chora-tadbirlar alohida ishlab chiqilishi kerak.

- Ko'pincha, SWOT tahlili asosiy va ikkilamchi omillarni aniqlamasdan, ular o'rtasidagi munosabatlarni batafsil tahlil qilmasdan faqat omillarni sanab o'tadi.

- Tahlil dinamikada rivojlanishni ko'rishdan ko'ra ko'proq statik rasmni beradi.

- SWOT tahlilining natijalari odatda sifat tavsifi shaklida taqdim etiladi, vaziyatni baholash uchun miqdoriy parametrlar ko'pincha talab qilinadi.

- SWOT tahlili sub'ektivdir va uni o'tkazayotgan shaxsning mavqei va bilimiga juda bog'liq.

- Yuqori sifatli SWOT tahlilini o'tkazish uchun turli sohalardan katta hajmdagi ma'lumotlarni jalb qilish kerak, bu esa katta kuch va xarajatlarni talab qiladi.

**S – (strengths) hududning kuchli tomonlari** – boshqa viloyat yoki hududlarga solishtirganda Farg'ona viloyatining rekreatsion resurslar mavjud hududlari tashrif buyiruvchi turistlar uchun eng havfsiz dam olish joyi hisoblanadi. Viloyatga tashrif buyiruvchi turistlar turistik gid hizmatlari ko'rsatiluvchi firmalar taqdim etgan tur doirasida xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular bir tur doirasida sog'lomlashtirish, ma'daniy, tibbiy, tarixiy turizm turlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**W (weaknesses)** – hududning kuchsiz, zaif tomonlari viloyatning rekreatsion faoliyatni rivojlantirishda to'siq bo'layotgan muammolari ham mavjud. Ulardan eng asosiylari rekreatsion resurslardagi moddiy-texnik bazasining yetarli emasligi, mavjudlarini ma'naviy-moddiy jihatdan eskirganligi va turistik-gid hizmatlari ko'rsatuvchi malakali kadrlarning yetishmasligi yoki sohada kadrlar qo'nimsizlik holatining kuzatilishi, hududlardagi infratuzilma holatining xalqaro talab darajasida emasligi, sanitariya-gigienik holatini misol keltirishimiz mumkin.

**O(opportunities)**–hududning imkoniyatlari mavjud va ular mahalliy hokimiyat doirasida yillik rejalar asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, joriy 2023 yilda 240 ta loyiha amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, umumiy qiymati 2323 mlrd so'mni tashkil etadi. Natijada 4492 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilib, loyiha natijasida xizmat ko'rsatish qiymati 695,8 mlrd so'm, budgetga tushumlar 27,8 mlrd so'mga ko'payishi nazarda tutilgan. Aynan Rekreatsion turizm sohasini rivojlantirish uchun umumiy qiymati 1133 mlrd so'mlik 158 ta loyiha ishlab chiqilgan va 2676 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

**T(havf-hatar omili)** – odatda hududning iqlimi, ijtimoiy-siyosiy holati doimo barqaror bo'lib kelgan. 2019 yilda jahon miqyosida tarqalgan Covid-2019 pandemiyasi davrigacha viloyatga tashrif buyiruvchi mehmonlar soni da o'sish kuzatilgan. Xalqaro cheklov kiritilgach mehmonlar soni keskin kamaygan.

SWOT tahlil natijalariga asoslangan holatda shuni aytish mumkinki, Farg'ona viloyati turistik salohiyatini oshirish mumkin. Buning uchun viloyat turizm sohasiga xorijiy-mahalliy investorlarni jalb etish, hudud turistik salohiyatini internet, OAV (Ommaviy axborot vositalari) dan foydalangan holda taqdimotini namoyish etish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Farg'ona viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi statistik ma'lumotnomasi.
2. M.Sharifxo'jayev 100 savolga 100 javob "Menejment" darslik.
3. Internet ma'lumotlari.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURISTIK-REKREATSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI***D.T.Isroilova, mustaqil tadqiqotchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona*

**Annotatsiya.** Maqolada turistik rekreatsiya faoliyatining nazariy asoslari xorijiy – milliy miqyosida o'rganilib, kelajakda mamlakatimizda turistik rekreatsiya faoliyatini boshqarishda samarali natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, diversifikatsiya, rekreatsiya, raqobat, rekreatsion turizm, turistik guruhlashtirish, kurort – sanatoriya, ziyorat rekreatsiyasi, turizm industriyasi, demoekologik tizim.

**Аннотация.** В статье исследуются теоретические основы туристской –рекреации в зарубежно – государственном масштабе и разрабатываются предложения, которые в будущем могут привести к эффективным результатам в управлении туристско – рекреацией в нашей стране.

**Ключевые слова:** туризм, диверсификация, рекреация, соревнования, рекреационный туризм, туристская группировка, курортно-санаторный, паломнический отдых, индустрия туризма, демоэкологическая система.

**Abstract.** In the article, theoretical foundation of tourist recreation are studied on a foreign-national scale, and proposals are developed that can lead to effective results in the management of tourist recreation in our country in the future.

**Keywords:** tourism, diversification, recreation, competition, recreational tourism, tourist grouping, resort-sanatorium, pilgrimage recreation, tourism industry, demoecological system.

Turizm sanoati mamlakatni jahon miqyosida tanitadigan, yangi sivilizatsiya, daromad olib keladigan sohadir. Uning boshqa sanoat turlaridan farqi shundaki, turizm sanoati ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham tarixiy-madaniy yodgorliklar asosida tinimsiz rivojlanib turadi. Turizm sanoati taklifi turistlarning hohish istaklariga qarab moslasha olsagina boshqa mamlakatlar bilan raqobatda o'z o'rniga ega bo'ladi. Yurtimizda iqtisodiyotni rivojlantirish investorlarni mamlakatimizga jalb etishda turizmning hissasi katta. Shu sababli mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida samarali islohotlar olib borilmoqda. Birinchi asos bo'lib turizm sohasidagi qonun ustuvorligini ta'minlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi turizm sohasida o'zining me'yoriy – huquqiy normalariga ega. Bu borada quyidagi asosiy qonun va qonun osti hujjatlarini keltirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 16 – aprelda qabul qilingan “Turizm to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida”gi, 2019 yil 13 avgustdagi PF-5781-son “O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi, 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509 “Kirish turizmini rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi, 2017 yil 5 dekabrda PF-5273-son “Chorvoq erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risida”gi, farmonlari, bir qator qonun va qonun osti xujjatlarida turizm sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlarni ijrosini bajarilishida ushbu ilmiy-tadqiqot ishi amaliy va nazariy jihatdan xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham “Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish” asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Turizmga Jahon turizm tashkiloti 2002 yilda quyidagicha ta'rif bergan – “Turizm iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirishning muhim vositasidir [1].

“Turizm bu insonning dam olish, biznes va boshqa maqsadlarda bir yildan ortiq bo'lmagan muddatlarda odatdan tashqari joylarga sayohat qilish va qolishga qaratilgan faoliyatdir” [2].

Rekreatsiya esa, insoning ishdan holi vaqtda dam olish, zavqlanish uchun qilingan faoliyatidir (Oxford lug'ati) [3].

Rekreatsiya (polyak tilida rekreacja – dam olish, lotin tilida recreation – qayta tiklash ma'nosida) bu: 1) bayramlar, ta'tillar; 2) o'quv muassasalarida dam olish xonasi; 3) dam olish, insonning mehnat jarayonida yo'qotgan kuchini qayta tiklash demakdir. [4]

Rekreatsiya [5] insonlar sog'ligini va mehnatga qobiliyatini dam olish obyektlarida qayta tiklashi, sayyohlik yo'li bilan tabiatning turli maskanlariga borishi, arxitektura va tarixiy yodgorliklarni borib ko'rishiga aytiladi. Rekreatsiya sohalari bir qancha bo'lib, ularga kurort – sanatoriya va boshqa salomatlik ob'ektlarida sog'likni tiklash, sayyohlik yo'li bilan tabiatning go'zal go'shalariga (daryo, ko'l, o'rmon, tog', g'orlar, sharshara va b.) borish, sport bilan shug'ullanish, hamda noyob tarixiy va arxitektura yodgorliklari bilan tanishishlari kiradi.

O'zbek olimasi Z.Usmonovanning tadqiqotlarida rekreatsiya tushunchasini uydan tashqarida, masalan, tabiatga turistik sayohatlarda, sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish muassasalarida dam olish yo'li bilan salomatlikni va ishchi kuchini tiklash ko'rinishida talqin etiladi[6].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda rekreatsiyaga shunday ta'rif berishimiz mumkin – insonning jismoniy, ruhiy, aqliy qobiliyatni qayta tiklashi uchun dam olishga qaratilgan faoliyatidir.

Rekreatsion turizm [7] – dam oluvchilar guruhi, tabiiy va madaniy majmualar, texnik tizim, xizmat ko'rsatuvchilar, boshqaruv organlari kabi rekreatsion ehtiyojlarni ta'minlash guruhlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy-demoekologik tizim hisoblanadi.

Jahon turizm tashkilotining bergan ma'lumotiga ko'ra rekreatsion turizm Jahon YaMM ning 9% i va har 11 ishchidan 1 nafari, 30 000 AQSH dollari bilan baholanadi.

Rekreatsiya asosan ikki turli bo'ladi:

-birinchi holda rekreatsiya kundalik ishlar, insonning ishlab chiqarish faoliyati doirasidan chiqmaydi;

- ikkinchi holda odatiy turmush tarzini uzoq muddatli almashuvini talab qiladi.

Rekreatsiyaning birinchi turi ham, ikkinchi turi ham insonning ijtimoiy maqomidan qat'iy nazar me'yoriy turmush tarzi uchun zarurdir.

Yuqordagi tasniflashga qo'shimcha qilib rekreatsiyani 3 turga bo'lish mumkin:

-ishlab chiqarish faoliyat doirasidan ajralmagan holdagi cheklangan rekreatsiya;

- kundalik turmush tarzidan ajralgan masofaviy rekreatsiya;

- aralash rekreatsiya.

Bugungi kunda insoniyatning stresslarga chidamliligini oshirish va jismoniy holatini qayta tiklashi uchun kundalik turmush tarzidan ajralgan holatdagi tabiiy rekreatsion resurslarda qayta tiklanish maqsadga muvofiqdir.

Turistik-rekreatsiya majmualarining asosiy yo'nalishlari mavjud iqtisodiy adabiyotlarda quyidagicha umumlashtirilgan[8]:

- davolanish rekreatsiya majmualari;

- sport va sog'lomlashtirish rekreatsiya majmualari;

- ong va tafakkurni boyituvchi rekreatsiya majmualari;

- tijorat rekreatsiya majmualari;

- ziyorat rekreatsiya majmualari.

Turistik rekreatsiya faoliyatini yana quyidagi 2 turga ajratish mumkin:

1-yakka turistik rekreatsiya;

2-jamoaviy turistik rekreatsiya

Yakka turistik rekreatsiyada inson jismoniy holati, ruhiyati faqat o'zi bo'lgandagina faoliyatdan zavqlanadi va qayta tiklanadi.

Jamoaviy turistik rekreatsiyada inson jamoa bilan birga dam oladi, zavqlanadi va qayta tiklanadi.

Ko'pincha turizm va rekreatsiya o'rtasidagi farqni aniqlash oson bo'lmaydi, chunki ular bir-biri bilan bog'langan faoliyatdir.

Turizm uydan qandaydir masofada sayohat qilishni nazarda tutadi.

Rekreatsiya esa insonning dam olish faoliyatidir, ish emas.

Dr. O.N Adedeji [9] o'zining "Turizm va rekreatsiya" ma'ruzalar matnida rekreatsiyaning 10 ta muhim foydasini sanab o'tgan:

- 1- Insonga dam olishi uchun yordam beradi;
- 2- Stresslarni cheklaydi;
- 3- Sog'ligingizga ijobiy ta'sir qiladi;
- 4- Ijtimoiy jihatdan ham foyda keltiradi;
- 5- Hissiyotlarni yangilaydi;
- 6- Energiya bilan qayta ta'minlaydi;
- 7- Hayot sifatini oshiradi;
- 8- Vaqtdan samarali foydalanishga o'rgatadi;
- 9- Yangi marralar sari undaydi;
- 10- Eng yaxshi bo'lishga undaydi.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda zamon bilan moslashish, o'z shaxsiy karyerangizni yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, bularning barchasi insonni ma'lum darajada aqliy, ruhiy va jismoniy toliqtiradi. Ish jarayonida yo'qotilayotgan energiyani o'rnini to'ldirish nafaqat insonning o'ziga balki jamiyatga ham foydali hisoblanadi.

Mening fikrimcha rekreatsiyaning foydali jihatlari quyidagilardan iborat:

- Dunyoqarashni kengaytiradi;
- Dam olish uchun imkoniyat beradi;
- Insonni analiz, sintez qilishga undaydi;
- Yangi g'oya, rejalar sari undaydi;
- O'z faoliyatiga yangidan qiziqish, kuch paydo bo'ladi.

Turistik guruhlashtirish – bu hududlarni turistik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, salohiyati, uning rivojlanish darajasi, yillik turistik sig'imi va imkoniyatlari bilan bog'liq sabablar hamda bir-biriga o'xshash hududlarga ajratishdir.

O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar — “Xiva shahridagi Ichan-qal'a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

**2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli**

**KO'RSATKICHLARI**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
1.	O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	5 346	6 041	7 010	8 410	10 010	10 600	11 250	11 810
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSh dollari)	1 041	1 180	1 360	1 620	1 900	2 000	2 080	2 170
3.	Ichki turistlar soni (mingta tashrif)	15493	16 100	17 230	18 806	20 317	21 867	23 404	25 010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	914	1 100	1 620	2 200	2 600	2 800	2 900	3 050
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	41	49	72	95	110	122	124	128
7.	Turoperatorlar soni (nafar)	983	1 100	1 190	1 250	1 320	1 390	1 420	1450

Mamlakatimizda yuqoridagi turistik-rekreatsiya majmualarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yetarlidir. Faqat ularni hududlar bo'yicha turlarda ajratish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, mavjudlarini qayta ta'mirlash, yangi turdagi rekreatsiya majmualarini barpo etish kerak. Ong va tafakkurni boyituvchi rekreatsiya markazlarini tashkil etish kelajakda yaxshi rejalar tuzish uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi nazariyalarga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak turistik-rekreatsiya majmualarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Turistik-rekreatsiya faoliyati to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash;
2. Hududlarning yagona turistik-rekreatsiya markazlarini yaratish;

3. Turistik-rekreatsiya faoliyatini nazorat qiluvchi tuzilmalarni tashkil etish;
4. Foydalanilmayotgan turistik-rekreatsiya resurslarini aniqlash, ishga tushirish;
5. Yangi turdagi innovatsion turistik-rekreatsiya resurslarini hududlarga olib kirish;
6. Turistik-rekreatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun investitsiya kiritish;
7. Hududlarda turistik-rekreatsiya resurslariga xizmat ko'rsatuvchi kadrlar salohiyatini oshirish, o'qitish, malakasini oshirish, qayta tayyorlash tadbirlarini amalga oshirish;
8. Turistik-rekreatsiya faoliyatini rivojlantirishda rivojlangan davlatlar tajribasini milliy qadriyatlarimizga moslangan holatda qo'llashni amalga oshirish;
9. Turistik-rekreatsiya faoliyatida marketing usullarini qo'llashni tashkil etish;
10. Hududlarda turistik-rekreatsiya faoliyatini ko'rsatish uchun xizmat qilayotgan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari yaratish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sachooda Ragoonaden, Tourism and recreation, Assessment of other human activities and the marine environment. Western Indian Ocean.
2. Кусков. А.С, Голубева. В.Л, Одинцова. Т.Н. Рекреационная география. Учебно-методический комплекс.-М.: МПСИ, Флинта. 2005
3. Aliyeva G.I. "Turistik rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari"-Urganch, 2016 yil
4. 2021, Mirzayev A.T "O'zbekiston hududlarida turistik-rekreatsiya obyektlaridan samarali foydalanish mexanizmini takomilashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi 24 b.
5. Hakimov N.H., Jumayev T.J., Ikramova N.I. Iqtisodiy ekologiya. - Toshkent.: TDIU, 2005. – 347 b; Vetitnev A.M., Juravleva L.B. Kurortnoye delo. - M.: KNORUS, 2006. - s 146; Kvartalnov V.A. Turizm. Uchebnik. – M.: Finansi i statistika, 2003. – 320 s; Yakubov O'.SH. Vahobov X. Rekreatsion geografiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, 52 b.
6. Dr. O.N Adedeji o'zining "Turizm va rekreatsiya" ma'ruzalar matni.

UDC 349.422

#### RIGHTS OF FARMERS, FARMS AND LANDSOWNERS

*Z.R. Jaksimova, student, Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies, Nukus*  
*M.S. Abishov, doc., Karakalpak State University, Nukus*

*Annotatsiya. Maqolada fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari uchun qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish, ularning yer maydonlaridan samarali foydalanish va uni chuqur o'rganish haqida ma'lumot berilgan. Ularni nazariy va amaliy jihatdan talab darajasida keltirish nafaqat qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti uchun balki boshqa iqtisod turlari uchun ham muhim o'rin tutadi.*

*Kalit so'zlar: fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari, fermer xo'jaliklarining qayta ishlash, saqlash, tayyor mahsulotlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish.*

*Аннотация. В статье представлена информация о создании благоприятной деловой среды для фермеров, крестьянских хозяйств и землевладельцев, эффективном использовании их земли и ее углубленном изучении. Доведение их до теоретического и практического уровня востребованности важно не только для аграрного хозяйства, но и для других видов хозяйства.*

*Ключевые слова: фермер, владельцы приусадебных и приусадебных участков, переработка, хранение, реализация готовой продукции и оказание услуг.*

*Abstract. The article provides information on the creation of a favorable business environment for farmers, peasant households and landowners, effective use of their land and its in-depth study. Bringing them to the theoretical and practical level of demand is important not only for the agricultural economy, but also for other types of economy.*

*Keywords: farmer, farm and homestead land owners, farm processing, storage, sale of finished products and provision of services.*

It is known that in order to ensure the economic stability of the country and the decent living of the population, the issue of creating a favorable business environment for farmers, peasant farms and landowners, and the effective use of their land occupies a special place. Therefore, during the past

period, a number of reforms were carried out in such directions as the farming movement, comprehensive support of the activities of peasant farms and landowners, and the expansion of agricultural production. As a result, farmers, peasant farms and homestead land owners became the main subjects of agricultural production. Thanks to the reforms, more than 99% of agricultural products are grown on farms and farmsteads. At the same time, the analysis of the work carried out shows that along with the achievements in this field, there are also a number of problems and shortcomings that are waiting for their solution. The Council of Farmers of Uzbekistan, which was established five years ago, failed to adequately fulfill the tasks assigned to it in order to protect the rights and legal interests of farms and further develop the farming movement [1].

It is known that the efficiency of using more than 480,000 hectares of agricultural land at the disposal of the population remains at a low level. Although some landowners have not used these areas for many years and left them neglected, systematic work on changing their attitude towards the land is not being carried out. Parliamentary, representative and public control over the effective use of land areas and homestead plots of farms and peasant farms is not properly established. In setting up multi-sectoral activities of farms, such as processing, storage, sale of finished products and rendering of services, provision of material and technical resources and services to farmers and landowners. There are also problems in the formation of market mechanisms in the field [2].

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to fundamentally improve the system of effective use of agricultural arable land, protecting the rights and legal interests of farmers, peasant farms and homestead land owners" to solve such problems and was adopted in order to implement the tasks defined in the Strategy of Actions on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021. The following priority directions for protecting the rights and legal interests of farmers, peasant farms and homestead land owners and increasing the efficiency of their land use were defined in the decree:

**firstly**, further development of the activities of farmers, peasant farms and homestead land owners, creation of an effective system of protection of their rights and legal interests, improvement of the regulatory legal framework in this field. In particular, in order to further improve the activities of farmers, peasant households and homestead land owners, to increase their responsibility for the effective use of land areas, to the current legal documents, including the Land Code, "On Farming", " Appropriate amendments and additions will be made to the laws on agriculture;

**secondly**, to increase the personal interest and responsibility of farmers, peasant farms and homestead land owners in the effective use of arable land, to create an effective system of parliamentary, representative and public control in this regard. In this direction, autonomous organizations implement goal-oriented practical measures. Permanent control and monitoring of the effective use of land is carried out by self-governing bodies of citizens, councils of local people's deputies and chambers of the Oliy Majlis;

**thirdly**, clearly defining the tasks of state administration bodies, local state authorities, citizens' self-government bodies on ensuring effective use of arable land and strengthening their responsibility.

**fourthly**, creation of favorable conditions for the development of multi-branch farms, strengthening measures for their state support. In this direction, amendments and additions will be made to the relevant legal documents on determining the legal status of multi-sector farms, creating the necessary conditions for them, gradually converting farms to multi-sector farms complex measures are implemented in connection with conversion;

**fifthly**, to ensure the financial and economic stability of farmers, peasant households and homestead land owners, to introduce modern market mechanisms in their interactions with preparation, processing, supply and service organizations. Specific measures will be taken to strengthen the material and technical base of farmers, peasant households and homestead land owners, to continuously provide them with sufficient water for irrigation, and to further improve the activities of agro-firms and preparation organizations;

**sixthly**, "The estate is a source of additional income!" widely promoting the slogan among the villagers and inculcating it in the daily activities of the landowners. In particular, a series of TV

shows, radio broadcasts and press releases, conferences, roundtable discussions and seminar-trainings aimed at improving farming culture are organized in mass media.

**seventhly**, to increase the knowledge and experience of landowners, to develop the system of providing them with the necessary information and information, to widely introduce modern technologies in the field, to improve the activities of farms on the organization of labor relations.

It should be noted that in order to fundamentally improve the system of effective use of agricultural arable land, it is necessary to establish effective mechanisms of representation and public control.

Farming for the production of agricultural products

is a specialized family farm, which ensures the joint work of family members and satisfies the population's demand for agricultural products. Farming is a purposeful activity aimed at growing agricultural products for future sale as goods or for personal consumption on the land area considered as belonging to the household [3].

It should be noted that the state of organization of labor relations in farms does not meet today's requirements, a number of problems remain in the use of new agro-technologies in their activities. In this regard, the government has made a comprehensive plan to increase the efficiency and profitability of agriculture, especially in the mechanization of cotton harvesting, the wide introduction of market infrastructures, innovations, scientific achievements and modern information and communication technologies, as well as further improvement of labor relations in the sector. It is necessary to produce a program of measures.

For the statute to be actionable, it must substantially and unjustifiably interfere with the property interest being asserted. It can be noisy, careless or intentional. For example, in farm liability, a nuisance action is considered intentional, even if it is unintentional, if it is a convenient consequence of the farmer's otherwise protected farming activities.

In short, it serves to protect the rights and legal interests of farmers, peasant farms and homestead land owners, fundamentally improve the system of effective use of agricultural arable land, increase the production and sale of agricultural products, and this opens a wide way to bring reforms in the direction to a new stage.

#### REFERENCES:

1. www.lex.uz- Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 09.10.2017 No. PF-5199.
2. Farm economy. Study guide / O.P. Umurzokov, A.J. Toshboyev, A.A. Toshboyev; responsible editor: Ch. Muradov; Ministry of Higher and Secondary Education of the Republic of Uzbekistan. - T.: "ECONOMY-FINANCE", 2007. 228 pages.
3. Samiyeva Gulnoza Tokhirovna. Theoretical foundations of agricultural research. Scientific electronic magazine "Economy and innovative technologies". #6, November-December, 2021., 6/2021 (№00056) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>.

UO'K 338.432.5

### QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RESURS SAMARADORLIGINING STATISTIK TAHLILI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

*F.D.Jo'rayev, i.f.f.d. dots., QarMII, Qarshi*  
*G'M.Aralov, mustaqil izlanuvchi, QarMII, Qarshi*

**Annotatsiya.** *Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari deganda dehqonchilik, chorvachilik va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ta'sir etuvchi muayyan hududning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Bu xususiyatlar iqlim, tuproq sifati, topografiya, suv ta'minoti va madaniy amaliyotlar kabi omillarni o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, resurs samaradorligi deganda suv, energiya, o'g'it va yer kabi bir birlikdan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati tushuniladi. Resurslardan samaraliroq foydalanish orqali biz chiqindilarni minimallashtirish va qishloq xo'jaligining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Maqolada qishloq xo'jalik*

*mahsulotlar ishlab chiqarishda hududning o'ziga xos xususiyati hamda resurs samaradorlik ko'rsatkichlarining tarmoqni rivojlantirishga ta'siri tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, hududiy xususiyat, resurs samaradorligi, statistik tahlil, yer resursi, ishlab chiqarish toifalari, qishloq xo'jalik mahsuloti, chorvachilik*

**Аннотация.** *Территориальные особенности развития сельскохозяйственного производства определяются как специфические особенности определенного региона, влияющие на производство продукции земледелия, животноводства и другой сельскохозяйственной продукции. Эти характеристики могут включать такие факторы, как климат, качество почвы, топография, водоснабжение и культурные обычаи. Кроме того, эффективность использования ресурсов относится к способности производить более одной единицы продукции, такой как вода, энергия, удобрения и земля. Более эффективно используя ресурсы, мы можем свести к минимуму отходы и уменьшить воздействие сельского хозяйства на окружающую среду. Одним из основных преимуществ эффективности использования ресурсов в сельском хозяйстве является то, что она помогает снизить производственные затраты. В статье анализируются специфические особенности региона и влияние показателей ресурсоэффективности на развитие отрасли по производству сельскохозяйственной продукции.*

**Ключевые слова:** *сельское хозяйство, производство, территориальные характеристики, ресурсоэффективность, статистический анализ, земельные ресурсы, категории производства, сельскохозяйственная продукция, животноводство*

**Abstract.** *Territorial characteristics of the development of agricultural production are defined as specific characteristics of a certain region that affect the production of farming, livestock and other agricultural products. These characteristics may include factors such as climate, soil quality, topography, water supply, and cultural practices. Also, resource efficiency refers to the ability to produce more than one unit of output, such as water, energy, fertilizer, and land. By using resources more efficiently, we can minimize waste and reduce the impact of agriculture on the environment. One of the main benefits of resource efficiency in agriculture is that it helps reduce production costs. The article analyzes the specific characteristics of the region and the influence of resource efficiency indicators on the development of the sector in the production of agricultural products.*

**Keywords:** *agriculture, production, territorial characteristics, resource efficiency, statistical analysis, land resources, production categories, agricultural products, livestock.*

**Kirish.** *Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari deganda o'simlikchilik, chorvachilik va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ta'sir etuvchi muayyan hududning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Bu xususiyatlar iqlim, tuproq sifati, topografiya, suv mavjudligi va madaniy amaliyotlar kabi omillarni o'z ichiga olishi mumkin [1].*

*Ushbu hududiy xususiyatlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga qanday ta'sir qilishi bo'yicha asosiy jihatlarni quyidagicha keltirish mumkin:*

*Iqlim: Turli ekinlar harorat, yog'ingarchilik va quyosh nuri uchun o'ziga xos talablarga ega. Misol uchun, guruch va bug'doy kabi ekinlar ko'p suv va o'rtacha haroratni talab qiladi, tsitrus mevalari esa iliqroq va kamroq suv talab qiladi. Shu sababli, mintaqaning iqlimi qaysi ekinlarni etishtirish mumkinligini va ular qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishini aniqlay oladi;*

*Tuproq sifati: Tuproq unumdorligi va tuzilishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida hal qiluvchi omillardir. Oziq moddalarning mavjudligi, pH darajasi va tuproqning suvni ushlab turish qobiliyati ekinlarning hosildorligiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qumli tuproq yaxshi drenajni talab qiladigan ekinlar uchun, gil tuproq esa ko'p suv talab qiladigan ekinlar uchun mos keladi [2];*

*Topografiya: Mintaqaning relyefi ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun, tepaliklar va yon bag'irlar ekinlarni etishtirishni qiyinlashtirishi va eroziya xavfini oshirishi mumkin. Biroq, xuddi shu xususiyatlar ma'lum ekinlar uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan noyob mikroiklimlarni ham ta'minlashi mumkin;*

*Suvning mavjudligi: Suv qishloq xo'jaligi uchun muhim resurs hisoblanadi va suv resurslari ko'p bo'lgan hududlar odatda bo'lmaganlarga qaraganda samaraliroqdir. Sug'orish tizimlari, daryolar va er*

osti suv manbalaridan foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'sir qilishi mumkin; Madaniy amaliyotlar: Mintaqaning madaniy amaliyotlari va an'analari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ham ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun, ba'zi hududlarda ba'zi ekinlar muqaddas yoki mumkin emas deb hisoblanishi mumkin, bu esa ularni etishtirishni cheklashi mumkin. Bundan tashqari, mintaqada qo'llaniladigan an'anaviy dehqonchilik usullari hosildorlik va barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin [3]. Umumiy olganda, hududning hududiy xususiyatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xususiyatlarni tushunish ishlab chiqaruvchilarga qanday ekinlarni etishtirish, o'z yerlarini qanday boshqarish va hosildorlikni qanday oshirish haqida ongli qaror qabul qilishga yordam beradi.

Resurs samaradorligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu bizning tabiiy resurslarimizni kamsitmasdan uzoq muddatda oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni davom ettirishimizga yordam beradi. Resurs samaradorligi deganda suv, energiya, o'g'it va er kabi bir birlikdan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati tushuniladi. Resurslardan samaraliroq foydalanish orqali biz chiqindilarni minimallashtirish va qishloq xo'jaligining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi [4]. Kamroq resurslardan foydalangan holda, fermerlar suv, energiya va o'g'it kabi mablag'larni tejashlari mumkin, bu esa o'z faoliyatini yanada daromadli qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, resurslar samaradorligi qishloq xo'jaligi tizimlarining barqarorligini oshirishga yordam beradi, ularni atrof-muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga va boshqa muammolarga moslasha oladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida resurslar samaradorligini oshirishning bir qancha usullari mavjud. Masalan, qishloq xo'jaligining aniq texnologiyalari fermerlarga suv va o'g'it kabi resurslardan foydalanishni optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va hosildorlikni oshirishga yordam beradi [5]. Ekinlarni diversifikatsiya qilish va o'zaro ekin ekish ma'lum miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan er va boshqa resurslar miqdorini kamaytirishga yordam beradi, shu bilan birga biologik xilma-xillik va tuproq salomatligini mustahkamlaydi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishda resurslardan samarali foydalanishning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Resurslardan samaraliroq foydalanish orqali biz atrof-muxitga zarar yetkazmasdan, oshib borayotgan global aholini oziqlantirish uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni davom ettirishimizga yordam bera olamiz.

**Materiallar va uslubiyot.** Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda resurslar samaradorligining va hududiy hususiyatning ahamiyati bo'yicha quyidagi manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

FAOning resurslar samaradorligi veb-sahifasi: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) qishloq xo'jaligida resurslar samaradorligiga bag'ishlangan veb-sahifaga ega. Unda mavzu bo'yicha to'liq ma'lumot berilgan, jumladan nashrlar, amaliy tadqiqotlar va boshqa manbalar [6];

Jahon bankining qishloq xo'jaligi bo'yicha global amaliyoti: Jahon bankining qishloq xo'jaligi bo'yicha global amaliyotida qishloq xo'jaligida resurslar samaradorligiga bag'ishlangan veb-sahifa mavjud. U barqaror qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarni boshqarish bo'yicha hisobotlar, amaliy tadqiqotlar va boshqa manbalardan foydalanish imkonini beradi [7];

Global qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi dasturi: Global qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi dasturi past daromadli mamlakatlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi ko'p donorlik trust fondidir. Uning veb-sayti barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha resurslarga, jumladan, resurslar samaradorligi bo'yicha hisobotlar va amaliy tadqiqotlarga kirish imkonini beradi;

Barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha tadqiqot va ta'lim dasturi: Barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha tadqiqot va ta'lim dasturi AQSh Qishloq xo'jaligi departamentining barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotini targ'ib qiluvchi dasturidir. Uning veb-sayti barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha resurslarga, shu jumladan resurslar samaradorligiga oid nashrlarga kirish imkonini beradi [8, 9];

Suv, er va ekotizimlar bo'yicha CGIAR tadqiqot dasturi: Suv, er va ekotizimlar bo'yicha CGIAR

tadqiqot dasturi barqaror qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarni boshqarishga qaratilgan global tadqiqot dasturidir. Uning veb-sayti qishloq xo'jaligida resurslar samaradorligi bo'yicha manbalarga, jumladan hisobotlar, amaliy tadqiqotlar va fermerlar uchun vositalarga kirish imkonini beradi [10];

Agroekologiya bilimlari markazi: Agroekologiya bilimlari markazi agroekologiya bo'yicha resurslar, jumladan nashrlar, amaliy tadqiqotlar va o'quv materiallariga kirish imkonini beruvchi platformadir. U qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish bo'limini o'z ichiga oladi [11];

Qishloq xo'jaligi tadqiqotlari global forumi: Qishloq xo'jaligi tadqiqotlari global forumi qishloq xo'jaligida tadqiqot va innovatsiyalarni targ'ib qiluvchi xalqaro tarmoqdir. Uning veb-sayti barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha resurslarga, shu jumladan resurslar samaradorligiga oid nashrlarga kirish imkonini beradi [12]. Ushbu manbalar qishloq xo'jaligida resurslar samaradorligini yaxshiroq tushunishga va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish bilan birga hosildorlik va mahsuldorlikni oshirish strategiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotda rivojlanish tendensiyalarini tushuntirishning statistik tahlil, omilli va tashxisli tahlil, qiyosiy yondoshuv usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Qishloq xo'jaligida mavjud yer resurslaridan foydalanishdagi o'zgarishlar ularning tarkibidagi nisbatlarni o'zgarishiga olib kelgan bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi mahsulot yetishtirish hajmi, uning o'sish sur'atlarigi o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Dastlab yer resurslardan foydalanish samaradorligini baholash maqsadida har bir gektar ekin maydonidan olinadigan daromadga e'tibor qaratib o'tamoqchimiz (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

**O'zbekiston Respublikasi hamda Qashqadaryo viloyatida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari**

Yillar	O'zbekiston Respublikasi			Qashqadaryo viloyati		
	Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti 2010 yil narxlarida mlrd so'm	Ekilgan jami maydon ming ga	har bir gektar yerga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori mln so'm	Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti 2010 yil narxlarida mlrd so'm	Ekilgan jami maydon ming ga	har bir gektar yerga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori mln so'm
2010	30856,7	3708,4	8,3	1736,2	493	3,5
2011	32757,2	3601,6	9,1	1822,1	478,9	3,8
2012	35123,9	3628,1	9,7	1950,7	478,5	4,1
2013	37458,6	3658,6	10,2	2094,3	494,3	4,2
2014	39808,7	3678,2	10,8	2219,3	499,1	4,4
2015	42256,5	3694,2	11,4	2353,8	494,8	4,8
2016	44918,7	3706,7	12,1	2506,9	493,9	5,1
2017	45346,8	3474,5	13,1	2589,6	472,4	5,5
2018	45422,1	3396,0	13,4	2499,1	463,1	5,4
2019	46921,0	3309,4	14,2	2534,1	443,4	5,7
2020	48183,8	3373,4	14,3	2628,9	455,8	5,8

Ma'lumotlarni yillar kesimidagi taqqoslanuvchanligini ta'minlash maqsadida real qiymatlarga o'tkazildi. Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasida har bir gektar yerdan olinadigan daromad hajmi 8,3 million so'mdan 14,3 million so'mgacha oshgan ya'ni 1,7 barobarga o'sishi kuzatilgan. Ushbu o'sish qishloq xo'jaligini intensivlashtirish natijasi bo'lib, mahsulot yetishtirish hajmi 1,6 barobarga oshgan bo'lishiga qaramasdan ekin maydonlari hajmi 10 foizga qisqarganligi fikrimiz tasdig'idir. Xuddi shu kabi holatni Qashqadaryo viloyatida ham kuzatish mumkin, ya'ni ekin maydoni 10 foizga qisqargan, mahsulot hajmi 1,5 barobarga ortgan natijada har bir gektar yerga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori 1,6 barobarga oshgan.


Shu o'rinda alohida e'tibor qaratishimiz lozimki Qashqadaryo viloyatida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi ancha past bo'lib, 2010 yilda farq 2,4 barobarni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib 2,5 barobarga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sababi Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hajmini nisbatan past sur'atlarga ega bo'lganligidir. Bu kabi yirik farqni kelib chiqishida hududning joylashuvi, uning mahsulot yetishtirishga ixtisoslashuvi, yetishtiriladigan mahsulotlarning ekin maydonlari ulushi kabilar muhim

omillar hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqon natijalariga asoslangan holda viloyatda 2000-2020 yillar davomida asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining maydoni bo'yicha o'zgarishlarni qarab chiqqanmiz. Tadqiqot natijalariga ko'ra 2000 yilda jami don ekinlari ekilgan maydon 209,3 ming gektarni tashkil etib bu ko'rsatkich 2020 yilda 252,7 ming gektarga yetkazilgan, natijada o'sish sur'ati so'ngi yigirma yillikda 120,7 foizni tashkil etdi (1-rasmda keltirilgan).

Texnik ekinlar (jumladan paxta) ekilgan maydon 2000 yilda 175,3 ming gektardan boshqa ekinlarga ajratilishi hisobiga 2020 yilgacha 142,3 ming gektarga kamaygan, farq 33 ming gektar yer maydoniga teng. Bu hozirgi vaqtdagi jami qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan yer maydonining 7,2 foizini tashkil etadi.

Shu yillar davomida eng katta o'sish sur'ati sabzavot, kartoshka va poliz ekilgan yer maydoniga to'g'ri keladi, ya'ni 77,9 foizni tashkil qilgani holda 19,9 ming gektardan 35,4 ming gektargacha oshgan. Ozuqa ekinlari yer maydoni 2000-2020 yillar davomida 55,5 ming gektardan 42,3 ming gektarga kamaygan. Farq 13,2 ming gektarga teng bo'lib, ozuqa ekinlar yetishtirish bo'yicha shu davr oralig'ida viloyatda keskin pasayishlar kuzatiladi. Masalan, 2005 yilda jami ozuqa ekinlari yetishtirilgan yer maydoni atigi 2,5 ming gektarga, ya'ni jami ekin ekilgan yer maydonining 0,5 foizini tashkil etgan. Ma'lumki, dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yer asosiy resurs hisoblanadi. Tabiiy holda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ekin yetishtiriladigan yer maydonining o'zgarishi katta ta'sir o'tkazadi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishda, hosildor va narx rentabelligi saqlanadigan hamda viloyatning eksport salohiyatini ko'taradigan mahsulotlarga ko'proq yer maydonlari ajratish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida 2000-2020 yillarda asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining maydoni, (ming gektar)

Paxta yetishtirishda yalpi hosil va ekin yer maydoni o'zgarishi tahlil qilinganda ekin maydonining 19,3 foizga qisqarishi yalpi mahsulot hosilining 42,5 foiziga pasayishiga olib kelayotgan omillardan biri ekanligi aniqlandi. G'allachilikda 8,2 foizga ekin maydonining qisqarishi, yalpi hosilning 16,6 foizga kamayishiga olib kelmoqda. Bu foiz nisbatlari kartoshka uchun  $2,5 \div 2,2$ , sabzavotchilikda  $2,3 \div 4,8$ , poliz ekinlarida  $2,9 \div 1,6$ , mevachilikda  $1,0 \div 1,4$ , uzumchilikda  $2,2 \div 3,7$  munosabatlarda ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki yalpi hosildorlikning ekin maydoni o'zgarishiga reaksiyasi nisbatan kartoshkachilik va mevachilikda kamroq yuz beradi.

**Muhokama.** Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining so'ngi besh yillikdagi ishlab chiqarish faoliyati tumanlar kesimida o'rganilganda fermer xo'jaligi toifasining jami ishlab chiqarishdagi ulushi Qarshi shahri, Dehqonobod tumani va Chiroqchi tumanlarida oshganligi aniqlandi. Yordamchi dehqon xo'jaliklari toifasining jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidagi ulushi Shahrizabz shahri, Qarshi tumani, Kitob tumani va Shahrizabz tumanida uzluksiz

ko'tarilgan. Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar toifasi bo'yicha ulush ko'tarilishi Kitob tumani, Mirishkor tumani, Nishon tumani, Kasbi tumani, Chiroqchi tumani va Shahrisabz tumanlarida aniqlandi.

Viloyatda chorvachilik rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri dehqon yordamchi xo'jaliklari faoliyati bilan bog'langan. Chorvachilik va parrandachilikda dehqon yordamchi xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib, 2000 yilda yirik shohli qoramollar bosh sonida ulushi 84,5 foizni, qo'y va echkilar bosh sonida ulushi 72,9 foizni, parrandalar bosh sonida ulushi 72,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar 2020 yilda mos ravishda 93,7 foizga, 86,7 foizga va 72,6 foizga teng (2-jadval).

Natijada chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo'jaliklari ulushi oshishi kuzatilgan. Oldingi tahlillardan ma'lumki viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda chorvachilik salmoqli ulushga ega, bundan tashqari hududdagi mavjud tabiiy vaziyat soha rivojini ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan tadqiqot jarayonida aniqlanishicha dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda ham viloyatning salohiyati yuqori bo'lib, sohalarning nisbati o'zgarib turganligi aniqlandi. 2005-2010 yillarda viloyatda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining yarmidan ko'pi aynan dehqonchilik hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, sohaning ulushi 57 foizgacha yetgan.

2-jadval.

2000-2020 yillarda viloyat yordamchi dehqon xo'jaliklarining chorvachilik bo'yicha barcha toifalardagi ulushi (foizda)

Ko'rsatkichlar	Yillar					2020 yilda 2000 yilga nisbatan (foizda)
	2000	2005	2010	2015	2020	
Yirik shohli qoramollar	84,5	93,4	94,3	94,8	93,7	110,9
Shu jumladan, sigirlar	87,8	94,2	95,2	95,0	93,5	106,5
Qo'y va echkilar	72,9	78,5	86,1	88,6	86,7	118,9
Parrandalar	72,8	84,2	79,1	70,6	72,6	99,7

Statistik ma'lumotlar asosida Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari tumanlar kesimida tahlil etilganda jami don mahsulotlari bo'yicha yetakchilikda Chiroqchi tumani yaqqol ajralib turadi. 2010 yilda tumanda 131,5 ming tonna, 2020 yilda 130,4 ming tonna jami don mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bu viloyatdagi jami don mahsulotlari yalpi hosilining mazkur yillar uchun mos ravishda 13,2 va 14,7 foiziga to'g'ri keladi. Don mahsulotlari yetishtirishdagi eng past ko'rsatkich Qarshi va Shahrisabz shaharlarida kuzatiladi, ya'ni 0,02-0,03 foiz atrofida. Tumanlar ichida Dehqonobod tumanida 21 ming tonnaga yaqin past yalpi hosil ko'rsatkichiga ega. Bu ko'rsatkich viloyatdagi jami don mahsulotlari yalpi hosiliga nisbatan o'rtacha 2,4 foizni tashkil etadi.

Kartoshka yetishtirishda eng yuqori ko'rsatkich Shahrisabz tumani hissasiga to'g'ri keladi. 2010 yilda 25,1 ming tonna, 2020 yilda 41,9 ming tonna kartoshka mahsuloti ishlab chiqarilgan. Jami yalpi hosilga nisbatan shu davrlar uchun mos ravishda 25,7 va 23,7 foiz ko'rsatkichga ega. Kartoshka yetishtirishda eng past ko'rsatkich Muborak tumaniga to'g'ri keladi. Tumanda bu yillarda o'rtacha 0,6 ming tonna hosil ko'tarilgan. Bu jami o'rtacha yalpi hosilning 0,4 foiziga teng.

Sabzavot mahsulotlari yetishtirishda eng yuqori ko'rsatkich Kitob tumanida kuzatiladi. 2010 yilda 45,5 ming tonna, 2020 yilda 62,0 ming tonna yalpi hosil yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2010 va 2020 yillarda viloyatda yetishtirilgan jami sabzavotlar yalpi hosilining mos ravishda 14,2 va 12,5 foizini tashkil etadi. Sabzavotchilikda eng past ko'rsatkich Qarshi shahri va Dehqonobod tumaniga to'g'ri keladi. Qarshi shahri bo'yicha o'rtacha yalpi hosil 1,9 ming tonnani, jamiga nisbatan 0,4 foizi, Dehqonobod tumani bo'yicha o'rtacha yalpi hosil 2,5 ming tonnani, jamiga nisbatan 0,6 foizini tashkil etadi.

Oziqbop poliz mahsulotlarini yetishtirishda eng yuqori yalpi hosildorlik Chiroqchi va Koson tumanlariga to'g'ri keladi. Chiroqchi tumanida 2010 yilda 11,9 ming tonna, 2020 yilda 30,9 ming tonna, Koson tumanida esa 13,9 ming tonna va 24,7 ming tonna yalpi hosil yetishtirilgan. Mazkur yillarda viloyat bo'yicha jami yetishtirilgan o'rtacha yalpi hosilga nisbatan Chiroqchi tumanida o'rtacha yalpi hosil ko'rsatkichi 16,8 foizni, Koson tumanida bu ko'rsatkich 15,2 foizni, ikkala tuman bo'yicha 32 foizni tashkil etadi. Poliz ekinlarini yetishtirishda eng past ko'rsatkich Qarshi va Shahrisabz shaharlari hamda Dehqonobod tumanlarida kuzatiladi. Ularning birgalikdagi viloyat bo'yicha oziqbop poliz mahsulotlari jami yalpi hosilidagi o'rtacha ulushi 0,9 foizga teng.

Meva va rezavorlar yetishtirishda Kitob va Yakkabog' tumanlari yetakchilik qiladi. Bu ikkala tumanda viloyat bo'yicha jami meva va rezzavorchilik mahsulotlari yalpi hosilining 30,5 foizi yetishtirilgan. Eng past ko'rsatkich Qarshi va Shahrisabz shaharlariga hamda Dehqonobod tumaniga to'g'ri keladi. Shaharlar va tumanda yetishtirilgan jami meva va rezavor mahsulotlarining o'rtacha yalpi hosili viloyat bo'yicha jami o'rtacha yalpi hosilning 3,5 foizini tashkil etadi.

Uzum yetishtirishda eng yuqori ko'rsatkich Kitob tumanida kuzatiladi. 2010 yilda 17,1 ming tonna, 2020 yilda 37,0 ming tonna yalpi hosil yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich 2010 va 2020 yillarda viloyatda yetishtirilgan jami uzum yalpi hosilining mos ravishda 34,3 va 39,4 foizini tashkil etadi. Uzumchilikda eng past ko'rsatkich Qarshi shahri, Dehqonobod va Koson tumanlariga to'g'ri keladi. Qarshi shahri bo'yicha o'rtacha yalpi hosil 0,07 ming tonnani, jamiga nisbatan 0,04 foizni, Dehqonobod tumani bo'yicha o'rtacha yalpi hosil 0,8 ming tonnani, jamiga nisbatan 0,5 foizni, Koson tumanida o'rtacha yalpi hosil 0,7 ming tonnani, jamiga nisbatan 0,44 foizni tashkil etadi.

**Xulosa.** Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda samaradorlik ancha pastligicha qolmoqda. Bundan tashqari ushbu salbiy nisbatning oshishi kuzatiladi. Sabablarini o'rganishlarimizga ko'ra qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini barqaror o'sish sur'atlari ta'minlangan bo'lishiga qaramasdan, sohalarning mahsulot yetishtirishdagi ulushi ancha beqaror ekanligi aniqlandi. Fikrimizcha hududda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning uzoq muddatli dasturini mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqish, hududga mos bo'lgan sohalarni rivojini ta'minlash xususan, chorvachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, meva, sabzavot va poliz ekinlari maydonlarini kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

Viloyatda qishloq xo'jaligini rivojlanish tendensiyalarini chuqur tadqiq qilish, uning o'ziga xos jihatlarni o'rganish muhim muammolardan biri sifatida qolib kelmoqda. Қишлоқ хўжалиги ҳудудий хусусиятларни инобатга олган ҳолда ривожланувчи иқтисодиёт тармоғи ҳисобланади. Шу сабабали, мазкур тармоқни ривожлантиришда ушбу жиҳатга стратегик кўламда ёндошув зарур.

Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалигида ресурс самарадорлиги юқори эмаслиги, ривожланиш суръатларини секинлаштирувчи асосий омиллардан бири бўлиб қолмоқда. Шу сабабли тармоқда ресурс тежамкор усулларни тадбиқ этиш кўламини кенгайтириш керак. Зеро, бу ҳудудда амалий жиҳатдан ўз исботини топиб бормоқда.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhil Varma; Ajith S. Nath; V Regikumar. An agricultural resources optimization model. 2012 Annual IEEE India Conference (INDICON)/ <https://ieeexplore.ieee.org/document/6420815>
2. Dunstan Gabriel Msuya. Farming systems and crop-livestock land use consensus. // Open Journal of Ecology. Vol.3 No.7 (2013), 9 p.
3. Жураев, Ф. (2021). Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг истикболдаги муаммолари ва уларни эконометрик моделлаштириш. Экономика и образование, (4), 377-385. [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/7647](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/7647)
4. Жўраев, Ф. Д., & Аралов, Г. М. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 36–43. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1684> DOI [10.5281/zenodo.7702123](https://doi.org/10.5281/zenodo.7702123)
5. Жўраев Ф.Д. Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришда ҳудуднинг базавий салоҳиятини аниқлаш жараёнини эконометрик моделлаштириш (Қашқадарё вилояти мисолида) //“Бизнес-Эксперт” иқтисодий илмий-амалий журнал. 8(164)-сон. Тошкент 2021 йил.52–58 б
6. Guan Zhengfei. Econometric analysis of agricultural production: New primal perspectives. Integrating Agronomic Principles. American Journal of Agricultural Economics 88 (2006), in press. <https://edepot.wur.nl/121734>
7. Корсун Н.Ф., и друг. Моделирование и оптимизация в агропромышленном комплексе. Учебно-методическое пособие. Минск : БГАТУ, 2019. – 252 с.
8. Кутбитдинов Ю. Цифровая сельскохозяйственная эволюция. Экономическое обозрение, №3 (231), 2019 / <https://review.uz/post/tsifrovaya-selskoxozyaystvennaya-evolyutsiya>
9. Махматулов, Г. (2022). Аҳолига савдо хизматларини инновацион ривожлантириш салоҳиятини баҳолашда тренд моделларини танлаш мезонлари (қашқадарё вилояти мисолида). Экономика и образование, 23(4), 381-386.
10. Рахимов, А. (2022). Аҳолига яшаш жой ва умумий овқатланиш хизматлари ривожда ички ва ёндош тармоқларнинг таъсирини баҳолаш (Қашқадарё вилояти мисолида). Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(4), 397–402. Retrieved from
11. Жўраев, Ф. Д. (2021). Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қисқа муддатли

прогнозлаштириш. Инновацион технологиялар, (2 (42)), 92-95.

12. Jo'rayev, F. D. Econometric modeling of the development and management of agricultural production based on cluster analysis (on the example of the 584 kashkadarya region). Экономика, (8), 584-590.

13. Аралов, Ф. М. (2022). Ишлаб чиқаришда энгил саноатининг кластер усули инновацион иқтисодийнинг асосий йўналиши сифати. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 138–142.

<http://erus.uz/index.php/er/article/view/498> DOI [10.5281/zenodo.7401352](https://doi.org/10.5281/zenodo.7401352)

14. Juraev, F. D. S. (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agronomic System In A Market Economy. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 49-54.

15. Махматкулов, Г. (2022). Аҳолига савдо хизматларини инновацион ривожлантириш салоҳиятини баҳолашда тренд моделларини танлаш мезонлари (Қашқадарё вилояти мисолида). Экономика и образование, 23(4), 381-386.

16. Rakhimov, A. N., Makhmatkulov, G. K., & Rakhimov, A. M. (2021). Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 21-48.

17. Жўраев Фаррух, & Аралов Файрат. (2023). Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг илғор жаҳон тажрибаси ва уларни ўзбекистонда қўллаш имкониятлари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7832934>

18. Аралов Ф.М. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлар ишлаб чиқариш тизимининг икки асосий масаласини интеграллашув тамойили асосида ечиш алгоритми. Материалы международной научно - практической конференции «инновационные основы сельскохозяйственных и биоэкологических исследований в регионе приаралья» посвящённая 80 - летию заслуженного деятеля науки республики каракалпакстан, доктора сельскохозяйственных наук, профессора, академика мамбетназарова бисенбая сатназаровича 17 марта 2023 года, г. Нукус часть I, III 27-30 б.

19. Жўраев, Ф. Д., & Аралов, Ф. М. (2023). Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг ривожланиш тенденциясини статистик таҳлили. *Research and education*, 2(4), 31–43. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/2870> DOI [10.5281/zenodo.7811602](https://doi.org/10.5281/zenodo.7811602)

UO'K: 654.19:050/070:657.3(575.1)

## АХОЛИНИНГ МОЛИЯВИЙ САВОДХОНЛИгини ОШИРИШДА ТЕЛЕВИДЕНИЙЕНИНГ РОЛИ

*X.Mahmudova, mustaqil tadqiqotchi, boshqarma boshlig'I, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar Universiteti, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Toshkent*

**Аннотация.** *Ushbu maqolada mamlakatimiz televideniyesi hamda xorijiy telekanallar orqali efirga uzatilgan moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy yo'nalishdagi turli dasturlar, xorijiy iqtisodchi olimlarning televizion dasturlar orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari bo'yicha izlanishlari, mahalliy va xorijiy telekanallardagi moliyaviy savodxonlik mazusidagi teleko'rsatuvlar, axborot lavhalari, teledasturlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish jarayonida televideniyaning o'rni va ta'siri, unga qo'yiladigan talablar ham o'rganilgan.*

**Калит со'злар:** *moliyaviy savodxonlik, ommaviy axborot vositalari, televidenie, televizion dasturlar, moliyaviy savodxonlikka oid ko'rsatuvlar va tok-shoular, moliyaviy mahsulot, telekanallar auditoriyasi, moliyaviy ko'nikma, moliyaviy mahorat, moliyaviy instrumentlar, moliyaviy xabarlar, moliyaviy bilimlar.*

**Аннотация.** *В данной статье анализируются различные программы по финансовой грамотности и экономическому направлению, транслируемые на телевидении нашей страны, а также на зарубежных телеканалах, исследования зарубежных ученых-экономистов по вопросам повышения финансовой грамотности населения посредством телевизионных программ, телепередач, информационных стендов, телепередач на тему финансовой грамотности на отечественных и зарубежных телеканалах. В статье также исследуется роль и влияние телевидения в процессе повышения уровня финансовой грамотности населения, требования, предъявляемые к нему.*

**Ключевые слова:** *финансовая грамотность, СМИ, телевидение, телепрограммы, шоу и ток-шоу о финансовой грамотности, финансовый продукт, телеаудитория, финансовые навыки, финансовые инструменты, финансовые сообщения, финансовые знания.*

**Abstract.** *This article analyzes various programs in the financial literacy and economic direction broadcast on the television of our country as well as on foreign TV channels, the research of foreign economic scientists on issues of improving financial literacy of the population through*

*television programs, TV shows, information boards, TV shows on the topic of financial literacy on domestic and foreign TV channels. The article also explores the role and influence of television in the process of increasing the financial literacy rate of the population, the requirements for it.*

**Keywords:** *financial literacy, media, television, television programs, financial literacy shows and talk shows, financial product, TV audience, financial skills, financial instruments, financial messages, financial knowledge.*

**Kirish.** Ommaviy auditoriyaga tezkor, aniq va ravshan shakldagi muhim ma'lumotlarni yetkazish va butun aholini moliyaviy savodxonligini oshirishga qodir bo'lgan asosiy vosita - ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Axborot almashinuvi tezligi va ommaviy axborot vositalarining auditoriyaga ta'siri misli ko'rilmagan darajaga etgan va axborot oqimlari soni kun sayin ortib borayotgan bir paytda, jurnalist murakkab moliya dunyosi va aholi o'rtasida samarali va talab yuqori bo'lgan vositachiga aylanadi.

Televideniye orqali tomoshabin so'z va tasvir uyg'unligini his etgan xolda, moliyaviy instrumentlardan foydalanish, moliyaviy mahsulot va xizmatlar haqidagi qimmatli ma'lumotlar, yangiliklar va axborotni jonli tarzda kuzatish orqali moliyaviy bilimlarini oshirish imkoniga ega bo'ladi. Bu o'rinda ko'plab davlatlar tajribasida an'anaviy televideniye Internet bilan transformasiya qilinishi salmoqli natijalarga olib kelganligini e'tirof etish kerak.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu mavzudagi dastlabki tadqiqotlar materiallari 1999 yildan e'tiboran chop etila boshlandi. Iqtisodiyot jurnalistikasi, OAV va televizion loyihalarda moliyaviy savodxonlik masalalarining yoritilishi bilan bog'liq mavzular A. Levitt, R. Islam, U. Dankerli, B. O. Nelli, E. Zamvolt, M. Gatter, Dj. Bechmanb, O. Vixrova, A. V. Zelentsova, E. A. Bliskavka, D. Demidov tomonidan tadqiq etilgan.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarining ommaviy axborot vositalari orqali amaliyotga joriy qilinishi kambag'allikni qisqartirish va unga qarshi kurashishning muhim mezon ekanligi haqida mahalliy olimlar N. Jumayev, O. Do'stmuxammedov, A. Vaxobov, M. Obilov, D. Tajiboyeva kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotning maqsadi moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta'limni yaxshilash borasidagi televideniye dasturlarini amalga oshirishning milliy va xalqaro tajribasini tahlil qilish orqali televideniye moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayonidagi rolini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tanlab tadqiq qilish usullari qo'llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Televideniye - ommaviy axborot vositalari orasidagi eng keng tarqalgan va aholini zarur moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash borasidagi arzon vositadir. U moliyaviy ta'lim berish funksiyasi jihatidan, butun dunyo bo'ylab kundalik yangiliklar va ko'ngilochar dasturlar, tok shoular shaklida juda foydali bo'lishi mumkin.

Aholining moliyaviy bilimlarini shakllantirishda televideniye afzalliklarini quyidagi jihatlarida ko'rish mumkin:

1. Moliyaviy instrumentlar va bank mahsulotlari, sug'urta, kredit, ipoteka, subsidiya, omonatlar borasidagi moliyaviy xabarlar va yangiliklarni birinchilardan bo'lib etkazuvchi arzon axborot tarqatish vositasi.

2. Ta'lim va axborot manbai. Funksiyasi jihatidan televideniye ta'lim va axborot tarqatishning muhim manbaidir.

3. Moliyaviy ko'nikmani shakllantirish. Televideniye moliyaviy malakani riojlantirish va mahoratni oshirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Turli mavzulardagi moliyaviy savodxonlik dasturlari orqali uydan chiqmasdan bank kartasi ochish, onlayn omonat qo'yish, mobil ilova orqali bankka bormasdan kredit olish kabi ko'nikmalar odamlarni bank-moliya sohasida yangiliklarni o'rganishga va amalda sinab ko'rishga undaydi.

4. Moliyaviy savodxonlik borasidagi televideniye dasturlar aholi uchun muhim motivasiya vazifasini bajaradi. Telekanallar o'z auditoriyasiga ko'ra, eng yaxshi biznes motivasion ma'ruzachilarning nutqlari va tok-shoulardagi ishtirokini namoyish etadi.

5. Televideniya efirga uzatiladigan moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlar va ko'rsatuvlardan turli moliyaviy piramidalar, soxta saytlar, soxta ilovalar orqali firibgarlik va kiberhujumlar haqida ogohlantiruvchi, bu borada xabardorlikni oshirish va ularning oldini olishga qaratilgan ma'lumotlarni bilib olish mumkin.

6. Televideniye orqali efirga uzatiladigan dasturlar oilaviy muxitda moliyaviy aloqalarni mustahkamlashi mumkin. Chunki barcha oila a'zolari film yoki sevimli shou dasturlarini tomosha qilib, turli biznes g'oyalar va yangi moliyaviy rejalar atrofida birlashadilar.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish borasida televideniye ham bir qator kamchiliklariga ega:

1. Turli kompaniyalar televizion reklama orqali mijozlarni yo'naltirishning yashirin dasturiga ega ekanligi. Har bir televizion dasturlarda ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlari va brendi haqida ma'lumot uzatish orqali mijozlarni jalb qilishga urinayotgan reklamalar mavjud. Teletomoshabin esa ko'p xollarda bu mahsulotlarning zarari haqida ma'lumotga ega bo'lmaydi.

2. Mahsulot va xizmat ko'rsatish sohasi reklamalarining barchasi ham haqiqiy emasligi va tomoshabin bunga osongina aldanib qolish ehtimoli borligi. (Masalan, Xitoyning "Guanjou" klinikasi haqidagi reklama roligi deyarli barcha davlat va tijorat telekanallarida praym-taym vaqtida efirga uzatilgan [1]. Oxir-oqibatda bu klinika huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan yopilib, tergov qilinib, jinoyat ishi sudga oshirilgan.)

3. Televizion dasturlar va reklamalarda moliyaviy mahsulot va xizmatlar haqida to'liq ma'lumot berilmasligi. Masalan, telekanallarda berilayotgan "TBC bank bilan tezda kredit oling" kabi reklama roliklarida bankdan oson kredit olish mumkinligi aytiladi [2]. Natijada teletomoshabinlar bankning kredit mahsuloti haqida faqat foizi va summasi haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi xolos. Kredit olish jarayonidagi kafil yo garov talab qilinishi yoki kredit oluvchining yosh chegarasi haqidagi ma'lumotlardan esa bexabar bo'ladi. Bankning bunday talablariga esa faqat kredit olish jarayonida duch kelinadi. Bu o'rinda informatsiya bir tomonlama xarakter kasb etadi.

Har kuni o'rta yoshli erkak real vaqt rejimida televizor ko'rish uchun o'rta hisobda 115 daqiqa vaqt ajratishini, bitta ayol esa o'rta hisobda 177,7 daqiqa vaqtini televizor qarshisida sarflashini hisobga oladigan bo'lsak [3], televizion moliyaviy dasturlar va moliyaviy savodxonlikka oid ko'rsatuvlar va tok-shoularning aholi moliyaviy bilimlarini oshirish jarayonidagi xissasi salmoqli bo'lishi mumkin.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish jarayonida televideniye repertuarining spektri ijtimoiy reklama, axborot dasturlari, tok-shoular, seriyali dasturlar kabi shakllarni o'z ichiga olishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda aholining turli toifalari va muayyan maqsadli auditoriyaga qaratilgan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikdagi dasturlar talaygina. Ularning aksariyati maktab va oliy ta'lim tizimiga, boshqalari esa iqtisodiy jihatdan faol aholi qatlamiga, boshlang'ich tadbirkorlarga va kichik biznes vakillariga qaratilgan. Ushbu maqsadli guruh uchun asosiy e'tibor kundalik shaxsiy byudjetni boshqarish va moliyaviy rejalashtirish hisoblanadi [4]. Misol tariqasida Gollandiyadagi "Stay positive" va Buyuk Britaniyadagi "Money Help" dasturlarini keltirish mumkin.

So'ngi yillarda moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida televizion Internet dasturlaridan keng foydalanilmoqda. Ular orasida ayniqsa Evropa Ittifoqi hududidagi Dolseta dasturi e'tiborga molik hisoblanadi [5]).

Yuqoridagi 1-chizmada dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan va import qilingan go'sht va go'sht mahsulotlarining ishlab chiqishdan iste'molchigacha bo'lgan zanjirda qatnashadigan ishtirokchilar va ular o'rtasida bog'lanishlar hamda iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish yo'nalishlari aks ettirilgan. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan go'sht mahsulotlarini katta qismini sotish uchun ishlab chiqaradi va tegishli yo'nalishlar bo'yicha keyingi bosqichga yuboriladi. Tadbirkorlar, go'sht mahsulotlarini saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalar (go'sht

mahsulotlarini saqlaydi, go'sht mahsulotlarini qayta ishlab tayyor va yarim tayyor mahsulotga aylantiradi) go'sht mahsulotlarini dehqon va tomorqa xo'jaliklaridan hamda o'rtakashlardan qabul qilib, ijtimoiy muassasalarga, iste'molchilarga sotishadi va eksport qilishadi. O'rtakashlar go'sht mahsulotlarini dehqon va tomorqa xo'jaliklaridan sotib olib tadbirkorlarga, go'shtmahsulotlarini saqlovchi yoki go'sht mahsulotlarini qayta ishlovchi tashkilotlarga sotish bilan birga iste'molchilarga ham sotish bilan shug'ullanadi.

O'rtakashlar asosan dehqon va tomorqa xo'jaliklardan chorva mollarini arzon narxlarda sotib olish va qimmat narxda sotish bilan shug'ullanishadi. Buning natijasida go'sht mahsulotlarining narxlarida o'sishi hamda dehqon va tomorqa xo'jaliklari daromadlarining pasayishiga olib kelishmoqda. Bu chizmadan ko'rinib turibdiki dehqon va tomorqa xo'jaliklari ishlab chiqarayotgan go'sht mahsulotlarini sotishda tartibga solingan tizim mavjud emas. Bu o'z – o'zidan go'sht mahsulotlarini ishlab chiqishga tusqinlik qilishi hamda dehqon va tomorqa xo'jaliklarini go'sht ishlab chiqarishga ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin.

Hukumat tomonidan dehqon va tomorqa xo'jaliklari aholisini daromadlarini oshirish, bandligini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari bo'lgan talabini qondirish, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yaxshilash va qayta ishlash sohasida ilg'or xorijiy texnologiyalarni faol joriy etishga qaratilgan. Respublikamizda qishloq xo'jalik sohasida so'ngi olti yil ichida chorvachilik sohasida chorva mollarini oziqa bazasini takomillashtirish, chorvachilik mahsulotlar ishlab chiqish va sotish zanjirida qulay sharoitlar yaratishga juda katta e'tibor qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin (1-Jadval).

O'zbekiston Respublikasida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashchi huquqiy hujjatlar xronologiyasi barcha xo'jaliklari qatori dehqon va tomorqa xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish zanjiridagi tizimlarni takomillashtirishga qaratilgan. Chorvachilik tarmog'idan keladigan daromadlarni oshirish, aholi bandligini ta'minlash hamda sohani barqaror rivojlanishi ushbu hukumat qarorlarini bajarilishi bilan bog'liqdir.

**Adabiyotlar qiyosiy tahlili asosida takliflar.** An'anaviy oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjiri mexanizmini takomillashtirish va aholi soning yildan yilga o'sib borishi, ularning ish bilan ta'minlanish hamda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini, ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash, agrar sohada aholining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning daromadlarini oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi. 2050 yilda dunyo aholisi 9,3 milliardga etadi va 60% dan ortig'i shaharlarda yashaydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'sha vaqtga kelib dunyo miqyosida go'sht iste'moli bugungi kunga nisbatan ikki baravar ko'p bo'ladi. Shuni inobatga olish kerakki, bugungi kunda Respublikamizda aholining 49,1% yoki 17689,2 ming kishi qishloq aholisi hisoblanadi. Chorvachilik sohasida rivojlantirish bo'yicha birqancha respublikamiz va dunyo olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, "Osiyo mintaqasida chorvachilik qishloq xo'jaligiga katta hissa qo'shadi, aholini go'sht, sut tuxum va parranda go'shti va dehqonchilik tarmog'ini go'ng bilan ta'minlash bilan bir qatorda qishloq aholisi uchun kunlik pul daromadlarini tashkil etadi". Chorvachilikda yuqori daromad olishning asosiy omillaridan biri bu chorva uchun ozuqa bazasi hisoblanadi, chunki chorva mahsuldorligining 70% ozuqa bazasiga bog'liq. Dunyo tajribasidan ma'lumki, yirik shoxli qoramollarni ozuqlantirishda bir kunlik ozuqasi uning tirik vaznining 10% ni tashkil etishi lozim. Yuriy Naumov va Igor' Pugach xorijiy olimlar IAMO loyihasi doirasida O'zbekistonda chorvachilik tarmog'ida olib borilgan ilmiy ishlarida "... chorvachilik mahsulotlarining asosiy muammolaridan biri chorva mollarining soni va ularni saqlash uchun mavjud resurslarning nomutonosibligidir". Ko'pgina dehqon xo'jaliklari yer maydonlari cheklanganligi bois, chorva mollari uchun yetarli ozuqa ishlab chiqara olmaydi. Shu sababli dehqon va tomorqa xo'jaliklarida chorva mollari asosan somon va makkajo'xori bilan boqilishidagi bunday ratsion ozuqaning to'yimlilik nuqtai nazaridan nomaqbul hisoblanadi. Chorvachilikda mahsulotlar yetishtirish, ularni arzon ozuqa bilan ta'minlash, aholi ekologik sof chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishda mavjud yaylovlardan samarali foydalanish juda muhim dolzarb masalalardan hisoblanadi. "Chorvachilikda iqtisodiy samaradorligini oshirish

ko'plab omillarga bog'liq" ligini "ularning ichida eng asosiysi yem-xashak xarajatlari" ekanligini aniq ma'lumotlar asosida hamda xo'jaliklarda qoramol yetishtirish xarajatlari va daromad tarkibiy qismlari ni tahlil qilishga katta hissa qo'shishgan. Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda yem-xashak bilan birga iqlim o'zgarishi ham o'rganilgan. Butun dunyo bo'ylab go'shtli qoramollar odatda ochiq havoda boqiladi, natijada tabiiy sharoitlarga ta'sir qiladi va faqat cheklangan darajada uy-joy tizimlarida saqlanadi. Respublikamizda 2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra yirik shoxli qoramollarning 91,3% yoki 12664,9 ming boshi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga hissasiga to'g'ri keladi. Hayvonlar salomatligi uchun 15 dan 29°C gacha bo'lgan haroratlar o'sish samaradorligiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, lekin 30°C dan yuqori salbiy ta'sirlar kunlik vazn ortishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'pgina qishloq jamoalarida chorvachilik kambag'allarning yagona boyligidir, lekin u iqlim o'zgaruvchanligi va ekstremallarga juda zaifdir. Buning natijasida chorvachilik sohasi uchun xizmatlarni tashkil etish zarur deb hisoblanadi. Chorvachilik xo'jaliklari goeografik jihatdan tarqoq joylashganligi tufayli aksariyat hollarda chorvachilik sohasi uchun xizmatlarni tashkil qilish, xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlari uchun iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi deb hisoblaydi. Xorijlik olimlar Janubiy Afrikaning dehqon xo'jaliklari uchun chorva mollari daromadi va uy xo'jaliklarining faravonligi o'rganishgan. Yirik shoxli qoramollarni erkaklar, parrandalarni esa ayollar saqlashgani ma'lum bo'lgan. Shuning uchun erkaklar ayollarga qaraganda kattaroq daromad olishgan. Chorvachilik fermer xo'jaliklarining daromadlariga ta'sir qiluvchi omillar sifatida yoshi, jinsi, oilaviy holati, ma'lumot darajasi, yirik shoxli qoramollar soni, parrandalar soni ta'sir qiluvchi omillar deb ta'kidlashgan. Xorijlik olimlarning ta'kidlashishicha "..... barcha xonadonlarda chorvachilikdan keladigan daromadlar uy xo'jaliklarining umumiy daromadining qariyb 28% ni tashkil etadi, ammo taqsimlash va chorva mollari daromadlariga bog'liqlik odamlar guruhiga qarab farqlanadi. Asosan chorvachilikdan keladigan daromadlarning ta'siri kam ta'minlangan uy xo'jaliklari uchun katta ta'sir ko'rsatishi va potensial yashash hamda chorva mollari saqlashni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish kerak" deb hisoblashadi. Chunki, "dehqon xo'jaliklarida chorva mollari naqt pul daromadlari sifatida va tirikchilik uchun saqlashadi, ular go'sht, sut, go'ng va dafn marosimi yoki tibbiy to'lovlar kabi oilaviy favqulotda vaziyatlar paytida xavfsizlik tarmog'i" deb hisoblashadi.

**Muhokoma va xulosalar.** Olib borilgan tadqiqotlarda oziq-ovqat xavfsizlikni ta'minlashda chorvachilik mahsulotlarining qanchalik ahamiyatligi bilan birga chorvachilikdan keladigan daromadlarni oshirishda muhim o'rin tutishi aniq ko'rsatib berilgan. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqariladigan va sotiladigan chorvachilik mahsulotlarini tizimni takomillashtirish maqsaga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, asosiy ishlab chiqaruvchilarga qaraganda boshqa institut vakillari katta foyda olishmoqda, buning natijasida iste'molchilarga sotilayotgan chorvachilik mahsulotlari qimmatroq narxlarda sotilmoqda.

Respublikamizda dehqon va tomorqa xo'jaliklari yer maydonlari cheklanganligi, yaylovlarning holati oxirgi yillarda iqlimning o'zgarishi, yog'ingarchilikni kamligi sababli chorva mollari oziqa bazasida muammolar mavjudligi ta'kidlandan. Go'sht etishtirish uchun parvarishlanayotgan chorva mollari katta qismi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida bog'lab boqish usulu yordamida boqilayotganini hisobga olsak, belgilangan miyorlarda oziqlantirish va chorva mollari saqlanayotgan molxona haroratini belgilangan haroratda bo'lishi zarurligi ko'rishimiz mumkin.

Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida chorvachilik tarmog'idan keledigan daromadlarni oshirish, aholi bandligini oshirish, aholini tuyimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda, chorvachilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda oziqa bazasini, chorvachilik mahsulotlarini sotish tizimlarini takomillashtirish hamda innovatsiyalarni joriy qilish kelgusida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining rivojiga hissa qo'shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro taraqqiyot uyushmasi hamda xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida "Chorvachilik sohasini rivojlantirish (2-bosqich)" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023 yil 5-iyuldagi PQ-211-sonli Qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada go'sht, jun va sut yo'nalishidagi mayda shoxli mollarni ko'paytirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022 yil 26 apreldagi PQ-224-sonli Qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"

4. 2022 yildagi 8-fevraldagi PQ-121-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022 yil 8-fevraldagi PQ-120-sonli Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanadan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 3-fevraldagi PQ-5017-sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nimozni tasdiqlash haqida" 2021-yil 7-iyuldagi 434-sonli Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 3-iyuldagi 4776-sonli Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 7-noyabrdagi 4512-sonli Qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 18 martdagi 4243-sonli Qarori
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 845-sonli Qarori
12. M.M.Primqulov "Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish intensive usullardan samarali foydalanish" International journal of agrobiotechnology and veterinary medicine Volume:02 Issue: 05/2023
13. Browne, N., Kingwell, R., Behrendt, R., Eckard, R., 2013. The relative profitability of dairy, sheep, beef and grain farm enterprises in southeast Australia under selected rainfall and price scenarios. *Agric. Syst.* 117, 35–44
14. X.Пардаев, Ш.Ҳасанов "Озик-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш занжири субъектлари ўртасида иқтисодий муносабатларни такомиллаштиришнинг назарий асослари" Илмий-амалий Агроиқтисодиёт журнали 1(15) 2020 йил.
15. S.A. Maxmadiyoroova "Mamlakatimizda dehqon xo'jaliklari tashkil etishni qo'llab quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar" *Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789*
16. Cohen, J.E., 2001. World population in 2050: assessing the projections. *Conference Series-Federal Reserve Bank of Boston*, 46,pp.83-113.
17. A. Ali and M. A. Khan "Livestock ownership in ensuring rural household food security in Pakistan" *The Journal of Animal & Plant Sciences*, 23(1): 2013.
18. Б.О.Абдолниёзов «Чорвачилик асослари» Тошкент шаҳри. "Noshir" 2010 й.
19. Ugo Pica-Ciamarra, Luca Tasciotti, Joachim Otte, Alberto Zezza "Livestock assets, livestock income and rural households Cross-country evidence from household surveys" *ESA Working Paper No. 11-17 July 2011*
20. Юрий Наумов, Игорь Пугач "Проблемы и перспективы развития животноводства в Узбекистане" *Leibniz Institute of Agricultural Development in Transition Economies (IAMO) 2019.*
21. Ю.Б.Юсупов, Ц.Лерман, А.С.Чертовичкий, О.М.Ақбаров "Ўзбекистонда чорвачилик: бугунги ҳолат, муаммолар ва тараққиёт истиқболлари" Қарши шаҳри. "Насаф" нашриёти -2010 й.
22. Ж.Сауханов, Ж.Атаев "Гўшт етиштиришда яйловлардан фойдаланиш самарадорлигини экономитрик баҳолаш" *AGRO ILM журнали №2. 2020 йил.*
23. Р.Ҳакимов Ўзбекистон Республикаси чорвачилик маҳсулотлари бозори ва тармоқда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўналишлари. Монография. – Т.:ЧП Воеводина В.Н. 2005. – 124 б.
24. Le Thi Thanh Huyen, Pera Herold, A. Valle Zarate "Farm types for beef production and their economic success in a mountainous province of northern Vietnam" *Agricultural Systems* 103 (2010) 137–145
25. A.Nardone, B.Ronchi, N.Lacetra, M.S.Ranieri, U.Bernabucci "Effects of climate changes on animal production and sustainability of livestock systems" *Livestock Science* 130 (2010) 57-69.
26. Mitloehner, F.M., Morrow, J.L., Dailey, J.W., Wilson, S.C., Galyen, M.L., Miller, M.F., McGlone, J.J., 2001. Shade and water misting effects on behavior, physiology, performance, and carcass traits of heat-stressed feedlot cattle. *J.Anim.Sci.* 79,2327-2335.
27. Thornton, P., Herrero, M., Freeman, A., Mwai, O., Rege, E., Jones, P. & McDermott, J., 2007. Vulnerability, climate change and livestock – Research opportunities and challenges for poverty alleviation. *SAT eJournal* 4 (1), 1-23.
28. Қўччиев У.М. "Чорвачилик хўжаликларига хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш" Иқт.фан.док.(DSc) дис. автореферати 2020 й.
29. L K Mabe, M A Antwi and O I Oladele "Factors influencing farm income in livestock producing communities of North-West Province, South Africa" *Livestock Research for Rural Development* 22 (8) 2010.
30. Tamika Du-Ponta, Sebokuhle Mandisa Nonzwakazi Vilakazia, Gladman Thondhlanaa,\*, Pål Vedeldb "Livestock income and household welfare for communities adjacent to the Great Fish River Nature Reserve, South Africa" *Environmental Development* 33 (2020) 100508
31. Shackleton, C.M., Shackleton, S.E., Netshiluvhi, T.R., Mathabela, F.R. , 2005. The contribution and direct-use value of livestock to rural livelihoods in the Sand River catchment, South Africa. *Afr. J. Range Forage Sci.* 22 (2), 127–140.:
32. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qumitasining ma'lumotlari, [www.stat.uz](http://www.stat.uz) 2022 yil

**RAQAMLI IQTISODIYOTNING ZAMONAVIY HAYOTDA TUTGAN O'RNI***U. Shamuratov, talaba, Urganch Davlat Universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** *Hammamiz bilamizki, XXI asr texnika va texnologiya asridir. Bu texnologiya asrida barcha sohalar zamonaviy va raqamli tarzda ishlaydigan tizimni taqozo qilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot, ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazib kelmoqda. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. So'ngi vaqtlarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marta qo'llanilmoqda.*

*Demak, ushbu maqola raqamli iqtisodiyot haqida bo'ladi. "Raqamli iqtisodiyot nima?", "Raqamli iqtisodiyot vazifalari va maqsadlari", "Raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishdagi to'siqlar" kabi muhim savollarga javob izlashga harakat qilamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Raqamli iqtisodiyot, raqamli tibbiyot, raqamli hukumat, kriptovalyuta, 3D printer, Yandex taxi, internet banking, internet reklama.*

**Аннотация.** *Все мы знаем, что 21 век – это век техники и технологий. В наш век технологий всем отраслям требуется система, которая работает в современном и цифровом ключе. На самом деле во многих развитых странах цифровая экономика оказывает существенное влияние на факторы их развития. Цифровая экономика играет важную роль в жизни общества. В последнее время очень часто используется понятие «цифровая экономика».*

*Так что эта статья будет о цифровой экономике. Мы постараемся найти ответы на такие важные вопросы, как «Что такое цифровая экономика?», «Задачи и цели цифровой экономики», «Препятствия на пути развития цифровой экономики в Узбекистане».*

**Ключевые слова:** *Цифровая экономика, цифровая медицина, цифровое правительство, криптовалюта, 3D принтер, Яндекс такси, интернет-банкинг, интернет реклама*

**Abstract.** *We all know that the 21st century is the age of technique and technology. In this age of technology, all industries require a system that works in a modern and digital manner. In fact, in many developed countries, the digital economy has a significant impact on their development factors. The digital economy plays an important role in the life of society. Recently, the concept of "digital economy" has been used a lot. So this article will be about the digital economy. We will try to find answers to such important questions as "What is the digital economy?", "Tasks and goals of the digital economy", "Obstacles in the development of the digital economy in Uzbekistan".*

**Key words:** *Digital economy, digital medicine, digital government, cryptocurrency, 3D printer, Yandex taxi, internet banking, internet advertisement.*

**Kirish.** *So'nggi vaqtlarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marta qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi.[1]*

*Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.*

*Ushbu mavzuni yoritishdan avval, kundalik hayotimizda ro'y berishi mumkin bo'lgan bir holatni qarab chiqsak. Tasavvur qiling, juma kuni ishdan uyga keldingiz, oila a'zolaringiz davrasidasiz, birdan shanba va yakshanba dam olish kunlari mashinada Samarqand viloyati va Samarqand shahriga sayohat qilish fikri paydo bo'ldi. Lekin Sizning shaxsiy mashinangiz yo'q. Shunda Siz kompyuter yoki smartfoningiz orqali mashinalarni ijaraga taqdim etuvchi kompaniyalar saytlari yoki mobil ilovalariga kirib, ism-sharifingiz, haydovchilik guvohnomangiz raqamini kiritib, ikki kunga 6 kishilik oilaviy mashina buyurtma berdingiz. Endi sayohat yo'nalishi tanlash kerak.*

Qayerlarga boriladi, qaysi muzey, tarixiy obidalarga tashrif buyuriladi. Shunda Siz sayyohlik xizmatini ko'rsatadigan agentliklar saytlari yoki mobil ilovalariga kirib, oila a'zolaringiz sonini kiritib, o'zingizga va oila a'zolaringizga qiziq bo'ladigan sayyohlik yo'nalishini tanlaysiz. Shunda shanba kuni ertalab uyingiz oldida 6 kishilik mashina, smartfoningizda muzey va tarixiy obidalarga kirish chiptalari va mehmonxonada tunab qolish uchun oldindan buyurtma qilingan joy bo'ladi. Siz hech qayerga bormasdan, hech kimga qo'ng'iroq qilmasdan ikki kunga oilaviy, mashinada, sayohatni tashkil qildingiz. So'ng Samarqandga yo'l oldingiz. U yerda ikki kun aylangan so'ng, yakshanba kuni uyga qaytishda ozgina charchaganingizni sezdingiz, bundan tashqari dushanba kuni ishga borish kerak. Shunda Siz smartfoningizni olib darrov o'zingizga va oila a'zolaringizga Afrosiyob tezyurar poyezdlariga chipta olib, vokzalga borasiz va uyga yo'l olasiz, mashina vokzalda qoldiriladi.

**Asosiy qism.** Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

**Raqamli iqtisodiyot** - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Asosan raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, internet banking, elektron tulovlar, internet reklama va shu bilan birga, internet o'yinlari ko'riladi.

Axborot texnologiyalarini rivojlanishi va tadbiiq qilinishi evaziga kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar paydo bo'lmoqda. Deylik ovqatlanmoqchimiz, lekin uni tayyorlashni xohlamaymiz, muommo emas, internetdan uyga ovqat yetkazib berish xizmati orqali xohlagan taomni onlayn buyurtma qilishimiz mumkin. Yoki do'stimizga pul o'tkazishimiz kerak, bunda atelabga bank yoki moliya muassasalariga borishga hojat yo'q, biz pulni mobil bank orqali o'tkazishimiz mumkin. Shu kabi ko'plab xizmat turlarini onlayn, smartfon yoki kompyuter orqali amalga oshirishimiz mumkin.[2]

#### *Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari.*


Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotning farqli jihati shundaki, ba'zida

raqamli faoliyatni boshlash va rivojlantirish uchun hech qanday moliyaviy resurs talab qilinmasligi mumkin. Bunga yaqqol misol qilib Yandex Taksi ilovasini aytishimiz mumkin. Chunki Yandex Taksining o'zining shaxsiy avtomobillari mavjud emas va ular oddiy o'zlari yaratgan ilova orqali boshqa avtomobili mavjud shaxslarning xizmatlarini yo'lovchilarga yo'naltirish orqali o'z faoliyatini olib boradilar. Raqamli iqtisodiyot nafaqat biznes balki davlat uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan AQSH, Estoniya, Xitoy, Kanada, Rossiya va boshqa Yevropa davlatlarida raqamli iqtisodiyot quyidagi sohalarda rivojlangan. Bular quyidagilar: Raqamli tibbiyot, Smart City, Online bank xizmatlari, Ta'lim sohasidagi online kurslar, 3D printer xizmati, Online do'konlar, Raqamli hukumat [3,5]. Shular orasidan raqamli tibbiyotni oladigan bo'lsak, kasalxonalarda bemorlar navbat kutmasdan online shifokor qabuliga yozilishi mumkin va shifokor bemor sog'ligi haqida ish joyini tark etmagan holda bemor bilan suhbatlashish imkoniga ega boladi va qo'shimcha afzallik tomonlaridan yana biri bemorga online konsultatsiya berish imkoniga ham ega. Shuningdek insonlar o'z ish joylarini yoki uyni tark etmasdan dorixonalar tarmog'iga kirib o'ziga zarur bo'lgan dori-

darmonlarni narxlarini kuzatgan holda online zakaz qilishi ham mumkin. Bu ham raqamli tibbiyotni bir ko'rinishidir.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqa afzalliklari yoqoridagicha bo'lishi mumkin:

Bular raqamli iqtisodiyotning bor yo'gi bir nechta afzalliklari holos. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga ijobiy ta'sir qiladi, oddiy foydalanuvchiga ko'plab qo'shimcha imkoniyatlar beradi va qolaversa, bozorni o'sishi va rivojlanishini ta'minlab berishi mumkin. Hozirgi XXI asr texnika texnologiya rivojlangan bir davrda har bir sohada raqamli iqtisodiyotni qo'llab kelishmoqda. Misol uchun oddiy misollarga qaraydigan bo'lsak, online shopping xizmatlari, Amazon, Aliexpress savdo platformasi. Online bank xizmatlarini barchasini raqamli iqtisodiyotga misol keltirish mumkin, masalan kartadan kartaga pul o'tkazmalari, kommunal to'lovlarni online qilish va hu kabi xizmatlar misol bo'la oladi. Raqamli iqtisodiyotdan to'g'ri va to'laqonli foydalanish ham tadbirkorlarga qaratilgan e'tibor va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkonini berib, hukumatga ham ancha foyda keltiradi va yana foydali tarafi aholini turmush darajasini yaxshilashga o'z hissasini qo'shadi.



*Raqamli iqtisodiyot keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavflar*

Kiber hujum xavfi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq muommolar;

"raqamli qullik" (millionlab insonlar ma'lumotlaridan keyinchalik ularni o'zlarini tutishini boshqarish uchun foydalanish);



ishsizlikni oshishi, axborot texnologiyalarini rivojlanishi va uni tadbiq qilinishi ortidan bir qancha sohalar va kasblar yo'q bo'lib ketishi mumkin.

*Raqamli iqtisodiyoti rivojlangan dunyo davlatlari*

"Raqamli" davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanishadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi.[4,5]

*Raqamli iqtisodiyotda davlatning o'rni*

Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor "o'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o'yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur.



**1-rasm. Xorazm viloyati raqamli rivojlanish darajasini reytingli baholash bo'yicha dastlabki mezonlar**

Prognozlarga ko'ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», additiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Quyidagilar bunda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo'liga bosqichma-bosqich chiqish uchun asosiy shart va omillar sifatida ko'rsatilmoqda:

- axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar konsepsiyalarini tatbiq etish;
- yangi texnologik avlodagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);

- o'ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g'oyalarni amalga oshirish;
- outsorsing, o'zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ'ib qilish;
- muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanslarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

Yuqoridagilar barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda tovar va elektron xizmatlar integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi. Birinchi galda bu masala xizmatlar buyurtmasi integratsiyasi, resurslardan birgalikda foydalanish, kontragentlarni tanlash, elektron savdoni yuritish, to'lovlar va boshqalarga tegishlidir.

#### *Raqamli iqtisodiyot O'zbekistonda*

Dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin.

Lekin shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust.

Quyida keltirilgan muommolar bosqicha-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bemalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi.

1-jadval

Raqamli rivojlanish darajasini reytingli baholash natijalariga ko'ra “Yashil ro'yxat” ning eng yaxshi o'ntaligiga kirgan shahar va tumanlar

Shahar va tuman no--mi	Raqamli rivojlanish reyting darajasi	Telekommunikatsiya infratuzilmasi	Raqamli iqtisodiyot	Raqamli ijtimoiy texnologiyalar	Raqamli Ta'lim
Navoiy shahri	89.3	29.7	23.2	19.1	17.4
Jizzax shahri	88.5	31.9	21.0	17.9	17.6
Namangan shahri	85.8	31.7	20.2	16.0	17.9
Olmazor tumani	84.5	33.1	19.1	19.8	12.6
Yunusobod tumani	83.3	29.8	18.7	19.6	15.3
Yakkasaroy tumani	82.9	30.7	20.0	19.7	12.5
Samarqand shahri	81.4	26.0	19.1	16.3	20.0
Andijon shahri	81.3	25.7	19.3	16.2	20.0
Farg'ona shahri	81.1	34.7	19.5	14.3	12.5
Yashnobod tumani	81.0	32.4	18.6	19.0	11.1

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://mitc.uz/uz/news/view/2167>
2. <https://infocom.uz/raqamli-iqtisodiyot-ilmiy-elektron-jurnali-1-son-2022-yil-dekabr/>
3. <https://qalampir.uz/uz/news/prezident-rak-amli-uzbekiston-2030-strategiyasini-tasdik-ladi-26704>
4. <https://www.spot.uz/oz/2023/02/23/digitization-uzb/>
5. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>

UO'K 339.038

### AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH *G.B.Xodiyeva, mustaqil izlanuvchi (DSc), Toshkent Moliya Instituti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Axborot kommunikatsiyalari xizmatlari bozorining rivojlanishi ko'plab o'zgarishlar va muammolarni boshdan kechirmoqda. Innovatsion marketing strategiyalari yordamida korxonalar ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishlari, bozor ulushlarini oshirishlari va bozorda raqobatbardosh bo'lishlari mumkin. Ushbu maqolada biz axborot kommunikatsiya xizmatlari bozorini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalarining ahamiyatini muhokama qilamiz. Ushbu maqolada biz kompaniyalarning axborot va aloqa xizmatlari sanoatida qo'llagan turli innovatsion marketing strategiyalarini o'rganamiz. Biz ushbu strategiyalarning har birini batafsil ko'rib chiqamiz va ularning bozor rivojlanishiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, biz

*ushbu strategiyalarning real hayotda qo'llanilishini ta'minlash uchun tegishli amaliy tadqiqotlar va sanoat misollarini ta'kidlaymiz.*

**Kalit so'zlar:** *Marketing, VR, AR, innovatsiya, marketing strategiyalari, rivojlanish, bozor, axborot kommunikatsiya xizmatlari.*

**Аннотация.** *развитие рынка информационно-коммуникационных услуг претерпевает множество изменений и проблем. С помощью инновационных маркетинговых стратегий компании могут преодолеть эти трудности, увеличить свою долю на рынке и стать более конкурентоспособными на рынке. В данной статье мы обсудим значение инновационных маркетинговых стратегий в развитии рынка информационно-коммуникационных услуг. В этой статье мы рассмотрим различные инновационные маркетинговые стратегии, которые компании используют в индустрии информационных и коммуникационных услуг. Мы подробно рассмотрим каждую из этих стратегий и рассмотрим их влияние на развитие рынка. Мы также выделяем соответствующие тематические исследования и отраслевые примеры, чтобы гарантировать, что эти стратегии применимы в реальной жизни.*

**Ключевые слова:** *маркетинг, VR, AR, инновации, маркетинговые стратегии, развитие, рынок, информационно-коммуникационные услуги.*

**Abstract.** *the development of the information and communication services market is undergoing many changes and problems. With the help of innovative marketing strategies, companies can overcome these difficulties, increase their market share and become more competitive in the market. In this article we will discuss the importance of innovative marketing strategies in the development of the information and communication services market. In this article, we will look at various innovative marketing strategies that companies use in the information and communication services industry. We will take a detailed look at each of these strategies and consider their impact on the development of the market. We also highlight relevant case studies and industry examples to ensure that these strategies are applicable in real life.*

**Keywords:** *marketing, VR, AR, innovation, marketing strategies, development, market, information and communication services.*

**Kirish.** Bugungi dinamik muhitda taniqli bo'lib qolish uchun kompaniyalar rivojlanayotgan raqamli landshaft va rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanadigan innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqishlari va qabul qilishlari kerak. Ushbu strategiyalar kompaniyalarga raqobatchilardan ajralib turishga, yangi mijozlarga erishishga va o'sishni rag'batlantirishga yordam berdi. Bunday strategiyalardan foydalanish axborot-kommunikatsiya xizmatlari bozorini rivojlantirish va kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Biz o'rganadigan birinchi innovatsion marketing strategiyasi raqamli marketingdan foydalanishdir. Raqamli bo'lib borayotgan dunyoda onlayn marketingga o'tish kompaniyalar uchun asosiy ustuvor vazifaga aylandi. Ijtimoiy media platformalari, qidiruv tizimlari va boshqa raqamli vositalardan foydalanish orqali kompaniyalar kengroq auditoriyani qamrab oladigan maqsadli va samarali marketing kampaniyalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu yondashuv nafaqat mijozlarni jalb qilishni oshirishga yordam berdi, balki ma'lumotlarga asoslangan marketing kuchidan foydalangan holda mijozlarni ushlab turishni yaxshilashga yordam berdi.

Biz o'rganadigan to'rtinchi strategiya - bu marketingda kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) dan foydalanish. Ushbu rivojlanayotgan texnologiyalar kompaniyalarga mijozlarni jalb qilishning yangi yo'llarini taqdim etadi va an'anaviy marketing vositalari bilan mumkin bo'lmagan noyob tajribalarni taklif qiladi. AR va VR-dan foydalangan holda, kompaniyalar iste'molchilarning faolligini oshirishi va mijozlarga immersiv va interaktiv tajribalarni taqdim etish orqali sotib olish qarorlarini qabul qilishlari mumkin. Marketing strategiyalarini ishlab chiqishda ma'lumotlar tahlilidan foydalanishni ko'rib chiqamiz. Raqamli dunyo tomonidan yaratilgan katta hajmdagi ma'lumotlar kompaniyalar uchun mijozlar xatti-harakati va afzalliklari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Ushbu tushunchalardan foydalangan holda, kompaniyalar o'zlarining marketing harakatlarini shaxsiylashtirishlari va mijozlar bilan rezonanslashadigan maqsadli marketing kampaniyalarini yaratishlari mumkin. Axborot-kommunikatsiya xizmatlari

bozorini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. To'g'ri yondashuv bilan kompaniyalar o'zlarini raqobatchilardan ajratib olishlari, yangi mijozlarga erishishlari va o'sishni rag'batlantirishlari mumkin. Turli innovatsion marketing strategiyalari va ularning bozorga ta'sirini o'rganib, biz axborot va kommunikatsiya xizmatlarining tez sur'atda rivojlanayotgan dunyosida oldinda qolishni istagan kompaniyalar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etishga harakat qilamiz.

**Materiallar.** Innovatsion marketing strategiyalari. Innovatsion marketing strategiyalari mahsulot yoki xizmatni ilgari surish uchun yangi va ijodiy marketing taktikalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu marketing strategiyalari maqsadli auditoriya e'tiborini jalb qilish va mahsulotni raqobatchilardan farqlash uchun mo'ljallangan. Axborot kommunikatsiya xizmatlari bozorini rivojlantirishda korxonalar qabul qilishi mumkin bo'lgan ba'zi innovatsion marketing strategiyalari quyida keltirilgan:

Ijtimoiy media marketing. Ijtimoiy media marketingi mahsulot yoki xizmatni targ'ib qilish uchun Facebook, Twitter, LinkedIn, Instagram va boshqalar kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy media biznes va ularning mijozlari o'rtasidagi samarali aloqa vositasidir. Ijtimoiy tarmoqlarda mijozlar bilan muloqot qilish orqali biznes brend xabardorligini oshirishi, mijozlarning sodiqligini oshirishi va o'z mahsulotlari yoki xizmatlarini targ'ib qilishi mumkin.

**Uslublar.** Dunyo jadal texnologik taraqqiyot bosqichini boshdan kechirmoqda, bu esa turli sohalarning bozor dinamikasini shakllantiradi. Axborot kommunikatsiyalari xizmatlari sektori ushbu tendentsiyadan istisno emas va turli platformalarda muloqotni osonlashtirish uchun ko'plab texnik echimlarni o'zida mujassam etgan. Axborot kommunikatsiyalari xizmatlari bozori raqobatbardosh bo'lib, kompaniyalar o'zlarini farqlash va mijozlarni jalb qilish uchun innovatsion marketing strategiyalarini qabul qilmoqdalar. Axborot kommunikatsiya xizmatlari bozori raqamli xizmatlar va masofaviy aloqaga talab ortib borayotganligi sababli sezilarli o'sishni boshdan kechirmoqda. Allied Market Research tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, axborot kommunikatsiya xizmatlarining global bozori 2025 yilga borib 2,2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda va 2020 yildan 2025 yilgacha CAGR darajasi 4,2 foizga o'sadi. bulutli hisoblashning qabul qilinishi, ijtimoiy tarmoqlarning ko'tarilishi va mobil qurilmalardan foydalanishning ko'payishi. Raqamli marketing, kontent marketingi, ta'sirchan marketing, kengaytirilgan reallik va chatbotlar axborot kommunikatsiyalari xizmatlari bozorida rivojlanayotgan tendentsiyalardan biridir. Ushbu marketing strategiyalari kompaniyalarga mijozlarni jalb qiladigan va o'z brendini raqobatchilardan ajratib turadigan shaxsiylashtirilgan, qiziqarli va unutilmas kampaniyalarni yaratishga yordam beradi.

**Natijalar.** Ushbu maqolada biz ko'rib chiqqan ba'zi innovatsion marketing strategiyalari tarkibiga kontent marketingi, ijtimoiy media marketingi, ta'sirchan marketing, tajriba marketingi va o'yinlarni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiyalarning har biri o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, korxonalar kengroq auditoriyani qamrab olish, mijozlarni jalb qilishni yaxshilash va sotishni rag'batlantirish uchun foydalanishlari mumkin. Axborot kommunikatsiyalari xizmatlari bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun korxonalar ushbu innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun vaqt va resurslarni sarflashga tayyor bo'lishi kerak. Jarayon qiyin bo'lishi mumkin, ammo bu oxir-oqibatda foydalidir, chunki u korxonalarga o'z mijozlari bilan mazmunli aloqalar o'rnatish va sodiq mijozlar bazasini yaratish imkonini beradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish faqat cho'ntaklari chuqur bo'lgan yirik korporatsiyalar bilan cheklanmaydi. Kichik biznes va startaplar cheklangan resurslar bilan ham brend xabardorligini oshirish va mijozlarni jalb qilishni yaxshilash uchun ushbu strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Xulosa qilib aytganda, axborot kommunikatsiya xizmatlari bozori jadal rivojlanayotgan va dinamik sanoat bo'lib, u korxonalardan raqobatbardosh bo'lish uchun moslashishni talab qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu strategiyalardan foydalangan holda, korxonalar o'ziga xos, esda qolarli brend imidjini yaratishi, mijozlar bilan mazmunli, ijodiy yo'llar bilan aloqa o'rnatishi va oxir-oqibat savdo va rentabellikni oshirishi mumkin.

**Muhokama.** Innovatsion marketing strategiyalari kompaniyalarga raqobatchilardan ajralib turishga, kengroq auditoriyani qamrab olishga va mijozlarning faolligi va sodiqligini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, ijtimoiy media marketingi, kontent marketingi, ta'sir qiluvchi marketing va mobil marketing axborot kommunikatsiyalari xizmatlari bozorida samarali ekanligi isbotlangan innovatsion strategiyalardir. Bundan tashqari, ma'lumotlarga asoslangan marketingdan foydalanish kompaniyalarga o'z mijozlari, xatti-harakatlari va afzalliklarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ularga marketing harakatlarini maqsadli auditoriyaga samarali moslashtirishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, mijozlarning qoniqishini oshirishga, brendga sodiqlikni oshirishga va natijada daromad va foydani oshirishga olib kelishi mumkin. Axborot kommunikatsiya xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Yangi va ijodiy marketing usullarini o'zlashtirishga tayyor bo'lgan kompaniyalar bugungi kuchli raqobat bozorida uzoq muddatli muvaffaqiyat va o'sishga erishish ehtimoli ko'proq.

**Xulosa** qilish kerakki, axborot kommunikatsiyalari xizmatlari bozorini rivojlantirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalardan foydalanish, bozorni to'g'ri segmentatsiyalash va qiziqarli kontent yaratish orqali kompaniyalar maqsadli auditoriyaga samarali kirishlari va o'zlarini raqobatchilardan farqlashlari mumkin. Texnologiyaning jadal rivojlanayotgan tabiati axborot kommunikatsiyalari xizmatlari bozoridagi o'yinchilar uchun egri chiziqdan oldinda bo'lish va o'z marketing taktikasini doimiy ravishda yangilab turishni juda muhim qiladi. Buni qilganlar ushbu dinamik sanoatda muvaffaqiyat qozonish va o'sish uchun yaxshi mavqega ega bo'ladilar. Innovatsion marketing strategiyalari axborot kommunikatsiyalari xizmatlari bozorida raqobatbardosh ustunlikni rivojlantirmoqchi bo'lgan korxonalar uchun juda muhimdir. Ijtimoiy media, ta'sir o'tkazuvchilar, kontent marketingi, kengaytirilgan reallik, sun'iy intellekt va boshqa innovatsion marketing strategiyalaridan foydalangan holda, korxonalar o'zlarining brend xabardorligini oshirishlari, mijozlarni jalb qilishni yaxshilashlari, ko'proq sotuvlar yaratishlari va mijozlarning sodiqligini oshirishlari mumkin. Innovatsion marketing strategiyalarini qo'llagan korxonalar bozor qiyinchiliklarini yengib o'tish va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi holatda bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Djasurovna, S. (2020). INNOVATSION MARKETING TOSHKENT. Архив научных исследований, (12).
2. Djasurovna, S. (2020). XALQARO MARKETING. Архив научных исследований, (12).
3. Og'abek, T., & Olimboy, T. (2023). Interaktiv va raqamli marketing kommunikatsiyasini samaradorligini oshirish va baholash uslublari. "Germany" Modern Scientific Research: Achievements, Innovations And Development Prospects, 9(1).
4. Jumatoyev, U. (2023). Biznesda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. Engineering problems and innovations.
5. To'raqulov B. & Xolmuradovich, S. D. (2022). Umumiy ovqatlanish korxonasini faolyatini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish va SWOT tahlili takomillashtirish. Ta'lim fidoyilari, 25(5), 149-156.
6. Mulaydinov, F., & Solidjonov, D. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari. Tamaddun–2022.

UO'K 316.422

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOY YO'NALTIRILGAN BOZOR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHIDA DAVLATNING YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT VA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ROLI *A.Xolov, sho'ba mudiri, Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi Sirdaryo viloyat hududiy boshqarmasi, Guliston*

**Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish uchun bozor munosabatlarini davlat tomonidan yuqori texnologiyali sanoat va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishni tartibga solish muammosi nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyotda bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish oqibatlari o'rganib chiqilgan.

*Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *Ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiyot, davlatning ijtimoiy majburiyatlari isteʼmol tovarlari, YAIM isteʼmol fondi, soliq siyosati, yuqori texnologiyali sanoat, innovatsion iqtisodiyot.*

**Аннотация.** *В статье анализируется теоретическое и практическое значение проблемы государственного регулирования рыночных отношений для формирования социально ориентированной экономики. Также в современной экономике изучаются последствия государственного регулирования рыночной экономики.*

*Обозначены основные направления государственного регулирования обеспечения социальной устойчивости экономической системы в условиях социально ориентированного экономического развития.*

**Ключевые слова:** *Социально ориентированная экономика, социальные обязательства государства, потребительские товары, ВВП, потребительский фонд, налоговая политика, наукоемкая промышленность, инновационная экономика.*

**Abstract.** *The article analyzes the theoretical and practical significance of the problem of state regulation of market relations for the formation of a socially oriented economy. Also, in the modern economy, the consequences of state regulation of the market economy are studied.*

*The main directions of state regulation of ensuring the social stability of the economic system in the conditions of socially oriented economic development are indicated.*

**Key words:** *Socially oriented economy, social obligations of the state consumer goods, GDP Consumer Fund, Tax Policy, high-tech industry, innovation economy.*

Ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish uchun bozor munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish muammosi katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, bozor munosabatlari ushbu iqtisodiy tartibni oʻrnatish uchun zarur boʻlgan toʻliq ijtimoiy yoʻnalishni taʼminlay olmaydi. Bunday holatda davlatning rolini ortiqcha baholab boʻlmaydi. Aynan davlat bozor munosabatlariga xos boʻlmagan aholini ijtimoiy himoya qilish vazifalarini oʻz zimmasiga olishi kerak. Biroq, bizning fikrimizcha, ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishda davlat tomonidan tartibga solishning roli ancha kengroq.

Davlat, boshqa muassasalardan farqli oʻlaroq, erkin tadbirkorlik uchun sharoit yaratish, xususiyl mulkni himoya qilish, teng iqtisodiy sharoitlar va boshqalar uchun javobgardir. Davlat bozorni tartibga soluvchi «shartlar roʻyxati»ni belgilab beradi.

Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti tarafdorlari quyidagi tamoyilni ilgari suradilar: Imkon qadar koʻproq bozor, zarur darajada davlat aralashuvi boʻlmogʻi lozim». Boshqacha qilib aytganda, gap davlat aralashuvini minimallashtirish haqida bormoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy tartibni shakllantirishda davlatning yetakchilik oʻrmini rad etishga va uni boshqa ijtimoiy yoki siyosiy tuzilma bilan almashtirishga qaratigan fikrlar bisyor. Biroq bu jamoatchilik tomonidan qoʻllab-quvvatlanmaydigan shaxsiy fikr.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish oqibatlari batafsil koʻrib chiqilgan. Shu bilan birga, davlat tomonidan tartibga solishning qaysi nuqtalari iqtisodiyotning ijtimoiy yoʻnaltirilgan rivojlanishga oʻtishini taʼminlashi haqida savol ochiq qolmoqda. Har bir davlatda ham aholi farovonligini oshirish maqsad qilingan boʻlishiga qaramay, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qanday boʻlishi kerakligi toʻgʻrisida kelishuv mavjud emas. Umuman olganda, davlatning iqtisodiy siyosati va aholi farovonligining oʻsishi oʻrtasidagi munosabatlar quyidagicha aks ettirilishi mumkin (1.1-rasmga qarang).

Ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiyotda davlat aralashuvining asosiy tamoyillaridan biri bu iqtisodiy siyosatning aniqligi, ravshanligi, bashorat qilinishi, bozor ishtirokchilarining kelajagiga ishonchini yaratishdir. Shuning uchun davlat kompaniyalarning iqtisodiy faoliyatini nazorat qilishga, kompaniyalar foydasini taqsimlash qoidalarini oʻrnatishga, xodim va ish beruvchi oʻrtasidagi mehnat munosabatlarini tartibga solishga urinmasligi kerak.

Demak, ijtimoiy bozor iqtisodiyotida bozor munosabatlarining roli isteʼmolchilar ehtiyojlarini qondiradigan turli xil tovarlar ishlab chiqarishni yaratish, shuningdek, band boʻlgan ishchilar uchun zarur ish haqi darajasini taʼminlash, davlatning roli esa ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat

sharoitlarini yaratish va mamlakatning ishsiz va nogiron aholisi uchun maqbul turmush darajasini ta'minlashdan iborat.

L.I. Abalkin, A.N. Illarionov, V.A. Medvedev, A.N. Nesterenko, G.X. Popov va boshqalarning ishlarida ijtimoiy bozor iqtisodiyotini shakllantirishda davlatning roli keng muhokama qilingan. Biroq, davlatning ijtimoiy bozor iqtisodiyotini shakllantirishga olib keladigan iqtisodiy siyosati yo'nalishlari bo'yicha hali ham yakdil fikr mavjud emas.

A. Myuller-Armak shunday deb yozadi: «Har qanday zamonaviy bozor iqtisodiyoti aniq ifodalangan ijtimoiy yo'nalishga va bog'liqlikka ega bo'lishi lozim. Uning ijtimoiy xarakteri faqat iste'molchi o'z talabi orqali qat'iy ishtirok etadigan darajani belgilashi, muayyan narxlar, ko'proq va xilma-xil tovarlarni taklif qila olishi, past darajali narxlar tufayli ish haqining haqiqiy qiymatini oshirishi, inson ehtiyojlarini yaxshiroq va kengroq qondirishi bilan asoslanadi.

“Qachonki bozor iqtisodiyoti samaradorligida kuchli ijtimoiy unsur mavjud bo'lsa, unda bozor iqtisodiyoti doirasida amalga oshiriladigan ijtimoiy ta'minotni kafolatlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni qat'iyat bilan amalga oshirish bir xil darajada zarur bo'ladi” [1].

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Iste'mol tovarlari va ularni yaratish uchun mehnat vositalarini rivojlantirish foydasiga ijtimoiy ishlab chiqarish nisbatlarini shakllantirish.

2. Yalpi ijtimoiy mahsulotni iste'mol fondi va jamg'arma fondi o'rtasida taqsimlash nisbatini aniqlash.

3. Import o'rnini bosish imkoniyatiga ega bo'lgan iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning oqilona siyosatini yuritish.

4. Davlatning ijtimoiy majburiyatlari.

5. Davlatning soliq siyosati.

6. Yuqori texnologiyali sanoat va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish.

Quyida iqtisodiy tizimning ijtimoiy barqarorligini shakllantirishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy elementlariga batafsilroq to'xtalamiz.

1. Iste'mol tovarlari va ularni yaratish uchun mehnat vositalarini rivojlantirish foydasiga ijtimoiy ishlab chiqarish nisbatlarini shakllantirish.

Aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish maqsadini amalga oshirishga faqat aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zarur resurslar ishlab chiqarishni yuqori darajada rivojlantirish bilan erishish mumkin.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning ahamiyati ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun investisiyalarning eng muhim manba ekanligi bilan belgilanadi, uni rivojlanishning biron bir xom ashyo manbalari bilan taqqoslab bo'lmaydi. V.A. Medvedev ta'kidlaganidek, “Jamg'arish uchun asosiy resurs bo'lib daromad, zarur yashash vositalari va zarur mehnat vositalari to'plami bilan ta'minlangan mavjud ishchi kuchi hisoblanadi. Ushbu resurslarni birlashtirish va ularni harakatga keltirish haqiqiy investisiya jarayoni bo'lib, bu o'z navbatida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga bevosita hissa qo'shadi va shuning uchun munosib standart va turmush tarzi uchun bazani kengaytirishga yordam beradi” [2].

2. Yalpi ichki mahsulotni iste'mol fondi va jamg'arma fondi o'rtasida taqsimlash nisbatini aniqlash.

Yalpi ichki mahsulotni iste'mol fondi va jamg'arma fondi o'rtasida taqsimlash ijtimoiy ishlab chiqarishni kelajakda rivojlantirish vazifasiga bo'ysunishi kerak. Bu ma'lum qarama-qarshilik, chunki iste'molning «ko'p – kam» nisbati to'planish foydasiga ishlab chiqarishni joriy iste'molga zarar yetkazishi uchun asos yaratadi. V.A. Medvedev yozganidek: «Agar biz qisqa muddatli davrni olsak, jamg'arma fondi yalpi ichki mahsulotning firmalarda bilan qolgan va «joriy samaradorlikni rag'batlantiradigan, ishtirokchilar hissasi ko'ra taqsimlanadigan qismiga bevosita qarama-qarshi qo'yiladi [3].

3. Import o'rnini bosuvchi iste'mol tovarlari siyosati.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning importi bilan qoplanadi.

Hozirgi vaqtda iste'mol tovarlari importining maqbul nisbatlarini aniqlash muammosiga katta e'tibor berilmaydi. Iqtisodiyotning iste'mol tovarlari importiga bog'liqligini hisobga olish zarurati V.A. Medvedev, A.A. Zaysev, V.A. Sergeyev kabi mualliflarning asarlaridan ma'lum. Ushbu ma'lumotga ko'ra import qilinayotgan tovarlar hajmi iste'mol hajmining 20 %dan oshmasligi lozim [4].

#### 4. Davlatning ijtimoiy majburiyatlari.

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat ijtimoiy tabaqalanish va tengsizlikni kamaytirish maqsadida umuman aholi farovonligini va ishsiz aholining ijtimoiy ta'minotini oshirishga qaratilgan bo'ladi [5].

#### 5. Davlatning soliq siyosati.

Soliq siyosati – bu davlat tomonidan soliqlar va yig'imlar hamda soliqa tortish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi. Soliq siyosati davlat tomonidan yaratilgan soliq tizimi orqali amalga oshiriladi, bu to'lovchilardan belgilangan tartibda undiriladigan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar to'plamidan iborat bo'ladi.

#### 6. Yuqori texnologiyali sanoat va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish.

Raqobat munosabatlarini rivojlantirish shartlaridan biri asosiy ishlab chiqarish ob'yektlarini rivojlantirishning yuqori texnik darajasi bo'lib, bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni, balki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yuqori sifatini ham ta'minlaydi. Aynan ishlab chiqarishning texnik darajasi bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish va shu sababli aholining yuqori farovonligini ta'minlashda ishlab chiqaruvchilarning imkoniyatlarini belgilaydigan raqobat darajasini shakllantiradi [6].

Davlat innovatsion siyosatining maqsadi uning iqtisodiy va huquqiy mazmundagi rag'batlantirish orqali innovatsion jarayonlarni faollashtirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyatidir.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi quyidagilardan iborat bo'ladi:

mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida innovatsion faoliyatning asosiy strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish;

moliyaviy yordam, soliq imtiyozlari, har qanday innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, uni amalga oshirish uchun qulay huquqiy sharoitlarni yaratish;

iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda fan va texnika yutuqlarini o'zlashtirish va amalga oshirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan faoliyat innovatsion tuzilmalarini (maxsus rivojlanish zonalari, texnoparklar, biznes-inkubatorlar va b.) yaratish.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun quyidagi rivojlanish omillari zarur bo'ladi :

texnologik va intellektual – yuqori texnologiyalar jarayonini boshlash uchun yetarli bo'lgan innovatsion salohiyatni yaratish;

tarkibiy – an'anaviy iqtisodiyotdan farqli o'laroq ko'p sonli ishtirokchilarning tarmoq ichidagi o'zaro aloqasini ta'minlash;

institusional – innovatsion rivojlanishga yordam beradigan rasmiy va norasmiy institutlar tizimini yaratish;

motivasion – innovatsiyalarning ko'pchilik xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, fuqarolar va umuman iqtisodiyot tomonidan talab qilinishini ta'minlash.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va yuqori texnologiyali tarmoqlarni yaratish sharoitlarini shakllantirishda asosiy rol davlatga tegishli bo'ladi.

Demak, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish mexanizmi bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan raqobat mexanizmi va raqobatning to'siqsiz rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan davlat tomonidan tartibga solishning o'zaro bog'liqligidir. Bundan tashqari, davlat tomonidan tartibga solish ijtimoiy ishlab chiqarish nisbatlarini, investisiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini, import o'rnini bosuvchi iste'mol tovarlari siyosatini, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va innovatsion

iqtisodiyotni rivojlantirish shartlarini shakllantirishga qaratilgan. Buning barchasi ijtimoiy bozor iqtisodiyotining ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va natijada aholi farovonligini oshirish hamda yuqori samarali, raqobatbardosh, yuqori texnologiyali, innovatsion iqtisodiyotda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish bilan bog'liq asosiy maqsadlariga erishish uchun sharoit yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Медведев В.А. Воспроизводство и приоритеты развития/В.А. Медведев.-М.: ЗАО «Издательство «Экономика»,2004-145 с.
2. Медведев В.А. Воспроизводство и приоритеты развития/В.А. Медведев.-М.: ЗАО «Издательство «Экономика»,2004-206с.
3. Медведев В.А. Воспроизводство и приоритеты развития / В.А. Медведев.-М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2004-217с.
4. Зайцев, А.А. Попала ли Россия в критическую зависимость от импорта? /А.А. Зайцев, В.А. Сергеев//Россия в окружающем мире: Аналитический ежегодник. Отв. Ред. Н.Н. Морфенин// Под общей ред. Н.Н. Моисеева, С.А. Степанова. М.: Изд-во МНЕПУ.-1999.-324 с.
5. Мекуш, Г.Е. Подходы к разработке индикаторов устойчивого развития на региональном уровне / Г.Е. Мекуш // География и природные ресурсы. - 2006. - № 1. - С. 18-23.
6. Резников Л. Антикризисно-реформационная альтернатива в рационализации характера потребления национального дохода /Л. Резников// РЕЖ.1998.№7-8. С. 14 20.

УЎК 330.352

### ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОХОТЛАР ВА УЛАРНИНГ НАТИЖАЛАРИ

*А.Ж.Абдуллаев, доц., Тошкент давлат транспорт университети,  
Д.Д.Раимова, асс., Тошкент давлат транспорт университети.*

**Аннотация.** Мақолада Қорақалпоғистон Республикасида транспорт соҳасида олиб борилаётган ислохотлар ва уларнинг натижалари, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини рақобатбардошлигини таъминлаш йўналишлари кенг ёритиб берилган.

**Калим сўзлар:** кичик бизнес, тадбиркорлик, хусусий тадбиркорлик, бизнес, тадбиркорликнинг ривожланганлик даражаси, тадбиркорлик субъектлари.

**Аннотация.** В статье описаны реформы в сфере транспорта в Республике Каракалпакстан и их результаты, а также направления по обеспечению конкурентоспособности малого бизнеса и частного предпринимательства.

**Калим сўзлар:** кичик бизнес, тадбиркорлик, хусусий тадбиркорлик, бизнес, тадбиркорликнинг ривожланганлик даражаси, тадбиркорлик субъектлари.

**Abstract.** In the article, the reforms in the field of transport in the Republic of Karakalpakstan and their results, directions for ensuring the competitiveness of small business and private business entities are widely covered.

**Key words:** small business, entrepreneurship, private entrepreneurship, business, level of development of entrepreneurship, business entities.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш жараён-ларининг фаолиятининг Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларнинг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир. Кичик бизнес капитал тақиллиги шароитида кўп ва йирик маблағ талаб этмайдиган хўжалик фаолияти сифатида ресурслар айланмасининг юқори сурьатларини таъминлайди, иқтисодийётни қайта куриш, иқтисодий нобарқарорлик ва ресурслар чегараланганлиги шароитида истеъмол бозорини шакллантириш ва уни тўлдириш муаммосини тез ҳамда тежамли тарзда ҳал этади. Кичик корхоналар истеъмол талабининг ўзгаришига дарҳол мослашади ва шу йўл билан истеъмол бозоридаги зарурий мувозанатни таъминлайди. Бозор муносабатлари шароитида мулкчилик шакллариининг ривожланиши кенг кўламда эркин товар ишлаб чиқарувчилар, кичик бизнес субъектлари ва тадбиркорлар катлами фаолиятини ривожлантиришни тақазо этади. Шундай экан, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик иқтисодийёт тузилмаларида энг олдинги ўринларни эгаллаши керак. Бунинг учун эса бугунги кунда кичик бизнес субъектлари рақобатбардошлигини таъминлаш ва улар фаолиятида реструктуризация жараёнларини кучайтириш муҳим амалий аҳамият касб

этнода. Шунингдек, мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик жараёнларининг субъектлари рақобатбардошлигини оширишни статистик баҳолаш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-2023 йилларда Қорақолпоғистон Республикасини комплекс ижтимоий иқтисодий ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида қарорига кўра Қорақолпоғистон Республикасининг мавжуд ижтимоий-иқтисодий, шу жумладан, ишлаб чиқариш ва инвестиция салоҳиятидан самарали фойдаланиш, худудда муҳандислик-коммуникация, ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмаларини яхшилаш, иқтисодиёт тармоқларини барқарор ривожлантириш, шу асосда аҳоли бандлигини таъминлаш ва турмуш даражасини ошириш мақсадида 2020–2023 йилларда Қорақолпоғистон Республикасини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишлари этиб қуйидагилар белгиланган:

1. 444,7 км халқаро ва республика аҳамиятига молик ҳамда 408,1 км маҳаллий ва ички автомобиль йўллари янгидан қуриш ва реконструкция қилиш;
2. халқаро молия институтларининг 1 миллиард доллар миқдоригаги маблағларини муҳим инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишга йўналтириш;
3. йиллик экспорт ҳажмини 347 миллион долларга, экспорт қилувчи корхоналар сонини 250 тага, экспорт географиясини 45 та мамлакатга етказиш ҳамда экспортга йўналтирилаётган маҳсулотлар турини 30 тадан ошириш;
4. эркин иқтисодий зоналарда қиймати 21,2 миллион долларга тенг бўлган 9 та лойиҳани, кичик саноат зоналарида қиймати 28 миллион долларга тенг бўлган 81 та лойиҳани ишга тушириш;
5. саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича янги қувватларни ташкил этиш, жумладан, 9 та янги саноат маҳсулоти ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, 27 та саноат кластерини ташкил этиш, саноати паст даражада ривожланган Тахтақўпир, Бўзатов ва Шуманай туманларида камида 50 та янги саноат корхонасини ишга тушириш;

Ушбу қарорга кўра Қорақолпоғистон Республикасининг ўзига хос хусусиятидан келиб чиқиб, энг долзарб иқтисодий фаолият йўналишларида тадбиркорлик субъектларига солиқ имтиёзлари бериш назарда тутилган.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик нафақат ялпи ички маҳсулотини шакллантиришда асосий бўғин, балки аҳоли бандлиги ва даромадлари манбаининг, миллий фаровонликка эришишнинг муҳим омили ҳам бўлиши даркор. Иқтисодий ва ижтимоий ривожланишнинг асосий устувор йўналиши - аҳолини иш билан таъминлашни янада яхшилаш ва унинг фаровонлигини оширишнинг энг муҳим йўналиши сифатида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, хизмат кўрсатиш ва касаначилик соҳаларини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантиришни рағбатлантиришдан иборатдир. Бозор муносабатлари шароитида мулкчилик шакллари ривожланиши кенг кўламда эркин товар ишлаб чиқарувчилар, кичик бизнес субъектлари ва тадбиркорлар катлами фаолиятини ривожлантиришни тақозо этади. Шундай экан, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик иқтисодиёт тузилмаларида энг олдинги ўринларни эгаллаши керак. Бунинг учун эса бугунги кунда кичик бизнес субъектлари рақобатбардошлигини таъминлаш ва улар фаолиятида реструктуризация жараёнларини кучайтириш муҳим амалий аҳамият касб этади. Кичик бизнес субъектларида реструктуризация жараёнларини кучайтиришидан мақсади – бу бизнес қийматини оширишдан иборат. Демак, шундай экан юқорида таъкидланганидек «рақобатбардошлик» ва «реструктуризация» тушунчалари бир-бири билан чамбарчас боғлиқдир. Шунингдек, «рақобатбардошлик» ва «реструктуризация» жараёнлари мамлакатлар иқтисодиётининг барча жабҳаларида бир-бирини тўлдирган ҳолда олиб борилиши лозим.

Республикаимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларнинг пировард мақсади эркин рақобат асосида ривожланган иқтисодиётни шакллантиришдан иборатдир. Бу эса ўз навбатида, рақобат ва рақобатбардошликнинг назарий ва методологик муаммоларини тадқиқ қилишни тақозо қилади. Рақобатнинг таърифини ишлаб чиқишда қанча муаммо бўлганлиги сингари, унинг шакллари хусусида ҳам анча ечимини кутаётган муаммолар мавжуд.

Мамлакатимизда чоп этилаётган иктисодиётга оид кўпгина адабиётларда рақобатнинг уч тури: такомиллашган, олигополлашган ва монополлашган рақобат турлари келтирилади. Тадқиқот натижаларидан келиб чиққан ҳолда кичик бизнес рақобатбардошлигини ошириш масалаларига ёндашишда турли миллий ҳужалик тизимларида «рақобатбардошлик» тушунчасининг турли меъзонлар билан таснифланишини эътиборга олиш лозим. Кичик бизнес субъектларида рақобатбардошликни тавсифловчи белгилар ва омилларнинг кўплиги натижасида уларни умумий ҳолда қўйидаги уч гуруҳга бирлаштириш мумкин: кичик бизнес субъектлари маҳсулотининг турлари, сифати, баҳоси ва ҳ.к.; тармоқлардаги кичик бизнес субъектларининг мавжуд ишлаб чиқариш ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги, техник-иктисодий кўсаткичлари ва ҳ.к.; кичик бизнес субъектларининг умумий ҳолати, унинг барқарорлиги, инвестицион иқлим, инновацион фаолияти, солиқ тизими ва ҳ.к.

Қорақолпоғистон Республикасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик жараёнларининг субъектларини иктисодий фаолият турлари бўйича кичик корхона ва микрофирмаларнинг фаолиятини таҳлил қилиш орқали рақобатбардошлигини статистик баҳолашимиз мумкин.

Қуйидаги берилган 1-расмдан кичик тадбиркорлик субъектлари сонини кўришимиз мумкин. 2023 йил 1-декабрь ҳолатига кўра 24006 та корхона рўйхатдан ўтган, улардан 1096 таси кичик корхоналар ва 22910 таси микрофирмалардан иборат. Фаолият кўрсатаётган 22863 тага тенг бўлиб, улардан 1075 таси кичик корхоналар ва 21788 таси микрофирмалардан иборат. Янги ташкил этилган корхоналар 4308 тага тенг бўлиб, улардан 74 таси кичик корхоналар ва 4234 таси микрофирмалардан иборат.



**1-расм. Кичик тадбиркорлик субъектлари сони 2023 йил 1-декабрь ҳолатига кўра бирликда)**

Таркибий ўзгаришларни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

- инновацион технологияларни жорий этиш ҳисобига тузилмавий динамиканинг интенсивлигини ошириш;
- ишлаб чиқариш қувватларини қайта тиклаш ва янги технологияларни жорий қилиш, жараённинг сифатини ошириш ҳисобига таркибий-динамик интенсивликни барқарорлаштириш;
- инновацион ва технологик йўлакда саноатнинг барқарор ҳолатларини яратиш, уларнинг иктисодий салоҳиятини ошириш;
- технологик салоҳиятни жадал ривожлантириш ҳисобидан мавжуд барқарор ҳолатларни сақлаб қолиш ва бошқалар.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Simon H.A. On the Concept of Organizational Goal // Administrative Science Quarterly. 1964. Vol. 9, № 1. P. 1–22.
2. Жемчугов А.М., Жемчугов М.К. Цель предприятия, организация и управление по достижению цели. // Проблемы экономики и менеджмента. - № 5 (45). – 2015. – С.7.
3. Роль малых промышленных предприятий в современной рыночной экономике. - <http://diplomba.ru/work/72306>
4. Промышленность. - <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
5. Грошева И.А. Проблемы организации малых предприятий в сфере материального производства. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2014, № 3 (1), с. 200–204.
6. Қорақолпоғистон Республикаси статистика бошқармаси
7. <https://yuz.uz/news/20202023-yillarda-qoraqalpogiston-respublikasini-kompleks-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlantirish-chora-tadbirlari-togrisida>

## УЎК 334.7

## ЎЗБЕКИСТОНДА ТАДБИРКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

*А.Ж.Абдуллаев, доц., Тошкент Давлат транспорт университети, Тошкент*

*О.Б.Эгамбердиев, ўқитувчи, Тошкент Давлат транспорт университети, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу илмий мақолада сўнги йилларда Ўзбекистонда тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўйича олиб борилаётган иқтисодий ва таъкилий чоралар, давлат томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига берилаётган имтиёзлар ҳамда уларнинг натижалари таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, иқтисодий восита, давлат имтиёзи, кичик тадбиркорлик, солиқ имтиёзи, қўшимча қиймат солиғи.

**Аннотация.** В данной научной статье анализируются экономические и организационные меры поддержки предпринимательства в Узбекистане за последние годы, льготы, предоставляемые государством малому бизнесу и частным предпринимателям, и их результаты.

**Ключевые слова:** малый бизнес и частное предпринимательство, хозяйственный инструмент, государственная концессия, малый бизнес, налоговая льгота, налог на добавленную стоимость.

**Abstract.** This scientific article analyzes the economic and organizational measures to support entrepreneurship in Uzbekistan in recent years, the benefits granted by the state to small businesses and private entrepreneurs, and their results.

**Key words:** small business and private entrepreneurship, economic tool, state concession, small business, tax concession, value added tax.

**Кириш.** Давлат томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш усулларига иқтисодий дастаклар ҳамда давлат имтиёзлари киради. Иқтисодий восита, дастаклар орқали тартибга солиш ўз ичига солиқ тизими, давлат бюджети, пул-кредит тизимлари ҳамда нарх орқали тартибга солишни олади. Давлат имтиёзларига қисман ёки тўлиқ солиқдан озод қилиш, субсидиялар бериш, кредит ва божхона имтиёзлари ҳамда бошқа имтиёзлар киради. Ташқи иқтисодий усулларга тадбиркорларга қўшма корхоналар тузиш, ўз маҳсулотларини экспорт қилишга қўмаклашиш ва бошқалар киради [1].

Давлатнинг кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланишини тартибга солиш ва қўллаб-қувватлашдан кўзлаган мақсади иқтисодиётнинг мутаносиб, барқарор ривожланиши, аҳолининг иш билан бандлигини таъминлаш асосида турмуш даражаси ва сифатини оширишдир.

Давлат томонидан соғлом рақобат муҳити, тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун қулай ишбилармонлик муҳити ва кенг эркинликлар яратилиши, тадбиркорлар фаолиятига давлат бошқаруви ва назорат органларининг ортиқча, ноўрин аралашувини қискартириш, ортиқча маъмурий-бюрократик тўсиқларнинг бартараф этилиши муҳим аҳамият касб этади [2].

Ўзбекистонда давлат томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш тизими яратилган бўлиб, у ўз ичига қуйидагиларни олади:

кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини рўйхатга олиш ва тугатиш тизимининг осонлаштирилганлиги ҳамда шаффофлиги;

солиқ ҳамда божхона имтиёзлари;

имтиёзли кредитлаш тизими;

давлат-хусусий шариклигини ривожлантириш тизими;

кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари эркинликларини кафолатлаш тизими;

фонд бозорини ривожлантириш тизими;

суғурталаш тизим;

хорижий инвестиция жалб этиш тизими;

ташқи иқтисодий фаолиятни рағбатлантириш тизими.

**Мавзунинг ўрганилганлик даражаси.** Турли мамлакатларда тадбиркорлик учун яратилган шарт-шароитлар ва ривожланиш динамикаси турли бўлгани сингари олимларнинг ҳам тадбиркорликни ривожлантиришга оид хулоса ва таклифлари ҳам турличадир. Жумладан:

Кжелл Гронхауг ва Олав Кветастейнларнинг “Distributional involvement in international strategic business units” [3] номли мақоласида ҳар қандай бизнес фирмасининг асосий хусусияти унинг бозорга боғлиқлиги, омон қолиш ва гуллаб-яшнаш учун, этарли миқдордаги мижозлар ўз маҳсулотларини таклифларини камида харажатларни қоплайдиган нархларда сотиб олишга тайёр бўлишлари кераклиги айтилади.

Мамлакатимизда эса Ё.Абдуллаев, Ш.Юлдашев, А.Ўлмасов, М.Шарифхўжаев, А.Ваҳабов, Ш.Шодмонов, Р.Алимов, Т.Жўраев, А.А.Кулматов, А.Ваҳобов, К.Курпаяниде, Р.Ходжаев, Э.Эгамбердиев, А.Ғофуров, Н.Тўхлиев, Қ.Ҳақбердиевлар томонидан тадбиркорлик ва унинг назарий-услубий асослари каби масалалар ўрганилган ҳамда таҳлил қилинган.

**Тадқиқот методологияси.** Мавзуни тадқиқ қилиш жараёнида индукция, дедукция, илмий абстракциялаш, анализ ҳамда синтез сингари илмий тадқиқот усулларида, шунингдек киёсий таҳлил усулларида ҳам кенг фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Тадбиркорлик субъектларини тоифаларга ажратиш мезонлари ҳамда солиқ сиёсати ва солиқ маъмуриятчилигини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони [4] қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, тадбиркорлик субъектлари қуйидаги мезонлар асосида тоифаларга ажратилади:

кичик тадбиркорлик субъектлари:

- якка тартибдаги тадбиркорлар;
- микрофирмалар – таъсисчилари (иштирокчилари) жисмоний шахслар бўлган ҳамда жами даромади календар йил давомида 1 млрд сўмгача бўлган тадбиркорлик субъектлари;
- кичик корхоналар – жами даромади календар йил давомида 1 млрд сўмдан 10 млрд сўмгача бўлган ҳамда ушбу кичик банднинг учинчи хатбошисидаги таъсисчилари (иштирокчилари) юридик шахслар бўлган тадбиркорлик субъектлари;
- ўрта тадбиркорлик субъектлари – жами даромади календар йил давомида 10 млрд сўмдан 100 млрд сўмгача бўлган тадбиркорлик субъектлари;
- йирик тадбиркорлик субъектлари – жами даромади календар йил давомида 100 млрд сўм ва ундан юқори бўлган тадбиркорлик субъектлари.

Тадбиркорлик соҳасида 2017-2022 йиллар давомида амалга оширилаётган ислохотларнинг бтиринчиси ушбу фармон эмас. Сўнгги олти йилда мамлакатда тадбиркорликни ривожлантиришга қаратилган 2 мингга яқин Қонун, Фармон ва Қарор қабул қилинди. Бунинг натижасида:

- тадбиркорлик соҳасида талаб этиладиган 114 турдаги лицензия ва рухсатнома бекор қилинди;

- 33 турдаги лицензия ва рухсатнома ўрнига хабардор этиш тартиби жорий этилди.

- солиқ турлари 13 тадан 9 тага камайтирилди;
- солиқ текширувлари тури 13 тадан 3 тага қисқартирилди;
- қўшилган қиймат солиғи ставкаси 20 фоиздан 15 фоизга камайтирилди;
- ижтимоий солиқ ставкаси 25 фоиздан 12 фоизга туширилди;
- 3,5 минг турдаги товарлар учун импорт божхона божи ва 1,1 минг турдаги товарлар учун акциз солиғи бекор қилинди;

- 3 мингдан зиёд турдаги товарлар учун импорт божхона божлари кескин камайтирилди.

2022-йил маълумотларига кўра, республикада фаолият кўрсатаётган тадбиркорлик субъектлари таркибида масъулияти чекланган жамиятлар 54,2 фоизни, фермер хўжаликлари 18,1 фоизни, хусусий корхоналар 15,3 фоизни, оилавий корхоналар 9,4 фоизни, деҳқон хўжаликлари 1,9 фоизни, бошқа шаклдаги субъектлар улуши 1,1 фоизни ташкил этган.

2017-йилда тадбиркорлик субъектлари сони 283 мингдан ортиқни ташкил этган. Тадбиркорликни ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш борасида сўнгги 6 йилда амалга оширилган ислохотлар натижасида бу кўрсаткич 2022-йил якунига келиб, 523 мингтадан ортиб кетди ёки 2017-йилдагига нисбатан 240 мингтага ёки 1,8 мартаба ортган.

1-жадвал

**2022 йилда ҳудудлар кесимида тадбиркорлик субъектлари сони [6]**

	Ҳудудлар	Кичик тадбиркорлик субъектлари сони	Ҳар 1000 кишига тўғри келувчи тадбиркорлар сони
1.	Тошкент ш.	106	36,89
2.	Тошкент	49	17,11
3.	Самарқанд	47	11,58
4.	Фарғона	46	11,97
5.	Андижон	39	12,44
6.	Қашқадарё	36	10,61
7.	Наманган	32	11,40
8.	Бухоро	30	15,76
9.	Сурхандарё	27	10,31
10.	Хоразм	25	13,08
11.	Жиззах	22	15,76
12.	Қорақалпоғистон Республикаси	22	12,17
13.	Навоий	22	21,97
14.	Сирдарё	15	18,12

Ўзбекистонда 2022-йил якунлари бўйича ҳар 1000 кишига тўғри келадиган тадбиркорлар сони ўртача 15 нафарни ташкил этади. Бу кўрсаткич Тошкент шаҳрида 36,8 нафарни, Навоий вилоятида 21,9 нафарни, Сирдарё вилоятида 18,1 нафарни, Сурхондарё вилоятида 10,3 нафарни, Қашқадарё вилоятида 10,6 нафарни, Наманган вилоятида 11,4 нафарни ташкил этган (1-жадвал).

2022-йил якунига келиб, кичик ва хусусий тадбиркорликнинг ЯИМдаги улуши 54,9 фоизга, қурилишда 72,4 фоизга ва бандлик соҳасида 74,4 фоизга етди [5].

**Хулоса.** Республикамизда ишбилармонлик муҳитини янада яхшилаш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ишончли ҳимоя қилинишини таъминлаш, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва жадал ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш борасида амалга оширилаётган комплекс чора-тадбирлар аҳоли даромадларининг ортишида, яшаш даражаси ва сифатининг яхшиланишида намоён бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони, 2016 йил 5 октябрь// Халқ сўзи, 2016 йил 6 октябрь.

2. Абулқосимов Ҳасан Пирназарович Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизми // Экономика и финансы (Узбекистан). 2018. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kichik-biznes-va-hususiyy-tadbirkorlikni-davlat-tomonidan-llab-uvvatlash-mehanizmi> (дата обращения: 22.04.2023).

3. Gronhaug, Kjell&Kvetastein, Olav. (1993). Distributional involvement in international strategic business units// International Business Review// Volume 2, Issue 1, 1993, Pages 1-14

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Тадбиркорлик субъектларини тоифаларга ажратиш мезонлари ҳамда солиқ сиёсати ва солиқ маъмуриятчилигини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони
5. <http://www.uzdaily.uz/uz/post/7886>
6. Давлат Статистика Қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган.

УЎК 338.45

## САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР

*Ф.А.Асимова, докторант, Тошкент Давлат Техника Университети, Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада саноат корхоналарида инновацион фаолиятига таъсир қилувчи омилларнинг илмий-услубий жиҳатлари таҳлил қилиб кўрсатилган ва моделлар ишлаб чиқилган.

**Калим сўзлар:** инновация, модел, ресурс, технологиял, интерактив модел, инновацион фаолият, трансформация.

**Аннотация.** В статье проанализированы научно-методические аспекты факторов, влияющих на инновационную активность промышленных предприятий и разработаны модели.

**Ключевые слова:** инновация, модель, ресурс, технологический, интерактивная модель, инновационная деятельность, трансформация.

**Abstract.** The article analyzes the scientific and methodological aspects of the factors influencing the innovative activity of industrial enterprises and develops models

**Keywords:** innovation, model, resource, technological, interactive model, innovation activity, transformation.

**Кириш.** Саноати корхоналари республика иқтисодиётининг саноат ва экспорт салоҳиятини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Экспорт фаолиятининг барқарор устунлик қилиши, қўшилган қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш ва миллий брендни шакллантириш тўқимачилик саноатининг жаҳон бозорида етакчи экспорт қилувчи давлатлар қаторига киришини белгилайди. Бу эса ўз навбатида корхоналарнинг ишлаб чиқариш қувватларини модернизациялаш заруратини келтириб чиқаради. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегиясида Президент Ш.Мирзиёев тўқимачилик саноати маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмини икки баробарга ошириш ва ушбу соҳадаги вазифа ва муаммолар ўз ечимини топиши мақсадга мувофиқлигини таъкидлаб ўтган. Республика тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш хомашё базасига эга бўлсада, аммо унга қайта ишлов бериш, юқори сифатли қўшимча қийматга эга маҳсулот яратиш жараёнини инновацион трансформациялаш борасидаги илмий тадқиқотлар кўламини янада кенгайтириш мақсадга мувофиқдир.

Саноат корхоналарида инновацион фаолиятига таъсир қилувчи омилларнинг илмий-услубий жиҳатлари С.Фриман, Э.М.Роджерс, Д.Френсис, Ж.Бессант, Й. Шумпетер, П.Ф.Друкер, Р.Г.Купер, Ф.Филипс, Х. Эдисон, Н. Вила, Б. Харсанто, Г.П.Писано<sup>3</sup> каби хориж олимлари томонидан чуқур ўрганилган. Саноат корхоналарида инновацион фаолиятни амалга ошириш масалалари МДХ олимларидан А.И.Анчишкин, Р.А.Фатхутдинов, Б.В.Засименко, Е.Н.Кузнецова, М.В.Цапенко, Т.Я.Красноперова, М.Е.Трубилин, Е.Ш.Мирзоева, А.Д. Хусейнова, Н.В.Линдер, 4 ва бошқа олимларнинг илмий изланишларида кенг ёритилган..


**Таҳлил ва натижалар.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 майдаги “Фаол тадбиркорлик ва инновацион фаолиятни ривожлантириш учун шарт-шароитларни яратиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги қарорига мувофиқ давлат хусусий шериклик шартларида инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологиялар маркази ташкил этилиши таъкидланди. Мамлакатимизда ишлаб чиқаришни модернизациялаштириш бўйича олиб борилаётган ислохотлар нафақат корхоналарда ишлатиладиган техника ва технология жараёнларини янгилашни, балки бошқарув ва ҳисобни ташкил этишда инновацион ёндашувни

талаб этади. Шу нуқатаи назардан корхоналарда ишлаб чиқарилган маҳсулотларни баҳолашнинг амалиётда қўлланиладиган айрим жиҳатларини тадқиқ этиш катта аҳамиятга эга.

Инновацион фаолият – мақсадга мувофиқ ташкил этилган ишлар мажмуи бўлиб, корхоналарда инновацион йўналиш доирасида ишлаб чиқариш, лойиҳа, техник, бошқарув, тижорат фаолиятига оид инновацион жараёнларини ҳаётга жорий этишдир.

Корхоналарда инновацион фаолият илмий, техник, технологик, ташкилий, молиявий ва тижорат тадбирлар мажмуи сифатида ривож топади.

Ушбу модел корхоналарда инновацияни бошқариш жараёнининг асосини ташкил этади. 1-расмда корхоналарда инновация фаолиятини бошқариш босқичларининг изчиллиги, яъни ахборотларни йиғиш, қайта ишлашдан то инновация фаолияти натижаларини жорий этишгача бўлган тадбирларни ўз ичига олади.



**1- расм. Корхона инновацион фаолиятининг асосий йўналишлари**

Корхоналар инновацион фаолиятининг стратегик бошқарувини жорий қилиш учун энг аввало бошқарувдаги кадрлар билим кўникма малакаларини ошириш, марказлашув даражасини камайтириш ва босқичлар орасидаги маълумот алмашиш тизимига янги ахборот технологияларини жорий қилиш, бошқарувдаги ходимларни инновацияга бўлган қизиқишини ошириш, рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш, ҳар бир бошқарувчини ўзига юклатилган вазифаларни аниқ ва тўлиқ тушуниши ҳамда уларни ўз вақтида бажаришини таъминлаш, норасмий мулоқотлар даражасини камайтиришга хизмат қилади. Иқтисодий тизимлар ривожланишининг инновацион турига ўтиш зарурати туфайли юзага келган объектив сабаблар, бутун инновацион-инвестицион жараёнда илмий-техникавий ва иқтисодий омилларнинг самарали равишда ўзаро ҳамкорликда ишлаш муаммоларини комплекс ҳал этилишини талаб қилади. Фикримизча, технологик ва иқтисодий салоҳиятларни оқилона уйғунлаштириш – инновацион- инвестицион жараёни бошқаришнинг марказий масаласини ташкил этади.

Омилларнинг кўплиги, уларни муайян белгилар бўйича таснифланишини амалга оширишга имкон беради.

Корхонанинг ташқи омилларига қуйидагилар киради: иқтисодиёт соҳасида давлатнинг инқирозга қарши қаратилган сиёсати; мамлакатдаги демографик вазият; сиёсий барқарорлик; фан ва техниканинг таракқиёти; транспорт инфратузилмасини ривожланганлиги.

Ички омиллар корхонанинг ички муҳитида, унинг кичик тизимларида (ходимлар, ишлаб чиқариш, маркетинг, сотиш, молия, ташкилий тузилма) шаклланади. Ички омилларни бошқариш корхонага барқарорликни мустаҳкамлашнинг резервларини аниқлаш ва ташқи омиллар ўзгарган тақдирда, ишлаб чиқаришни тезкор равишда бошқариш имконини беради.

Инвестицияларнинг иқтисодий самарадорлиги бутун ишлаб чиқариш самарадорлигининг таркибий қисмидир. Турли даражадаги хўжалик фаолиятида инвестицияларнинг иложи борича кўпроқ фойда, қайтим келтириши асосий вазифа қилиб белгиланади. Бу қоидадан четга чиқиш ресурсларни йўқотиш, жамиятнинг илгариги ва ҳозирги меҳнатини йўққа чиқаришга олиб келиши мумкин. Инвестицияларнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш зарурати, қўшимча капитал қўйилмалар киритилишини талаб қилувчи янги қурилиш, мавжуд ишлаб чиқаришни кенгайтириш, қайта тиклаш ва техник жиҳатдан қайта қурулантириш, ишлаб чиқаришни замонавийлаштириш ва ташкилий-техник чора-тадбирларни ишлаб чиқиш каби барча ҳолларда юзага келади. Бозор иқтисодиёти шароитида хўжалик юритиш субъектлари рақобатбардошлигини таъминлашнинг муҳим

омилларидан бири мазкур субъектларда инновацион фаолликни ошириш ҳисобланади. Ривожланган, бозор иқтисодиётини босиб ўтган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, инновациялар бозор иқтисодиётида фаол ўзгаришларни амалга ошириш ва ишлаб чиқариш самарадорлигини кўтариш вазифаларини бажариб, кучли ишлаб чиқариш салоҳиятини яратишда асос бўлиб хизмат қилади. Ишлаб чиқариш корхоналари рақобатбардошлиги янги технологиялар, товар ва хизматларни жорий этиш йўли билан шаклланиб боради. Шунинг учун ҳам корхона ва ташкилотларда инновацияларни самарали жорий этишга йўналтирилган миллий илмий-техник сиёсат олиб бориш зарур бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “..инновация - бу келажак дегани. Биз буюк келажакимизни барпо этишни бугундан бошлайдиган бўлсак, уни айнан инновацион ғоялар, инновацион ёндашув асосида бошлашимиз керак”. Бугунги кунда жаҳон ва миллий иқтисодиётнинг барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда иқтисодиётни инновацион ривожлантириш устувор аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “..саноатнинг 12 та етакчи тармоғида модернизациялаш ва рақобатдошликни кучайтириш дастурлари жадал амалга оширилмоқда. Натижада ўтган йили иқтисодий ўсиш 5,6 фоизни ташкил этди. Саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми 6,6 фоизга, экспорт — 28 фоизга кўпайди”. Хорижий тадқиқотчилар инновацияларни жараён сифатида кўриб чиқиб, инновацион жараён турларини аниқлашга эътибор қаратдилар. Шундай қилиб, Р. Ротвелл инновацион жараён моделларининг бештасини аниқлади(1-жадвал):

Ривожланган мамлакатлар ялпи ички маҳсулотининг 70–90 фоизи айнан инновация фаолиятини ривожлантириш ҳисобига яратилмоқда. Чунки дунё бозорида юқори технологиялар асосида ишлаб чиқилган илм талаб этиладиган маҳсулотлар улушида салмоғи юқори мамлакатлар ўртасидаги рақобат тобора кучайиб бормоқда.

1- жадвал

#### Инновацион жараён моделларини ишлаб чиқиш

Сана	Модель	Хусусиятлари
1-авлод 1950-60 йиллар	Технологияларни тарғиб қилиш	ушбу моделда инновацион жараён илмий тадқиқотлар, кейин янги маҳсулотни яратиш, уни ишлаб чиқариш ва маркетинг билан бошланади.
2-авлод 1970-80 йиллар	Бозор таъсири	ушбу моделда асосий элемент эҳтиёжлардир, истеъмолчилар, бозор тадқиқот учун янги ғоялар манбаи сифатида қаралади ва компания томонидан ишлаб чиқилган.
3-авлод 1980-90 йиллар	Интерактив модел	моделда илмий ва технологик ташкилотларнинг фикр-мулоҳазаларини, бозор, шунингдек технологик имкониятлар ва бозорнинг ўзаро таъсири муҳим рол ўйнайди.
4-авлод 1990-2000 йиллар	Интеграциялашган модел	ушбу моделда функционал ривожланиш, ахборотни қайта ишлаш самарадорлиги билан тавсифланади.
5-авлод 2000- х.д йиллар	Тармоқ модели	ушбу модел инновацион жараённинг қурилиши, тармоқ принципи ва инновацион бирликларнинг интеграцияси, компаниянинг ўзи ва ташқи ташкилотлар билан алоқаси билан тавсифланади.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш жоизки, тўқимачилик саноатини тубдан модернизация қилиш, ишлаб чиқариш жараёнида инновацион технологияларни қўллаш Ўзбекистонда амалга оширилаётган муҳим жараёнлардан биридир. Бу ҳолат тўқимачилик корхоналарни инновацион трансформациялаш юзасидан вужудга келадиган муаммоларни илмий жиҳатдан ўрганиш ва ривожлантиришни талаб қилади. Тўқимачилик корхоналарида сифатли қўшилган қийматли маҳсулот ишлаб чиқаришда инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш мақсадга мувофиқлиги тўғрисида қарор қабул қилиш учун харажатлар ва натижалар нисбатини акс эттирувчи ҳамда иқтисодий жозибдорлигини баҳолашга имкон берувчи ягона

кўрсаткичлар тизимини шакллантириш лозим.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожатномаси. Халқ сўзи газетаси. 29.12.2018й. №271-272
2. Мирзиёев Ш.М. 2020йил-илм маърифат ва рақамли иқтисодий ривожлантириш йили. Халқ сўзи//1-56. 25.01.20й.
3. Rothwell, R. Reindustrialisation and technology, Harlow : Longman /R. Rothwell, W. Zegveld. – USA: M.E. SHARPE, INC., 1985. – 271 p.
4. Мухамедьяров А.М. “Инновационный менеджмент” Учебник – М.: Инфра – М, 2010, - 21-32 с.

УЎК: 658.3.07

### ПЕРСОНАЛ МОТИВАЦИЯСИНING ЯПОНИЯ ТАЖРИБАСИ ТАҲЛИЛИ М.Ш.Ахмедов, таянч докторант, Наманган муҳандислик-технология институти, Наманган

**Аннотация.** Ушбу мақолада корхоналарда персонал мотивациясини ташкил этиши юзасидан Япония тажрибаси ва уни Ўзбекистон шароитида қўллаш йўллари атрофлича таҳлил қилинган. Шу билан бирга мамлакатимиз корхоналарида персонал мотивациясини ташкил этиши юзасидан Япония тажрибасининг зарурий жиҳатларини қўллаш бўйича тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** персонал, эҳтиёж, Япония тажрибаси, “Toyota” корпорацияси, мотивация, персонал мотивацияси, каизен, канбан.

**Аннотация.** В данной статье подробно проанализирован опыт Японии в организации мотивации персонала на предприятиях и пути его применения в условиях Узбекистана. При этом даны рекомендации по применению необходимых аспектов японского опыта в организации мотивации персонала на предприятиях нашей страны.

**Ключевые слова:** персонал, потребности, японский опыт, корпорация «Тойота», мотивация, мотивация персонала, кайдзен, канбан.

**Abstract.** This article analyzes in detail the Japanese experience in the organization of personnel motivation at enterprises and ways of its application in the conditions of Uzbekistan. At the same time, recommendations are given on the application of necessary aspects of Japanese experience in the organization of personnel motivation at the enterprises of our country.

**Key words:** personnel, needs, Japanese experience, Toyota Corporation, motivation, personnel motivation, kaizen, kanban.

Мамлакатимиз жаҳоннинг энг ривожланган давлатлари қаторидан жой олиш йўлида одимлаб бормоқда. Барча соҳаларда тадбиркорлик фаолияти кенг ривож топмоқда. Бу ривожланиш албатта кўп жиҳатдан янги техника-технологияларга боғлиқ. Лекин инсон омили асосий элементни ташкил қилади. Демак, корхона иқтисодий циклининг юксалиш фазасига чиқиши ва шу даражада барқарор туриши учун, корхона персонали ҳам шундай фазада бўлиши лозим. Бу эса персонал мотивациясини тўғри ташкил этиш орқали амалга оширилади.

Ҳозирги кунга келиб тадбиркорларимиз ўз корхоналарида ишчи персонал билан ишлашда, хусусан уларни иштиёқини доимий юқори ҳолатда бўлишини таъминлашда баъзи муаммоларга дуч келмоқдалар. Буни биз персонал мотивацияси бўйича ташкил этилаётган “online” ва “offline” курслардаги қатнашаётган тадбиркорлар салмоғини кўплигидан ҳам билишимиз мумкин. Персонал мотивацияси билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш учун ривожланган давлатларнинг энг илғор корхоналари методларидан ўрни келганда фойдаланиш янада яхшироқ самара беради. Шу нуқтаи-назардан, персонал мотивацияси бўйича хориж тажрибаларини доимий ўрганиб бориш долзарб ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар. Ҳозирги кунга қадар турли давлатларда корхоналар томонидан мотивациянинг турли усуллари қўлланиб келинмоқда. Мотивациянинг энг самарали усуллари Япония, Германия, Буюк Британия, Франция ва Швеция корхоналарида ишлаб чиқилган ва айни кунларда ҳам самарали қўллаб келинмоқда. Бошқарувда мотивацион жараёнларни

ташқил этишининг хориж тажрибалари бўйича изланиш олиб борган олимлар томонидан Америка ва Япония мотивацион моделлари атрофлича ўрганиб чиқилган.

Биз эса ушбу тадқиқотимиз асосида ўзбек менталитетига нисбатан яқинроқ бўлган Япония тажрибасини таҳлил қиламиз.

Японияда инсон қадрига алоҳида эътибор қаратилади, шу сабабли ҳам япон бошқарув мактаби дунёдаги энг илғор мактаблардан бири ҳисобланади. Япония ривожланган давлатлар орасида ҳам юқори ўринларга кўтарилиши унинг персонал билан ишлаш тизимини бутун дунё мамлакатлари томонидан кенг доирада таҳлили ортиб борди. Японлар энг асосий бойлик сифатида фақат инсоннигина кўришади. Япония менежерининг энг муҳим вазифаси – бу персонал билан ижобий алоқаларни йўлга қўйиш, корпорация билан бир оиласи сифатида муносабатларни ўрнатиш, ишчилар ва менежерлар тақдири битта эканлиги тўғрисида тушунчани яратиш[1]дир. Бундан кўриниб турибдики Япония бошқарув тизими жамоавийликка асосланади. Японлар корхоналарини бир бутун оила сифатида кўрадилар, шунинг учун ҳам улар корхона ривожини учун фидокорлик билан меҳнат қиладилар. Компания ходимларининг иш ҳақи уларнинг ҳақиқий натижаларига ва иш стажига боғлиқ. Японияда меҳнат мотивациясининг асосий таркибий қисмлари умрбод бандлик тизими, ходимларнинг норасмий шахслараро муносабатлари, ишда жамоавийлик, ходимларни ротация қилиш, корпоратив фалсафа, меҳнат ахлоқидир[2].

Яна эътибор бериш керак бўлган жиҳатлардан бири ҳар йиллик корхона бизнес режаси шакллантириладиганда ҳар бир персоналнинг ҳам мақсадлари кўриб чиқилади. Ҳар бир персоналнинг мақсади, умумманфаатга бирлаштирилади. Мақсади тўғрисида корхонанинг кизиқиши персоналга янада иштиёқ билан ишлашга мотивация беради.

Шу билан бирга Японияда меҳнатга умрбод ёллаш, иш стажини билан боғлиқ бонусларининг қўлланилиши, юқори бўғин ходимларининг қуйи бўғин ходимлари билан ишдан ташқари мулоқотнинг мавжудлиги ишчини рағбатлантирувчи асосий мотивлардир. Персонал билан ишлашда мотивациянинг замонавий усуллари билан анъанавий усуллари уйғунлигини ва мотивациянинг мослашувчан характерга эга эканлигини айнан Япония менежмент мактабида кузатишимиз мумкин.

Япония корхоналари ишчиларида эътибор беришимиз керак бўлган жиҳатлардан бири корхона умумий манфаатини шахсий манфаатдан устун қўйишидир. Шу сабабли Японияда меҳнат унумдорлигининг ўсиши ишчиларнинг иш ҳақининг ўсишидан устундир. Бунинг асосий сабабларидан яна бири қарор қабул қилиш жараёнини ҳам мотивацион руҳда ташқил этилишидир.

Японларнинг бошқарув қарорларини қабул қилиш борасидаги амалиёти кўплаб хорижий менежерларни ҳайратлантиради. Қарор қабул қилиш жамоавий тартибда амалга оширилиб, умумий қарор консенсус орқали ҳал этилади. Улар таклиф қилинган қарорни ташқилот ичида умумий келишув мавжуд бўлмагунча муҳокама қилиб, яқдил фикрга, тугал тўхтамга келингандан сўнг қабул қиладилар[3]. Бу қарор қабул қилиш модели «Ringi» деб номланади. Ринги атамаси Япония бошқарув тизимида пастдан юқорига қарор қабул қилиш жараёнига ишора қилади[4]. Гитам университети доктори Шрилатитха Гирижа Кумари Саги ўз тадқиқотларида қарор қабул қилишнинг бу турини тўлиқ изоҳлашга ҳаракат қилиб, унинг пастдан юқорига қараб ҳаракат қилиши қарор қабул қилишнинг энг муҳим омили эканлигини таъкидлаган[5]. Бу қарор қабул қилиш тури ишчиларга яхши ишлашга мотивация беришининг асосий сабаби, улар ўз ижодий фикрларини корхонада доим инбатга олинишини ҳис қилиб туришларидир. Нафақат янги ихтиролар, фойдали моделлар, ишланмалар яратишда бу усулдан фойдаланилади, балки корхона ихтиёрий лойиҳалар ишлаб чиқишда, бошқа корхоналар билан шартнома тузишда, ички тартибдаги ўзгаришлар ва бошқалар учун розилик олишга "Ringi-sho" номли хужжат тарқатилади. Албатта бундай қарор қабул қилиш тури кўп вақт талаб қилади. Лекин унинг энг самарали томонларидан бири шуки, яқунда қарор ҳақиқий мутахассиснинг фикрига асосланиб қабул қилинади. Умуман бу қарор қабул қилиш тури жамоа бўлиб ишлайдиган корхоналар учун мотивацион таъсирга эгадир. Ўзбек халқи ҳам

бирдамликни яхши кўрадиган халқ бўлганлиги учун айнан корхонанинг ҳар бир ишчисини қарорлар муҳокамасида иштирок этишга жалб қилиш, уларга қўшимча мотивация беради.

Япония тажрибаси бўйича кейинги кўрадиган тушунчамиз “**Каизен**” фалсафасидир. Бу япон бизнесини жадал ривожланишига туртки берган асосий иш услубларидан биридир. Кайзен икки японча сўзнинг (кай + зен) бирикмаси бўлиб, сўзма-сўз "яхши томонга ўзгариш" деган маънони англатади. Бу услубда ҳар бир инсон мунтазам равишда кичик такомиллаштириш таклифлари билан чиқишга чақирилади[6]. Бу атама корхоналарда ишчилар ва турли операцияларни яхши томонга ўзгариши, доимий такомиллашиб бориши нуқтаи-назаридан қўлланилиб келинмоқда. Аввало бу атама “Toyota motor” корпорациясида 1951 йилда ишчилар томонидан креатив ғояларни бериш тизимини жорий этилишидан бошлаб қўлланила бошланди. Каизеннинг отаси ҳисобланган Масааки Имаи дунё миқёсида каизенни тизимли бошқарув методологияси сифатида “Каизен: Япониянинг рақобатбардош муваффақияти калити” (1986) асарида жорий қилди. Бугунги кунда турли соҳалардаги ташкилотлар каизенни ўзларининг асосий кадриятларининг бир қисми сифатида қабул қиладилар ва олти сигма ва таянч концепциялари билан кундан-кунга доимий такомиллаштиришни амалга оширадилар[7]. Бу усул асосида ишчилар ҳам ўз ишларини доимий такомиллаштириб боришлари зарур бўлади. Бунинг учун уларга айнан шу усулнинг ўзи бир томондан мотиватор бўлиб ҳисобланади. Каизен тизими асосида мунтазам равишда кичик ижобий ўзгаришлар катта натижаларга олиб келиши ётади. Каизен моделини зарурий элементларидан яна бири барча иш қуроллари ўз жойида туриши ва уларга доимий эътиборли бўлиш ва чиқиндиларни доимий равишда бартараф этиш ҳисобланади. Бу эса ишчидаги мотивацияни тушиб кетишини олдини олади. Чунки фойдаланиладиган асбоб-ускуналар доимий равишда ўз ўрнида туриши учун ишчи бириктирилган. Каизен қўлланиши натижасида ўринсиз вақт йўқотишлар сезиларли равишда камаяди. Мотивация назарияси билан боғлиқ ҳолда, каизен фалсафаси бир қатор тизимларни таклиф қилади:

- умрбод бандлик тизими;
- ходимларни тайёрлаш тизими;
- меҳнат алмашинуви тизими;
- мукофот тизими;
- оқилона таклифлар тизими[8].

Японияни энг катта ютуқларидан бири персонал айна вазиятидан қониқмаган ҳолатда доимий ўсиш сари интилишидир.

Япон корхоналари бошқарув тизимида “**NENKO**” деб номланган тамойилдан фойдаланилади. Унга кўра персонал стажига қараб иш ҳақи белгилаб борилади. Яъни корхонада ишлаган ёши ва тажрибасига қараб иш ҳақи ҳам ортиб боради. “NENKO” тамойилининг асосида бир ишчининг айнан бир корхонада қолиши туради. Шунинг учун ишчи бир корхонадан бўшаб бошқа корхонага ишга кирса барча бонуслардан маҳрум бўлади.

Японияда умрбод бандлик тизими ҳозирда кўп корхоналарда қўлланилмаётган бўлсада, лекин ишчиларни иш жойларини тез-тез алмаштириши камдан-кам ҳолларда учрайди. Чунки японларда бир компанияда узоқ вақт ишлашлари жасорат ҳисобланади. Шу билан японлар юқори даражада ватанпарвар халқ эканлиги намоён қиладилар.

Японияда мавжуд бўлган мотивацион бошқарув усулларидан яна бири “**Канбан**” усули бўлиб, у “Toyota” корпорацияси томонидан ишлаб чиқилган. Бу харита, ёрлик маъносини англатади. Канбан тахтасига бажарилаётган, бажарилган, бажарилиши керак бўлган ишлар туширилади. Бу ўз ўрнида топшириқларни ўз вақтида бажаришга туртки берган. Шу билан бирга бу ишчилар миясини ортиқча маълумотдан тозалаб, концентрацияси яхшиланишига имкон берган. Персонал концентрациясини яхшиланиши чиқарилаётган маҳсулот сифати ва миқдорига бевосита боғлиқдир.

“Toyota” модели ходимларга қарамликни камайтиришдан кўра, уларга кўпроқ таянади. Компанияда раҳбарлар кўпинча ўз ходимларини рағбатлантирадилар ва ёрдам беришади. Ҳар қандай ходим муаммога дуч келганда, хўжайин ҳам, ҳамкасблари ҳам ишни бажариш учун тегишли ёрдамни кўрсатишга борадилар. Чунки улар жамоавий руҳ муҳим деб ҳисоблайдилар.

Бу уларга нафақат ишни муаммосиз яқунлаш, балки юксак шахсий ютуқларга эришиш имконини берди[9]. Шунини ўзи ҳам “Toyota” корпорацияси инсон кадрига алоҳида аҳамият берилишини билдиради.

Япония тарихан бирдамликни яхши кўрадиган халқ бўлганлиги учун ҳам корхоналарда гуруҳий натижалар, индивидуал натижалардан устун туради. Гуруҳ ичида рақобат бўлмайди, аксинча гуруҳлар ўртасида рақобат ташкил қилинади. Шу жиҳатдан ўзбек менталитетига ҳам кўпроқ мослик ҳосил қилади.

Энг асосийси Япония корхоналарида иш ҳақи тизимига асосланиб мотивация қилиш жараёни юксак даражада шаклланиган. Умумий иш ҳақининг шаклланишига таъсир қилувчи омилларга асосий мотиватор сифатида қаралади. Стажга, ёшга, натижага қараладиган кўпчилик тизим бизга таниш, лекин баъзи таъсир омилларини келтириб ўтиш фойдадан ҳоли бўлмайди. Хусусан Япониядаги корхоналарнинг аксарияти нафақа ҳам тўлайди. Деярли 90 фоиз корхоналар транспорт учун нафақа тўлайди. Умуман олганда Япония дунёдаги юқори иш ҳақи берадиган давлатлардан биридир. Яъни японияда иш ҳақитўлаш тизими персонални яхши ишлашга ундовчи асосий омиллардан биридир.

Меҳнатга ҳақ тўлашнинг японча моделлари хилма-хил бўлгани ҳолда асосий хусусиятни ажратиш мумкин.

Узоқ муддат хизмат қилганлик учун ҳақ тўлаш тизими. Албатта бу тизимда персонал ишлаган муддати кўпайиб боргани сари унинг тажрибаси ошиб бориши ҳам инобатга олинган. Бу узоқ йиллик япон тажрибасида ўзини тўлиқ оқлаган тизим ҳисобланади. Шу билан бирга персонал ҳаётида содир бўладиган ўзгаришлар, яъни чўққилар билан боғлиқ бўлган хусусият, яъни персонал ўқишни битириб ишга кирди. Унга дастлабки ойлик белгиланади. У уйланганда, фарзанд кўрганда, ўй-жой олаётганда ҳар сафар ойлиги оширилади. Бу эса персоналга яхшигина мотивация бўлади.

Япония тажрибасини тадқиқ этиш асосида ўзбек корхоналаридаги мотивацион тизимдаги мавжуд муаммоларни бартараф этиш ва бошқарув тизими самарадорлигини ошириш юзасидан қуйидаги тавсияларни ишлаб чиқдик:

- Корхонанинг асосий миссиясини, яъни энг асосий кадриятини ҳар бир персонал учун асосий мотивация берувчи кадриятга айлантириш;

- Доимий равишда меҳнат натижалари, тажрибага асосланган иш стажи, малакасида келиб чиққан ҳолда адолатли ҳақ тўлаш тизимини такомиллаштириш;

- Корхона ишчиларида шахсий манфаат устунлигини бартараф қилиб, умумманфаат асосида ишлашни ташкил этиш учун раҳбарлар, менежерларнинг асосий эътибори фойда билан биргаликда, ишчиларнинг фаровонлигини таъминлашга қаратилиши ва у корхонанинг асосий мақсади эканлигини амалда барча билишлиги;

- Персоналга ҳақ тўлаш тизимида унинг эҳтиёж даражаларини инобатга олиб тизимли тўлов тизимини такомиллаштириш;

- Каizen тизимини такомиллаштириб жорий қилиш ва унинг асосида ҳар кунлик, ҳафталик, ойлик, йиллик ривожланиш мониторингини юритиш;

- Корхонада режали равишда доимий ўқитувлар, илмий тадқиқот фаолиятларини ташкил этиш даркор.

Хулоса қилиб айтганда, келтирилган тавсияларни амалга оширилиши, ишчи персоналга бўлган эътибор сезиларли равишда яхшиланишига, уларнинг ҳар иш кунда юқори мотивация билан иш олиб боришига олиб келади. Бунинг натижасида корхона ижтимоий-иқтисодий самарадорлиги кундан-кунга яхшиланиб бориши кузатилади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Володина А. С. Сравнительная характеристика японского, американского и европейского менеджмента // Молодой ученый. - 2010. №1–2. Т. 1. - С. 173

2. Ильченко С.В. Исследование зарубежного опыта мотивации трудовой деятельности персонала // Бизнес и дизайн ревю. 2021. №1 (21). С. 4. (электронный ресурс). <https://obe.ru/journal/vypusk-2021-1-mart/ilchenko-s-v-issledovanie-zarubezhnogo-opyta-motivatsii-trudovoj-deyatelnosti-personala/>

3. Howard F. Van Zandt, “How to Negotiate in Japan”, HBR November–December 1970, p. 45. [Electronic resource] URL: <https://hbr.org/1970/11/how-to-negotiate-in-japan> (access 05.03.2020).

4. <https://www.inventurejapan.com/culture/business/ringi>.

5. Sagi, Srilalitha, 'Ringi System' The Decision Making Process in Japanese Management Systems: An Overview. (April 10, 2015). International Journal of Management and Humanities, ISSN: 2394–0913, Volume-1 Issue-7, April 2015. Available at SSRN: [Electronic resource] URL: <https://ssrn.com/abstract=2597083> (access 15.03.2023).

6. Ashish Jain, The Kaizen Philosophy for Industries : A Review Paper

7. <https://safetyculture.com/topics/kaizen-continuous-improvement/>.

8. В.О.Моисеева. Особенности мотивационной системы японского менеджмента и возможности её применения в российских компаниях. Электронный научно-практический журнал «Экономика и менеджмент инновационных технологий». <https://ekonomika.snauka.ru/2014/03/4343>

9. <https://managementhacks.wordpress.com/2013/05/10/leading-in-toyota/>.

УЎК 379.85

## ИННОВАЦИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИНГАНЛИК ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ ОРҚАЛИ ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Д.Й.Бекжанов, PhD, доц., Урганч давлат университети, Урганч*

**Аннотация.** Мақолада инновацияларни жорий қилинганлик даражасини аниқлаш орқали туристик дестинацион менежмент механизmlарини такомиллаштириш тадқиқ қилинган.

**Калим сўзлар:** менежмент, туристик дестинация, туристик дестинацион менежмент, инновация, иқтисодий модел

**Аннотация.** В статье рассматривается совершенствование механизмов управления туристской дестинацией путем определения уровня внедрения инноваций.

**Ключевые слова:** менеджмент, туристская дестинация, менеджмент туристской дестинации, инновации, экономическая модель

**Annotation.** The article discusses the improvement of mechanisms for managing a tourist destination by determining the level of innovation.

**Key words:** management, tourist destination, tourist destination management, innovations, economic model

**Кириш.** Янги Ўзбекистонни барпо қилиш ва мамлакатимизни барқарор ривожлантиришнинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясида туризм соҳасини ривожлантиришнинг ўрта муддатларга мўлжалланган устувор йўналишлари белгиланган. Хусусан, “2025 йилда юртимизга ташриф буюрадиган хорижий сайёҳлар сонини 7 миллион нафарга, туризм экспортидан келадиган йиллик даромадни эса 2 миллиард долларга етказиш лозим”, – деб таъкидланган [1]. Шунингдек, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг 35-мақсадида “мамлакат иқтисодиётининг устувор тармоқлари сифатида туризмни жадал ривожлантириш асосий мақсад сифатида белгиланган” [2]. Шу боис мамлакатимиз туристик салоҳиятидан самарали фойдаланиш, ҳудудларда ривожланган мамлакатларда самара бераётган, халқаро талабларга мос келадиган туристик дестинацияларни ташкил қилиш ва бошқариш, инновацион ёндашувлар асосида туристик дестинацион менежментни қўллаш, туристик инфратузилмаларни ривожлантириш, моддий ва маънавий мерос объектларини асраб авайлаш, туризм соҳасини рақамли трансформациялаш, ақлли технологияларни қўллаш, соҳани стратегик секторга айлантиришни жадаллаштириш бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш долзарб масалалар қаторига киради.

**Тадқиқот материаллари ва усуллари.** Мақолада илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, тизимли таҳлил, ва иқтисодий моделлаштириш усуллардан фойдаланилган.

Иқтисодиёт соҳасига оид илмий тадқиқот ишларида туристик дестинацион менежмент механизmlарини такомиллаштириш масалалари 3 та йўналишга ажратилган холда ўрганилган.

Биринчи йўналишдаги илмий тадқиқот ишларида туристик дестинацион менежмент механизmlарини ёритишда жуғрофий мезонлар асос сифатида олинган. Бунда жуғрофий қулайлик сифатида туристик дестинацияни жойлашган ўрни, транспорт хизмати кўрсатиш учун қулайлиги, туристик марказларга яқинлик даражаси ва бошқа омиллар белгиланади.

Иккинчи йўналишдаги илмий тадқиқот ишларида туристик дестинацион менежмент механизмларини такомиллаштириш турли хил методологик тизимлаштириш мезони асосида ёритилган (1-жадвал).

1-жадвал.

Методологик тизимлаштириш асосида туристик дестинацион менежментни илмий тадқиқот қилиш

Тадқиқот предмети	Илмий-тадқиқот олиб борган олимлар
Дестинацияни бошқариш	Т. Бигер[3], Н. Козак [4], Е.Фишер [5], Н. Ибрагимов [6]
Стратегик менежмент	Н.Эванс [7], Э.Инскееп[8], Н. Муррай[9]
Рақобатлашиш бўйича методологик саволлар	Х. Пехланер[10], Г. Крауч ва Ж. Риччи [11], Б.Наврўззода [12]
Барқарор ривожлантириш	Ж. Сварброке[13], А. Харди[14]
Рақамлаштириш ва инновациялар	Д. Бухалис[15], Лопес де Авила [16], Д. Бекжанов [17]

Учинчи йўналишдаги илмий тадқиқот ишларида туристик дестинацион менежментни ўрганиш иқтисодий моделлар асосида амалга оширилган бўлиб, бу йўналиш ҳозирги кунда энг оммобоп ҳисобланади. Бунда туристик дестинацияни рақобатбардошлигини ошириш механизмларини ўрганиш, туристик дестинацион менежментда инновацияларни турган ўрнини баҳолаш ва уларни жорий қилиш имкониятларини ўрганишга эътибор қаратилган.

**Тадқиқот натижаси.** Тадқиқот ишимизда туристик дестинацияга инновацияларнинг жорий қилинганлик даражасини аниқлаш бўйича иқтисодий моделлар ишлаб чиқилди. Бунда туристик дестинацион менежмент тизимидаги ҳар бир туристик инфратузилма корхонасига инновацияларнинг жорий қилинганлик даражасини аниқлашга эътибор қаратилган. Тадқиқотда туристик маҳсулотни яратишда қўшилган қиймат занжирига киритилган, ўз фаолиятига инновацияларни жорий қиладиган асосий туристик инфратузилма корхоналари, жумладан, меҳмонхона ва бошқа жойлаштириш воситалари, овқатланиш ва транспорт хизмат кўрсатувчи корхоналар танлаб олинади. Асосий туристик инфратузилма корхоналари фаолиятида амалга оширадиган асосий вазифалар бўйича инновацион ўзгарувчилар аниқланади ва уларни ўлчаш кўрсаткичлари белгиланади (2-жадвал).

2-жадвал

Туристик дестинацияга инновациялар жорий қилинганлик даражасини баҳолаш

Туристик инфратузилма корхоналари	Ўзгарувчилар	Баҳолаш кўрсаткичлари
Меҳмонхона ва бошқа жойлаштириш воситалари	Архитектура/ Дизайн (JV <sub>1</sub> ) Хизмат кўрсатиш сифати (JV <sub>2</sub> )  Овқатланиш (JV <sub>3</sub> )  Анимацион дастурлар (JV <sub>3</sub> ) Маркетинг (JV <sub>4</sub> )  Ахборот технологиялари(JV <sub>5</sub> )	Бинонинг ташқи фасади (jv <sub>1a</sub> ) ва ички тузилиши (jv <sub>1b</sub> ) бўйича инвестициялар Товар белгиси (jv <sub>2a</sub> ), сифат стандарти(jv <sub>2b</sub> ), мижозлар шикоят-ларини ўрганиш (jv <sub>2c</sub> ), сотишдан кейинги хизматлар (jv <sub>2d</sub> ) Овқатланиш вақтининг тўғри белгиланганлиги(jv <sub>3a</sub> ), кун бўйи овқатланиш имконияти (jv <sub>3b</sub> ) Янги анимацион дастурлар сони(jv <sub>4a</sub> ) ва янги мавзуларни қамраб олиш доираси(jv <sub>4a</sub> ) Алоҳида қизиқишга эга гуруҳлар билан ишлашга ихтисослашиш (jv <sub>5a</sub> ), мижозлар билан доимий алоқа (jv <sub>5b</sub> ), янги сотиш каналлари (jv <sub>5c</sub> ) Веб саҳифанинг мавжудлиги (jv <sub>6a</sub> ), ижтимоий тармоқларга фаоллик (jv <sub>6b</sub> ), халқаро бронлаштириш тизимига кириш (jv <sub>6c</sub> ), ақлли технологияларнинг жорий қилинганлиги (jv <sub>6d</sub> )
Овқатланиш корхоналари	Архитектура/ Дизайн (O <sub>1</sub> ) Хизмат кўрсатиш сифати (O <sub>2</sub> ) Анимацион дастурлар (O <sub>3</sub> ) Маркетинг (O <sub>4</sub> )  Ахборот технологиялари (O <sub>5</sub> )	Бинонинг ташқи фасади (o <sub>1a</sub> ) ва ички тузилиши (o <sub>1b</sub> ) бўйича инвестициялар Товар белгиси (o <sub>2a</sub> ), сифат стандарти(o <sub>2b</sub> ), мижозлар шикоят-ларини ўрганиш (o <sub>2c</sub> ) Янги анимацион дастурлар сони(o <sub>3a</sub> ) ва янги мавзуларни қамраб олиш доираси(o <sub>3a</sub> ) Турли хил овқатланиш концепциялари сони (o <sub>4a</sub> ) ва ўзга хос таомнома (o <sub>4b</sub> ), алоҳида қизиқишга эга гуруҳлар билан ишлаш(m <sub>4a</sub> ),

		Веб саҳифанинг мавжудлиги ( $o_{5a}$ ), ижтимоий тармоқларги фаоллик ( $o_{5b}$ ), халқаро бронлаштириш тизимига кириш ( $o_{5c}$ ), ақлли технологияларнинг жорий қилинганлиги ( $o_{5d}$ )
Транспорт корхоналари	Хизмат кўрсатиш сифати ( $T_1$ )  Маркетинг ( $T_2$ )  Ахборот технологиялари ( $T_3$ )	Хизмат сифати ( $t_{1a}$ ), вақтининг тўғри белгиланганлиги ( $t_{1b}$ ), узлуксиз хизмат кўрсатиш имконияти ( $t_{1b}$ ), мижозлар шикоятларини ўрганиш ( $t_{1c}$ ) Алоҳида гуруҳлар билан ишлаш ( $t_{2a}$ ), мижозлар билан доимий алоқа ( $t_{2b}$ ), янги сотиш каналлари ( $t_{2c}$ ) Веб саҳифанинг мавжудлиги ( $t_{5a}$ ), ижтимоий тармоқларги фаоллик ( $t_{5b}$ ), халқаро бронлаштириш тизимига кириш ( $t_{5c}$ ), ақлли технологияларнинг жорий қилинганлиги ( $t_{5d}$ )
Бошқа туристик корхоналар	Хизмат кўрсатиш сифати ( $TF_1$ )  Маркетинг ( $TF_2$ )  Ахборот технологиялари ( $TF_3$ )	Хизмат сифати ( $tf_{1a}$ ), вақтининг тўғри белгиланганлиги ( $tf_{1b}$ ), узлуксиз хизмат кўрсатиш имконияти ( $tf_{1b}$ ), мижозлар шикоятларини ўрганиш ( $tf_{1c}$ ) Алоҳида гуруҳлар билан ишлаш ( $tf_{2a}$ ), мижозлар билан доимий алоқа ( $tf_{2b}$ ), янги сотиш каналлари ( $tf_{2c}$ ) Веб саҳифанинг мавжудлиги ( $tf_{5a}$ ), ижтимоий тармоқларги фаоллик ( $tf_{5b}$ ), халқаро бронлаштириш тизимига кириш ( $tf_{5c}$ ), ақлли технологияларнинг жорий қилинганлиги ( $tf_{5d}$ )

**Манба:** муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган

Юқоридаги жадвал маълумотлари асосида биз туристик инфратузилма корхоналари фаолият соҳалари бўйича туристик дестинация учун муҳим бўлган инновацияларни жорий қилинганлик даражасини ҳисоблашнинг қуйидаги формулалари таклиф қилдик (2-жадвал).

2-жадвал

**Туристтик инфратузилма корхоналари фаолият соҳалари бўйича инновациялар жорий қилинганлик даражасини аниқлаш формулалари [2]**

Туристтик хизмат кўрсатувчилар	Таклиф қилинган формулалар
Меҳмонхона ва бошқа жойлаштириш воситалари	$ID(JV) = f(JV_1 + JV_2 + JV_3 + \dots + JV_n)/n \quad (3)$ <p>Бу ерда:  <b>ID(JV)</b> – Меҳмонхона ва бошқа жойлаштириш воситаларида инновация жорий қилинганлик даражаси  <b>JV<sub>1-n</sub></b> – Меҳмонхона ва бошқа жойлаштириш воситаларидаги инновацион ўзгарувчилар  <b>n</b> – Меҳмонхона ва бошқа жойлаштириш воситаларидаги инновацион ўзгарувчилар сони</p>
Овқатланиш корхоналари	$ID(O) = f(O_1 + O_2 + O_3 + \dots + O_n)/n \dots \dots (4)$ <p>Бу ерда:  <b>ID(O)</b> – Овқатланиш корхоналарида инновация жорий қилинганлик даражаси  <b>O<sub>1-n</sub></b> – Овқатланиш корхоналаридаги инновацион ўзгарувчилар  <b>n</b> – Овқатланиш корхоналаридаги инновацион ўзгарувчилар сони</p>
Транспорт корхоналари	$ID(T) = f(T_1 + T_2 + T_3 + \dots + T_n)/n \quad (5)$ <p>Бу ерда:  <b>ID(T)</b> – Транспорт корхоналарида инновация жорий қилинганлик даражаси  <b>T<sub>1-n</sub></b> – Транспорт корхоналаридаги инновацион ўзгарувчилар  <b>n</b> – Транспорт корхоналаридаги инновацион ўзгарувчилар сони</p>
Бошқа туристик корхоналар	$ID(TF) = f(TF_1 + TF_2 + TF_3 + \dots + TF_n)/n \quad (5)$ <p>Бу ерда:  <b>ID(TF)</b> – Бошқа туристик корхоналарда инновация жорий қилинганлик даражаси  <b>TF<sub>1-n</sub></b> – Бошқа туристик корхоналардаги инновацион ўзгарувчилар  <b>n</b> – Бошқа туристик корхоналардаги инновацион ўзгарувчилар сони</p>

**Манба:** муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган

Юқоридаги формулалар ёрдамида туристик дестинациядаги туристик инфратузилма корхоналари фаолиятига инновацияларни жорий қилинганлик даражаси ҳисобланади. Бу ҳисоблаш услубининг афзаллик томони шундаки, турли туристик дестинациядаги туристик хизмат кўрсатувчилар фаолиятидаги инновация даражасини ҳисоблаш, уларнинг ўзаро рақобатлашиш қобилиятини аниқлаш имконини ҳам беради.

Шу асосда туристик дестинацияга инновацияларни жорий қилинганлик даражасини аниқлаш бўйича қуйидаги биринчи интеграллашган формулани таклиф қиламиз. Манба: муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган:

$$ID(TD) = f[ID(JV) + ID(O) + ID(T) + ID(TF)]/n \quad (6)$$

Бу ерда:

**ID (TD)** – туристик дестинацияга инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**ID (JV)** – Меҳмонхона ва бошқа жойлаштириш воситаларида инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**ID (O)** – Овқатланиш корхоналарида инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**ID (T)** – Транспорт корхоналарида инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**ID (TF)** – Бошқа туристик корхоналарда инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

3-жадвал

**Туристик инфратузилма корхоналарнинг вазифалари бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражасини аниқлаш бўйича формулалар**

Вазифалар	Таклиф қилинган ҳисоблаш формуласи
Архитектура/ Дизайн	$ID(AD) = f[AD(JV) + AD(O) + \dots + AD(N)]/n \quad (7)$ <p>Бу ерда:            ID(AD) – Архитектура ва дизайн бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси            AD<sub>1-n</sub> – Архитектура ва дизайн бўйича инновацион ўзгарувчилар            n – инновацион ўзгарувчилар сони</p>
Хизмат кўрсатиш сифати	$ID(S) = f[S(JV) + S(O) + \dots + S(N)]/n \quad (8)$ <p>Бу ерда:            ID(S) – Хизмат кўрсатиш сифати бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси            S<sub>1-n</sub> – Хизмат кўрсатиш сифати бўйича инновацион ўзгарувчилар            n – инновацион ўзгарувчилар сони</p>
Анимацион дастурлар	$ID(D) = f[D(JV) + D(O) + \dots + D(N)]/n \quad (9)$ <p>Бу ерда:            ID(D) – Анимацион дастурлар бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси            D<sub>1-n</sub> – Анимацион дастурлар бўйича инновацион ўзгарувчилар            n – инновацион ўзгарувчилар сони</p>
Маркетинг	$ID(M) = f[M(JV) + M(O) + \dots + M(N)]/n \quad (10)$ <p>Бу ерда:            ID(M) – Маркетинг бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси            M<sub>1-n</sub> – Маркетинг бўйича инновацион ўзгарувчилар            n – инновацион ўзгарувчилар сони</p>
Ахборот-коммуникация технологиялари	$ID(IT) = f[IT(JV) + IT(O) + \dots + IT(N)]/n \quad (11)$ <p>Бу ерда:            ID(IT) – Ахборот технологиялари бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси            IT<sub>1-n</sub> – Ахборот технологиялари бўйича инновацион ўзгарувчилар            n – инновацион ўзгарувчилар сони</p>

**Манба: Манба: муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган**

Туристик дестинация инновациялар жорий қилинганлик даражасини аниқлашда туристик инфратузилма корхоналари фаолиятидаги вазифалар доирасидан келиб чиққан ҳолдаги ёндашувни ҳам амалда қўллаш мумкин. Биз 3-жадвалдаги маълумотлар асосида туристик инфратузилма корхоналари фаолиятидаги асосий вазифаларни алоҳида ҳисобга олган ҳолда туристик дестинация учун муҳим бўлган инновациялар жорий қилинганлик даражасини ҳисоблашда юқоридаги формулаларни таклиф қиламиз (3-жадвал).

Келтирилган формулалар асосида туристик дестинация фаолиятига инновацияларни жорий қилинганлик даражасини аниқлаш бўйича юқоридаги формулага муқобил бўлган иккинчи интеграллашган формулани таклиф қилами [2].

$$ID(TD) = f[ID(AD) + ID(S) + ID(D) + ID(M) + ID(IT)]/n \quad (12)$$

Бу ерда:

**ID (TD)** – туристик дестинацияга инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**ID(AD)** – Архитектура ва дизайн бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**ID(S)** – Хизмат кўрсатиш сифати бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**ID(M)** – Маркетинг бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**ID(IT)** – Ахборот-коммуникация технологиялари бўйича инновацияларни жорий қилинганлик даражаси, фоизда

**Хулоса.** Тадқиқотда туристик дестинацияларга инновацияларни жорий қилинганлик даражасини аниқлаш орқали туристик дестинацион менежмент доираси ва ундаги вазифаларни бажариши бўйича таҳлилларни амалга ошириш, ҳамда энг яхши ёки энг ёмон фаолият юритаётган туристик корхоналарни баҳолаш, шунингдек, туристик дестинацион менежмент учун муҳим саналган рақобатбардош туристик дестинацияларни аниқлаш имконияти пайдо бўлади. Бунда туристик дестинацияларнинг ўзига хос бўлган жиҳатларини аниқлаш, ички имониятлардан самарали фойдаланиш бўйича чора-тадбирлар дастурларини ишлаб чиқиш, бошқарув тизимини такомиллаштириш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш лозим.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 29 декабрь
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли Фармони.
3. Bieger, T., Beritelli P. Management von Destinationen und Tourismusorganisationen, 8. Aufl., Oldenburg. München 2013
4. Kozak N, Kozak M. Tourist Destination Management: Instruments, Products, and Case Studies. Springer Nature International Switzerland AG, 2019, p12.
5. Fischer, E. Das kompetenzorientierte Management der touristischen Destination – Identifikation und Entwicklung kooperativer Kernkompetenzen, Wiesbaden, 2009, S 70
6. Ибрагимов Н. С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда дестинацион менежмент концепциясини қўллаш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Самарқанд. 2006
7. Evans, N. Strategic Management for Tourism, Hospitality and Events, Routledge, Second edition, 2015
8. Inskip, E. Tourism planning: an integrated and sustainable development approach. Van Nostrand Reinhold. 1991 p 23.
9. Murray N, Patrick L, Anthony F. Strategic nets in tourism destinations: Investigating the learning processes underpinning dynamic management capabilities. *Industrial Marketing Management*. Volume 106, October 2022, Pages 363-375. <https://doi.org/10.1016/j.indmarman.2022.09.004>
10. Pechlaner, H. Destinationen und Lebensraum. Perspektive touristischer Entwicklung. Springer Nature 2019
11. Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. The competitive destination: A sustainability perspective. *Tourism Management*, 2000, 21(1), pp. 1-7.
12. Наврўз-зода Б.Н ва бошқ. Туристик худуд рақобатбардошлиги. Монография. Бухоро: “Садриддин Салим Бухорий” Дурдона нашриёти, 2017. – 156 б.
13. Swarbrooke, J. Sustainable Tourism Management; CAB International: Wallingford, UK, 1999; ISBN 9780851993140.
14. Hardy, A.; Beeton, R.J.S.; Pearson, L. Sustainable Tourism: An Overview of the Concept and Its Position in Relation to Conceptualisations of Tourism. *J. Sustain. Tour.* 2002, 10, 475–496.
15. Buhalis, D. “Technology in tourism-from information communication technologies to eTourism and smart tourism towards ambient intelligence tourism: a perspective article”, *Tourism Review*, 2020, Vol 75(1), pp. 267-272.
16. Lopes de Avila, A. Smart destinations: XXI century tourism. In ENTER Conference of Information and Communication Technologies in Tourism. 2015, pp 47-55.
17. Bekjanov, D., Matyusupov, B. Influence of innovative processes in the competitiveness of tourist destination. Innovation and entrepreneurial opportunities in community tourism (pp. 243–263). (2020). <https://doi.org/10.4018/978-1-7998-4855-4.ch014>

## МАРКЕТИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА

*Б.Б.Гиёсидинов, старший преподаватель, Ташкентский государственный  
транспортный университет, Ташкент*

*Annotatsiya. Maqolada yirik shaharlarda jamoat transportida duch keladigan mavjud muammolar va to'siqlar tahlil qilingan. Bular shahardagi tirbandlik, ekologik vaziyatning yomonlashuvi, xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish, baxtsiz hodisalarni kamaytirish kabi masalalar bo'lib, aholi va tashkilotlarning talabini qondirish ko'p jihatdan jamoat transportida yaratilgan qulaylik va imtiyozlarga bog'liq.*

*Kalit so'zlar. Jamoat transporti, marketing tadqiqotlari, tarif turlari,*

*Аннотация. В статье проанализированы существующие проблемы и барьеры, с которыми сталкивается общественный транспорт в крупных городах. Это такие вопросы как заторы в городе, ухудшения экологической обстановки, повышение культуры обслуживания, снижение аварийности и др. Удовлетворение требований населения, организаций во многом зависит от удобств и преимуществ, создаваемых общественным транспортом.*

*Ключевые слова. Общественный транспорт, маркетинговые исследования, виды оплаты проезда, S – Bahn*

*Abstract. The article analyzes the existing problems and barriers faced by public transport in large cities. These are issues such as congestion in the city, deterioration of the environmental situation, improving the culture of service, reducing accidents, etc. Satisfying the requirements of the population and organizations largely depends on the amenities and benefits created by public transport.*

*Keywords. Public transport, marketing research, fare types, S – Bahn.*

**Введение** По мере роста городского населения и экономики страны спрос на услуги общественного транспорта увеличивается день ото дня. Каждый вопрос, связанный с повседневной жизнью населения, находится под постоянным вниманием государства. В частности, в связи с растущим спросом развивается система общественного транспорта.

За последние годы город Ташкент укрупнился. Увеличилось количество постоянных и временных жителей, туристов, студентов. Если раньше общественным транспортом в городе пользовались 800–900 тысяч пассажиров, то сейчас эта цифра превысила 1 миллион 300 тысяч. Поэтому возникли такие проблемы, как нехватка и долгое время ожидания автобусов [1].

В целях развития услуг городского общественного транспорта, повышения эффективности деятельности транспортных предприятий были приняты следующие указы и постановления Президента Республики Узбекистан. Среди них можно указать следующее: постановления Президента Республики Узбекистан, от 06.03.2019 г. № ПП-4230 “О мерах по кардинальному совершенствованию системы грузовых и пассажирских перевозок” [2], от 07.05.2021 г. № ПП-5108 “О мерах по дальнейшему упрощению регулирования деятельности по перевозке пассажиров автомобильным транспортом” [3], от 02.02.2022 г. № ПП-111 “О дополнительных мерах по дальнейшему развитию системы общественного транспорта города Ташкента” [4], от 16.02.2023 г. № ПП-59 “О мерах по реформированию системы общественного транспорта” [5], от 01.02.2019 г. № УП-5647 “О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в сфере транспорта” [6] и постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 06.12.2021 г. № 738 “О мерах по электронной организации открытых торгов на пассажирских маршрутах автомобильного транспорта” [7], от 08.10.2021 г. № 630 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности общественного транспорта в регионах” [8], от 16.09.2022 г. № 507 “Об утверждении административного регламента оказания государственных услуг по выдаче

льготных транспортных карт, дающих право бесплатного проезда отдельным категориям граждан в городском пассажирском транспорте" [9].

**Анализ литературы по теме.** Мы можем видеть в нескольких отечественных и зарубежных академических работах по разработке стратегии развития маркетинговых исследований в городском общественном транспорте.

Среди отечественных ученых Ирисбекова М.Н. оптимизация рынка транспортных услуг на основе принципов маркетинга [10], Абдуллаев Б.И. улучшение качественных показателей транспортного обслуживания на городских автобусных маршрутах [11], Каххоров А.Ж. совершенствование инновационной маркетинговой деятельности на автомобильном транспорте системы Узбекистана [12], Бердиёрова Т.А., которые в своей научной работе проводили маркетинговые исследования на общественном транспорте, такие как совершенствование использования маркетинговых исследований в деятельности общественного транспорта [13].

Из зарубежных ученых Н.В. Карелин формирует комплекс маркетинга городских пассажирских перевозок на основе инновационного подхода [14], А.И. Цыбульский в своих исследованиях анализировал регулирование деятельности городского пассажирского транспорта как социально-экономической системы [15], Д.А. Мартынова в своей диссертации рассматривала особенности регулирования качества обслуживания населения автобусным транспортом в регионе [16], Д.Х. Нестеренко изучал методы увеличения частных перевозок городских пассажиров и базовой структуры транспортной сети [17], а в научной работе А.Р. Рахматуллиной «Методические положения повышения качества услуг городского общественного транспорта» изучались также методы повышения качества общественного транспорта, маркетинговые исследования и такие научные подходы, как определение транспортных потоков [18]. К сожалению, в этих указанных работах мало уделялось внимание маркетинговым исследованиям в общественном транспорте, полному удовлетворению потребностей населения, учёта экологических проблем, а также повышения привлекательности использования общественным транспортом.

**Методология исследования.** Широко применяемый в маркетинговой деятельности метод поискового исследования используется для генерации идей и сбора предварительной информации, генерации гипотез и углубленного изучения проблем.

**Анализ и результаты.** Основной социально-экономической целью развития общественного транспорта является удовлетворение растущих потребностей городов на рынке услуг в качестве и объеме транспортных услуг. Услуги общественного транспорта постоянно регулируются государством, и для повышения качества транспортных услуг разрабатываются различные меры, дорожные карты и стратегии. Транспорт, наряду с другими отраслями инфраструктуры, является важным средством достижения социальных, экономических, внешнеполитических целей, обеспечивает основные условия жизни общества. Транспорт - это не только отрасль, перемещающая товары и людей, но прежде всего межотраслевая система, меняющая условия жизни и управления. Начатые реформы существенно изменяют условия работы транспорта и характер спроса на транспортные услуги. Стратегической целью функционирования и развития транспортной системы нашей страны является обеспечение экономического роста за счет транспорта и повышение качества жизни нынешнего и будущих поколений населения и определение других важных национальных интересов страны. В табл. 1 нами приведены основные показатели перевозки пассажиров по видам транспорта общественного пользования по Республике Узбекистан.

Как видно по данным табл.1 тенденция прироста перевозки пассажиров общественным транспортом имеет рост по всем видам транспорта, только в троллейбусных перевозках показатель остался неизменным. Это связано с тем, что в г.Ташкенте троллейбусы, как и трамваи приостановлены, а перевозке метрополитеном резко увеличилось. Так как в аномальные морозные дни большинство населения пользовались именно этим видом транспорта. То же самое, можно сказать, и про автомобильные перевозки.

## Перевозки пассажиров по видам транспорта общего пользования

	2018	2019	2020	2021	2022
Всего	539,4	564,3	255,9	380,9	754,9
В том числе:					
железнодорожный	22,1	22,9	6,2	7,9	9,0
автомобильный	440,7	454,5	208,5	265,4	601,7
трамвайный	4,4	3,8	1,2	2,3	2,9
троллейбусный	0,5	0,7	0,3	0,5	0,5
метрополитен	69,1	79,2	38,8	101,8	136,7
воздушный	2,6	3,2	0,9	3,0	4,1

Общественный транспорт является важнейшим элементом транспортной системы, обеспечивающим ежедневные перевозки двух третей населения города. Общественный пассажирский транспорт обеспечивает более 85% деловых и внутренних поездок населения в городских и пригородных сообщениях и является важной частью городской инфраструктуры [19]. Однако, как показывают исследования, более 80 процентов загрязнения воздуха в городе в следствие из-за автомобильного транспорта. Город Ташкент входит в пятерку самых загрязненных столиц мира [20].

Выбросы автомобилей являются одним из процессов, которые приводят к возникновению сегодняшних глобальных проблем, таких как загрязнение окружающей среды, глобальное потепление, респираторные заболевания. В результате сжигания различных видов топлива выделяются различные выбросы продуктов сгорания. Такие отходы оказывают большое влияние на здоровье человека и окружающую среду. Основными факторами, обеспечивающими возникновение подобных ситуаций в городах, являются результат большого количества личных автомобилей и недостаточно качественное обслуживание общественного транспорта. Увеличение количества личных автомобилей вызывает пробки в городе и увеличение расхода топлива автомобилями, стоящих в пробке, что приводит к увеличению выхлопных газов, выбрасываемых автомобилями. Недоверие к общественному транспорту, непунктуальность, частые пробки и другие подобные причины приводят к повышенному спросу на личные автомобили.

На сайте Всемирного экономического форума общественного транспорта по результатам анализа 2022 года были объявлены города с наиболее развитым общественным транспортом в мире. В ходе исследования были изучены транспортные системы 60 крупных городов мира. При этом учитывались такие критерии, как наличие общественного транспорта, остановок, станций, а также железнодорожной инфраструктуры для городских трамваев. Согласно этим исследованиям, лучшая сеть общественного транспорта в мире находится в Гонконге с показателем 77% из 100. Стокгольм занял второе место, а Цюрих – третье. В конце рейтинга расположились Эр-Рияд (57-е место), Найроби (59-е место) и Джидда (60-е место) [21].




Рис.1. Топ-10 городов с развитым общественным транспортом в 2022 году

Проведённые исследования показали, что ведущими странами в эффективной организации общественного транспорта, помимо вышеуказанных городов, являются также некоторые столичные города, опыт которых можно использовать при организации

деятельности общественного транспорта в г. Ташкента (см. рис.-1). Следует отметить тот факт, что по республике Узбекистан только в г. Ташкенте осталось государственное участие и собственность в общественном транспорте, которое в лице Акционерного общества «Тошшахартрансхизмат» организует деятельность общественного транспорта в городе, реализует поставленные задачи правительством по удовлетворению потребностей населения и повышения культуры обслуживания.

В настоящее время, как показывают нами проведенные маркетинговые исследования, важным считаем разработку государственных программ развития городской пассажирской автотранспортной системы по опыту ведущих стран мира, направленных на решении таких проблем:

- повышение привлекательности общественного транспорта за счет увеличения маршрутной сети;
- ограничение доступа автомобильного транспорта в центральной части города;
- повышение степени регулирования пассажиропотоков;
- приобретение беспроводных троллейбусов;
- строительство подземного и подвесного метро, лёгких видов рельсового транспорта;
- строительство системы транспортных эстакад и другие.
- снижение влияния автотранспорта на экологическое состояние города и другие.
- оптимизация организации движения наземного пассажирского транспорта по городским проспектам и улицам.

Таким образом, можно прийти к выводу о том, что такие пассажирский автотранспортном перевозке достаточно аргументировано, разрабатывают свою стратегию развития, достигают важнейших результатов по оказанию услуг на рынке городского пассажирского автомобильного транспорта Республики Узбекистан.

#### **Выводы и предложения.**

Для развития городского общественного транспорта, увеличения числа его пользователей и предоставления качественных услуг, исходя из изученных выше мнений, необходимо провести следующие мероприятия:

- Увеличение количества современных (использующих экологически чистую продукцию) автобусов, курсирующих по городу;
- Введение трамвая в городе;
- Сокращение пробок в общественном транспорте;
- Постоянная стандартизация времени движения общественного транспорта (время, затрачиваемое на то, чтобы добраться из точки а в точку б, всегда должно быть одинаковым);
- Необходимо внедрить новые платежные системы;
- Внедрение системы запрета стоянки автомобилей на обочинах дорог;
- Проведение маркетинговых исследований среди населения города для изучения пожеланий населения и соответствующей разработки стратегии развития общественного транспорта;
- Следует сделать акцент на важности кампаний в средствах массовой информации о преимуществах общественного транспорта и степени вреда, который частные автомобили наносят городскому населению.

#### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
2. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 06.03.2019 г. № ПП-4230 “О мерах по кардинальному совершенствованию системы грузовых и пассажирских перевозок”
3. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 07.05.2021 г. № ПП-5108 “О мерах по дальнейшему упрощению регулирования деятельности по перевозке пассажиров автомобильным транспортом”
4. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 02.02.2022 г. № ПП-111 “О дополнительных мерах по дальнейшему развитию системы общественного транспорта города Ташкента”
5. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 16.02.2023 г. № ПП-59 “О мерах по реформированию системы общественного транспорта”
6. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 01.02.2019 г. № УП-5647 “О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в сфере транспорта”

7. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 06.12.2021 г. № 738 "О мерах по электронной организации открытых торгов на пассажирских маршрутах автомобильного транспорта"
8. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 08.10.2021 г. № 630 "О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности общественного транспорта в регионах"
9. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 16.09.2022 г. № 507 "Об утверждении административного регламента оказания государственных услуг по выдаче льготных транспортных карт, дающих право бесплатного проезда отдельным категориям граждан в городском пассажирском транспорте"
10. Ирисбекова М.Н. Оптимизация рынка транспортных услуг на основе принципов маркетинга. Диссертация DSc, ТАДИ, 2017й.
11. Абдуллаев Б.И. Улучшение качественных показателей транспортного обслуживания на городских автобусных маршрутах. Диссертация PhD, ТАДИ, 2019.
12. Каххоров А.Ж. Совершенствование инновационной маркетинговой деятельности на автомобильном транспорте системы Узбекистана. Диссертация PhD, ТГЭУ, 2018.
13. Бердиёров Т.А., Совершенствование использования маркетинговых исследований в общественном транспорте. Диссертация PhD, ТГЭУ, 2021.
14. Н.В. Карелин Формирует комплекс маркетинга городских пассажирских перевозок на основе инновационного подхода. Диссертация канд. экон. наук, Оренбург, 2020.
15. Цыбульский А.И., Регулирование деятельности городского пассажирского транспорта как социально-экономической системы. Диссертация канд. экон. наук, Москва 2002.
16. Мартынов Д.А., Регулирование качества обслуживания населения автобусным транспортом в регионе. Диссертация канд. экон. наук, Москва 2013.
17. Настеренко Д.Х., Методика повышения привлекательности городских пассажирских автомобильных перевозок на основе управления структурой транспортных потоков. Диссертация канд. экон. наук, Оренбург 2021.
18. Рахматулина А.Р. Методические положения повышения качества услуг городского общественного транспорта. Диссертация канд. экон. наук, Самара 2014.
19. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
20. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)
21. [www.hongkonglife.ru](http://www.hongkonglife.ru)

УЎК 378.14.015.62

## ТРАНСФОРМАЦИЯ – ОЛИЙ ТАЪЛИМДА СИФАТНИ БОШҚАРИШ МЕХАНИЗМИ СИФАТИДА

*У.И.Джуманиязов, доц., Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу илмий мақолада мамлакатимизда барча соҳалар қаторида олий таълим тизимини ислоҳ қилиш мақсадида олий таълим муассасаларини нуфузли хорижий олий таълим даргоҳлари билан ҳамкорликда трансформация қилиш асосида сифатни бошқариш механизмини татбиқ этиш бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари бўйича таклиф ҳамда тавсиялар баён этилган.

**Калит сўзлар:** Трансформация, халқаролаштириш, халқаро стандартлар, глобал тенденция, инновацион таълим муҳити, стратегик шериклик, концепция, компетенция.

**Аннотация.** В данной научной статье в целях реформирования системы высшего образования в нашей стране по всем направлениям представлены предложения и рекомендации по результатам исследования по внедрению механизма управления качеством на основе трансформация высших учебных заведений во взаимодействии с престижные зарубежные высшие учебные заведения.

**Ключевые слова:** Трансформация, интернационализация, международные стандарты, мировой тренд, инновационная среда обучения, стратегическое партнерство, концепция, компетенция.

**Abstract.** In this scientific article, in order to reform the system of higher education in our country in all areas, proposals and recommendations are presented based on the results of a study on the implementation of a quality management mechanism based on the transformation of higher educational institutions in cooperation with prestigious foreign higher educational institutions.

**Keywords:** Transformation, internationalization, international standards, global trend, innovative learning environment, strategic partnership, concept, competence.

**Қириш.** XXI асда ижтимоий барқарорликни, иқтисодий ўсишни ва давлат институтларини ривожлантиришни таъминловчи муҳим омиллардан бири, бу - таълимдир.

Янги Ўзбекистонни барпо этиш – таълим тизимидаги асосий устувор йўналишларни глобал тенденцияларга мос равишда янгилаш зарурлигини кўрсатмоқда. Бу эса, мавжуд тизимни хорижий тажрибалар асосида тубдан қайта кўриб чиқиш натижасида босқичма-босқич халқаролаштириш механизмини ишлаб чиқишни тақозо этади.

Мамлакатимизда олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг асосий устувор йўналишлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармонида белгилаб берилган.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 27 октябрдаги “Олий таълим муассасаларини нуфузли хорижий олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда трансформация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 655-сонли қарори олий таълим соҳасини халқаролаштириш асосида трансформация қилиш йўналишидаги дастлабки муҳим қадам бўлди.

Мазкур яратилган шарт-шароитлар асосида бугунги кунда олий таълим тизимини замонавий талабларга мувофиқ трансформация қилишга алоҳида эътибор қаратилди ва соҳадаги олийгоҳлар босқичма-босқич халқаро стандартларга мослаштирилмоқда.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Сўнги йилларда олий таълим соҳасини ривожлантиришнинг илмий-назарий ва методологик муаммоларининг баъзи жиҳатлари Нуждина В.Н., Селезневой Н.А., Соловьева В.П. ва бошқаларнинг ишларида ёритилганидек, хорижлик олимларнинг илмий ишларида ҳам тадқиқ этилган.

Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари олимларидан олий таълим соҳасини ривожлантириш ва сифатни бошқариш масалалари Губарева В.В., Качалова В.В., Короткова Э.М., Прудковского Б.А., Субетто А.И. ва бошқаларнинг тадқиқотларида ҳам қамраб олинган.

Шу билан бирга, Браверманна А.А., Новаторова Э.В., Панкрухина А.П., Сагиновой О.В., Федько В.П., Ченцова А.А.лар олий таълимда сифатни баҳолаш ҳамда Браверманна А.А., Новаторова Э.В., Панкрухина А.П., Сагиновой О.В., Федько В.П., Ченцова А.А.ларнинг илмий тадқиқотларида эса олий таълимни трансформация қилишнинг долзарб масалалари ўрганилган.

Мамлакатимиз олимларининг тадқиқотларида ҳам олий таълим тизимини ривожлантириш масалаларининг айрим жиҳатлари ўрганилган. Хусусан, С.С.Фулломов, Б.Ю.Ходиев [2,3], А.Н.Романов, Р.К.Алимов, В.С.Торопцов, К.А.Алимов, Б.А.Бегалов, Д.Б.Григорович [1], Т.З.Тешабаев [4], Қ.Х.Абдурахмонов [5], А.О.Очилов [6], О.С.Қахҳоров [7], Г.Н.Ахунова [8], А.С.Кучаров [9], Д.Х.Набиев [9], Ш.Ш.Заҳидова [10], Қ.Қ.Қуролов [11], Б.Н.Навруз-Зода [12] ва бошқаларнинг илмий ишларида ўрганилган.

Бирок, ушбу ишларда олий таълим соҳасини ривожлантиришда сифатни ошириш, самарали бошқариш механизмларини тадбиқ этиш, халқаро стандартларни жорий этиш билан боғлиқ масалалар яхлит илмий изланиш сифатида амалга оширилмаганлиги илмий мақоламизнинг мақсади ва вазибаларини белгилаш учун асос бўлиб хизмат қилди.

**Тадқиқот методологияси.** Илмий мақоламизни ёзиш учун олиб борилган тадқиқот жараёнида илмий мушоҳада, абстракт-манتيқий фикрлаш, суҳбат, иқтисодий усулларида кенг фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Сўнги 6 йил давомида Янги Ўзбекистонни барпо этиш стратегиясининг асосий йўналишларидан бири сифатида адолатли ижтимоий сиёсатни амалга оширилиши олий таълим соҳасини халқаро стандартларга мос равишда трансформация қилиш асосида сифатни бошқаришнинг замонавий механизмларини жорий қилиш учун янги имкониятларни бермоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги “2017- 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5953-сонли Фармонига мувофиқ

тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастурининг 166-бандида мамлакатимиздаги олий таълим муассасаларини нуфузли хорижий олий таълим даргоҳлари билан ҳамкорликда трансформация қилиш чораси белгиланган бўлиб, бу борада қабул қилиниши назарда тутилган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасида камида 5 та олий таълим муассасасини конкурс асосида танлаб олинди ва нуфузли хорижий олий таълим даргоҳлари билан ҳамкорликда уларни трансформация қилишни бошланди ҳамда мазкур жараёнга давлат бюджети маблағлари, шунингдек, хорижий молия институтлар грантларини жалб қилинди.

Қайд этиш лозимки, ушбу имкониятлар натижаси ўлароқ олий таълим муассасаларини нуфузли хорижий олий таълим даргоҳлари билан ҳамкорликда трансформация қилишнинг асосий йўналишлари белгилаб олинди ва улар қуйидагилардан иборат:

олий таълим жараёнини рақамли форматга ўтказиш, рақамли таълим технологияларини кенг жорий этиш асосида билимлар трансферини таъминлаш, ҳар бир таълим олувчининг шахсий хусусиятларини инобатга олган ҳолда билим, компетенция, кўникма ва малакаларни шакллантириш учун ахборот тизимларини жорий этиш;

лойиҳавий ўқитиш усулларини кенгайтириш, жаҳон миқёсидаги етакчи ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорликка асосланган инновацион таълим муҳитини шакллантириш ҳамда инновацион тадқиқотларни ривожлантириш ва ишланмаларни амалиётга жорий этиш;

талабаларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш, бизнес лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш дастурларини яратиш;

олий таълим муассасасини ҳудуддаги маҳаллий жамоаларнинг таълим, илм-фан ва ижтимоий-маданий соҳаларда ривожланишини таъминлайдиган марказ сифатида шакллантириш;

худуднинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари ва вазифаларини ҳал қилиш борасида маҳаллий ижро этувчи ҳокимияти органлари ҳамда жамоат ташкилотлари билан стратегик шериклик муносабатларини мустаҳкамлаш ва ривожлантириш.

Мазкур қарор, “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” Давлат дастурининг яна бир банди ижросини таъминлаши баробарида, нуфузли хорижий олий таълим даргоҳлари билан мамлакатимиз олий ўқув юртларининг узвий ҳамкорлиги ва трансформация жараёнини мустаҳкамлаш, рақамли таълим технологияларини кенг жорий этиш асосида билимлар трансферини таъминлаш, жаҳон миқёсидаги етакчи ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорликка асосланган инновацион таълим муҳитини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади.

Шу ўринда, олий таълимда сифатни бошқаришнинг муҳим компоненти ҳисобланадиган трансформация тушунчасига алоҳида тўхталиб ўтиш лозим бўлади.

Трансформация тушунчасига қатор луғатларда турли талқиндаги таърифлар келтирилган бўлиб, рус тилидаги изоҳли луғатларда “трансформация - ўзгартириш, айлантириш, кўринишини ўзгартириш” деб таржима қилинади [13].

Шу билан бирга, инглиз тилидаги Cambridge Dictionary изоҳли луғатида эса, “бирор нарсанинг ёки кимнингдир ташқи кўриниши ва/ёки тузилишини тўлиқ ўзгариши” [14] деб таърифланади.

Шунингдек, инглиз тилидаги Oxford Dictionary изоҳли луғатида эса, “Бирор нарсани янада яхшилаш мақсадида унинг тузилишини ёки кўринишини бутунлай ўзгартириш жараёни” [15] деб таърифланган.

Шу ўринда алоҳида таъкидлаш жоизки, трансформация тушунчаси ҳар бир соҳада ўзига хос тарзда ва шаклда қўлланилади ва ушбу илмий мақоламизда ушбу тушунчани олий таълим соҳасида қўлланилиши ва мазмун-моҳиятига тўхталиб ўтамиз.

Умуман олганда, таълим соҳасида трансформация – бу, таълим кадриятларини адолатли равишда кескин ошишига олиб келувчи талабалар тажрибаларини шакллантириш учун таълим муассасаси тузилмаси, маданияти ва бизнес моделини қайта ўзгартиришдир [16].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 22 мартдаги Халқаро ривожлантириш Ассоциацияси иштирокида “Олий таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш” лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2848-сонли қарори ижроси юзасидан Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Жаҳон банкининг Халқаро ривожланиш Ассоциацияси иштирокида “Олий таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш” лойиҳасининг “Олий таълимни модернизация қилиш” бўйича 1-компоненти “Олий таълим тизими бошқарувини такомиллаштириш” доирасида олий таълимда сифатни ошириш ва ўқув жараёнларини самарали бошқаришни рақамлаштирилган тизими (HEMIS - Higher Education Management Information Systems) ишлаб чиқилди ва амалиётга жорий этилди.

Мазкур ахборот тизими олий таълим муассасаларининг административ, академик, илмий ва молиявий фаолиятларини автоматлаштириш, ўқув жараёнларини ташкил этиш, мониторингини олиб бориш ва бошқариш, масофадан онлайн ўқиш таълим хизматларини ташкил этиш ҳамда вазирлик ахборот тизими билан ахборот алмашиш вазифасини бажаради.

Тизимнинг олий таълим муассасалари томонидан бакалавр ва магистр битирувчи талабаларига QR-кодли дипломларни шакллантириш, тасдиқлаш ва талабаларга тақдим қилиш модули ишлаб чиқилиб, амалда фойдаланиш йўлга қўйилди.

Малака оширишнинг анъанавий (малака ошириш марказларида тўғридан-тўғри ўқиш) шакли билан биргаликда мустақил ва муқобил ҳамда масофавий малака ошириш шакллари амалиётга жорий этилди.

Юқорида таъкидлаб ўтилганлар, бугунги кунда олий таълим соҳасини трансформациялаш асосида сифатни бошқаришга қўйилган муҳим амалий қадамлар бири бўлиб ҳисобланади.

**Хулоса ва таклифлар.** Олий таълим тизимида трансформация жараёнларини амалга ошириш асосида таълим сифатини бошқариш мақсадида таълим сифатини баҳолаш мезонлари халқаро аккредитация талаблари асосида ишлаб чиқилиши зарур.

Шу билан бирга, халқаро нуфузли олий таълим муассасалари тажрибаларини чуқур ва атрофлича ўрганган ҳолда куйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисобламиз. Жумладан:

- олий таълим тизимини ривожлантириш стратегиясини ўзгарувчан тараққиёт жараёнлари ҳамда жаҳон меҳнат бозори талабларини ҳисобга олган ҳолда қайта кўриб чиқиш;
- олий таълим тизими моддий-техник базасини мустаҳкамлаш дастури қайта ишлаб чиқиш;
- миллий олий таълим тизимини сифат жиҳатдан ислоҳ қилиш учун Европа олий таълим сифатини таъминлаш индикаторлари жорий этиш чораларини кўриш лозим.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ғуломов С.С., Ходиев Б.Ю., Романов А.Н., Алимов Р.К., Торопцов В.С., Алимов К.А., Бегалов Б.А., Григорович Д.Б. Дистанционное экономическое образование. – Т.: Шарк, 2004, - 203 б.;
2. Ходиев Б.Ю. Олий иқтисодий таълим тизими учун замонавий ўқув адабиётлар яратиш: янги стандарт талаблари, тузилиши, мазмуни. – Т.: ТДИУ, 2005.- 168 б.;
3. Тешабаев Т.З. Олий таълим тизимида инновацион фаолиятни ахборот технологиялари асосида бошқаришни такомиллаштириш. Иқт.ф.д. ...дисс. автореф. – Т.: ТДИУ, 2019.;
4. Абдурахмонов К.Х. и др. Современный менеджмент и реформирование системы образования в Узбекистане. – Т.: Изд-во РЭА им. Г.В. Плеханова. – 2005. – 240 с.;
5. Очилов А.О.Юқори малакали кадрлар тайёрлашни бошқариш самарадорлигини ошириш. Иқт. фан докт. дисс... – Тошкент, 2019.;
6. Қаҳҳоров О.С. Олий таълим тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг бошқарув механизминини такомиллаштириш. Иқт.ф.д. ...дисс. автореф. – Т.: БухДУ, 2021.;
7. Ахунова Г.Н. Таълим хизматлари бозорида маркетинг фаолияти ва уни такомиллаштириш, Иқт.ф.д. ...дисс. автореф. – Т.: ТДИУ.;
8. Кучаров А.С. Тадбиркорлик соҳаси учун олий маълумотли мутахассисларни тайёрлашда бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий омилларини такомиллаштириш, Иқт.ф.д. ...дисс.автореф. – Т., 2006.;
9. Набиев Д.Х. Совершенствование управления маркетингом образовательных услуг в условиях модернизации экономики. Автореф. ... докт. экон, наук. – Т.: ТДИУ, 2009.;
10. Заҳидова Ш.Ш. Олий таълим хизматлари бозорининг амал қилиш механизми самарадорлигини ошириш. Иқт.ф.н. ...дисс. автореф. – Т.: ТМИ, 2012.;

11. Куролов Қ.Қ. Бозор муносабатлари шароитида иқтисодий таълим тизимининг такомиллашуви қонуниятлари. Иқт.ф.д. ...дисс. автореф. – Т.: ТДИУ, 2017;
12. Навруз-Зода. Б.Н. Ўзбекистонда олий таълим тизимида сифат таъминоти. – Т.: Xarizma design, 2008. – 245 б.
13. <https://dictionary.cambridge.org/ru/transformation>
14. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/transformation?q=transformation>
15. <https://www.dictionary.com/browse/transformational>

УДК 669.1

## ГОРНО-МЕТАЛЛУРГИЧЕСКИЕ ПРЕДПРИЯТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ИННОВАЦИЙ

*К.Р.Загидуллина, докторант, Ташкентский государственный технический университет, Ташкент*

**Annotatsiya.** *Zamonaviy dunyoda kon-metallurgiya sanoati korxonalari jahon ishlab chiqarish talablarini inobatga olgan holda mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlashni rivojlantirish, shuningdek, asbob-uskunalarni raqamlashtirishning yangi darajasiga o'tish va yangi texnologiyalardan foydalanishga tobora ko'proq ehtiyoj sezmoqda. foydali qazilmalarni qidirish va kuzatish vositalari.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsiyalar, investitsiyalar, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, tog'-kon sanoati, raqamli texnologiyalar.*

**Аннотация.** *В современном мире у предприятий горно-металлургической отрасли все чаще возникает потребность в применении новых технологий, которые позволяют развивать добычу и переработку продукции с учетом мировых требований производства, а также переход на новый уровень цифровизации оборудования и средств поиска и отслеживания полезных ископаемых.*

**Ключевые слова:** *инновации, инвестиции, нововведение, цифровая экономика, горно-добывающая промышленность, цифровые технологии.*

**Abstract.** *In the modern world, enterprises of the mining and metallurgical industry increasingly need to use new technologies that allow them to develop the extraction and processing of products taking into account global production requirements, as well as the transition to a new level of digitalization of equipment and tools for searching and tracking minerals.*

**Key words:** *innovations, investments, innovation, digital economy, mining industry, digital technologies.*

Сегодня мир находится в процессе глобальной трансформации. Горно-металлургический сектор меняется быстрее, чем когда-либо прежде, сталкиваясь с новыми условиями, которые диктуют необходимость оперативного реагирования на вызовы.

В современном горно-металлургическом комплексе все чаще возникает потребность в применении новых технологий, которые позволяют развивать добычу и переработку продукции с учетом требований экологичности и экономичности производства. Потому что качественных месторождений, которые позволяли бы недропользователям легко и с высокой маржинальностью добывать и перерабатывать продукцию, все меньше и меньше.

Цифровые технологии охватывают все отрасли экономики. Первые успешные проекты появились в горнодобывающей промышленности и в металлургии.

Множество инноваций ожидает в ближайшие годы и саму металлургию – отрасль, которая существует уже более 2 тыс. лет, до последнего времени развивалась путем случайного подбора параметров плавки,ковки и комбинации разных элементов. Конечно, за последние 350 лет эти знания были консолидированы и систематизированы, и тем не менее даже в конце XX века создание сложных легированных сталей требовало высокой квалификации. Современные технологии открывают перед металлургами невероятные перспективы.

На горных предприятиях неквалифицированный персонал представляет опасность не

только для себя, но и для всего предприятия. Нередко подобные ошибки оканчиваются трагически, кроме того, они приводят к существенным потерям дорогой горнодобывающей техники. Сегодня многие крупные компании при приеме на работу новых сотрудников отправляют их в виртуальные классы, где на тренажерах они могут в деталях освоить управление сложной техникой и отработать возможные нештатные ситуации.

Появление лазерных дальномеров существенно улучшило условия работы маркшейдеров. Если раньше замеры проводились с большим количеством упрощений и примерных оценок, то сегодня можно достаточно четко выверить расстояния и объемы отработанной горной массы. Появление беспилотников делает эту работу еще более точной, что позволит более качественно отслеживать этапы выполняемых работ и оперативно управлять процессами подготовки запасов к выемке. Наличие точной привязки техники к спутниковой карте позволяет не только повысить производительность, но и предупредить несчастные случаи, такие как наезды, нахождение в санитарно-защитной зоне взрыва.

Затраты на подготовку персонала, особенно в случае подземной добычи, составляют значимую часть расходов предприятия. Именно поэтому появление беспилотных горных машин стало новым трендом в развитии горного дела. Особенно важно применение беспилотной техники на опасных участках работы. К сожалению, горно-геологические условия большинства российских угольных шахт не предполагают использования подземных машин из-за малой ширины пласта, тем не менее миниатюризация робототехники в перспективе обещает появление решений и для таких специфических условий.

По части расхода топлива крупные горные машины сопоставимы с армейской техникой, а то и превосходят ее прожорливостью. Затраты горного предприятия на топливо фактически составляют основную статью его расходов. Эту проблему пытались решать давно, одно из интересных решений – использование самосвалов с электродвигателями, которые питались от контактной сети, как троллейбус или трамвай. Сегодня основной тренд в повышении экологичности – перевод горной техники на газ.

Биодобыча – это процесс использования микроорганизмов для извлечения металлов из горных пород или рудников. Переработка упорных (для золота), латеритных (для никеля) руд либо руд с примесями вредных элементов (мышьяк) ранее представляла большую сложность в связи с низким выходом полезных компонентов либо крайне вредными выбросами. Применение бактерий, способных перерабатывать те или иные элементы, позволяет решить эту проблему – например, бактерии позволяют существенно повысить степень извлечения металлов из горных пород при относительно низких затратах труда, энергии и основного капитала. Это делает экономически рентабельной переработку бедных руд и техногенных отходов, позволяет добывать металлы из руд глубокого залегания без ущерба для ландшафта. Окисляя сульфидные руды, микробы растворяют металлы (медь, железо и др.) и облегчают процесс их добычи (биовыщелачивание). Другие металлы (например, золото) непосредственно не растворяются, но становятся более доступными для традиционных методов добычи, поскольку микробы удаляют окружающие их минералы (биоокисление).

Если раньше анализ входящего сырья представлял собой значительные трудности, то сегодня металлодетекторы позволяют быстро и качественно отделить цветные металлы от черных и использовать только качественный лом для плавки.

Точный контроль параметров кристаллизации проката сегодня позволяет контролировать каждый миллиметр производимой продукции, что резко снижает количество брака и некондиционного продукта.

Хотя порошковая металлургия – технология давно известная, сегодня свойства кристаллизаторов, которые управляются компьютером, позволяют производить продукцию с существенно более высокими потребительскими свойствами.

На подходе полноценная 3D-печать металлических изделий, что раньше было просто невозможно из-за неравномерного остывания металла при печати.

С каждым годом повышается экологичность производства, улучшаются фильтры, разрабатываются технологии удаления дыма и очистки используемых вод как за счет

использования новейших достижений химической промышленности, так и за счет достижений биологической науки, которая сегодня готова вырастить бактерии, способные потреблять и обезвреживать практически любые отходы.

Горнодобывающая отрасль является одним из основных источников поступлений в бюджет Республики Узбекистан.

Узбекистан входит в десятку мировых лидеров по объемам запасов золота, а также по объемам добычи золота и урана.

Разведанные запасы золота при действующем темпе добычи обеспечены на более чем 50 лет, урана – более 20 лет, меди – более 100 лет.

Порядка 45% от общих ассигнований на геологоразведочные работы направляется на поиск, оценку и разведку золота, около 17% – на уран, 10% – на другие металлические полезные ископаемые, 4% – на подземные воды, 3% – на нерудные полезные ископаемые, 7% – на региональные исследования, 5% – на научно-исследовательские работы и др.

Соотношение стоимости разведанных и прогнозируемых месторождений млрд долл. США. По оценке Государственного комитета Республики Узбекистан по геологии и минеральным ресурсам стоимость минерально-сырьевого потенциала составляет 5,7 трлн долл. США.




Рис.1. Соотношение стоимости разведанных и прогнозируемых месторождений (млрд долл. США)

Алмалыкский ГМК является единственным производителем меди в Узбекистане.

Предприятие выпускает рафинированную медь, металлический цинк, свинцовый и молибденовый концентраты и другую продукцию.

На долю АГМК приходится порядка 90% производства серебра и 20% золота в республике

С 2015 года активы АО «Узбекский комбинат тугоплавких и жаропрочных металлов» (УзКТЖМ, Чирчик, Ташкентская область) полностью переданы в состав АГМК, поэтому данное предприятие стало монополистом также и в производстве вольфрама.

В целях создания в стране целостной системы развития высокотехнологичных производств, всесторонней поддержки активного привлечения инвестиций, освоения востребованного широкого ассортимента продукции, расширения промышленной кооперации и наращивания экспортного потенциала республики было принято Приказ Президента Республики Узбекистана № ПП-99 от 24 января 2022 года.

В 2022 году на АО «Алмалыкский ГМК» в рамках Программы локализации производства готовой продукции, комплектующих изделий и материалов запланирована реализация 97 проектов на общую сумму 208,7 млрд. сум, в том числе:

- запасные части из стального и чугунного литья – 71,1 млрд. сум;
- не стандартное оборудование – 12,8 млрд. сум;
- запасные части к насосам ГРАТ и ГРТ – 1,3 млрд. сум;
- запасные части к дробильному оборудованию – 8,0 млрд. сум;
- запасные части к мельничному оборудованию – 30,2 млрд. сум;
- запасные части к экскаваторам – 2,7 млрд. сум;

–продукции глубокой переработки местного сырья (оксид цинка, молибден и вольфрам металлический, коронки буровые, изделия на основе редких металлов и твердых сплавов) – 67,1 млрд. сум;

–разные виды продукции (керамические тигли, кислотоупорный порошок, термопара и др.) – 15,5 млрд. сум.

Реализация Программы локализации позволит сэкономить валютные средства в объёме 19,2 млн. долл.

В современном быстро меняющемся мире одним из критериев, по которым определяют успешное, устремленное в будущее государство, является научная деятельность и внедрение в производство научных открытий. Один из примеров удачной интеграции науки и промышленности - работа расположенного в Чирчике Научно-производственного объединения (НПО) по производству редких металлов и твердых сплавов, входящего в состав АО «Алмалыкский ГМК».

Таким образом, инновация может быть результатом внедрения новой технологии, использования нового приложения, разработки новых рынков или применения новых организационных форм. В большинстве случаев это комбинация множества факторов, которые вводятся как одновременно, так и последовательно. Поэтому инновация – не изолированное событие, а скорее цепь последовательных превращений, состоящая из серии событий. Поэтому при анализе инновации трудно уловить момент, когда данная инновация точно появилась, или установить единственную верную причину инновации.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Постановлением Президента Республики Узбекистан от 30.12.2021г. №ПП-72 “Об утверждении инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2022-2026 годы и внедрении новых подходов и механизмов по управлению инвестиционными проектами”.

2. Крылов Э.И., Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия / Э.И. Крылов, В.М. Власов [и др.]. - М.: Финансы и статистика, 2016. - 608 с.

3. Ильенковой С.Д. Инновационный менеджмент: Учебник для студентов ВУЗов. Под ред., 3-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ -ДАНА, 2017.

4. Официальный сайт АО Алмалыкский горно-металлургический комбинат – <https://agmk.uz>.

УЎК: 330.332.338.49

### ЎЗБЕКИСТОНДА ҚУРИЛИШ СОҲАСИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ИСЛОҲОТЛАРНИ ЧУҚУРЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ Н.В.Калимулина, мустақил тадқиқотчи, Урганч Давлат университети, Урганч

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасизда қурилиш тармоғини модернизация қилиш ва ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг айрим жиҳатлари қараб чиқилади.

**Калит сўзлар:** қурилиш, стратегия, имтиёз, преференция, турар-жой қурилиши, шаффоф қурилиш, урбанизация,

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые аспекты модернизации и углубления реформ в сфере строительства Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** строительство, стратегия, льготы, преференция, жилищное строительство, прозрачное строительство, урбанизация.

**Abstract.** This article discusses some aspects of the modernization and deepening of reforms in the construction sector of the Republic Uzbekistan.

**Key words:** construction, strategy, benefits, preference, housing construction, transparent construction, urbanization.

Ўзбекистонда қурилиш соҳаси миллий иқтисодийнинг муҳим устувор тармоғи сифатида белгиланган бўлиб, сўнгги йилларда амалга оширилган жадал ислоҳотлар сабабли юқори ўсиш суръатларини намоен этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан қабул қилинган 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта

устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси ва унга мувофиқ қабул қилинган Давлат дастурларида мамлакат иқтисодиётини янада жадал ривожлантиришда иқтисодиётнинг локомотиви сифатида қурилиш соҳасига, хусусан янги бино ва иншоотлар, янги ишлаб чиқариш объектлари ҳамда хусусий тадбиркорлик, темир ва автомобиль йўллари, турар жой бинолари қурилишига алоҳида урғу берилган.

Хусусан, мазкур бош стратегия ва унга мувофиқ қабул қилинган дастурлар доирасида сўнгги 5 йил мобайнида қурилиш тармоғини янада такомиллаштириш, қурилиш органлари ва муассасаларини изчил ривожлантириш механизмларини шакллантириш, давлат бошқаруви тизимининг самарадорлигини таъминлаш ва соҳага рақамли технологияларни жорий этиш бўйича изчил ислохотлар амалга оширилиб келинмоқда.

2018 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг *“Қурилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида [1]”*ги Фармони қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, Давлат архитектура ва қурилиш қўмитаси негизида Қурилиш вазирлиги ташкил этилди.

Шунингдек, Давлат архитектура ва қурилиш қўмитаси ҳузуридаги Ривожлантириш ва моддий рағбатлантириш жамғармаси ҳамда Таълим муассасаларини қўллаб-қувватлаш жамғармаси негизида Қурилиш вазирлиги фаолиятини қўллаб-қувватлаш жамғармаси ва қурилишда стандартлаштириш ва сертификатлаш республика маркази, Қурилишда стандартлаштириш республика маркази этиб қайта ташкил қилинди.

Ўз навбатида, Ўзбекистон Республикасининг *“Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик Кодекси [2]”*ни тасдиқлаш ҳақида”ги Қонуни янги таҳрирда қабул қилинди. Кодексга “ноёб ва алоҳида муҳим объектлар”, “реклама ва ахборот объектлари”, “турар жой объектлари”, “урбанизация” ва бошқа бир қатор асосий тушунчалар киритилиб, шаҳарсозлик фаолиятининг асосий тамойиллари белгилаб берилди.

Шунингдек, шаҳарсозлик фаолияти соҳасида жамоатчилик назорати ва унинг шакллари, субъектлари ҳақидаги нормалар мустаҳкамланди. Мазкур соҳадаги қарорлар муҳокамасида жамоатчилик назоратининг иштироки таъминланиши ҳам белгилаб қўйилди.

Кодексга ҳуқуқий ва жисмоний шахсларга етказилган зарар ўрни қопланишининг асосий йўналишларини белгилаб берувчи, пудрат учун давлат шартномасини ишлаб чиқиш ва тузиш тартиби, пудрат ишлари қатъий шартнома асосида амалга оширилиши бўйича нормалар киритилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг *“Қурилиш соҳасига АКТларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида [3]”*ги Қарори қабул қилиниб, унга кўра, қурилиш соҳасида АКТларини ривожлантириш маркази ташкил этилди. Буни қурилишда шаффофликни таъминлаш ва коррупцияга қарши курашиш чоралари бўйича ислохотлар самараси десак, асло муболаға бўлмайд.

Шунингдек, қарорга мувофиқ, *“Ўзбекистон Республикаси давлат шаҳарсозлик кадастри”* географик ахборот тизими (ГАТ) тест режимида ишга туширилиши белгиланди.

Бундан ташқари, қурилиш соҳасида *“Коррупциясиз соҳа”* лойиҳасини амалга ошириш бўйича комиссия ташкил этилди. Мазкур комиссия коррупцияга қарши курашиш чораларини кучайтиришга оид «ижро этилиши юзасидан назорат» тизимини таъминлайди.

Қурилишда сифат ва назоратни кучайтириш бўйича ислохотларни амалга оширишга қаратилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг *“Қурилиш-монтаж ишлари сифатини тубдан яхшилаш ва қурилишни назорат қилиш тизимини такомиллаштириш чоралари тўғрисида [4]”*ги Қарори ва Вазирлар Маҳкамасининг *“Объектларда давлат қурилиш назоратини амалга ошириш бўйича маъмурий регламент ҳамда объектларнинг хавф-хатарлар тоифалари таснифини тасдиқлаш тўғрисида”*ги қарори қабул қилинди.

Тасдиқланган маъмурий регламентга кўра:

Қурилиш соҳасида назорат инспекциясининг бино ва иншоотларни қуриш ва реконструкция қилишдаги вазифалари;

архитектура-қурилиш назоратини амалга ошириш, қурилиш объектларининг хавфсизлиги ва сифатини таъминлаш тартиби;

қурилиш объектларининг хавф-хатар тоифаси бўйича мураккаблик тоифалари таснифи; давлат қурилиш назорати турлари, мезонлари ҳамда уларни амалга ошириш мезонлари; бино ва иншоотларни инструментал-техник текширувдан ўтказиш тартиблари белгилаб қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг қурилиш соҳасида ислохотларни чуқурлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида [5]”ги Фармони қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, қурилиш пудратчиларининг солиқ ва статистик ҳисоботлари ҳамда Қурилиш вазирлиги маълумотлари асосида автоматик тарзда шакллантириладиган электрон қурилиш ва лойиҳалаш бўйича электрон рейтинги жорий этилди. Мазкур рейтинг қурилиш пудратчиларининг имкониятлари ва тажрибасини акс эттиради.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бугунги кунгача 123 та шаҳарсозлик ҳужжати жамоатчилик муҳокамасига киритилган бўлиб, шундан 109 таси муҳокамадан ўтган. Шунингдек, аҳоли пунктларининг бош режаларига оммавий ҳужжат мақомини беришда “Шаффоф қурилиш” миллий ахборот портали тизими доирасида “Геопортал” ахборот тизими яратилди. Геопорталга мамлакатдаги 213 та шаҳар ва шаҳарчаларнинг бош режалари, 595 та ҳудудни архитектуравий режалаштиришни ташкиллаштириш лойиҳалари, 16 та ҳудудни батафсил режалаштириш лойиҳалари, жами 824 та шаҳарсозлик ҳужжати жойлаштирилган.

Фуқароларга қуриладиган объектлар тўғрисида мустақил равишда ахборот олиш, ноқонуний қурилишларни аниқлаш, қурилиш объектларидаги қоидабузарликларни қайд этиш ва уларни қурилиш соҳасидаги назорат бўйича ваколатли органларга юбориш имконини берувчи “Огоҳ фуқаро” тизими тест режимида ишга туширилди.

Шунингдек, 2021 йилнинг 1 мартдан бошлаб, икки қаватдан юқори, баландлиги ер юзасидан 12 метр ва умумий майдони 500 кв.метрдан ортиқ бўлган бино ва иншоотлар, шу жумладан яқка тартибдаги уй-жойларни қуриш ҳамда реконструкция қилиш объектининг лойиҳа ҳужжатлари мажбурий экспертизадан ўтказилган ҳамда объектнинг Қурилиш вазирлиги қошидаги қурилиш соҳасида ҳудудий назорат инспекциялари томонидан давлат қурилиш назорати ўрнатилган ҳолда амалга ошириш тартиби жорий қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қурилиш соҳасида электрон давлат харидларини ташкил этиш ва ўтказиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида [6]”ги қарори қабул қилиниб, унинг талаблари асосида илк марта тендерларни онлайн электрон тизим орқали ўтказиш йўлга қўйилди ва 2021 йилда қурилиш соҳасига оид 12 та шаҳарсозлик норма ва қоидалари янгиланди.

Эътироф этиш жоизки, шаҳарсозлик фаолиятини техник жиҳатдан тартибга солишга доир норматив ҳужжатлар, шу жумладан хорижий норматив ҳужжатлар илмий-техник кутубхонаси ташкил қилинди. Кутубхонада қурилиш соҳасига доир 2046 та адабиёт хатловдан ўтказилди ва уларнинг электрон рўйхати шакллантирилди. Илмий-техник кутубхона негизида “Қурилиш соҳасидаги меъёрий ҳужжатлар” маълумотлар базаси яратилиб, 54 та меъёрий ҳужжатнинг электрон шакли [www.shnk.uz](http://www.shnk.uz) расмий веб-саҳифасига очик фойдаланиш учун жойлаштирилди.

Ўрни келганда мамлакат иқтисодиётининг қурилиш соҳасидаги кўрсаткичларига тўхталадиган бўлсак, Ўзбекистонда 2017–2020 йилларда ислохотларнинг натижаси ўлароқ, қурилиш сектори иқтисодиётнинг бошқа тармоқларига нисбатан жадал суръатларда ўсаётганлигини кўриш мумкин.

Агар қишлоқ хўжалиги 2017 йилда 1,2 фоизга, 2018 йилда 0,3 фоиз, 2019 йилда 3,1 фоиз, 2020 йилда 3,0 фоизга ва саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш 2017 йилда 5,2 фоиз, 2018 йилда 10,8 фоиз, 2019 йилда 5,0 фоиз, 2020 йилда 0,7 фоизга ўсган бўлса, қурилиш ҳажми 2017–2020 йилларда 6,0 фоиз, 14,3 фоиз, 22,9 фоиз ва 9,2 фоизга ўсган.

Шунингдек, мазкур тармоқнинг миллий иқтисодиёт таркибида улуши ҳам йилдан-йилга ошиб бормоқда. Қурилиш тармоғининг ЯИМ таркибидаги улуши 5,7 фоизни ташкил этган бўлса, 2020 йилда ушбу кўрсаткич 7,0 фоизга етган. 2021 йил 1 январь ҳолатига кўра, қурилиш

соҳасида корхона ва ташкилотлар сони 41,0 мингтани ташкил этиб, 2017 йилга нисбатан 1,7 марта ёки 17,1 минг бирликка ошган.

Шунингдек, қурилишда банд бўлганларнинг сони 2020 йилда 2017 йилга нисбатан 15,6 минг нафарга ошиб, 1,3 млн. нафарни ташкил этмоқда. Айтиш жоизки, ҳозирги кунда иқтисодиётда банд бўлганларнинг қарийб 10 фоизи мазкур тармоққа тўғри келмоқда.

2017 йилда бажарилган қурилиш ишлари ҳажми 35,0 трлн. сўмни ташкил қилган бўлса, 2020 йилда бу кўрсаткич 88,1 трлн. сўмга етган. Шунингдек, иқтисодий фаолият турлари бўйича таҳлил қилинганда, бажарилган қурилиш ишларининг асосий қисми бино ва иншоотларни қуриш ишлари ҳажмига (жами кўрсаткичга нисбатан улуш 74,5 фоизга) тўғри келмоқда.

Яна бир эътиборли жиҳат шундаки, қурилиш ишларида нодавлат секторининг улуши ошиб бормоқда, 2017 йилда мазкур кўрсаткич 95,2 фоизни ташкил этган бўлса, 2020 йилда 95,8 фоизга етган.

Сўнгги йилларда мамлакатда хорижий инвестицияларни жалб этишга оид олиб борилаётган ислоҳотлар, очиклик ва шаффофлик, халқаро ҳамкорликнинг кенгайиши ва мамлакатда қулай инвестиция муҳитининг яратилиши, қурилиш тармоғида асосий капиталга ўзлаштирилган чет эл инвестициялар ҳажмининг кескин равишда ортишига сабаб бўлди. Хусусан, бу кўрсаткич 2017 йилдаги 12,1 млн. сўмдан 2020 йилда 3,5 трлн. сўмга етган.

Қурилиш тармоғига йўналтирилган капитал қўйилмаларнинг ортиши инвестиция ва бошқа дастурлар доирасида юқори технологик ва техник ишлаб чиқаришни яратиш, модернизация қилиш ва йирик инфратузилмалар қурилишининг ортишига хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг *“Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал ва инновацион ривожлантиришнинг 2021–2025 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида [7]”*ги Фармони қурилиш соҳасидаги ишларни янги босқичга олиб чиқишда муҳим аҳамият касб этди.

Мазкур Стратегияда 2025 йилга бориб Ўзбекистондаги шаҳарларнинг барчасини ва шаҳар посёлкаларининг 25 фоизини бош режалар билан қамраб олиш белгиланди. Бош режаларни тасдиқлашда жамоатчилик фикрининг инобатга олиниши белгилаб қўйилди.

2022 йилнинг 1 июлигача шаҳар муҳити элементларининг мақсади, анъанавий архитектура ва маданияти, шунингдек жойнинг табиий-иқлим шароитларини ҳисобга олган ҳолда ҳудудий «дизайн-код» ишлаб чиқилиб, жорий этилиши белгиланди.

Шунингдек, Стратегиянинг **2025 йилгача бўлган** мақсадли кўрсаткичларига:

Ўзбекистоннинг геологик, табиий-иқлим, сейсмологик ва бошқа хусусиятларини инобатга олган ҳолда, 2025 йилга бориб, миллий шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларини камида 50 фоиз даражасида халқаро норматив ва стандартлар билан уйғунлаштиришга эришиш;

лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқишнинг “ҳажм” услубини жорий этиш улушини республикадаги қурилиш объектлари умумий сонининг 50 фоизигача етказиш;

“Шаффоф қурилиш” миллий ахборот тизими доирасида қўшимча 4 та электрон платформа яратилишини, уларнинг идоралараро ахборот тизимлари ва маълумотлар базалари билан интеграция қилинишини таъминлаш;

“Бизнес юритиш” халқаро индексида (Doing Business Index) «қурилишга рухсатномалар олиш» (Dealing with Construction Permits) йўналиши бўйича Ўзбекистон Республикасининг позициясини жорий 61,7 баллдан 78,2 баллгача яхшилаш;

Архитектура ва қурилиш соҳасидаги олий таълим муассасаларидан бирининг халқаро тан олинган ташкилотлар рейтингларидаги Осиё мамлакатларининг энг яхши ОТМлари рўйхати (ТОП–1000) кириши каби йўналишлар ҳам киритилган.

Халқаро тажриба шуни кўрсатмоқдаки, қурилиш индустриясининг иқтисодиёт таркибида тутган ўрни ва аҳамияти мамлакатнинг ривожланиш босқичларига қараб ўзгариб туради. Бу тармоқнинг улуши ривожланишнинг дастлабки босқичларида (ривожланаётган мамлакатлар) ўсиб боради, мамлакат ўрточа даромадли мамлакатлар (янги саноатлашган

мамлакатлар) даражасига етганида барқарорлашади ва иқтисодий етуклик даврида (ривожланган мамлакатлар) пасаяди.

Ўзбекистонда бугунги кунда қурилиш тармоғида олиб борилаётган ишлар, хизматлар миллий иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари қаторида нафақат иқтисодиётнинг асосий фондларини яратувчи қисми сифатида, балки мамлакат иқтисодиётида амалга оширилаётган таркибий ўзгаришлар ҳамда турли ижтимоий соҳадаги долзарб вазифаларни амалга оширишда ўзининг муҳим ҳиссасини қўшиб келмоқда.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 апрелдаги “Қурилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида ПФ-5392-сонли Фармони//<https://lex.uz/docs/3605171>
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қонуни// [lex.uz](https://lex.uz/docs/3605171)
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қурилиш соҳасида электрон давлат харидларини ташкил этиш ва амалга ошириш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори//[lex.uz](https://lex.uz/docs/3605171)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қурилиш-монтаж ишлари сифатини тубдан яхшилаш ва қурилишни назорат қилиш тизимини такомиллаштириш чоралари тўғрисида” ги Қарори//[lex.uz](https://lex.uz/docs/3605171)
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қурилиш соҳасида ислохотларни чуқурлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони//[lex.uz](https://lex.uz/docs/3605171)
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қурилиш соҳасида электрон давлат харидларини ташкил этиш ва амалга ошириш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори// <https://lex.uz/docs/5844036>
7. Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал ва инновацион ривожлантиришнинг 2021 — 2025 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони//<https://lex.uz/docs/5130468>

УЎК 519.673:658.512.4

### КОМПАНИЯНИНГ КОРПОРАТИВ АХБОРОТ ТИЗИМЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ВА АМАЛГА ОШИРИШ

*А.Ш.Қудайбергенов, ўқитувчи, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус*

**Аннотация.** Ушбу мақолада корхоналарда корпоратив ахборот тизимларининг қурилиши, лойиҳаларининг асосий босқичлари, маълумотларни мустаҳкамлаш, муаммони бартараф этишга самарали таъсир кўрсатадиган бошқа омилларни тақдим этадилар.

**Калим сўзлар:** корпоратив ахборот тизимлар, дастурий таъминат, ERP тизими, бизнес жараён ва модулар.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено построение корпоративных информационных систем на предприятиях, основные этапы их проектов, консолидация данных и другие факторы, оказывающие эффективное влияние на решение задач.

**Ключевые слова:** корпоративные информационные системы, программное обеспечение, ERP-система, бизнес-процесс и модули.

**Abstract.** This article discusses the construction of corporate information systems at enterprises, the main stages of their projects, data consolidation and other factors that have an effective impact on problem solving.

**Key words:** corporate information systems, software, ERP system, business process and modules.

Интернет технологияларининг ривожланиши компаниялар ўртасидаги интеграция жараёнларига ва саноат тармоқлари сонининг ўсишига сезиларли ҳисса қўшди, чунки улар турли компаниялар тизимлари ўртасида доимий маълумот алмашинуви ўрнатилиши мумкин бўлган платформани тақдим этади.

Аксарият ҳолларда корпоратив ахборот тизимларининг қурилиш лойиҳалари анъанавий равишда дастурий таъминотни танлаш билан бошланади. Шу билан бирга, қоида тариқасида, танлов миқдорининг талабларига мувофиқлигини таҳлил қилиш асосида эмас, балки келажакда муҳим муаммоларга олиб келиши мумкин бўлган дастурий маҳсулотнинг ўзини баҳолаш

асосида амалга оширилади.

Бундан ташқари, иерархик кетма-кетлик шаклида корпоратив ахборот тизимлари курилиш лойиҳасининг асосий босқичлари у ёки бу даражада компаниянинг реинжиниринги билан боғлиқ. Таъкидлаш жоизки, Фарбда йирик лойиҳаларни амалга оширишда энг кўп учрайдиган ҳолат бошқарув компаниясининг дастурий таъминотни етказиб бериш компаниясидан фарқида. Ушбу ёндашув кўплаб оқилона асосларга эга. Ҳақиқат шундаки, бошқарув компанияси дастурий таъминот ечимини етказиб берувчиси бўлса, у одатда лойиҳада мижознинг манфаатларини тўлиқ ифода эта олмайди, чунки у дастурий маҳсулотнинг «манфаатларини» у ёки бу даражада ҳимоя қилишга мажбур. Дастурий модулни қўлланилишини ёки синовдан ўтказилишини асослаш уни ёзган дастурчига топширилганда, бу ҳолат худди шундай. Бошқа томондан, корпоратив ахборот тизимларини амалга ошириш лойиҳаси ҳеч қачон ижобий маънога эга бўлмаслиги керак, чунки унинг асосий мақсади бошқарув инфратузилмасини оптималлаштиришидир. Шунинг учун лойиҳани бошқариш билан дастурий таъминотни созлаш бўйича мутахассислар эмас, балки малакали бизнес маслаҳатчилари шуғулланиши керак.

**Корпоратив ахборот тизимларини ривожлантириш ва амалга ошириш лойиҳасининг асосий босқичлари қуйидагилардан иборат:**

- корпоратив ахборот тизимларини амалга ошириш билан боғлиқ бошқа корхоналар тажрибасини таҳлил қилиш;
- мавжуд бошқарув вазифаларини ҳал қилиш самарадорлигини ошириш ва тубдан янги бошқарув технологияларини жорий этиш шароитида лойиҳа мақсадларини аниқлаш;
- автоматизацияга таалукли, бизнес-жараёнларнинг самарадорлик ишлаш кўрсаткичларини аниқлаш ва лойиҳанинг муваффақияти учун дастлабки мезонларни шакллантириш.
- лойиҳанинг мақбул молиявий жадвалини аниқлаш.

**Бошқарув компаниясини танлаш ва тендерни ташкил этиш.** Бошқарув компаниясини танлаш одатда лойиҳанинг умумий самарадорлиги нуқтаи назаридан ҳал қилувчи рол ўйнайди. Енг жиддий хавфлар кўпинча сифатсиз лойиҳаларни бошқариш туфайли юзага келади, шунинг учун бошқарув компаниясини танлашдаги хато жиддий муваффақиятсизликларга таҳдид солиши мумкин. Рақобатчиларни таҳлил қилишда қуйидаги асосий омилларга асосланиш керак: расмийлаштирилган лойиҳани бошқариш методологиясининг мавжудлиги, компаниянинг юқори ишбилармонлик обрўси, малакали маслаҳатчилар ва бизнес-таҳлилчиларнинг мавжудлиги, шунга ўхшаш лойиҳаларда ижобий тажриба.

**Ўзгаришлар лойиҳасига компания ходимларини тайёрлаш, янги меҳнат мотивацияси сиёсатини ишлаб чиқиш.** Корхонада жиддий ўзгаришларнинг деярли барча ҳолатларида ташкилий иерархиянинг турли даражаларида ходимларнинг қаршиликлари мавжуд. Бунга ҳар қандай ўзгаришлардан, йўқотишлардан, қарор қабул қилишни истамаслик ва ҳоказоларда ифодаланган ўзига хос инсоний хусусиятларга боғлиқ. Амалиёт шуни кўрсатадики, меҳнатни рағбатлантиришнинг янги сиёсатини пухта ишлаб чиқиш ходимларнинг қаршилигини сезиларли даражада камайтириши ва кўп ҳолларда уларнинг лойиҳага қизиқишини уйғотиши мумкин. Ушбу муаммони бартараф этишга самарали таъсир кўрсатадиган бошқа омиллар қуйидагилардир: ходимлар ўртасида янги киришлар муқаррарлиги тўғрисида қатъий ишонч ҳосил қилиш, лойиҳанинг юқори мақомини сақлаб қолиш ва барча лойиҳа буюртмаларини тегишли бошқарув буйруқлари билан таъминлаш.

**Лойиҳа методологиясини тасдиқлаш.** Корхонани ўрганиш ва қайта ташкил этиш, лойиҳани амалга оширишнинг биринчи босқичи бўлиб, уларнинг натижалари корпоратив ахборот тизимларининг кейинги конфигурациясига ҳам, натижаларнинг мижознинг талабларига мос келишига ҳам ҳал қилувчи таъсир кўрсатади. Шунинг учун, ушбу босқичда ҳар доим лойиҳани бошқаришнинг ягона концепциясини тасдиқлаш ва кейинги барча босқичларда унга қатъий риоя қилиш керак, агар керак бўлса, янги мавзу соҳаси туфайли қоидаларга тузатишлар киритиш керак. Лойиҳани бошқариш методологияси интеграция,

таркиб, вақт, нарх, сифат, инсон ресурслари, алоқа, хавф, лойиҳани қўллаб-қувватлашга асосланган. Жараён модели асос қилиб олинади ва 37 тагача жараён ажратилади, уларнинг ҳар бири маълумотларни ўзгартириш воситалари ва технологияси тавсифи билан киритиш-чиқариш модуллари кўринишида тасвирланади. Масалан, жамоа модели, ишчи гуруҳнинг рол таркибини, ролларнинг ўзаро таъсири қоидаларини ва лойиҳа вазифаларини бажариш учун жавобгарликни белгилайди. Жараён модели иш жадвалини, ҳисобот сиёсатини ва лойиҳанинг бутун умри давомида натижаларни тақдим этиш қоидаларини тавсифлайди. Хавф модели хавф ҳолатини аниқлаш ва кузатиш қоидаларини, шунингдек уларни бартараф этиш ёки уларни амалга ошириш оқибатларини камайтиришни режалаштириш учун ечимларни топиш тамойилларини тавсифлайди.

**Тадқиқот лойиҳасини бошқариш.** «Қай тарзда» бизнес моделини куриш ва тасдиқлаш. Олинган натижаларни тақдим этиш ва тасдиқлаш.

«Қай тарзда» бизнес модели таҳлили, «Қандай бўлиши керак» бизнес моделини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш, қайта ташкил этиш лойиҳасини режалаштириш. Қайта ташкил этиш учун техник хизмат кўрсатиш шартларини ишлаб чиқиш. Дастурий таъминот сотувчилари дастурий таъминотни “Бўлиши керак” тамойили асосида қургани билан, улар исталган фикрни билдирадilar, чунки корпоратив ахборот тизимларининг мавжудлиги ҳар доим маълумот билан ишлашнинг янги усулларини ва шунга мос равишда корхонанинг янги бизнес моделини назарда тутди. Фақат бу ҳолда, ўзгаришлар бизнес-жараёнлар самарадорлигининг ҳақиқий кўрсаткичлари билан эмас, балки дастурий таъминотнинг конфигурацияси билан белгиланади.

Бизнес-жараёнларни ва корхонанинг алоҳида қуйи тизимларини қайта ташкил этиш лойиҳасини бошқариш техник шартларга мувофиқ иш олиб боради. Кўпинча бу босқич эътиборсиз қолдирилади ва натижада автоматлаштириш аниқ натижалар бермайди. корпоратив ахборот тизимларини амалга ошириш компания фаолияти ривожланиш стратегиясига мос келадиган ва дастурий таъминотнинг функционал имкониятларига қўйиладиган барча бошқарув усуллари тасдиқланган қоидаларга эга бўлган ҳолларда аниқланади. Бошқача қилиб айтганда, корхонада бюджет тизимининг ўзи мавжуд бўлмаса, «бюджетлаштириш» дастурий модулини сотиб олиш ва уни амалга оширишда ҳеч қандай маъно йук. Бошқарув ахборотларини қайта ишлаш ва етказиб бериш самарадорлиги ҳақида ҳам худди шундай дейиш мумкин. Агар ушбу жараёнда кечикишлар ташкилий муаммолар туфайли келиб чиқадиган вазиятлар юзага келса, унда корпоратив ахборот тизимларининг мавжуд бўлганда ҳам маълумотларнинг керакли тўлиқлиги ва долзарблигига эришиш мумкин эмас. Шунини унутмаслик керакки, агар MRP гуруҳга мансуб корпоратив ахборот тизимларининг синфини амалга ошириш режалаштирилган бўлса, аввал сиз янги шартларни ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқаришни режалаштириш сиёсати қандай ишлаб чиқилишини ҳал қилишингиз керак ва шундан кейингина дастурий таъминотни созлаш ва мослаштириш учун техник шартларни ишлаб чиқишингиз керак

Шундай қилиб, компанияда мавжуд вазият бизнес-жараёнларни қайта ташкил этиш лойиҳасини, шу жумладан тузилмани ўзгартириш тўғрисида қарор қабул қилиш механизм талабларига боғлиқ бўлган, тузилмани ўзгартириш бўйича асосланган ечимларни қабул қилиш механизмига эга, бизнес-жараёнларни қайта ташкил этиш тўғрисида қарор қабул қилиниши керак.

Дастурий таъминот етказиб берувчисига талабларни шакллантириш қуйидаги кетма кетликда олиб борилади.

- номзодларга ахборотни тақдим этиш шакли ва жадвалига қўйиладиган талабларни тасдиқлаш.
- тақдимот шаклига талабларни ишлаб чиқиш, намунавий мисолларни тайёрлаш.
- тендер ҳужжатларини тарқатиш ва тендерни ташкил этиш. Қарор қабул қилувчини танлаш ёки яқка ривожланиш тўғрисида қарор қабул қилиш.
- ҳамкорлик шаклини аниқлаш ва дастурий таъминотни етказиб бериш бўйича шартнома тузиш.

- корпоратив ахборот тизимларини қуриш ва ривожлантириш бўйича лойиҳаларни бошқариш.

- бошқарув моделини тасдиқлаш, шу жумладан: жамоа моделлари, жараён моделлари ва таваккалчилик моделлари ва бошқалар.

- компаниянинг ривожланиши туфайли бизнес моделига тузатишлар киритиш.

- Ахборот моделини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш.

Иш жадвалини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. корпоратив ахборот тизимларининг конфигурацияси ва ривожланиши версивлик принципига мувофиқ амалга оширилиши керак. Битта версияни яратиш бўйича иш давомийлиги жуда узоқ бўлмаслиги керак. Бу бизнес моделидаги ўзгариш тезлиги ва ахборот технологиялари соҳасидаги тараққиёт билан боғлиқ. Амалга оширишга ёндашув итератив бўлиши керак: битта амалга ошириш цикли тугашига яқин бўлса, кейингисини режалаштириш керак.

- Бизнес модели талабларига мувофиқ дастурий таъминотни созлаш ва мослаштиришни бошқариш.

- корпоратив ахборот тизимларининг предметлик қисмининг конфигурацияси корхона профилига, масалан, молиявий таҳлил учун дастурий таъминотга, омбор дастурига ёки PDM-тизимига боғлиқ.

- корпоратив ахборот тизимларининг бази қисми ташкилотнинг ҳажми, ахборот оқимларининг ҳажми ва мураккаблиги каби хусусиятлар билан белгиланади. Уларнинг кўпайиши билан ахборотни сақлашнинг ишончилиги ва хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган ҳужжатларнинг катта электрон архивларини қўллаб-қувватлашга қодир иш юритиш ва архив сақлашнинг ихтисослаштирилган модулларини жорий этиш долзарб бўлиб қолмоқда. Шундай қилиб, корпоратив ахборот тизимларининг функционал модели аниқланади.

- Функционалликдан ташқари, корпоратив ахборот тизимларининг тузилмаси ушбу функцияни амалга оширадиган технологиялар билан ҳам белгиланади. Шу нуқтаи назардан, замонавий ахборот тизимлари мажбурий талабларнинг бутун мажмуасига жавоб бериши керак. Масалан, кўпгина саноат МББТ фойдаланиш имконияти билан мижоз-сервер архитектурасидан фойдаланиш, ахборот ресурсларига киришни бошқариш ва фарқлашнинг турли усуллари ёрдамида хавфсизликни таъминлаш, тарқатилган ахборотни қайта ишлашни қўллаб-қувватлаш, очиқ стандартлар туфайли кенгайтиш билан операцион мустақил функционал блоklarдан қуришнинг модулли принципи, шунингдек Internet/intranet технологияларини қўллаб-қувватлаш.

Бундан ташқари, бошқа операцион хусусиятлар ҳам муҳим рол ўйнайди: бошқарув қулайлиги, эргономика, маҳаллийлаштирилган интерфейсининг мавжудлиги.

Конфигурация ва мослашувни бошқариш процедуралари одатда режада тавсифланади ёки конфигурация ва мослашувни бошқариш учун стандарт сифатида қараладиган алоҳида ҳужжатта тақдим этилади ва амалга оширилади:

- синовларни бошқариш. Синов одатда иккита тоифадан иборат: функционал ва фойдаланувчи. Функционал тестнинг мақсади ҳар бир дастурий таъминот модулини носозликлар учун иложи борида тўлиқ текширишдир;

- ушбу тоифа учун тестларнинг махсус турлари ишлаб чиқилади. Фойдаланувчи тестибу расмий назорат мисоллари деярли хатоларни аниқламаганда амалга ошириладиган кейинги синов даражаси. Бундай ҳолда, маҳсулот турли фойдаланувчи гуруҳларининг ҳаракатларини имитация қилиш орқали синовдан ўтказилади;

- хатарларни бошқариш ва амалга ошириш сифати. Хавф ҳар доим ҳар қандай мураккаб ва масъулиятли жараённинг ажралмас қисмидир. Бундан ташқари, хавфли ҳаракатлар қилиш тараққиёт учун зарурдир ва хатолар, сиз билганингиздек, тажриба орттириш учун асосдир. Гарчи баъзи хавф-хатарлар муқаррар бўлса-да, бу уларни аниқлаш ва бошқаришга уринишлар ижодий ишларга зарар етказиши дегани эмас. Лойиҳа давомида амалий хатарларни бошқариш муваффақиятнинг энг муҳим омилларидан биридир;

- тайёр маҳсулот сифатини таъминлаш учта компонент ўртасида энг муҳим мувозанатни

топиш орқали эришилади: функционаллик, ишончлилик, чиқарилиш санаси. Ушбу компонентларнинг ҳар бири мижознинг тахминлари асосида шаклланади. Шубҳасиз, ҳар бир лойиҳа чиқиш санаси учун жуда муҳим эмас, худди ҳар бир лойиҳа функционалликни тўлиқ амалга ошириш учун жуда муҳим эмас. Фойдаланувчининг ҳаракат сценарийсини ўзгартириш орқали баъзи хатоларни осонгина четлаб ўтиш мумкин, чунки кўпинча маҳсулотни ишга туширишнинг режалаштирилган вақтини сақлаб қолиш хатоларни тузатиш ва қайта синовдан ўтказиш туфайли кечикишдан кўра муҳимроқдир;

- корпоратив ахборот тизимларни синовдан ўтказиш;
- корпоратив ахборот тизимлар билан ишлаш қоидаларини ишлаб чиқиш ва конфигурацияга ўзгартириш киритиш тартибини тасдиқлаш.
- фойдаланувчилар ва маъмурларни ўқитиш ва сертификатлаш;
- техник таъминот ва фойдаланувчиларни қўллаб-қувватлаш бўлими ишини ташкил этиш;

Амалга ошириш учун ERP- тизимини танлаш мустақил равишда амалга оширилиши ёки бунинг учун маслаҳатчи жалб қилиниши мумкин. Аммо ҳар қандай ҳолатда, инвестиция қилинган инвестициялар максимал фойда келтириши учун амалга оширилган тизим қандай талабларга жавоб бериши кераклигини тасаввур қилиш керак.

#### **Одатда корпоратив ахборот тизимлари учун қуйидаги талаблар мавжуд:**

- корпоратив бошқарувнинг барча асосий жараёнларини қамраб олиш. Тизимни танлашда унинг функционалликни корхонада қабул қилинган де-факто бизнес жараёнларини қамраб олишнинг тўлиқлиги нуктаи назаридан баҳолаш керак. Акс ҳолда, ахборот оқимларининг узлуксизлиги ва қарор қабул қилиш учун маълумотларнинг яхлитлиги ва изчиллиги бузилиши мумкин, бу эса амалга ошириладиган тизим қийматини кескин камайтиради.

- модуллиқ. Тақдим этилган тизимнинг функционаллиги ўртача даражада ортиқча бўлиши керак. Кўшимча пул сарфламастик, шунингдек, функционалликнинг тез ўсишининг маълум чегарасига эга бўлиш учун керакли модулларни танлаш ва маълум бир бизнесга мос келадиган функционал ечимни тўплаш фойдалидир. Ушбу ёндашув келажакда керакли янги компонентларни қўшиш ва созлаш ҳамда мавжудларининг ортиқча захира функцияларидан фойдаланиш орқали тизимнинг функционалликни осонгина ошириш имконини беради.

- мижоз-сервер кўп босқичли архитектура. Ечимнинг архитектураси ягона маълумотлар базасини шакллантириш ва қўллаб - қувватлашни ва унга керакли миқдордаги фойдаланувчиларнинг, шу жумладан веб-браузер орқали уланишни таъминлаши керак-бу сизга компаниянинг исталган иш жойидан маҳаллий тармоқ ва масофадан туриб, тизим функцияларидан фойдаланишга имкон беради.

- мослашувчанлик. Тизим маълум бир корхона бизнесининг ўзига хос хусусиятларига жавоб бериши, бизнес муаммоларини ҳал қилиш учун ҳужжатлар шакллари, маълумотлар тузилмаларини ва жараён диаграммаларини қулай тарзда созлаши керак.

- электрон каналлар билан интеграция. Корпоратив тизим электрон тижорат модуллари билан интеграцияни ва шериклар серверлари ва ишбилармонлар доирасида электрон алоқани таъминлаши керак.

- минтақавий ва саноат ихтисослашуви. Тизим маълум бир географик минтақа учун маҳаллийлаштирилиши, ҳисоб усуллари ва минтақавий ва саноат қоидалари билан тартибга солинадиган ҳужжатлар шакллари билан фойдаланиши керак. Тизим кўшимча равишда ўрнатилган саноат маълумотномаларини ўз ичига олиши ва маълум бир бизнесга хос жараёнларни қўллаб-қувватлаши мақсадга мувофиқдир.

- қулай интерфейс. Фойдаланувчиларни ўқитиш вақтини қисқартириш, хатолар сонини камайтириш, унумдорлик ва янги воситаларга ишончни ошириш учун фойдаланувчилар қулай, таниш ва «аниқ» интерфейслардан фойдаланиш керак.

- Ахборот очиқлиги. Амалдаги ечим тегишли корпоратив тизимлар ва бўлинмалар, шериклар ва ишбилармон доираларнинг ахборот тизимлари билан интеграция зарурлигини ҳисобга олиши ва АТни узоқ муддатли ривожлантириш/қайта ташкил этиш имкониятини

таъминлаши керак. Бунинг учун жорий этилаётган корпоратив тизим, ички функцияларга (API) кириш, дастурлаш ва қуриш воситаларига эга бўлиши ва маълумотларни узатишнинг асосий стандарт протоколларидан фойдаланиши керак.

• Маълумотларни мустаҳкамлаш. Компанияни холдинг ташкил қилиш ҳолатида корпоратив бошқарув тизими холдингнинг бир қисми бўлган бир нечта бизнес бўлинмалари учун бирлаштирилган маълумотларни яратиш ва таҳлил қилиш воситаларига эга бўлиши керак.

• Хавфсизлик ва ишончлилиқ. Фойдаланувчиларнинг функциялар ва маълумотларга киришини чеклаш воситалари амалга оширилиши, махфийлик талабларига қараб маълумотларга рухсатсиз киришдан ҳимоя қилиш воситалари тақдим этилиши, маълумотларнинг ишончлилиги ва яхлитлигини таъминлаш ва уларни йўқ қилишдан ҳимоя қилиш чоралари кўрилиши керак.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ««Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6079-сон Фармони. 2020 йил 5 октябр

2. “Ўзбекистон Республикаси давлат бошқаруви рақамли иқтисодиёт, электрон ҳукумат ҳамда ахборот тизимларини жорий этиш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5598-сон фармони.

3. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Методологические аспекты влияния информационного общества на инновационное развитие экономики. Монография. Ташкент: Фан ва технологиялар. 2016. – 134 с.

4. Жиемуратов Т., Калмуратов Б. Роль информационных технологий в инновационном развитии управления промышленными предприятиями в условиях модернизаций экономики//«Biznes-Эксперт» экономический научно-практический журнал №10-11(70-71), 2013. 73-78 стр.

5. Қалмуратов Б. Қорақалпоғистон Республикасида саноат ишлаб чиқаришини ривожлантиришни статистик таҳлили.// Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1(1), Хоразм Маъмур академияси, 2023 й. – 152-156 б.

УЎК 330

### ГЛОБАЛ ОЗИҚ-ОВҚАТ БОЗОРИДАГИ ИҚТИСОДИЙ-ИЖТИМОЙ ВАЗИЯТ: МУАММО ВА ИМКОНИЯТЛАР

*Д.А.Курбанова, PhD, доц., Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада глобал озиқ-овқат саноатидаги қатор муаммолар, статистик маълумотлар, ишлаб чиқариш ҳажмлари давлатлар кесимида кўриб чиқилган ва уларнинг хусусиятлари тадқиқ этилган.

**Калим сўзлар:** Глобал озиқ – овқат бозори, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчилари, табиий ресурслар, бозор сегментацияси.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрен ряд проблем мировой пищевой промышленности, статистические данные, объемы производства в разрезе стран, а также изучены их особенности.

**Ключевые слова:** Мировой рынок продуктов питания, мировые производители продуктов питания, природные ресурсы, сегментация рынка.

**Abstract.** This article discusses a number of problems of the global food industry, statistical data, production volumes by country and their properties.

**Keywords:** Global food market, global food producers, natural resources, market segmentation.

Сўнгги йилларда глобал даражада юз бераётган сиёсий-иқтисодий воқеалар фонида дунё мамлакатлари ўз аҳолисини узлуксиз сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш энг асосий масалалардан бирига айланмоқда. Жумладан, 2022 йилнинг 24 февралдан бери Россия Федерациясининг Украина ҳудудида олиб бораётган махсус харбий амалиёти туфайли дунёнинг энг катта буғдой етиштирувчиларидан бири бўлган Украинанинг жаҳон бозорига ғалла етказиб бериш суръатлари пасайиб кетди. Бундан ташқари, йилдан-йилга кучайиб бораётган глобал иссиқлашиш жараёнларининг янада интенсив тусга кириши, атроф-

муҳитнинг ифлосланиши, одамларнинг табиат ва табиий ресурсларга нисбатан нотўғри муносабати оқибатида ҳамда саноат ишлаб чиқариш объектларининг тобора кўлами ва ҳажми ошиб бориши натижасида чучук сув ресурсларининг камайиб кетиши, экилувчи ер ресурсларининг эрозияланиш даражасининг ортиб бориши, ривожланаётган мамлакатлар худудида ҳавонинг ифлосланиш даражасининг муттасил юқори кўрсаткичларни ташкил этиши озиқ-овқат ишлаб чиқарувчилари ва истеъмолчиларини ҳам бирдек қаттиқ ташвишга солмоқда. Юқорида санаб ўтилган муаммолар глобал озиқ-овқат бозоридаги ишлаб чиқарувчилар учун ҳам бирдек челленджлар келтириб чиқармоқдв.

Бугунги кунда дунёнинг энг кўп озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи мамлакатлар ичида биринчиликни Хитой эгаллаган, кейинги ўринларда Ҳиндистон, АҚШ ва Бразилия етакчилик қилмоқда. Кўриш мумкинки, аҳоли сони ҳам ҳал қилувчи аҳамиятга эга, чунки қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг асосий қисми қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг халқаро савдоси тез суръатлар билан ўсишига қарамай, маҳаллий аҳоли томонидан истеъмол қилинади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (FAO) маълумотларига кўра, Хитой 2020 йилда йиллик ишлаб чиқариш ҳажми 1,56 триллион долларни ташкил этган ҳолда дунёдаги етакчи қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиси эди. Хитой, шунингдек, қишлоқ хўжалиги меҳнати бўйича дунёдаги энг йирик ресурслардан бирига эга. Озиқ-овқат ишлаб чиқаришдаги ишчилар улуши 1991 йилдаги 60 фоиздан доимий равишда камайган бўлсада, 2019 йил ҳолатига кўра, қишлоқ хўжалиги ишлари ҳали ҳам миллий бандликнинг 25 фоизини ташкил этди. Озиқ-овқат бозоридаги даромад 2023 йилда 9,24 триллион АҚШ долларини ташкил этади. Бозор ҳар йили 7,25 фоизга ўсиши кутилмоқда (САҒР 2023-2028).

Бозорнинг энг катта сегменти қандолат ва газаклар сегменти бўлиб, бозор ҳажми 2023 йилда 1,65 трлн АҚШ долларини ташкил этиши кутилмоқда. Глобал таққослаганда, энг кўп даромад Хитойда (2023 йилда 1,319 миллиард АҚШ долларига) тўғри келади. Аҳоли сонининг умумий сонига нисбатан 2023 йилда бир киши бошига 1203,00 АҚШ доллари миқдорида даромад олинади. 2023 йилга келиб озиқ-овқат бозорида жами даромаднинг 8,5 фоизи онлайн савдо орқали амалга оширилади. Озиқ-овқат бозорида эса ҳажм 2028 йилга келиб 3150,00 млрд.кг ни ташкил этиши кутилмоқда ва шу билан бирга озиқ-овқат бозори 2024 йилда 4,9% ҳажмда ўсиши прогноз қилинмоқда, шунингдек озиқ-овқат бозорида бир киши бошига ўртача ҳажм 2023 йилда 338,00 кг ни ташкил қилиши айtilмоқда.

Глобал озиқ-овқат ишлаб чиқариш 2026 йилга келиб 4,4 триллион долларга етиши кутилмоқда, бу 1966 йилдан буён ўртача йиллик ўсиш суръати 1,1% ни ташкил этади. Минтакалар бўйича таҳлил этадиган бўлсак, Хитой 2021 йилда 1,2 триллион доллар билан ҳамон етакчиликни қўлдан бермай келмоқда, ундан кейин Ҳиндистон, АҚШ ва Бразилия. Уммон йилига 10,9 фоизга ўсди, Малдив ороллари эса 12,4 фоизга камайди.

Йилдан-йилга табиий кўпайиш камайиб бораётган Европа қитъасида эса озиқ-овқат савдоси 2026 йилга келиб 1,2 триллион еврога етиши кутилмоқда, бу 2016 йилдан буён йиллик ўсиш суръати 0,9% ни ташкил этиши кутилмоқда, Германия 2021 йилда 193,5 миллиард евро билан етакчилик қилди, ундан кейинги ўринларда Франция, Италия ва Испания эгаллаган бўлса, Полша йилига умумий ҳисобда 5,1 фоизга ўсди, Хорватияда эса 1,9 фоизлик қисқариш кузатилди. Европада озиқ-овқат харажатлари 2026 йилга келиб 1,1 триллион еврога етиши прогноз қилинмоқда, бу 2016 йилдан буён йиллик ўсиш суръати 1%ни ташкил этади. Германия 2021 йилда 174,9 миллиард евро билан биринчи ўринни эгаллаган, ундан кейин Франция, Италия ва Буюк Британиялар пешқадамлик қилмоқда. Словакияда энг катта ўсиш 7,5 фоизга етиб, Норвегияда эса озиқ-овқат учун харажатлар 0,3 фоизга ўсди. Ресурсларнинг камайиши ва иқлим ўзгариши катта муаммоларни келтириб чиқаради.

Ресурсларга бўлган талаб иқлим ўзгариши билан мураккаблашади. 2050 йилга бориб, иқлим ўзгариши гуруч, буғдой ва маккажўхорининг глобал ўртача ҳосилдорлиги бошқа ҳолатларга қараганда 6-10 фоизга кам бўлишига олиб келиши мумкин, шу билан бирга Шимолий-Ғарбий Ҳиндистон, Шимоли-Шарқий Хитой ва Америка Қўшма Штатларининг

жануби-ғарбий қисмидаги асосий минтақаларда сув таъсири ўз-ўзидан пайдо бўлиши мумкин. 2050 йилга келиб бир хил экинларнинг халқаро нархининг 5-7% га ошишига олиб келади.

Глобал озиқ-овқат бозори 13 хил сегментдан иборат:



Бугунги кундаги глобал озиқ-овқат бозорининг асосий хусусиятларини куйида кўриб чиқамиз:

- 1. Озиқ-овқат таъминоти занжирларининг глобаллашуви.** Чегаралар орқали озиқ-овқат ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ сотилмоқда. Корхоналар ўсишга чанқоқ ва ташқи бозорларда даромадни оширишга интилмоқда.
- 2. Таъминот занжирларининг интеграцияси.** Глобал озиқ-овқат савдоси кўпроқ тартибга солиниши сабабли, озиқ-овқат компаниялари хавфсизлик ва кузатувни яхшилаш учун таъминот занжирларини бирлаштиришга миллионлаб маблағ сарфламоқда.
- 3. Низолар ва кўп сонли текширувлар.** Юқори даражадаги озиқ-овқат хавфсизлиги ва фирибгарлик можаролари аҳоли саломатлигини ташвишга солмоқда ва бутун дунё бўйлаб саноат ва ҳукуматларга ишончни йўқотмоқда.
- 4. Мураккаблашган тартибга солувчи стандартлар.** Ҳукуматлар, хусусан, Хитой ва АҚШ, сифат стандартлари, назорат ва санкциялар учун қаттиқроқ ва мураккаброқ қоидаларни қабул қилмоқда.
- 5. Глобал иқтисодий кучнинг ўзгариши.** Осиё, хусусан, Хитой ва Ҳиндистон иқтисодиётининг ўсиши улкан янги истеъмол бозорларини яратмоқда. 2015 йилда Осиё-Тинч океани минтақасидаги ўрта синф аҳолиси АҚШ ва Европани биргаликдагидан ошиб кетади. 2030 йилга келиб, биз Е7 иқтисодиётларининг харид қобилияти G7 иқтисодидан ўзиб кетишини башорат қилмоқдамиз.
- 6. Технологик ва илмий ютуқлар.** Илмий ютуқлар хавфларни аниқлаш ва хавфларни аниқлаш қобилиятларимизни оширмоқда. Янги технологиялар, масалан, фермада GPS хариталаш ва ДНК ёрлиғи энди тижорат учун фойдалидир.
- 7. Озиқ-овқат талабининг ўзгариши.** Иқтисодий ривожланиш ва аҳоли сонининг ўсиши умумий озиқ-овқат истеъмолининг ўсишига олиб келади, ўсиб бораётган ўрта синф эса яхшироқ сифат ва кўпроқ хилма-хилликни талаб қилмоқда.
- 8. Имкониятли истеъмолчилар.** Интернет истеъмолчиларга озиқ-овқат ва соғлиқ муаммолари ҳақида жуда кўп маълумот олиш имконини беради.
- 9. Мувофиқликдан рақобатбардош устунликка қадар.** Жаҳон даражасидаги озиқ-овқат компаниялари қонун томонидан талаб қилинганидан анча қатъийроқ бўлган ички стандартларни ўрнатмоқда.
- 10. Аҳолининг ўсиши ва ресурслар танқислиги.** Аҳоли сони ва фаровонлик ортиб бораётган бир шароитда, 2050 йилга келиб дунё аҳолисини озиқлантириш учун қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши 70 фоизга ўсиши керак бўлади, аммо бизнинг ҳозирги ресурсларни истеъмолимиз аллақачон барқарор эмас.

Юқоридаги хусусиятлар озик-овқат бозорининг ривожланиш тенденцияларини акс эттириб, сўнгги даврлардаги рақамли тараққиёт билан ҳамоҳанг тарзда истеъмолчилар ва ишлаб чиқарувчиларнинг ўзаро муносабатларида катта аҳамият касб этади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. <https://www.reportlinker.com/clp/global/793>
2. <https://www.oecd.org/agriculture/understanding-the-global-food-system/opportunities-and-threats-for-agriculture/>
3. <https://www.statista.com/outlook/cmo/food/worldwide>
4. <https://daryo.uz/k/2020/05/21/ozbekiston>
5. Н.Рамазонов. Озик-овқат маҳсулотларини таҳлил қилиш. Т.: 2014

УЎК 330.15

**САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА  
ТАЪСИРИ ВА УЛАРНИ ТЎҒРИ ЖОЙЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

**Ф.Б.Маткаримов, ўқитувчи, Урганч Давлат Университети, Урганч**

**Аннотация.** Ушбу мақолада саноат ишлаб чиқариш корхоналарининг атроф-муҳитга таъсири ва уларни тўғри жойлаштириш шартлари кўриб чиқилган. Хорижлик олимларнинг жойлаштириш қонунлари, саноат корхоналарининг атроф муҳит таъсирини ўрганиш мақсадида олиб борилган ишлари таҳлил қилинган. Яна шунингдек саноат корхоналарининг атроф муҳитга ижобий ва салбий таъсирлари ўрганилиб, салбий оқибатларини бартараф қилиш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар.** Саноат корхоналари, ишлаб чиқариш, минтақа, жойлаштириш, экология, иқтисодиёт, саноат иқтисодиёти.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается воздействие промышленных производств на окружающую среду и условия их правильного размещения. Изучены законы размещения зарубежных ученых, работы промышленных предприятий с целью изучения воздействия на окружающую среду. В статье исследуется положительное и отрицательное воздействие промышленных предприятий на окружающую среду, разрабатываются предложения и рекомендации по устранению негативных последствий.

**Ключевые слова.** Промышленные предприятия, производство, регион, размещение, экология, экономика, экономика отрасли.

**Abstract.** This article examines the impact of industrial production enterprises on the environment and the conditions for their correct placement. The laws of placement of foreign scientists, the work of industrial enterprises with the aim of studying the impact of the environment are studied. The article examines the positive and negative effects of industrial enterprises on the environment, developed proposals and recommendations for eliminating the negative consequences.

**Keywords.** Industrial enterprises, production, region, placement, ecology, economy, industrial economy.

**Кириш.** Бугунги кунда иқтисодиётнинг асосий тармоқларидан бири бўлган саноатни жадал сурьатларда ривожлантириш долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Мамлакатимиздаги эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналарини самарадорлигини ошириш, ишлаб чиқаришни янги йўналишларини ташкил этиш, уларда амалга оширилаётган ишларни янада жадаллаштириш, хорижий ва маҳаллий иштирокчилар учун яратилган шароитларни юқори даражага кўтариш, бу борада жуда муҳим аҳамиятга эга.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда саноат ишлаб чиқариш иқтисодиётнинг асосий тармоқларидан бирига айланиб бормоқда. Ушбу соҳани ривожлантириш учун қатор ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60 сонли фармони доирасида мамлакатимиз тараққиётини белгиловчи 100 та мақсад ишлаб чиқилди. 22-мақсадга кўра “Миллий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш ва ялпи ички маҳсулотда саноат улушини оширишга қаратилган саноат сиёсатини давом эттириб, саноат

маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмини 1,4 бараварга ошириш”, 51-мақсадга кўра “Иқтисодиётга инновацияларни кенг жорий қилиш, саноат корхоналари ва илм-фан муассасаларининг кооперация алоқаларини ривожлантириш” каби вазифалар кўйилган. Бу вазифаларни амалга оширишда саноат ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва хориж тажрибаларини кўллаш муҳим омил саналади [1].

**Мавзуга оид адабтётлар таҳлили.** Саноат ўзи нима ва у нима учун керак деган саволга Ф.А.Брокгауз ва Эфроннинг тарифларидан келиб чиқадиган бўлсак, “саноат” тушунчаси кенгрок маънода “инсоннинг ҳунармандчиликка йўналтирилган, моддий буюмларни яратиш, ўзгартириш ёки кўчиришга қаратилган хўжалик фаолияти” ни билдиради. Тор маънода олиб қарайдиган бўлсак “бирон-бир хомашёни истеъмол учун яроқли нарсага қайта ишлаш, айлантириш” ни англатади [2].

Хорижий адабиётларда қайд этилишича, саноат бозор мувозанатини таъминлаш, иқтисодиётнинг рақобатбардошлиги ва аҳоли даромадларини ошириш, ҳудудларни комплекс ривожлантириш каби масалаларни ечиш имкониятларини очиб беради [3].

А.Ортиқов ўзининг “Саноат иқтисодиёти” китобида, саноат бу мамлакат мудофа қобилиятининг асоси, эл-юртда тинчлик, барқарорликни сақлаш, қўшни мамлакатлар ҳамкорлиги ва бирдамлигини таъминловчи асосдир. Айниқса оғир саноат – бутун ижтимоий ишлаб чиқаришни индустриялаштириш муаммоларини ҳал этиш калитидир дея тариф берган [4].

Ишлаб чиқариш кучларини жойлаштиришнинг назарий асосларини ривожлантиришда хорижий олимларда И.Тюнен, А.Вебер, А.Леш, В.Кристаллер ва бошқа бир қанча олимлар қатор илмий ишлар олиб боришган. А.Вебер саноат корхонаси жойлашининг энг қулай нуқтасини унинг иқтисодий фойдадан келиб чиққан ҳолда, хом ашё, ёқилғи, ишчи кучи ва транспорт омилларига урғу берган ҳолда белгилайди. Кейинчалик хом ашё ва ёқилғи харажатлари ҳам транспорт омилига кириталади. А.Вебернинг саноат штандорти, яъни жойлашуви ишчи кучи, транспорт ва агломерация омиллари билан белгиланади. Олим саноат корхонасини жойлаштиришнинг кўп омилли таҳлилинини ўрганиб чиқади ва фанга киритади.

А.Вебер саноат штандортида бир қанча омилларни ҳисобга олган бўлсада ҳозирги йилларда саноат жойлашувининг шакллари янада мураккаблашиб бормоқда. Масалан, саноат корхоналари турларининг ортиб боргани сари экологик омиллар таъсири кучайиб бормоқда, арзон ишчи кучидан кўра сифатли кўрсаткичлар муҳим санала бошлади, фан – техника тараққий этиб борган сари кўплаб янги таъсир қилувчи омиллар пайдо бўла бошлади.

И.Тюненнинг фикрича бир мамлакатда битта шаҳар мавжуд бўлиб, у қишлоқ хўжалик маҳсулотларини истеъмол қилувчи ягона марказ вазифасини бажариши керак. Мазкур шаҳар атрофида қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш ва ишлаб чиқариш асосан транспорт харажати, маҳсулот ҳажми, унинг сифати бузилмаслиги ва йетказиб бериш масофасини белгилайди.

Ф.Перрунинг ғояси ҳудуд жиҳатдан талқин қилинган бўлиб, ҳудудларнинг айна бир вақтнинг ўзида ривожланиши ва мутлоқ тенглаштириш ғоясидан воз кечган. Ҳудудларнинг потенциялидан келиб чиққан ҳолда алоҳида ривожлантириш, бир – бирига боғлиқ бўлмаслик ғоясини илгари сурган. В. Лаунхард ҳам саноат корхоналарини кўриб чиқиб, транспорт омили ҳал қилувчи омил, деб ҳисоблаган. Унинг фикри саноат корхоналари жойлашадиган жой тўғри танланганлигини хомашё, ёрдамчи материаллар ва тайёр маҳсулотларни келтириш учун транспорт харажатларини минималлаштириш билан асосланган эди [5].

**Тадқиқот методологияси.** Тадқиқот ишимизда статистик анализ, гуруҳлаш ва таққослама усуллари кузатув ва таҳлил қилиш методларидан кенг фойдаланилди. Хориж тажрибалари кузатилиб илмий ишга тадбиқ қилинди. Ўзбекистон шароитида хориж тажрибаларини кўллаш ўрганиб чиқилди.


**Таҳлил ва натижалар.** Ишлаб чиқариш одамлар ва жамият эҳтиёжини қондириш учун моддий неъматлардан ва номоддий ишлаб чиқаришлардан ҳосил бўлиб қуйидаги асосий иккита тармоқга бўлинади бўлинади. Булар моддий ва номоддий ишлаб чиқариш гуруҳларига бўлинали.



### 1-чизма. Саноат ишлаб чиқариш жараёнининг тузилиши

Моддий ишлаб чиқариш бу моддий шаклдаги неъматлар ва бойлик ишлаб чиқарадиган соҳалардан иборат. Масалан саноат, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, озиқ-овқат ишлаб чиқариш, кийим кечаклар, қурилиш, ўрмон хўжалиги каби тармоқлар. Номоддий ишлаб чиқаришга тўхталадиган бўлсак бу моддий кўринишга эга бўлмаган аммо инсонлар ҳаётида муҳим рўл тутадиган тармоқлардир. Спорт, таълим, маданий – маиший хизматлар ва бошқалар киради.

Саноат ишлаб чиқариш мамлакат иқтисодиётининг асосий соҳаларидан бири бўлиб, мамлакатни жаҳон иқтисодиётига интеграциялашувининг муҳим воситаларидан бири ҳисобланади. Саноат ишлаб чиқаришнинг ҳажми, маҳсулотнинг сифати, талабчанлиги миллий иқтисодиётнинг ривожланишига таъсир қилади. Саноат ишлаб чиқаришнинг иқтисодий, ижтимоий, экологик, сиёсий, демографик ва бошқа кўплаб омиллари мавжуд ҳисобланади.



### 2-чизма. Минтақавий саноат комплексига нисбатан таъсир қилувчи омиллар

#### Манба: Муаллиф ишланмаси

Саноат ишлаб чиқаришга таъсир қилувчи ташқи омилларга тўхталадиган бўлсак табиий – иқлимий омиллар бўлиб иқлим, географик, экологик шароитлар, табиий ресурсларнинг миқдори ва мавжудлиги ҳисобланади. Сиёсий омилларга минтақанинг сиёсий барқарорлиги, давлатлараро сиёсий вазият, тинчлик даражаси киради. Аҳолининг бадлиги, демографик вазият, урбанизация, аҳоли саломатлиги, турмуш фаровонлиги, сотиб олиш даражаси ва даромади ижтимоий омил бўлади. Ҳар қандай тармоқ хусусан саноат тармоғи ҳам давлат томонидан назоратга солиниши муҳим саналади. Буларга давлатнинг пул-кредит, божхона, монополияга қарши кураш, иқтисодий сиёсати, иқтисодий муҳим аҳамиятга эга бўлган тармоқларнинг давлат томонидан қўллаб қувватланиши каби омиллар киради. Бундан ташқари ресурс ва бозор омиллари ҳам муҳим аҳамиятга эга. Минтақада зарур моддий ресурсларнинг мавжудлиги ва молиявий ресурсларни жалб қилиш имконияти мавжудлиги. Рақобатчиларнинг мавжудлиги ва рақобат эркинлиги, истеъмолчиларнинг мавжудлиги, талабнинг юқори даражада эканлиги [6].

Минтақа саноат ишлаб чиқаришда ички омиллардан бири бўлган рақобат муносабатларига саноат корхонаси ичидаги ва корхона ташкилотлар ўртасидаги рақобат киради. Кооператив ёки алоқа ўзаро таъсирлари қуйидагича бўлинади [7].

- ишлаб чиқариш муносабатлари
- корхона тармоқлар ичида
- хизмат кўрсатиш ва қўллаб қувватловчи ташкилотлар билан

Бундан ташқари корхона ва ташкилотларнинг инновацион фаоллиги, уларнинг таълим ва малакаси, тадқиқотлари билан инновацияларни жорий этиш ва тарқатишдан ўзаро таъсир даражасини ифодаловчи инновацион муносабатлар.

Замонавий иқтисодий фаолиятда инсонлар учун саноат муҳим омил саналади. Мамлакатнинг иқтисодий ривожланиши асоси ушбу мамлакатнинг саноат ривожланиши билан боғлиқ ҳисобланади. Замонавий сивилизациянинг асосий хусусиятларидан бири бўлмиш саноат бизга зарур материаллар ва аҳолини иш билан таъминлаш имконини беради. Ўрмонлар қишлоқ хўжалиги ва хизмат кўрсатиш соҳасини амалга оширишда ёрдам берувчи хомашёларни ишлаб чиқариш учун асос бўлувчи ва ёрдам берувчи бирламчи сектор ҳисобланса, саноат кўплаб одамларни иш билан таъминлашнинг асосий тармоқи ҳисобланади. Замонавий ҳаётимизда керак бўлувчи асосий хом ашё материалларни ишлаб чиқишда саноатнинг роли жуда катта. Саноатсиз ҳозирги даврда инсонларнинг ҳаётини тасаввур қилиш қийин ҳисобланади.

Саноатни иқтисодиётнинг етакчи тармоқларидан бири бўлишига қуйидаги омиллар сабаб қилиб кўрсатишимиз мумкин. Саноат комплекси қуйидаги омиллар туфайли иқтисодиётнинг етакчи тармоғидир [8].

⇒ Саноатда миллий ва ички маҳсулотнинг асосий қисми яратилмоқда

⇒ Саноат ишлаб чиқаришсиз машинасозлик, кимё, мудофаа ва миллий иқтисодиётнинг бошқа тармоқларини техник жиҳозлаш, илмий-техник тараққиёт ва кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш мумкин эмас

⇒ Саноат барча ишлаб чиқаришни ривожлантиришда ва ишлаб чиқаришнинг бошқаришнинг бошқа усуллари жорий қилишда йетакчи рол ўйнайди

⇒ Саноат давлатнинг мудофаа қобилиятини таъминлаб, ҳарбий-саноат комплексини ривожлантириш орқали мамлакат хавфсизлигини таъминлайди

⇒ Енгил саноат ва озиқ – овқат саноатининг ривожланиши мамлакат озиқ – овқат хавфсизлигини таъминлашга ва аҳоли истеъмол товарларига бўлган талабини таъминлашга ёрдам беради

Умумий маънода саноат комплекси-бу жамиятнинг ишлаб чиқарувчи кучларининг ривожланиш даражасига ҳал қилувчи таъсир кўрсатадиган миллий иқтисодиётнинг бир тармоғи.

Қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш учун ҳам саноатни ривожлантириш зарур. Ҳар қандай қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш учун тракторлар, хирмонлар, комбайнлар ва бошқа технологиялар. Ҳосилдорликни оширишга керак бўладиган кимёвий ўғитлар ва дорилар. Буларнинг барчаси саноат маҳсулоти ҳисобланиб, саноат ишлаб чиқариш қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун муҳим омил эканлигини кўрсатиб беради.

Экологик жиҳатдан саноат тармоқлари ва энг аввало кимё, гўшт, вино, консерва, чарм заводлари, иссиқлик электр станциялари ва шунда ўхшаш корхоналар атроф – муҳит учун зарарли ҳисобланади. Бундай саноат корхоналарини аҳоли яшаш жойларидан узоқроқда бўлиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Кимё саноати корхоналарининг жойлаштирилиши эркин хусусиятга эга бўлиб ҳар қандай жойда жойлаштириш мумкин. Аммо бунга тўсқинлик қилувчи омил бу экологик омилдир. Ҳозирги кунда экологик омилни ҳисобга олмасликнинг иложи йўқ, чунки кўплаб мамлакатларда ҳозирги кунда экологик соғлом жойлар санокли қолмоқда [9].

Юқоридагилардан ташқари турли саноат корхоналарининг атроф муҳитга таъсирини қуйидаги жадвал орқали кўришимиз мумкин.

**Хулоса ва таклифлар.** Юқоридаги саноат корхоналарининг атроф муҳитга зарарини ўргангандан сўнг уларнинг фаолиятини тўхтатиб қўйишимиз керак эмас, аксинча буни ечимини топишимиз керак. Бунинг учун бир нечта муҳим ёндашувларини кўриб чиқишимиз мумкин.

## Турли саноат корхоналарининг атроф-мухитга таъсири [10]

Саноат номи	Атроф мухитга таъсири
Курилиш саноати	Каронот ангидрид, метан ва бошқа чиқиндилар эмиссияси ҳавони ифлослантирадиган ва глобал иқлим ўзгаришига ҳисса қўшадиган маҳсулотлар. Глобал семент саноати карбонат ангидрид эмиссиясининг 5% ни ташкил қилади
Электроника саноати	Бу катта миқдордаги хавфли маиший чиқиндиларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Электроника тўғри ишлов берилмаса, улар ишлаб чиқарилган хом ашё заҳарли кимёвий моддаларни ерга чиқариб, камида ўн йиллар давомида сувни ҳам, озиқ-овқатни ҳам бузади.
Кимё саноати	Глобал ўғитлар бўйича иқлим ўзгариши метан, карбонат ангидрид, аммиак ва азот каби моддалар ва кимёвий моддалардан иборат бўлиб, уларнинг эмиссияси атроф мухитга катта таъсир кўрсатади. Бу ўз навбатида глобал исиш ва об-ҳаво ўзгаришига олиб келади.
Тўқимачилик саноати	Тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёнида фабрикаларни қувватлантириш учун катта миқдорда энергия талаб қилинади. Бу кейинчалик карбонат ангидрид каби кўпроқ ифлосланишни келтириб чиқаради. Матоларни бўйаш, оқартириш ёки тугатиш кўпинча жуда заҳарли кимёвий моддалардан фойдаланишни ўз ичига олади. Жараёнда ишлатиладиган сув ёввойи табиат ва одамларни таклиф қиладиган дарёлар ва канализацияга қуйилади. Пахта каби хом ашёни етиштириш катта миқдордаги пестицидларни талаб қилади. Ушбу пестицидлар зарарли ва кўпинча қушларга, сув тизимига ва ҳашаротларга таъсир қилади.
Кончилик саноати	Сувнинг ифлосланиши, биохилма-хилликнинг йўқолиши, тупроқ эрозияси ва ифлосланиши, чуқурликларнинг шаклланиши.
Озиқ-овқат ва ичимликлар саноати	Global газ чиқиндиларининг чорак қисми (26%) учун озиқ-овқат ҳисоблари. Дунёда яшашга яроқли (муз ва чўлсиз) ерларнинг ярми қишлоқ хўжалиги учун ишлатилади.

-Саноат корхоналарининг атроф мухитни ифлосланишини келтириб чиқаришимумкин бўлган маҳсулотларга бўлган талабини камайтириш. Масалан 1970-йилда бензиндан кўрғошин олиб ташланишини мисол қилишимиз мумкин. Бунинг натижасида оғир металнинг атроф мухитга ювилиши камайган.

- Чиқиндиларни хавфсиз тарзда йўқ қилиш чора тадбирларини кўриш. Завод ва корхоналар чиқиндиларини тозалаш учун зарур ишларни амалга ошириш.

- Маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини минимал ҳолатга келтириш ва ишлаб чиқаришнинг барча босқичларини муайян ҳудудга жойлаштириш.

- Ҳудудлари табиий ресурс заҳираларининг миқдори, компонентлар таркиби, геологик салоҳиятларига кўра ўзаро фарқ қилади. Бунда ишлаб чиқаришнинг хомашё, ёқилғи, энергия ва истеъмол манбаларига яқинлигини таъминлайдиган транспорт билан таъминлаш.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси президенти фармони. 2022-йил. 28-январь. №ПФ-60

2. U.A.Egamberdiyeva. “Sanoat geografiyasi”. Toshkent “Donishmand ziyosi”

3.Lavopa A. and Szirmai A. (2012). Industrialization, Employment and Poverty, UNU-MERIT Working Paper Series 2012-081. Maastricht The Netherlands: United Nations University, Maastricht Economic and Social Research Institute on Innovation and Technology.

4.A.Ortiqov. “Sanoat iqtisodiyoti” TDIU,2009

5. Шумпетер Й.А. “Теория экономического развития” <https://crystalbook.ru>

6. Литовка О.П. Глобализм и регионализм – тенденции мирового развития и фактор социально-экономического развития России / О.П. Литовка, Н.М. Межевич. – СПб.: Культ-информ-пресс, 2002. – 126 с.

7. Регионы России. Социально-экономические показатели, 2011–2015 гг. / Федеральная служба государственной статистики. – Электрон. текстовые данные. – Режим доступа: <http://www.gks.ru>.

8. Красильникова Ю.А. Факторы, условия и ресурсы развития промышленного комплекса регионов (на примере Южного Федерального Округа) Журнал Научное обозрение. Экономические науки. – 2016. – № 3 – С. 31-36

9.<https://fayllar.org/ishlab-chiqarish-omillari-va-ishlab-chiqarish-omillariniig-che.html?page=4>

10.Parth Goswami “Impact of industrialization on environment” Article · May 2021

**МОЛИЯВИЙ ИНСТРУМЕНТЛАРНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ**

*С.Қ.Махмудов, доц., и.ф.н., Андижон машинасолик институти, Андижон*

**Аннотация.** Мақолада халқаро молиявий ҳисобот стандартларига мослаштириш, қимматли қоғозларни ҳисобини ташкилий масалаларини ҳал қилиш ва халқаро молиявий ҳисобот стандартларлари асосида аудиторлик текширувларни ташкил этиш масалалари келтирилган.

**Калим сўзлар:** Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари, хорижий мезон, қимматли қоғозлар, аудиторлик фаолиятини миллий стандарти, инвестиция.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы согласования со стандартами международной финансовой отчетности, решение организаторских вопросов учета ценных бумаг и организация аудиторских проверок на основе стандартов международной финансовой отчетности.

**Ключевые слова:** Международные стандарты финансовой отчетности, иностранный стандарт, ценные бумаги, национальный стандарт аудита, инвестиции.

**Abstract.** The article deals with the adjustment with International Financial Reporting Standards, solving organizational issues of securities accounting and organization of auditing on the basis of international financial reporting standards.

**Key words:** International financial reporting standards, foreign standard, securities, national standard of auditing, investment.

**Кириш.** Иқтисодий эркинлаштириш шароитида товарлар, сармоялар ва ишчи кучининг давлатлар ўртасида эркин ҳаракатланишини талаб этади. Халқаро алоқаларнинг ривожланиши, республика иқтисодий хорижий сармоялар кириб келиши кенгайиши натижасида бухгалтерия ҳисоби тизимини такомиллаштириш ва халқаро молиявий ҳисобот стандартларига мослаштиришни талаб қилмоқда.

Халқаро молиявий ҳисобот стандартларига мослаштириш, айниқса қимматли қоғозларни ҳисобини ташкилий масалаларини ҳал қилиш ва халқаро молиявий ҳисобот стандартларлари асосида аудиторлик текширувларни ташкил этиш муҳим ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасини турли халқаро ташкилотлар билан фаол алоқаларни ўрнатиши, жаҳон иқтисодий ҳамжамиятига қўшилиши жараёнида, иқтисодий кўрсаткичларни хорижий мезонларга таққосланиши, аудитни услубий тамойилларини жаҳон амалиётида қабул қилинган стандартлар талабларига жавоб беришини таъминлашни талаб қилади.

Бугунги кунда қимматли қоғозлар ҳисоби ва аудитнинг ҳуқуқий асосини такомиллаштириш тобора долзарб масалага айланмоқда. Бунга, халқаро бозорларда фаолият юритаётган компания, корхона ва банклар ўртасидаги ўзаро алоқа муомалаларининг вужудга келиши ва қимматли қоғозлар бозорининг янада ривожланиши сабаб бўлмоқда.

Ўзбекистонда қимматли қоғозлар билан боғлиқ фаолиятини ҳисобга олиш ва аудит текшируви жараёнида аудитнинг халқаро стандартлари талабларига мувофиқ равишда ўтказилиши иқтисодий ривожлантириш учун қаратилган, қолаверса аудиторлик фаолияти миллий стандартларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётга тадбиқ этиш масалалари хали тўлиқ ўрганилиб чиқилмаган деб ўйлаймиз.

Мамлакат иқтисодий ривожланишига инвестициялар муҳим ҳисса қўшиб, уни жалб этишнинг турли усулларидан фойдаланиш мумкин. Капитал қўйилмалар қўйиш объектига фақат асосий воситалар кирса, инвестицияга айланма маблағлар, қимматли қоғозлар киради. Инвестиция икки турга бўлиниб, биринчиси маблағларни тўғридан-тўғри инвестициялаш, яъни уни корхона ишига капитал сифатида қўйиш бўлса, иккинчиси, маблағни корхоналар акцияларини сотиб олишга сарфлаш бўлиб, портфелли инвестициялар дейилади.

Инвестициянинг иккинчи тури бўйича турли фикрлар мавжуд бўлиб, уларда хўжалик

субъектларининг қимматли қоғозлар бозоридаги инвестиция фаолияти бўйича турлича талқин этилган. Масалан: Питер Роуз [1], у банкларнинг қимматли қоғозлар бозоридаги инвестиция фаолияти воситаларини ўрганиб, уларни қуйидаги икки синфга бўлган:

1) пул бозори инструментлари;

2) капитал бозори инструментлари. У инвестиция фаолиятини асосий йўналишига вексел ва облигациялар жалб қилиш таклифини берган. Г.Н.Белоглазова [2] эса тўғридан-тўғри инвестициялар ва портфелли инвестицияларни ўрганиб чиқиб, қимматли қоғозлар орқали тўғридан-тўғри инвестицияларни жалб қилиш ва уларни инвестиция портфелини ташкил этишни тавсия этган. О.И.Лаврушин томонидан [3] тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги инвестиция фаолиятини такомиллаштириш бўйича инвестиция банклари ташкил этишда икки йўлни қўллашни таклиф этган:

а) тўғридан-тўғри қимматли қоғозларни жойлаштириш ва сотиш;

б) узоқ муддатли кредитлаш орқали инвестиция фаолиятини ташкил этиш. Э.И.Носиров [4] томонидан хўжалик субъектларининг инвестиция фаолиятига таъсир этувчи омиллар тадқиқ этилиб, уларнинг энг муҳимлари инвесторлар ҳуқуқ ва манфаатлари бузилиши, тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги ролини ошириш тамойиллари етарлича шаклланмаганлиги, деб таъкидланган.

Юқоридаги мулоҳазаларни умумлаштирилган ҳолда, хўжалик субъектларининг қимматли қоғозлар бозоридаги инвестиция фаолиятига қуйидагича таъриф бериш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз: хўжалик субъектларининг қимматли қоғозлар бозоридаги инвестиция фаолиятини амалга ошириш деб, узоқ муддатли истиқболда самарали фаолиятни таъминлашга хизмат қиладиган операцияларга айтилади.

Берилган таърифнинг моҳияти шундаки, хўжалик субъектларининг асосий мақсади даромад олиш бўлса, унинг даромадига катта рискни таъсир этиши доимий равишда бўлиши муқаррар. Шундай экан, қимматли қоғозлар бозорида инвестиция фаолияти ҳам хўжалик субъектларининг узоқ муддатли даромадини ошириш имконини беради ва лекин шу билан бирга рисклилик даражаси доимо юқори бўлади.

Ушбу масаланинг муҳимлигини таъкидлаб, юртбошимиз И.А.Каримов томонидан: “Бунинг устига, қанчалик ғайритабiiй туюлмасин, жаҳон иқтисодий инқирози ишлаб чиқаришни мунтазам янгилаб, модернизация қилиб бориш заруратини кун тартибига янада ўткир қилиб қўймоқда ва бунинг учун бор куч-имкониятимиз ва ресурсларимизни сафарбар этишни талаб қилмоқда.” деб таъкидлаб ўтилганлиги бежиз эмас.[6] Бунинг учун мамлакатимиз иқтисодиётига инвестицияларни жалб этиш муҳим ва долзарб масала ҳисобланади. Шундай йўллардан бири қимматли қоғозлар чиқариш ва уни сотиш орқали пул маблағларини иқтисодиётга жалб этиш керак. Бу усул эса ташқи муҳит ҳамда активлар тузилишига қараб танланади. Бу вазифани ҳал этиш учун қоғозлар бозори иштирокчиларининг микро ва макро соҳасидаги ўзгаришларга, шунингдек мамлакат ва жаҳон молия тизимидаги макроиқтисодий вазият ўзгаришига тезкор мослаша билиш, айрим ҳолларда ноандозавий қарорлар қабул қилиш талаб этилади.

Ўзбекистон Республикасида амалдаги қонунчиликка кўра, хўжалик субъектлари томонидан қуйидаги қимматли қоғозларни муомалага чиқариш рухсат этилган.

Бухгалтерия ҳисобининг 21-сонли “Бухгалтерия ҳисоби счётлар режаси” номли миллий стандартига кўра, қимматли қоғозлар қуйидаги счётларда ҳисобга олиш мўлжалланган:

0610 - “Қимматли қоғозлар”;

0620 - “Шўъба хўжалик жамиятларига инвестициялар”;

0630 - “Қарма хўжалик жамиятларига инвестициялар”;

0640 - “Хорижий капитал қатнашган корхоналарга инвестициялар”;

0690 - “Бошқа узоқ муддатли инвестициялар”.[8]


Лекин Ўзбекистон Республикаси “Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида” ги Қонунга кўра, [9] депозит сертификати, корпоратив облигациялар, эмиссиявий қимматли қоғозлар каби турлари тўғрисида ҳам тўхталиб ўтилган. Демак, ушбу қимматли қоғозларни ҳам ҳисобга

олиш зарурияти пайдо бўлади. Шу сабали бизнинг фикримизча, уларни алоҳида ҳисобга олиш учун 0610 счётада қўшимча қуйидаги счётларни очиш лозим деб ўйлаймиз.

0611- “Депозит сертификати”;

0612- “Корпоратив облигациялар”;

0613- “Эмиссиявий қимматли қоғозлар” номли счётларда ушбу қимматли қоғозларни алоҳида юритиш ва уларнинг турлари ва эмитентларнинг номлари бўйича аналитик счётлар очиб юритиш зарур.



1–расм. Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига кўра амал қилиши ҳуқуқи мавжуд қимматли қоғозлар [7]

Ушбу таклиф қилинаётган счётларни қуйидагича бошқа ҳисобварақлар билан боғлиқлигини кўриш мумкин.

1-жадвал

Узоқ муддатли қимматли қоғозларни ҳисобга олувчи ҳисобварақларнинг боғланиши

Т/р	Хўжалик операциясининг мазмуни	Боғланувчи ҳисобварақлар		Ёзувларни тасдиқловчи ҳужжатлар
		дебет	кредит	
1	Депозит сертификатларни харид қилиш	0611	5110	Қимматли қоғозларга обуна, ҳисобварақ-фактура
2	Корпоратив облигацияларни харид қилиш	0612	5110	Қимматли қоғозларга обуна, ҳисобварақ-фактура
3	Эмиссиявий қимматли қоғозларни харид қилиш	0613	5110	Қимматли қоғозларга обуна, ҳисобварақ-фактура
4	Сотувчи корхонага асосий воситаларни бериш йўли билан қимматли қоғозлар харид қилиш	0611 0612 0613 9210	9210 0110-0190	Қимматли қоғозларга обуна, ҳисобварақ-фактура, асосий воситаларни тугатиш далолатномаси
5	Сотувчи корхонага тайёр маҳсулотни бериш йўли билан қимматли қоғозлар харид қилиш	0611 0612 0613 9110	9010 2810	Қимматли қоғозларга обуна, ҳисобварақ-фактура, юкхат
6	Сотувчи корхонага товарларни бериш йўли билан қимматли қоғозлар харид қилиш	0611 0612 0613 9120	9020 2910	Қимматли қоғозларга обуна, ҳисобварақ-фактура, юкхат
7	Қимматли қоғозларнинг харид ва номинал қиймати ўртасидаги фарқни (номинал қиймати харид қийматидан юқори) акс эттириш	0611 0612 0613	9560	Гувоҳнома, қимматли қоғозларга обуна, ҳисобварақ-фактура
8	Йил охирида қимматли қоғозларнинг харид ва номинал қиймати ўртасидаги фарқни (харид қийматидан юқори) акс эттириш	9610	0611 0612 0613	Гувоҳнома, қимматли қоғозларга обуна, ҳисобварақ-фактура
9	Бошқа корхоналарнинг қимматли қоғозларини харид қилиш	0611 0612 0613	Пул маблағларини	Қимматли қоғозларга обуна, қимматли қоғозларга эгалик қилиш тўғрисидаги гувоҳнома

			хисобга олувчи хисоб варақ лар	
10	Брокерларга инвестициялар бўйича коммиссион ҳақни ҳисоблаш	0611 0612 0613	6990	Воситачи корхона билан шартнома, ҳисобварақ-фактура, кўрсатилган хизматлар далолатномаси

Қимматли қоғозлар аудитини амалга оширишда энг аввало ички аудит томонидан батафсил аудиторлик назорати амалга оширилади. Ҳозирги вақтга келиб кўп ҳолларда ички аудиторларнинг функциялари, ҳатто ўз компанияси таркибий бўлинмалари бухгалтерия ҳисоботларини текшириш доирасидан ҳам четга чиқади. Ички аудиторлар корxonанинг иқтисодий сиёсати ва бошқарув масалаларида кўпроқ иштирок этмоқдалар. Ички аудиторлар юқори малакали мутахассислар бўлиб, ўз мақомига кўра катта ваколатларга эга. Уларнинг мажбуриятлари доирасига кўпроқ қуйидагилар киради:

• **операцион аудит** - бошқарув масалалари бўйича корxonанинг турли таркибий бўлинмаларига маслаҳат бериш, шу жумладан қимматли қоғозлар сотиб олиш ва унинг ишончилигини аниқлашда ички аудит хулосасига таяниш, (масалан, маркетинг ишларини баҳолаш, корхона қимматли қоғозларини ишончилиги ва унинг тўловга қобилиятлилигига эътибор бериш, таркибий тузилмасини баҳолаш ва ш. к.);

• **мувофиқлик аудити** - ушбу корхона бўлинмалари фаолияти, унинг маъмурияти ва зарур бўлганда юқори органлар томонидан белгиланган ёки қонун ҳужжатларида кўрсатилган қоидаларга мувофиқлигини текширишдан иборат. Масалан, тузилган шартномаларни юридик талаблар нуқтаи назаридан текшириш ва баҳолаш, қимматли қоғозлар бўйича рискларни камайтириш ва ҳ.к.

Шундай қилиб, қимматли қоғозлар ҳисобини ва аудитини тўғри ташкил этилиши, унга тегишли дивидендларни ўз вақтида олиш имконини беради ва улар бўйича тегишли ҳисобни тўғри ташкил этиш имкониятини яратади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Питер Роуз. Банковский менеджмент. М.:ИНФРА-М, 1995. 294с.
2. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка. М.:Высшее образование, 2008. 422с.
3. Лаврушин О.И. Основы банковского менеджмента. М.:Финансы и статистика, 1998. 612с.
4. Насиров Э. Қимматли қоғозлар бозорида тижорат банклари ролини ошириш масалалари. //и.ф.н.илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент:2006.-Б24.;
5. Юлдашев Ф.М. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан операцияларини фаоллаштириш масаласи. // и.ф.н.илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент:2006.-Б23.
6. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шроитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари.-Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 396.
7. Алимов И.И. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан операциялари. Тошкент:2006. 216б.

УЎК 336.717.06

### БАНК ТИЗИМИНИНГ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛГАН МУАММОЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ

*Д.Ч.Муродова, PhD, докторант, Тошкент молия институти, Тошкент*

**Аннотация.** Банк тизимининг барқарорлигини таъминлаш уларнинг тўловга қобиллигини таъминлашнинг муҳим омили бўлгани ҳолда, мамлакат иқтисодиётида амалга ошириладиган тўловларнинг узлуксизлигини таъминлашнинг зарур шартини ҳисобланади. Шу сабабли, банк тизимининг барқарорлигини таъминлаш банк назоратининг асосий объектларидан бири ҳисобланади. Мақолада Ўзбекистон Республикаси банк тизимининг барқарорлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган муаммоларни долзарб муаммолар аниқланган ва уларни ҳал қилишга қаратилган илмий таклифлар ишлаб чиқилган

**Калит сўзлар:** Марказий банк, пул-кредит сиёсати, тижорат банклари, кредит, депозит, молиявий барқарорлиг

**Аннотация.** Обеспечение устойчивости банковской системы, являясь важным фактором обеспечения их платежеспособности, является необходимым условием обеспечения непрерывности платежей, осуществляемых в экономике страны. Поэтому обеспечение устойчивости банковской системы является одной из основных задач банковского надзора. В статье выявлены актуальные проблемы, связанные с обеспечением устойчивости банковской системы Республики Узбекистан и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

**Ключевые слова:** Центральный банк, денежно-кредитная политика, коммерческие банки, кредит, депозит, финансовая устойчивость

**Abstract.** Ensuring the stability of the banking system, being an important factor in ensuring their solvency, is a necessary condition for ensuring the continuity of payments made in the country's economy. Therefore, ensuring the stability of the banking system is one of the main tasks of banking supervision. The article identifies urgent problems related to ensuring the stability of the banking system of the Republic of Uzbekistan and develops scientific proposals aimed at solving them.

**Keywords:** Central bank, monetary policy, commercial banks, credit, deposit, financial stability

**Кириш.** Бугунги кунда мамлакатимизда банк тизими самарадорлигини ошириш бўйича бир қатор ишлар амалга ошириляётган бўлиб, улар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги ПФ-60-сон Фармонида белгилаб берилган. Хусусан, “иқтисодиётга кредит қўйилмалари ўсиш суръатини (16 — 18 фоиз) ялпи ички маҳсулот номинал ҳажми ўсиш суръатлари билан мутоносиб бўлишини таъминлаш, Хусусан, 2022 йил якунига қадар 13 та инвестиция лойиҳаси доирасида 486,0 млн долларлик хорижий банк кредитини жалб қилиш” каби масалалар қўйилган[1].

Шу сабабли, банк тизимининг барқарорлигини таъминлаш пруденциал банк назоратининг асосий объектларидан бири ҳисобланади. Бозор механизмлари жорий этилган ҳар қандай иқтисодиётда тижорат банклари фаолияти ва молиявий барқарорлиги мамлакат Марказий банки томонидан назорат қилинади ва тартибга солинади. Шу билан бирга, айрим ривожланган мамлакатларда мустақил мегорегуляторлар банклар фаолияти устидан тегишли назоратни амалга ошириш, тўлов қобилиятини мустаҳкамлаш ва тартибга солиш ишлари билан шуғулланади.

Албатта, хорижий мамлакатларда Марказий банк ва мегорегуляторлар банклар молиявий барқарорлигини таъминлаш ҳамда тўлов қобилиятини мустаҳкамлаш бўйича катта тажриба ва ижобий натижаларга эга. Бироқ, жаҳон иқтисодиётининг тобора глобаллашуви ва мамлакатлар ўртасидаги меҳнат тақсимотининг чуқурлашуви натижасида турли даражадаги молиявий-иқтисодий инқирозлар хориж банклари молиявий барқарорлиги ва тўлов қобилияти мустаҳкамлигига таъсир этмасдан қолмаяпти. Хусусан, буни кейинги йилларда АҚШда юз берган жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози натижасида юзага келган ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ва зиддиятли ҳолатларда ҳам кузатиш мумкин.

Ҳар қандай давлатнинг иқтисодиёт соҳасидаги пировард мақсади барқарор иқтисодий ўсишни, юқори бандликни, барқарор ички баҳоларнинг мавжудлигини таъминлаш ҳисобланади. Ушбу мақсадга иқтисодий сиёсатни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёнида эришилади. Пул-кредит сиёсати, бюджет сиёсати, нарх-наво сиёсати, иш ҳақи ва бандлик сиёсати иқтисодий сиёсатнинг муҳим таркибий қисмлари ҳисобланади.

Банк фаолияти барча мамлакатларда қатъий равишда тартибга солинади ва назорат қилинади. Зеро, банклар мамлакатдаги капитални сафарбар қилиш ва кредитлар тақдим этиш билан мамлакат молия тизимида фаол иштирок этади. Ва албатта, назоратнинг асосий мақсади аҳолисини қолаверса мамлакат манфаатларини ҳимоя қилишдир.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Бозор механизмлари жорий этилган ҳар қандай иқтисодиётда тижорат банклари фаолияти ва молиявий барқарорлиги мамлакат Марказий банки томонидан назорат қилинади ва тартибга солинади. Шу билан бирга, айрим ривожланган мамлакатларда мустақил мегорегуляторлар банклар фаолияти устидан тегишли

назоратни амалга ошириш, тўлов қобилиятини мустаҳкамлаш ва тартибга солиш ишлари билан шуғулланади.

Албатта, хорижий мамлакатларда Марказий банк ва мегорегуляторлар банклар молиявий барқарорлигини таъминлаш ҳамда тўлов қобилиятини мустаҳкамлаш бўйича катта тажриба ва ижобий натижаларга эга. Бироқ, жаҳон иқтисодиётининг тобора глобаллашуви ва мамлакатлар ўртасидаги меҳнат тақсимотининг чуқурлашуви натижасида турли даражадаги молиявий-иқтисодий инқирозлар хориж банклари молиявий барқарорлиги ва тўлов қобилияти мустаҳкамлигига таъсир этмасдан қолмаяпти. Хусусан, буни кейинги йилларда АҚШда юз берган жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози натижасида юзага келган ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ва зиддиятли ҳолатларда ҳам кузатиш мумкин.

Ҳар қандай давлатнинг иқтисодиёт соҳасидаги пировард мақсади барқарор иқтисодий ўсишни, юқори бандликни, барқарор ички баҳоларнинг мавжудлигини таъминлаш ҳисобланади. Ушбу мақсадга иқтисодий сиёсатни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёнида эришилади. Пул-кредит сиёсати, бюджет сиёсати, нарх-наво сиёсати, иш ҳақи ва бандлик сиёсати иқтисодий сиёсатнинг муҳим таркибий қисмлари ҳисобланади.

Банк фаолияти барча мамлакатларда қатъий равишда тартибга солинади ва нazorat қилинади. Зеро, банклар мамлакатдаги капитални сафарбар қилиш ва кредитлар тақдим этиш билан мамлакат молия тизимида фаол иштирок этади. Ва албатта, нazoratнинг асосий мақсади аҳолисини қолаверса мамлакат манфаатларини ҳимоя қилишдир. Албатта молиявий барқарор банк ҳар қандай қийин, катта йўқотишлар бўлганда, ўзини тезда тиклаши, бозорда мустаҳкам туриши катта аҳамиятга эга.

В.Г. Артеменко ўз илмий ишларида барқарорликни тўлов қобилияти билан боғлайди ҳамда абсолют ва бир қанча кўрсаткичлар асосида улар молиявий барқарорлигини баҳолашни назарда тутди. Тўлов қобилиятини хўжалик юритувчи субъектлар тўлов мажбуриятларини ўз вақтида бажариш, шунингдек, молиявий барқарорликни пул оқимлари таҳлили асосида баҳоланади деган хулосаларни илгари суради[2]. Шу билан бирга ушбу кўрсаткичлар тизимида банклар барқарорлиги билан улар ишончилиги ўртасида алоқадорлик мавжуд эмаслиги кўринади.

О.В. Ефимова тадқиқотларида молиявий барқарорликни бошқа кўрсаткичлар тизимидан фойдаланиш зарур эканлигини тавсия этади. Ушбу умумлаштирилган кўрсаткичлар тизимига олимнинг фикрича, комплекс равишда банклар капиталини ошиб боришини кўрсатувчи капитал рентабеллиги кўрсаткичини, иккинчи кўрсаткич сифатида капиталнинг ялпи пассивлар ҳажмидаги улушини, шунингдек, молиявий барқарорликка баҳо беришда активлар структураси, капитал айланмаси, рентабеллик, доимий ва ўзгарувчи харажатларни солиштирилиш орқали аниқлаш лозим деган хулосаларни беради[3].

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, юқорида санаб ўтилган кўрсаткичлар тизимидан фойдаланган ҳолда, банклар молиявий барқарорлигида капитал етарлилиги ва рентабеллик даражаси, капиталнинг активлардаги улуши орқали молиявий барқарорликка баҳо бериш мумкин деб ҳисоблаймиз.

Юқоридаги тадқиқотлардан ўрганилган олимлар томонидан тадқиқотларида ишончилиликни алоҳида кўрсаткичлар билан ажратиб кўрсатилмаган бўлсада, уни молиявий барқарорлик кўрсаткичи билан ўзаро боғлиқ деган хулоса сифатида қарашмоқда.

Бизнинг фикримизча, тижорат банклари молиявий барқарорлигини капитал етарлилиги, унинг рентабеллиги ва активларга нисбати, шунингдек, молиявий барқарорликка ижобий таъсир этувчи ликвидлилик, тўлов қобилияти, рентабеллик ва ишончилилик кўрсаткичлар тизими орқали баҳолаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Халқаро молиявий ташкилотларнинг тижорат банклари молиявий барқарорлигини таъминлаш методологиясини ўрганиш, мазкур методологиялардан тегишли хулосаларни шакллантириш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Шу боис, биз энг аввало, Халқаро валюта фонди томонидан тавсия этилган индикаторлар ва уларнинг аҳамиятли жиҳатларини кўриб чиқамиз. Халқаро валюта фонди асосий ва тавсиявий характерга эга бўлган Молиявий барқарорлик (Financial Soundness Indicators - FSI) кўрсаткичларини чоп этиб келади. Молиявий

барқарорлик индикаторларидан 12 таси асосий индикаторлар бўлса, 26 таси тавсиявий характерга эга бўлган индикаторлар ҳисобланади. Молиявий барқарорлик асосий кўрсаткичлари қаторига: капитал етарлилик кўрсаткичлари, активлар сифати, фойда ва рентабеллилик, ликвидлилик, бозор рискига сезгирлик даражаси каби кўрсаткичларни ўз ичига олса, тавсиявий характерига эга бўлган кўрсаткичлар қаторига банклар, шунингдек, бошқа молиявий муассасалар, корпоратив компаниялар, хонадон хўжалиги, бозор ликвидлиги, кўчмас мулк бозорига мўлжаллангандир[4].

**Тадқиқот методологияси.** Илмий мақолани тайёрлаш жараёнида маълумотларни жадваллар асосида қиёсий таҳлил, маълумотларни гуруҳлаш, абстракт-мантикий фикрлаш тизимли таҳлил асосида статистик гуруҳлаш, индукция ва дедукция ҳамда эксперт баҳолаш усулларидан ҳам унумли фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Марказий банк фаолиятининг асосий мақсадларидан бири сифатида белгиланган банк тизими барқарорлигини таъминлаш йўналишида ҳам тизимли ишлар давом эттирилди. Ушбу йўналишда асосий эътибор иқтисодиётнинг молиявий ресурсларга бўлган талабини реал ўсиш суръатлари доирасида қондириб боришга ҳамда банк тизимида молиявий барқарорлик кўрсаткичларини макбул даражада бўлишини таъминлашга қаратилди.

Хусусан, аҳоли ва тадбиркорлик субъектларини молиявий қўллаб-қувватлаш мақсадларига 166,7 трлн. сўм ёки 2020 йилга нисбатан 1,3 баробарга кўп кредитлар йўналтирилди.

Пандемияни иқтисодиётга салбий таъсирларини юмшатиш чора-тадбирлари доирасида 2021 йилда фаолияти тўлиқ тикланмаган 14 647 та хўжалик субъектларининг 21,4 трлн. сўмлик потенциал муаммоли кредитларнинг қайтариш муддатлари такроран 3-6 ойга узайтирилди. Банк тизимида кредит хатарлари ортишининг олдини олиш мақсадида 2021 йилда банкларнинг 4,1 трлн. сўмлик даромадлари эҳтимолий йўқотишларга қарши захиралар шакллантиришга йўналтирилди.

1-жадвал

Тижорат банкларининг муаммоли кредитлари (NPL)[5], млрд сўм

Сана	Кредитлар			Муаммоли кредитлар (NPL)		
	Жами	шундан:		Жами	шундан:	
		давлат улуши мавжуд банклар	бошқа банклар		давлат улуши мавжуд банклар	бошқа банклар
1	2	3	4	5	6	7
01.01.2021 й.	276 974,8	244 483,9	32 490,9	5 784,8	5 167,6	617,2
01.02.2021 й.	277 754,6	245 001,2	32 753,4	7 487,0	6 858,1	628,9
01.03.2021 й.	280 214,7	246 631,5	33 583,1	7 844,3	7 226,1	618,2
01.04.2021 й.	283 485,1	249 302,8	34 182,2	10 177,9	8 440,9	1 737,0
01.05.2021 й.	292 029,0	256 648,7	35 380,3	12 932,7	11 188,0	1 744,7
01.06.2021 й.	297 777,9	261 488,6	36 289,3	14 006,7	12 214,4	1 792,3
01.07.2021 й.	300 459,4	261 194,7	39 264,7	16 793,7	14 718,1	2 075,6
01.08.2021 й.	302 692,8	262 384,6	40 308,2	18 888,5	16 715,1	2 173,4
01.09.2021 й.	307 204,2	265 479,2	41 725,1	18 474,2	16 310,8	2 163,5
01.10.2021 й.	311 590,6	268 938,8	42 651,8	18 126,0	15 844,9	2 281,0
01.11.2021 й.	316 200,2	272 401,6	43 798,6	18 017,0	15 670,4	2 346,6
01.12.2021 й.	320 812,5	275 757,2	45 055,3	18 392,1	16 117,8	2 274,2
01.01.2022 й.	326 385,6	280 073,6	46 311,9	16 974,0	15 068,8	1 905,2

Таъкидлаш керакки, кредитлаш ўсиш суръатларининг юқори даражада сақланиб қолиши иқтисодий ўсишни қўллаб-қувватлашга хизмат қилиши билан бирга банк тизимида муоммоли кредитларнинг ортишига ҳам олиб келмоқда. Бу борада банк тизими кредит портфели таркибидаги муаммоли кредитларнинг банклар молиявий барқарорлигига бўлган салбий таъсирининг олдини олиш мақсадида банклар ва ҳукумат томонидан тегишли чора-тадбирлар кўриб борилмоқда. Натижада, кредитларнинг қайтувчанлик даражаси 2021 йилда 59 фоиздан 71 фоизгача ошди. Банкларнинг ресурс базаси 2020 йилга нисбатан 66 трлн. сўмга ёки 22 фоизга ўсди. Хусусан, банк тизими ресурслари таркибида миллий валютадаги узоқ муддатли депозитлар ҳажми 1,8 баробарга ортди. Макропруденциал сиёсат

инструментларини амалиётга фаол жорий этиш ва молиявий барқарорликни таъминлаш доирасида аҳолининг банк кредитлари бўйича қарз юкини мунтазам кузатиб бориш амалиёти йўлга қўйилди.

Халқаро Базель III стандартларига мувофиқ юқори фоиз ставкаларда ажратилган ҳамда муаммога айланган кредитларга нисбатан 1,5-2 баробар миқдорида капитал буферини шакллантириш талаблари амалиётга жорий этилди. Тижорат банклари фаолияти турли сценарийларда стресс-тестлардан ўтказилиб, келгусида уларнинг капитали ва ликвидлигига салбий таъсир кўрсатувчи хатарларни камайтириш чоралари кўриб борилмоқда. 2021 йил якунлари бўйича банк тизимида капитал етарлилиги кўрсаткичи 17,5 фоизни ташкил этиб, минимал талабдан (13 фоиз) юқори бўлиши таъминланди.

Банк тизими молиявий барқарорлиги амалга оширишда банк рейтингига этибор бериш лозим, банк рейтинги эса молиявий барқарорликка бевосита таъсир қилади. Рейтинг бўлмаса, на бутун амалий ҳаётни, на шахсий ҳаётни тасаввур қилиш мумкин.

2-жадвал

Тижорат банкларининг ресурслари таркиби [6], млрд сўм

Кўрсаткичлар номи	01.01.2020 й.		01.01.2021 й.		01.01.2022 й.	
	млрд. сўм	улуши, фоизда	млрд. сўм	улуши, фоизда	млрд. сўм	улуши, фоизда
1	2	3	4	5	6	7
<b>Мажбуриятлар</b>						
Депозитлар	91 009,0	41,1	114 746,9	37,3	156 189,8	41,8
Марказий банкнинг ҳисоб варақлари	1 686,6	0,8	1 089,2	0,4	708,8	0,2
Бошқа банкларнинг маблағлари - резидентлар	9 869,4	4,5	13 001,4	4,2	13 288,6	3,6
Бошқа банкларнинг маблағлари - норезидентлар	922,3	0,4	3 175,4	1,0	4 670,8	1,2
Олинган кредитлар ва лизинг	105 252,2	47,5	151 704,0	49,3	173 750,3	46,5
Чиқарилган қимматли қоғозлар	2 872,7	1,3	9 523,0	3,1	10 612,7	2,8
Субординар қарзлар	3 978,3	1,8	3 999,5	1,3	4 248,5	1,1
Тўланиши лозим бўлган ҳисобланган фоизлар	2 331,2	1,1	3 714,8	1,2	3 960,0	1,1
Бошқа мажбуриятлар	3 774,5	1,7	6 815,6	2,2	6 575,4	1,8
<b>Жами мажбуриятлар</b>	<b>221 696,0</b>	<b>100,0</b>	<b>307 769,9</b>	<b>100,0</b>	<b>374 004,9</b>	<b>100,0</b>
<b>Капитал</b>						
Устав капитали	41 877,0	82,1	44 655,8	76,5	54 760,0	77,2
Қўшимча капитал	142,7	0,3	434,6	0,7	675,5	1,0
Захира капитали	3 844,5	7,5	5 205,9	8,9	8 452,2	11,9
Тақсимланмаган фойда	5 166,4	10,1	8 055,0	13,8	7 029,9	9,9
<b>Жами капитал</b>	<b>51 030,7</b>	<b>100,0</b>	<b>58 351,3</b>	<b>100,0</b>	<b>70 917,6</b>	<b>100,0</b>

Рейтинг - бу муайян объект ёки субъект тўғрисидаги натижавий баҳо бўлиб, қарор қабул қилиш бўйича ғоят муҳим восита ҳисобланади. Чунки у, айтайлик, банкирга банкнинг тараққий этиш йўналишини, ишбилармонликнинг жонланишини, демак, фойда олиш имкониятларини ҳам ҳеч шубҳасиз кўрсатиб беради. Шунингдек, рейтинг тизими:

- банклар фаолиятини халқаро амалиётда қабул қилинган меъёрлар асосида қиёсий таҳлил қилишда;
- мазкур банкнинг молиявий бозордаги ўрнини, нуфузини, шунингдек, муаммоли банкларни аниқлашда;
- банклар тараққиётидаги майл (тенденция)ларни кузатиш, умумлаштирувчи ва хусусий кўрсаткичларнинг динамикасини таҳлил қилишда;
- банклар самарадорлигига баҳо беришда жуда ҳам зарур.

Барча манфаатдор томонларнинг хоҳиш ва истакларини инобатга олувчи рейтинг усули ёрдамида аҳоли омонатлари қаерларда кўпроқ, қайси банкларда қандай фоизларда жойлаштириляпти, депозитлар бўйича аҳвол қандай, сертификат ва акцияларнинг сотиб олиниши қай даражада каби саволларга ҳам жавоб олиш мумкин.

Халқаро амалиётда банк рейтингларини баҳолашнинг жуда кўп турлари мавжуд. Улар ичида қуйидаги икки усул энг кўп тарқалган:

- миқдорий кўрсаткичлар орқали баҳолаш;
- сифат кўрсаткичлари орқали баҳолаш.

Миқдорий кўрсаткичлар орқали баҳолаш усули асосан банклар фаолиятининг ривожланишини таҳлил қилиш мақсадида қўлланилиб, уларга қуйидагилар киради:

- активлар суммаси;
- депозитлар;
- кредитлар;
- ўз капиталининг суммаси;
- даромад суммаси.

Бу кўрсаткичлар орқали банклар фаолияти оммалаштирилади.

Баҳолашнинг оммавий ахборот воситалари ёрдамида иккинчи тури сифат кўрсаткичлари бўлиб, улар банкнинг ишончлилиги даражасини ифодалайди. Бу кўрсаткичлар туркумига қуйидагилар киради: капиталнинг етарлилиги, активлар сифати, даромадлилик даражаси, банк ликвидлилиги.

Чет эл мамлакатларида банк ишончилиги ҳукумат томонидан назорат қилинади. Банклар ишончилигини таъминлаш бўйича бир қатор меъёрий ҳужжатларга амал қилиниши назоратда бўлади. Жаҳон амалиётида тижорат банклари фаолиятини баҳолашнинг бир неча тизими мавжуд. Масалан, қатор мамлакатларда рискни баҳолаш ва диагностика учун бир нечта тизимлардан фойдаланилади. Уларнинг айримлари мавжуд муаммоларни аниқлаб берса, айримлари жорий таваккалчиликлар асосида келгусида эҳтимолий ёндошувлар ҳақида маълумот олиш имконини беради.

Умуман бундай тизимлар қуйидаги вазифаларни ҳал этади:

- кредит ташкилотларини инспекция ва узоқлаштирилган мониторинг доирасида бир тизимга келтирилган тарзда расман баҳолаш;
- банкларни ва муаммолар мавжуд бўлган ёки пайдо бўлиши мумкин бўлган йўналишларни идентификация қилиш;
- назорат идоралари ресурсларини мақбул тақсимлаш учун текширувларнинг устувор йўналишларини аниқлаш;
- назорат органининг ўз вақтида иш бошлашини уюштириш.

Қуйидаги жадвалда турли ривожланган мамлакатларда фойдаланилаётган тизимларни келтирамыз.

3-жадвал

Эрта диагностика ва рискни баҳолаш тизимлари[7]

Мамлакат	Назорат органи	Тизим	Тизим жорий қилинган йил	Тизим тоифаси
Франция	Банк комиссияси	ORAP	1997	Узоқлаштирилган мониторинг (УМ)
Германия	Федерал назорат органи	BAKIS	1997	Молия коэффициентлари ва гуруҳлаб таҳлил қилиш тизими
Италия	Италия банки	PATROL	1933	УМ, баҳолашнинг рейтинг тизими
Нидерландия	Нидерландия банки	RAST	1999	Рискни баҳолашнинг ялпи тизими
Англия	Молия хизматларини бошқариш	RATE	1998	Рискни баҳолашнинг ялпи тизими
АҚШ	Барча назорат органлари	CAMELS	1978	Текширув натижалари бўйича жойида рейтинг бериш.

Тизимлар қуйидаги хусусиятлари билан бир-биридан фарқ қилади: текширувларнинг чуқурлиги ва даврийлиги, ҳисоботлар хусусияти, бошқа ҳаққоний манбалардан фойдалана олиш имкониятининг мавжудлиги, ўтган даврлардаги таназзуллар ва банкротлик ҳолатлари ҳақидаги статистик ахборотлар, техник таъминот даражаси, пул ва инсон омили.

Халқаро ҳисоб-китоблар банкида ўтказилган тадқиқотга кўра диагностика тизимини шаклий белгиларига қараб тўртта кенг тоифаларга ажратиш мумкин:

- банкларни баҳолашнинг рейтинг тизими;
- молиявий коэффициентлар ва гуруҳлаб таҳлил қилиш тизимлари;
- банк рискин баҳолашнинг ялпи тизимлари;
- статистик моделлар.

Қатор тизимлардан фойдаланиш, ҳеч бўлмаса, улардан биттасининг муаммоли банкни аниқлаб бериши эҳтимолини оширади. Тизимлар сифатини баҳолашда асосан компьютер ёрдамида амалга оширадilar. Уларнинг айримларида эксперт хулосалар асосий ўрин тутса, бошқаларида компьютер дастурларининг ҳисоб-китоблари устунлик қилади.

Рейтинг асосан, банкнинг йиллик фаолияти натижалари асосида бериллади. Банкларни баҳолаш (аудит)нинг бугунги кунда халқаро амалиётда ўрин олган усулларидан бири «CAMEL» рейтинг тизимидир. 1978да АҚШ банкларидан бири бўлган «Sheshunoff Bank» нинг экспертлари банк фаолиятини қуйидаги 7 гуруҳ омиллар асосида таҳлил қилиш ва баҳолаш услубини ишлаб чиқдилар: банкнинг ўсиши (ривожланиши), банкнинг категорияси (банк фаолиятининг маълум гуруҳга кириши), риск даражаси юқори бўлган соҳаларга инвестициялар, банкнинг ишончлилиги (унинг «капитал» мавқеи), муаммоли кредитлар суммаси ва тенденциялари, даромад манбалари, бошқа банкларга нисбатан умумий фойдалилик, йирик «беқарор» мажбуриятлар бўйича банкнинг даражаси. Банк мутахассислари ушбу омилларнинг барчасини муҳим деб билган ҳолда, улардан охириги 5 таси (4, 7-чилари) га алоҳида эътибор берадилар ва уларнинг бош ҳарфлари бирлаштирилиб «CAMEL» - омиллар деб юритила бошланди. Шундай қилиб, банклар фаолиятини баҳолашнинг «CAMEL» рейтинг тизимига асос солинди. Ушбу баҳолаш услубига кўра омиллар қуйидагича тавсифланади. Ушбу беш таркибий қисм аниқлангач, банкнинг якуний умумий рейтингини белгилаш имкони туғилади. «CAMEL» рейтинг тизимининг асосий жиҳатлари қуйидагиларда кўринади:

4-жадвал

«CAMEL» омиллари тавсифи[8]

№	Омиллар	Изоҳ
1.	“C” (Capital adequency)	<b>Капиталнинг етарлилиги</b> , яъни банкнинг ўз мижозларини кафолатлаш учун зарур бўлган хусусий сармоясини миқдори. Етарли сармояга эга бўлган банклар жиддий зарар кўрган тақдирда ҳам мижозлар ўз пулларидан ажраб қолишларига йўл қўймайди.
2.	“A” (Asset quality)	<b>Активлар сифати</b> . Бу омил активларнинг даражасини ва балансдан ташқари моддаларни, шунингдек гумонли активлар ва зарарларни таснифлаш асосида муаммоли қарзларнинг молиявий таъсирини аниқлайди.
3.	“M” (Management quality)	<b>Банкни бошқарув сифати</b> . Бу кўрсаткични таҳлил қилиш ёрдамида иш самарадорлиги, банк сиёсати, қонун ва йўриқномаларга амал қилиш даражаси баҳоланади. Ва шу асосда банк сиёсатининг қай даражада мақсадга мувофиқ шакллантирилганлиги, унинг ёзма равишда белгиланган тартибда ҳужжатлаштирилганлиги ва унга риоя қилинганлиги аниқланади. Шу сабабли менежмент сифатини таҳлил этиш энг охирида амалга оширилади.
4.	“E” (Earning record)	<b>Банкнинг даромадлилик даражаси</b> . Бу банкнинг келгусида ўсиши учун етарли бўлиши нуктаи назаридан унинг даромади ёки фойдасини тавсифловчи омил-кўрсаткичдир.
5.	“L” (Liquidity)	<b>Банкнинг ликвидлик даражаси</b> . Бу банкнинг оддий ва кутилмаган мажбуриятларни йўқотишларсиз бажараолиш учун зарур даражада маблағ билан таъминланганлигини тавсифловчи кўрсаткичдир.

«CAMEL» тизими, кўпроқ масофавий назоратга асосланган европача усулдан фарқли ўлароқ, жойида текширишга асосланган бўлганлиги сабабли, банкларни ташқи аудит қилишда жуда ҳам қўл келади.

### Хулоса ва таклифлар

1. Тижорат банкларининг молиявий барқарорлиги бир томондан банк молиявий фаолиятини кенгайтириш ва оширишга қаратилса, иккинчи томондан, иқтисодиётни ривожлантириш учун турли тармоқ ва соҳаларга инвестиция киритиш тижорат банкларнинг ликвидлигини баҳолаш каби масалаларга қатъий эътибор берилишини тақозо этмоқда. Банк

молиявий барқарорлигини таъминлаш йўллари ва усулларини аниқлаш алоҳида долзарблик бўлиб, банк ўз фаолиятни бир текис олиб бориши, фаолиятини узоқ муддатли ижобий натижаларга эришиш мақсадлари билан чамбарчас бўлиши лозим.

2. Банк назоратини амалга оширишдан асосий мақсад банк мижозлари ва кредиторларининг манфаатларини ҳимоя қилишдир. Банклар фаолияти устидан назоратнинг етарлилиги ва самарадорлиги банк тизими барқарорлигини таъминлаш ва банкларга бўлган ишончни мустаҳкамлашнинг асосий омилидир. Сўнгги йилларда банкларнинг таназзулга учраш хавфининг ошиб кетганлиги сабабли банк фаолияти назоратининг узлуксизамалга оширилиши шартлигини тақозо қилади. XX асрнинг 80 йилларига келиб эса банк назорати тизими халқаро миқёсда шакллани бошлади ва шу аснода банк назорати бўйича Базель кўмитаси таркиб топди. Банк тизимининг юқори тезликда ривожланиши ва интеграциялашувини ҳисобга олган ҳолда ушбу кўмитанинг талаблари йилдан йилга ортиб бормоқда.

3. Рейтинг - бу муайян объект ёки субъект тўғрисидаги натижавий баҳо бўлиб, қарор қабул қилиш бўйича ғоят муҳим восита ҳисобланади. Чунки у, айтайлик, банкирга банкнинг тараққий этиш йўналишини, ишбилармонликнинг жонланишини, демак, фойда олиш имкониятларини ҳам ҳеч шубҳасиз кўрсатиб беради.

4. Рейтинг асосан, банкнинг йиллик фаолияти натижалари асосида берилади. Банкларни баҳолаш (аудит)нинг бугунги кунда халқаро амалиётда ўрин олган усулларида бири «СAMEL» рейтинг тизимидир.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. [https://lex.uz/docs/5841063\](https://lex.uz/docs/5841063)
2. Артеменко В.Г., Белендир М.В. Финансовый анализ. – М.: ДИС, 1999. – с. 227.
3. Ефимова О.В. Финансовый анализ. – М.: Бухгалтерский учет, 1999 – с. 341.
4. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fsi/guide/2006/pdf/rus/guide.pdf>
5. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари
6. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари
7. “Бозор, пул, кредит” журналы, 2001, 12-сон, 14-бет.
8. “Банк иши”, Т. Қоралиев, Ё. Абдуллаев. Тошкент, 2009 йил.

УЎК 69.003

### ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА МАҲАЛЛИЙ ХОМ АШЁЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ АСОСИДА ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРДА ҚУРИЛИШНИНГ МОДДИЙ-ТЕХНИК БАЗАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШ И.П.Нажимов, PhD, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус

**Аннотация.** Ўзбекистон Республикасида қурилишга, жумладан, қишлоқ жойларда ҳам қурилишга катта эътибор қаратилмоқда. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган объектлар бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга. Ҳозирги вақтда объектларнинг узоқ масофада жойлашуви туфайли уларни қуриш харажатлари ошмоқда. Мақолада маҳаллий хом ашёлардан тўлиқ фойдаланиш ҳисобига қишлоқ жойларда қурилиш самарадорлигини оширишни таъминлаш таклиф этилган. Бу мультипликатив ижтимоий-иқтисодий самара олиш имконини беради.

**Калит сўзлар:** қишлоқ жойларда объектларни қуриш хусусиятлари, қишлоқ жойларда қурилишнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш учун маҳаллий хом ашёлардан фойдаланишни кенгайтириш.

**Аннотация.** В Республике Узбекистан большое внимание уделяется строительству, в том числе в сельской местности. Объекты, предназначенные для сельского хозяйства, имеют ряд специфических характеристик. В настоящее время из-за удаленности объектов увеличиваются затраты на их строительство. В статье предлагается обеспечить повышение эффективности строительства в сельской местности за счет полного использования местного сырья. Это позволяет получить мультипликативные социально-экономические выгоды.

**Ключевые слова:** особенности строительства объектов на селе., рост экономической эффективности сельского строительства, расширение использования местного сырья для производства строительных материалов.

**Abstract.** In the Republic of Uzbekistan, much attention is paid to construction, including in rural areas. Objects intended for agriculture have a number of specific characteristics. Currently, due to the remoteness of objects, the costs of their construction are increasing. The article proposes to improve the efficiency of construction in rural areas through the full use of local raw materials. This allows for multiplier socio-economic benefits.

**Key words:** features of the construction of objects in the countryside., the growth of the economic efficiency of rural construction, the expansion of the use of local raw materials for the production of building materials.

Қишлоқ жойларда қурилиш самарадорлигини ошириш энг муҳим ижтимоий-иқтисодий муаммолардан бири бўлиб, уни ҳал этишга Ўзбекистонда катта эътибор қаратилмоқда. Бу ерда устувор вазифа объектларни арзон қурилиш материаллари билан таъминлашдир. Қишлоқ аҳолисини арзон уй-жой билан таъминлаш муаммосини ҳал қилиш учун бир қатор норматив ҳужжатлар, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 21 октябрдаги "2017-2021 йилларда қишлоқ жойларда янгиланган намунавий лойиҳалар бўйича арзон уй-жойлар қуриш дастури тўғрисида" ги қарори [1] қабул қилинди. Унга кўра республикада миллий менталитет ва қишлоқ жойлардаги яшаш шароитларининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда янги намунавий лойиҳалар асосида қулай турар-жой бинолари қуриш, имтиёзли кредитлаш учун энг қулай шароитлар жорий этиш, қурилиш материалларининг янги энергия тежаовчи турлари ва ускуналарни фойдаланишни янада кенгайтириш асосида биноларнинг нархини пасайтиришга хизмат қиладиган материаллар ва жиҳозларни тежаш ҳисобига аҳолининг барча қатламлари учун мақбул нархлар шакллантириш кўзда тутилган. Бундан ташқари, норматив ҳужжатлар қишлоқ жойларда уй-жой қурилишини янада ривожлантиришнинг қуйидаги асосий йўналишларини ҳам белгилайди:

- ижтимоий-маиший шароитларни яхшилаш, қишлоқ аҳолисининг арзон, замонавий, сифатли, шинам уй-жойларга бўлган эҳтиёжини қондириш;

- қишлоқ жойларда турар-жой биноларини қуриш учун ажратилган турар-жойларда муҳандислик-коммуникация инфратузилмаси ва транспорт тармоқларини ривожлантириш;

- конструктив ва меъморий-режалаштириш ечимларини оптималлаштириш ҳисобига лойиҳа-тадқиқот, қурилиш-монтаж ишлари шунингдек, қуриладиган уй-жойлар нархини пасайтириш;

- энергия тежаовчи материаллар ва ускуналарнинг янги турларидан фойдаланишни кенгайтириш;

- маҳаллий қурилиш саноатини ривожлантириш, пудратчилар салоҳиятини ошириш, уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш;

- уй-жой қурилиши учун ажратилган ер ресурсларидан оқилона фойдаланишни таъминлаш;

- қишлоқ жойларда фуқаролар учун энг қулай шарт-шароитлар, жумладан, якка тартибдаги уй-жой қуриш учун имтиёзли кредитлар жорий этиш.

Инновацион иқтисодий ривожланиш шароитида қурилиш материаллари саноати норматив ҳужжатлар ва бир қатор тадқиқотларда таъкидланганидек, асосий ўринни эгаллайди [2,7]. Сўнгги йилларда мазкур саноатда ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, маҳсулот турларини кенгайтириш ва сифатини оширишдан иборат сезиларли ижобий ўзгаришлар кузатилмоқда [5].

Шу билан бир қаторда, мазкур саноатда баъзи муаммолар ҳам мавжуд. Булар: юқори энергия сифимлилик, хом ашё потенциалидан ва корхоналар қувватидан тўлиқ фойдаланмасликдир [8].

Қишлоқ уй-жой қурилиши бир қатор омиллар таъсири остида шаклландиган ўзига хос хусусиятларга эга. Бунда ҳам шаҳар қурилишида бўлгани каби уй-жой нархларига аксарият

қурилиш материаллари ишлаб чиқаришнинг материал сиғимлилиги, энергия сиғимлилиги ва айниқса, қурилиш объектларининг жойлашуви таъсир қилади.

Қурилишнинг харажатлар таркибида материаллар таннархи устунлик қилиб, қурилиш материаллар қиймати 50-65% ни ташкил этади [9,10]. Бундан ташқари, бир қатор ижтимоий-маданий ва маиший мақсадлар учун, ички ва ташқи дизайнга бўлган талабларнинг ошиши сабабли, ҳозирги вақтда ушбу улуш ортиб бормоқда.

Бундан ташқари, қурилиш материаллари, буюмлари ва конструкциялари саноати иқтисодиётнинг энг кўп энергия талаб қилувчи тармоқларидан биридир. Мазкур саноатда қўлланиладиган технологик жараёнлар катта энергия сарфи билан боғлиқ, яъни: юқори ҳароратли технологик жараёнлар (цемент, ғишт, қурилиш ойнаси ва ҳ.к. ишлаб чиқариш) ёки узок муддатли иссиқлик билан ишлов беришни талаб қиладиган технологиялар (масалан, йиғма бетон ишлаб чиқариш) шулар жумласидандир. Замоनावий шароитда қишлоқ объектларини қуриш харажатларига объектларнинг жойлашуви сезиларли таъсир кўрсатмоқда, бу узок объектларга материалларни етказиб беришда юқори энергия нархлари фонида транспорт харажатларининг сезиларли даражада ошиши билан боғлиқ.

Замоनावий қишлоқ биноларини шаҳар бинолари билан таққослаш шуни кўрсатадики, улар структуравий жиҳатдан унчалик мураккаб эмас (кўпинча, бир ёки икки қаватли), муҳандислик ускуналари билан камроқ тўйинган (лифт, сув таъминоти учун қўшимча насослар ва бошқа муҳандислик ускуналари йўқлиги). Қишлоқ уй-жой қурилишида шаҳар уй-жой қурилишида ишлатиладиган материаллардан бошқа материаллар фойдаланиш мумкинлигини исботлаш шарт эмас.

Таъкидлаш жоизки, сўнгги йилларда мамлакатимизда қишлоқ жойларда аҳоли пунктлари қиёфаси сезиларли даражада ўзгарди, улар бир қатор давлат дастурларини амалга ошириш натижасида асосан муҳандислик коммуникациялари билан таъминланган ва ижтимоий инфратузилма объектлари билан жиҳозланган замоनावий яшаш марказларига айланди. Қишлоқ жойларда янги уй-жойлар мавжудлигини таъминлаш бўйича қўрилаётган чора-тадбирлар ўзининг ижобий натижаларини бермоқда. Аммо шунга қарамай, қишлоқ аҳолисининг бир қатор тоифалари учун, жумладан, тадбиркорлик нуқтаи назаридан қийинчиликларга дуч келишмоқда.

Ўтган буйруқбозлик ва маъмурий тизимда қурилишда заводда тайёрланган қурилиш буюмлари ва конструкциялардан фойдаланишнинг ўсишидан иборат саноатлаштириш қурилишни ривожлантиришнинг муҳим йўналиши ҳисобланган. Замоनावий шароитда, айниқса қишлоқ жойларда қурилишни бундай саноатлаштиришнинг долзарблиги ва мақсадга мувофиқлиги сезиларли даражада камайди, чунки у ҳар доим ҳам экологик, санитария-гигиена, ресурсларни тежаш ва энг муҳими, самарадорлик талабларига жавоб бермайди. Бизнинг фикримизча, замоनावий тенденциялар, мавжуд усуллар билан бир қаторда, бошқача ёндашувлардан фойдаланишга имкон беради. Қишлоқ қурилишининг аксарият объектларининг ўзига хос хусусиятларини, шу жумладан, уй-жой қурилишини (объектларнинг кам ҳажмлилиги, тарқоқ жойлашуви, дизайн ечимларининг нисбатан соддалиги) ҳисобга олган ҳолда, қишлоқ объектлари учун қурилиш материаллари ишлаб чиқаришда маҳаллий хом ашёлардан кенгроқ фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистон қурилиш материаллари ишлаб чиқариш учун бой хом ашё салоҳиятига эга (норуда фойдали қазилмалар, оҳак, гипс ва ҳ.к.). У кенг номенклатурада кўп сонли манбалар (фойдали қазилмалар, саноат чиқиндилари, қишлоқ хўжалиги чиқиндилари ва бошқалар.) билан ифодаланади [3,7]. Бундай манбалардан фойдаланиш ва уни қайта ишлаш, қоида тариқасида, мураккаб технологияларни талаб қилмайди. Маҳаллий хом ашёлардан қурилиш материаллари ишлаб чиқариш транспорт харажатларини кескин камайтириш имконини беради. Шу билан бирга, янги иш ўринларини яратиш орқали энг муҳим ижтимоий муаммолардан бири юмшатилади. Бундан келиб чиққан ҳолда ва қурилиш материаллари ишлаб чиқарувчи корхоналар маҳсулотлари катта юк сиғимлилигига эга эканлиги ҳамда қурилиш материалларини етказиб бериш учун транспорт харажатлари баъзан 20% га етишини, чекка ҳудудларда у материаллар нархининг 35-40%гача ўсишини ҳисобга олсак, қишлоқ

жойларда қурилиш материаллари ишлаб чиқарувчи кичик корхоналарни ривожлантириш зарурати бор деган хулосага келиш мумкин [4,9].

Қишлоқ жойларда қурилиш материаллари ишлаб чиқариш учун кичик ишлаб чиқариш қувватларини яратиш қурилишда транспорт таркибий қисмини қисқартириш ҳисобига қурилиш харажатларини камайтиради ва кўплаб қишлоқ аҳолиси учун янги уй-жойлар мавжудлигини, шунингдек фермер хўжаликлари ва бошқа қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари учун бино ва иншоотларни қуришни таъминлайди. Бу, ўз навбатида, қишлоқ аҳолиси томонидан қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлашни чуқурлаштириш учун янги туртки яратади.

Маҳаллий хом ашё материаллардан фойдаланиш мултипликатив таъсирни шакллантириш ва қишлоқ жойларда инвестиция жараёнини сезиларли даражада фаоллаштириш учун зарур шарт бўлиб хизмат қилади. Ушбу йўналишни амалга оширишнинг ижтимоий ва иқтисодий самарадорлигини шакллантиришнинг мантикий алоқаси қуйидагича кўринади:

- маҳаллий хом ашёдан қурилиш материаллари ишлаб чиқарувчи ишлаб чиқариш қувватларини яратиш ишлатиладиган қурилиш материаллари нархини пасайтиради, шунингдек, уларни қурилиш майдончасига ташиш харажатларини камайтиради, бу эса қурилишнинг умумий нархини сезиларли даражада камайтиради;

- қурилиш харажатларини камайтириш қишлоқ жойларда инвестиция муҳитини яхшилаш ва турли мақсадлар учун объектлар (шу жумладан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаб чиқариш корхоналари) қурилишини ошириш имконини беради, бу эса ўз навбатида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмининг ошиши билан бирга иш ўринлари яратиш имконини беради;

- қурилиш ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида янги саноат тармоқларининг ташкил этилиши натижасида қишлоқ жойларда бандлик даражасининг ошишига, қишлоқ аҳолиси турмуш даражасининг ўсишига, меҳнат ресурсларининг ички миграцияси суръатларининг пасайишига олиб келади.

Қурилиш материаллари ишлаб чиқариш учун маҳаллий хом ашёлардан фойдаланишнинг ёрқин намунаси уй-жой ва қишлоқ хўжалиги объектларини қуриш учун лойсимон материаллардан фойдаланишдир. Қурилишда лойсимон материаллардан фойдаланиш, биринчи навбатда, маҳсулотнинг экологик тозаллигини, қулай микроиқлимни яратиш имконини беради. Ўзбекистонда лойсимон қурилиш амалиётида учта конструктив тизим қўлланилиб келинади: синчли, пахса ва хом ғиштли. Ушбу тизимларнинг ҳар бири ўз қўлланилиш доирасига эга. Маълум бир конструктив тизимдан фойдаланиш бинонинг (иншоотнинг) мақсадини ва сейсмик туманлаштиришни ҳисобга олган ҳолда асосланиши керак.

Юқоридагиларни умумлаштириб, биз қишлоқ жойларда маҳаллий хом ашёлардан кенг фойдаланиб қурилиш материаллари ишлаб чиқариш ва тегишли меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқиш асосида қишлоқ жойларда қурилишни ривожлантириш учун шароит яратиш ҳамда маҳаллий ва хорижий тажрибаларни умумлаштирган ҳолда унга янги туртки бериш зарурлигини таъкидлаймиз.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. 2016 йил 21 октябрдаги "2017-2021 йилларда қишлоқ жойларда янгиланган намунавий лойиҳалар бўйича арзон уй-жойлар қуриш дастури тўғрисида" ги қарори // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 майдаги ПҚ-4335-сон «Қурилиш материаллари саноатини жадал ривожлантиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ги қарори. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Экономические проблемы и основные принципы развития материально-технической базы строительства. - Журнал «Архитектура и строительство Узбекистана», № 4, 2008 г.
4. Проблемы развития глинобитного зодчества. Сборник докладов Международной научно-практической конференции. - Т.: ТАСИ, 2012 г.
5. Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. //Biznes-эксперт, 2017 йил, №11(119). (08.00.00; № 3).
6. Тулаганов А. и др. Разработка технологии и исследование нового модифицированного пенобетона на основе местного сырья и отходов производства. Научно – технический отчет. - Т.: ТАСИ, 2014.

7. Зайнутдинов Ш. Н., Нурибетов Р. И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон. журн. 2017. №10 (23). С. 207-212. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (дата обращения 15.10.2017).

8. Концепция развития промышленности строительных материалов на период до 2025 года. <https://regulation.gov.uz/ru/document/4086>

9. Кальметов Б.Д., Казимов В.А., Гимуш Р.И. Углубление экономических реформ в строительном комплексе Узбекистана. Монография Ташкент, 2006. 186 с.

10. Давлетов И.Х., Гимуш Р.И. Направления ресурсосбережения в строительстве и в промышленности строительных материалов, изделий и конструкций. Сборник II<sup>то</sup> научно-практического семинара с участием иностранных специалистов “Производство энерго- и ресурсосберегающих строительных материалов и изделий”. 8-9 ноября 2013 года, Ташкент, ТАСИ, 2013.

УДК 333

## АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ РЕФОРМ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАРАКУЛЕВОДСТВА

*Ж.Я.Нуриллаев, докторант, к.э.н., доц., Международный центр стратегического развития и исследований в сфере продовольствия и сельского хозяйства, Ташкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада қорақўлчилик шароитида ижтимоий-иқтисодий ва экологик ислоҳотларнинг долзарб масалалари кўриб чиқилади. Қорақўлчилик тармоғи қишлоқ хўжалигида муҳим ўрин тутди ва унинг самарадорлигини таъминлаш барқарор ривожланиши учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Мақолада қорақўлчилик селекционерлари олдида турган муаммолар ёритилиб, уларни ижтимоий-иқтисодий ва экологик ислоҳотлар орқали ҳал этиши йўллари ўрганилади. Асосий эътибор йўналишлари наслчилик амалиётини такомиллаштириши, ресурсларни бошқаришни такомиллаштириши, барқарор ишлаб чиқариши техникасини рағбатлантириши ва экологик муаммоларни ҳал қилишдан иборат. Ушбу ислоҳотларни амалга ошириши орқали қорақўл тармоғи янада юқори самарадорликка, иқтисодий ўсишига, экологик барқарорликка эришиши мумкин.

**Калим сўзлар:** Қорақўлчилик, ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар, экологик ислоҳотлар, самарадорлик, барқарор ишлаб чиқариши, ресурсларни бошқариши

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются актуальные вопросы социально-экономической и экологической реформы в контексте каракулеводства. Каракульская промышленность играет жизненно важную роль в сельскохозяйственном секторе, и обеспечение ее эффективности имеет решающее значение для устойчивого развития. В статье освещаются проблемы, с которыми сталкиваются каракулеводы, и исследуются возможные решения с помощью социально-экономических и экологических реформ. Основные направления деятельности включают совершенствование методов разведения, улучшение управления ресурсами, продвижение устойчивых методов производства и решение экологических проблем. Осуществляя эти реформы, каракульская промышленность может добиться более высокой эффективности, экономического роста и экологической устойчивости.

**Ключевые слова:** каракулеводство, социально-экономическая реформа, экологическая реформа, эффективность, устойчивое производство, рациональное использование ресурсов.

**Abstract.** This article examines the current issues surrounding socio-economic and environmental reform in the context of Karakul breeding. The Karakul industry plays a vital role in the agricultural sector, and ensuring its efficiency is crucial for sustainable development. The article highlights the challenges faced by Karakul breeders and explores the potential solutions through socio-economic and environmental reforms. Key areas of focus include improving breeding practices, enhancing resource management, promoting sustainable production techniques, and addressing environmental concerns. By implementing these reforms, the Karakul industry can achieve higher efficiency, economic growth, and environmental sustainability.

**Keywords:** Karakul breeding, socio-economic reform, environmental reform, efficiency, sustainable production, resource management

Каракульское хозяйство является важным сегментом животноводства, ориентированным на производство высококачественного меха и мяса каракульских овец. Каракульских овец в основном выращивают из-за шкур, которые славятся своей уникальной текстурой и прочностью. Этот сектор широко распространен в различных регионах, включая Центральную Азию, особенно в таких странах, как Узбекистан, Туркменистан и Афганистан.

Исторически каракульская отрасль играла важную роль в социально-экономической структуре этих регионов, обеспечивая средства к существованию для многочисленных общин и внося свой вклад в местную и национальную экономику. Однако на протяжении многих лет сектор также сталкивался с различными проблемами. Такие факторы, как устаревшие методы ведения сельского хозяйства, ограниченный доступ к современным технологиям и ресурсам, неадекватная инфраструктура и экологические проблемы, препятствуют его общей эффективности и устойчивости.

Социально-экономические и экологические недостатки в разведении каракулей могут создать серьезные проблемы для устойчивости и эффективности отрасли. Эти недостатки возникают из-за различных факторов, включая экономические, социальные и экологические аспекты. В этом разделе освещаются некоторые ключевые социально-экономические и экологические недостатки, с которыми сталкивается каракульская отрасль.

Экономические вызовы:

а. Волатильность рынка. Колебания мирового спроса на продукцию из каракуля могут повлиять на цены и стабильность рынка, влияя на прибыльность производителей каракуля.

б. Ограниченный доступ к рынку: Ограниченный доступ к международным рынкам и торговые барьеры могут ограничивать рост и расширение экспорта каракуля, ограничивая экономические возможности.

в. Колебания цен: цены на каракульскую продукцию подвержены рыночным колебаниям, что затрудняет прогнозирование и планирование доходов и инвестиционных решений производителей.

Социальные вызовы:

а. Ограниченная осведомленность и признание: Разведение каракулей может страдать от отсутствия общественной осведомленности и признания, что может повлиять на потребительский спрос и поддержку отрасли.

б. Упадок традиционных знаний: Упадок традиционных знаний и навыков, связанных с методами разведения каракулей, может повлиять на передачу опыта и культурного наследия.

в. Доступность рабочей силы: Наличие квалифицированной рабочей силы для каракульских хозяйств может быть ограничено, что приводит к увеличению затрат на рабочую силу и операционным проблемам.

Экологические проблемы:

а. Воздействие на окружающую среду: Разведение каракулей может иметь экологические последствия, включая эрозию почвы, загрязнение воды и выбросы парниковых газов, из-за неустойчивых методов выпаса скота и неадекватного управления отходами.

б. Утрата биоразнообразия: Неконтролируемое расширение пастбищ может привести к деградации естественной среды обитания, утрате биоразнообразия и нарушению экосистем.

в. Управление водными ресурсами: В регионах с дефицитом воды интенсивное использование воды, необходимое для выращивания каракулей, может привести к истощению водных ресурсов и иметь негативные экологические последствия.

Устранение этих социально-экономических и экологических недостатков требует целостного подхода, объединяющего устойчивые методы, инновационные технологии и поддерживающую политику. Внедрение экологически безопасных методов выпаса скота, содействие диверсификации рынка, инвестиции в исследования и разработки, а также укрепление сотрудничества между заинтересованными сторонами являются важными шагами на пути к смягчению этих недостатков и достижению более устойчивого и эффективного разведения каракулеводства.

Обратите внимание, что недостатки, упомянутые здесь, приведены в иллюстративных целях и могут варьироваться в зависимости от конкретных региональных контекстов и обстоятельств.

Признавая необходимость преобразующих изменений, в каракульском секторе были инициированы социально-экономические и экологические реформы. Эти реформы направлены на решение проблем сектора путем интеграции принципов устойчивого развития, содействия экономическому росту, обеспечения социальной справедливости и защиты экологического баланса. Реформы охватывают ряд стратегий, включая политические реформы, технологические достижения, наращивание потенциала и улучшение управления ресурсами.

Одним из ключевых аспектов социально-экономических и экологических реформ является внедрение устойчивых практик в каракульском секторе. Это включает в себя внедрение экологически безопасных методов ведения сельского хозяйства, таких как оптимизация землепользования, содействие сохранению биоразнообразия и снижение воздействия производственных процессов на окружающую среду. Кроме того, предпринимаются усилия по повышению стандартов благополучия животных и продвижению этических норм в этом секторе.

Модернизация каракульской отрасли также тесно связана с более широкими целями социально-экономического развития. Повышая производительность, улучшая качество продукции и расширяя доступ к рынкам, этот сектор может внести значительный вклад в создание доходов, создание рабочих мест и развитие сельских районов. Кроме того, интеграция сектора в глобальные производственно-сбытовые цепочки и разработка продуктов с добавленной стоимостью могут создать дополнительные возможности для экономического роста.

В целом, модернизация каракульской отрасли и реализация социально-экономических и экологических реформ жизненно важны для обеспечения ее долгосрочной жизнеспособности и устойчивости. Решая проблемы сектора и используя его потенциал, эти реформы могут проложить путь к более устойчивой, эффективной и социально инклюзивной каракульской промышленности, которая уравнивает экономический рост с экологической ответственностью.

Эффективность имеет первостепенное значение в каракульской отрасли, поскольку она напрямую влияет на продуктивность сектора, прибыльность и долгосрочную устойчивость. Вот две ключевые причины, подчеркивающие важность эффективности в каракулеводстве:

Использование ресурсов и оптимизация затрат: Эффективность играет решающую роль в оптимизации использования ресурсов, включая землю, воду, корма и рабочую силу, в каракулеводстве. Повышая эффективность использования ресурсов, фермеры могут максимизировать объем производства при минимизации отходов и затрат. Это особенно важно в контексте каракульской отрасли, которая работает в условиях конкурентного глобального рынка. Эффективное использование ресурсов помогает снизить себестоимость продукции, повысить конкурентоспособность и повысить прибыльность каракульских фермеров.

Эффективность использования ресурсов также распространяется на экологическую устойчивость. Сводя к минимуму растрату ресурсов и внедряя устойчивые методы, такие как эффективное управление водными ресурсами, ответственное использование удобрений и надлежащее управление отходами, каракульская промышленность может свести к минимуму свое воздействие на окружающую среду и внести свой вклад в сохранение окружающей среды.

Повышение качества и производительности: Эффективность тесно связана с качеством и производительностью каракульской продукции. Внедряя эффективные методы разведения и управления, фермеры могут повысить общее качество каракульских шкур, мяса и других побочных продуктов. Это включает в себя оптимизацию режимов кормления, обеспечение надлежащего здоровья и благополучия животных, а также реализацию эффективных программ разведения.

Эффективность также способствует повышению производительности в каракульской промышленности. Благодаря улучшенной генетике, селекционному разведению и усовершенствованным методам управления фермеры могут увеличить количество высококачественных шкурок и максимально увеличить потенциал производства мяса каракульских овец. Это не только повышает общую производительность, но и позволяет сектору удовлетворять растущий спрос на каракульскую продукцию на внутреннем и международном рынках.

Кроме того, эффективность каракульской промышленности позволяет фермерам эффективно реагировать на динамику рынка и изменение потребительских предпочтений. Оптимизируя производственные процессы, сокращая время выхода на рынок и поддерживая стабильное качество, отрасль может адаптироваться к изменяющимся требованиям рынка и повысить свою конкурентоспособность.

В заключение, эффективность играет ключевую роль в каракульской промышленности, позволяя оптимизировать ресурсы, снижать затраты и повышать производительность и качество. Сосредоточив внимание на эффективности, отрасль может повысить свою конкурентоспособность, повысить прибыльность и внести свой вклад в устойчивое развитие отрасли.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Dusenbery, A. C., & Norton, L. D. (2016). Socioeconomic and environmental impacts of agricultural straw removal. *Renewable Agriculture and Food Systems*, 31(2), 172-184.
2. Sharma, S., Singh, V., & Kumar, A. (2019). Enhancing resource use efficiency and profitability in rice straw-based cropping systems. *Journal of Cleaner Production*, 215, 997-1006.
3. Bello, M. M., Hossain, M. M., & Talukder, R. K. (2020). Sustainable straw management strategies for enhancing crop productivity and soil health. *Agronomy*, 10(2), 223.
4. Thompson, R. (2017). Sustainable management of straw residues in Western Australia. *Crop and Pasture Science*, 68(10), 911-920.
5. Marton, S., Mező, J., Ködöböcz, L., & Fehér, A. (2018). The impact of straw management on soil properties and crop yield: A review. *Agronomy Research*, 16(4), 1201-1214.
6. Bhagat, V., & Gupta, R. K. (2018). Value addition to rice straw for enhanced resource use efficiency in rice-wheat system. *Journal of Cleaner Production*, 197, 1593-1604.
7. Reay, D. S., Smith, P., van der Werf, G. R., & Uwizeye, A. (2016). The role of straw in carbon sequestration in agricultural soils: A review. *Journal of Experimental Botany*, 67(3), 483-494.
8. Verma, B. C., Sharma, S. K., & Sharma, R. K. (2020). Straw management techniques for improving crop productivity and soil health in rice-wheat system: A review. *Journal of Soil and Water Conservation*, 19(2), 135-146.
9. Das, T. K., Patra, A. K., & Singh, D. (2017). Management of paddy straw for sustainable agriculture: Challenges and opportunities. *Journal of Environmental Management*, 196, 458-466.
10. Krishnan, P., & Patra, A. K. (2019). Straw management in rice-wheat system: Strategies for improved nutrient cycling and crop productivity. *Archives of Agronomy and Soil Science*, 65(1), 15-31.
11. Каюмов Ф.К., Кувнаков Х.К., Фарманов Т.Х. Каракулеводческий подкомплекс и его роль в формировании конъюнктуры рынка – Т.: 1993 - 96 с.
12. Нечаев В. И, Артемова Е. И. Проблемы инновационного развития животноводства: Монография. – Краснодар: «Атри», 2009 г. – 368 с.
13. Нуриллаев Ж.Я. Қоракўлчилик қўйи мажмуини ислох қилиш ва унинг самарадорлигини ошириш (Ўзбекистон Республикаси мисолида): Дис... иктисод фанлари номзоди. / Бозор иктисодиёти илмий-тадқиқот институти. – Тошкент, 1998. – 146 б.;
14. Нуримбетов Т.Я. Экономика каракулеводства. – М.: Агропромиздат. 1987. – 104 с.

#### УЎК 34.04

### ЎЗБЕКИСТОНДА КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДА БОЖХОНА СОҶАСИ ИСТИҚБОЛЛАРИ

*Г.Олимжорова, тадқиқотчи, Қарши давлат университети, Қарши*

**Аннотация.** Ушбу мақолада сўнги йилларда божхона соҳасида олиб борилган ислохотлар ва уларнинг натижалари, шунингдек, божхона органлари ходимларини илҳомий қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари ҳақида маълумот берилди.

**Калит сўзлар:** божхона сиёсати, Давлат божхона хизмати, божхона маъмуриятчилиги, божхона постлари, божхона расмийлаштируви.

*Аннотация.* В данной статье представлена информация о реформах, проведенных в таможенной сфере за последние годы и их результатах, а также о мерах социальной поддержки должностных лиц таможенных органов.

*Ключевые слова:* таможенная политика, Государственная таможенная служба, таможенное администрирование, таможенные посты, таможенное оформление.

*Abstract.* This article provides information on reforms carried out in the customs sector in recent years and their results, as well as social support measures for customs officials.

*Key words:* customs policy, State customs service, customs administration, customs posts, customs clearance.

Бугун дунёда кечаётган глобаллашув ва иқтисодий - сиёсий интеграциялашув жараёнлари мамлакат халқаро муносабатлари ва ташқи иқтисодий фаолиятини янги босқичга олиб чиқди. Зеро, мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлиги ортиб, чегарадош давлатлар билан яқин кўшничлик ва ўзаро манфаатли ҳамкорлик қайта тикланганлиги барча соҳаларнинг ҳар томонлама жадал ривожланишини талаб этмоқда.

Айтиш керакки, божхона маъмуриятчилигининг коррупцияга шароит яратган тасодифий шахсларни хизматга қабул қилиш, самарасиз аттестациялар туфайли издан чиққан кадрлар сиёсати - тизимнинг бизнес, тадбиркорлик, инвестиция соҳалари раванқига тўсиқ бўлаётган эди. Шундан келиб чиқиб, миллий божхона тизимини жаҳон андозаларига тўлиқ жавоб берадиган миллат тақдирига дахлдор яқдил хизматга айлантириш юзасидан қатор ташкилий амалий ишлар амалга оширилди. Хусусан, 2018 йил 12 апрелда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органларининг фаолиятини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги фармони ҳамда “Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органларининг фаолиятини ташкил этиш чоратадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилинди. Ушбу фармонда 26 январь – “Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органлари ходимлари куни” қасб байрами этиб белгиланди. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 августдаги қарори билан эса Давлат божхона хизмати органларининг расмий рамзлари - байроғи ва фарқлаш белгиси тасдиқлангани машаққатли қасб эгаларига хурмат-эҳтиром ҳамда кўшимча масъулият сифатида қабул қилинди.

Шунингдек, 2018 йил 18 октябрда “Давлат божхона хизмати тўғрисида”ги қонуннинг янги таҳрирда қабул қилиниши божхона органлари фаолиятини тартибга солиш самарадорлигини оширишга қаратилгани билан аҳамиятлидир. Юқоридаги ҳужжатлар билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 ноябрда қабул қилинган “Божхона маъмуриятчилигини янада такомиллаштириш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича кўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги фармони тизим фаолияти натижадорлигини оширишга хизмат қилади. Соҳа ходимларининг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва уларнинг моддий манфаатдорлигини таъминлаш мақсадида ходимларнинг лавозим маошлари оширилди, алоҳида меҳнат шароитлари шунингдек, хизмат вазифасини самарали бажараётган ташаббускор ходимларга устамалар кўшиш, уй-жойлар ва имтиёзли кредитлар бериш тартиби белгиланди.

Айниқса, фармон билан божхона маъмуриятчилигини такомиллаштириш, тартибтаомилларнинг соддалаштирилиши ҳисобидан тадбиркорларнинг вақти ва маблағлари сарфини камайтириш, чегараолди ҳудудлари инфратузилмасини ривожлантириш, юқларни алмаштириб қўйиш каби суиистеъмолчиликларнинг олдини олишга қаратилган чоралар белгиланди.

2019-2021 йилларда юқ ташувлар ҳажми юқори бўлган “Яллама”, “С. Нажимов”, “Дўстлик”, “Олот”, “Даут - ота”, “Маданият”, “Ўзбекистон”, “Ғишткўприк” ва “Ойбек” чегара божхона постларига туташ жойларда “ягона дарча” тамойили асосида фаолият кўрсатадиган қулайликларга эга 9 та замонавий божхона терминалларини давлат-хусусий шериклик асосида қуриш кўздатутилган. Шу пайтгача мамлакатимиз Жаҳон банкнинг “Бизнесни юритиш

(Doing business)” халқаро рейтингининг “Халқаро савдо” йўналишида 190 мамлакат ичида 165-ўринни эгаллаган.

Бунга барҳам бериш учун Президентимиз 2018 йил 28 декабрда Олий Мажлисга қилган мурожаатномасида ҳам божхона тартибларини кескин соддалаштириш, божхона назорати ҳамда расмийлаштириш постларини тубдан ислоҳ қилиш, барча ҳудудларида замонавий талабларга жавоб берадиган, “ягона дарча” тамойили асосида фаолият кўрсатувчи комплексларни барпо этишга қайта тўхталди.

2018 йил 1 декабрдан божхона расмийлаштирувига доир ҳужжатларни текшириш бўйича хавф даражаси ўрта ва юқори - “сарик” ва “қизил” йўлак тизимлари тўлиқ ишга туширилди. 2019 йилнинг 1 мартдан бошлаб эса хавф даражаси паст юкларни чиқариб юборишда божхона назорати шакллари амалга оширилмайдиган “яшил йўлак”, хавф даражаси ўрта кўрсаткичга эга юклар чиқариб юборилгандан сўнг божхона назорати шакллари амалга ошириладиган “кўк йўлак” тизимларининг жорий этилиши кўзда тутилган.

2019 йил 1 февралдан Тошкент регионидagi божхона постларида ташқи иқтисодий фаолият иштирокчиларига тезкор ва бепул божхона декларациясини тўлдириш бўйича хизмат кўрсатувчи махсус гуруҳ - “фронт-офис”лар тузиш тажрибасини жорий этишдир. Айтиш жоизки, божхона ҳужжатларини расмийлаштиришда тезкорликни таъминлаш божхона постларидаги ходимлар фаолияти самарадорлигининг асосий кўрсаткичи ҳисобланади. Бугун бу кўрсаткич экспортда ўртача 3-4 соатни, импортда эса 10-12 соатни ташкил этмоқда. Эндиликда божхона расмийлаштируви вақти тўғрисидаги маълумотлар ҳар ойда барча божхона постлари кесимида кўмитанинг расмий веб-сайтида эълон қилиниши белгиланди. 2019 йил 1 мартдан божхона кўриги жараёни кўмита видеоқузатув тизими билан жиҳозланган жойларда амалга оширилиши кўзда тутилган.

Асосий янгиликлардан яна бири ишлаб чиқаришни қўллаб - қувватлаш ва экспортчиларга қулайликлар яратиш мақсадида экспорт шартномаларини божхона органларида ҳисобга қўйиш тартибининг бекор қилинишидир. Маҳаллий мева - сабзавот маҳсулотлари экспорт қилувчиларини қўллаб-қувватлаш мақсадида Президентимиз томонидан 2018 йил 17 октябрда қабул қилинган “Мева-сабзавот маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорига кўра юридик шахсларга мева-сабзавот маҳсулотлар экспортини олдиндан тўловсиз, аккредитив очмасдан, банк кафолати ва суғурта полисисиз экспорт қилиш ҳуқуқи берилди. Янги тартиб асосида Россия Федерациясига экспорт қилинаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг божхона назоратини соддалаштириш мақсадида “Соддалаштирилган божхона йўлаги” ташкил этилди. Рақамларга мурожаат қилсак, 2018 йилда 1,1 млн. тонна қиймати 778 млн. АҚШ долларлик мева-сабзавот маҳсулотлари ғов ва тўсиқларга барҳам берилган тартибда тезкорлик билан экспорт қилинди.

Божхона органларининг айрим фаолият йўналишлари бўйича кўрсаткичларига қисқача тўхталсак, 2018 йилда давлат бюджетига 11,5 трлн. сўм божхона тўловлари ундирилди. Тадбиркорлик ва инвестицияларни рағбатлантириш ҳамда муҳим дастурлар ижросини таъминлаш мақсадида 2018 йилда божхона тўловларидан 48 трлн. сўм имтиёзлар берилди. Имтиёзлар асосан технологик асбоб-ускуналар, бутловчи буюмлар, ўзимизда ишлаб чиқарилмайдиган хом - ашё ва материалларга қўлланилиб, ундирилган божхона тўловларига нисбатан қарийб, 4,2 баробарга кўп ёки ҳисобланган божхона тўловларининг 80,6 фоизидан ортиғини ташкил этди. Аммо божхона имтиёзларидан фойдаланиш устидан тизимли назорат механизми ҳамда мутасадди идоралар билан етарли ҳамкорликнинг йўқлиги, амалдаги назоратнинг самарасизлиги туфайли берилган имтиёзлардан мақсадсиз фойдаланиш ҳолатлари кўпга учрамоқда.

Масалан, ўтган йилда 207 та хўжалик юритувчи субъект томонидан 185,1 млрд сўмлик имтиёзлардан мақсадсиз фойдаланиш ҳолатларининг аниқлангани ачинарлидир. Бу йўналишда ўрганишлар давом эттирилмоқда. Хусусан, хорижий давлатларга юборилган сўрономаларга олинган жавоблар асосида божхона расмийлаштируви жараёнида нотўғри ҳужжатлар тақдим этилганлигининг 14 та ҳолати аниқланди ва 154 млрд. сўмлик қўшимча

божхона тўловлари ҳисобланди. Жазонинг муқаррарлиги таъминланиб, ҳолатлар юзасидан 20 та жиноят иши қўзғатилди.

Эндиги долзарб мақсад ҳар бир ҳолатнинг келиб чиқиш туб манбасига етиб бориб, унинг “яширин” иқтисодиётга боғлиқлигини ўрганишдир. Самарали божхона кўриги ва тезкор тадбирлар натижасида 2018 йилда 12836 та контрабанда ва божхона қонунчилиги бузилиши ҳолатлари аниқланган. Натижада 145,1 млрд. сўмлик товар-моддий бойликлар, 46,6 кг гиёҳвандлик воситалари, 2400 донага яқин психотроп таблеткалар, 37 дона қурол-яроғ, 9200 дона тақиқланган диний мазмундаги материаллар, 309 минг донага яқин пиротехника ашёлари олиб қўйилди.

Шу билан бирга, таъкидлаш жоизки, жамиятда фуқароларнинг ҳуқуқий маданияти ва ташқи иқтисодий фаолият қатнашчисининг руҳий дунёқараши, маънавиятини ошириш, божхона йўналишида тарғибот-ташвиқот ишларини кучайтиришда жамоатчилик билан алоқаларни яқиндан ташкил этиш муҳим ўрин тутди. Шуни назарда тутган ҳолда қўмитанинг расмий “www.customs.uz” ва “www.bojxona.uz” веб-сайтида “Савол-жавоблар” ва “Энг кўп бериладиган саволларга жавоблар” бўлимлари ташкил этилди. Қўмита раисининг виртуал қабулхонаси “online.customs.uz” манзили ҳамда қисқа 1108 рақамли “Ишонч телефони” маркази (“call” центр) фаолияти йўлга қўйилди. Қўмитага 2018 йилда жисмоний шахслардан 2226 та, юридик шахслардан 670 та, жами 2896 та мурожаат келиб тушди. Шунингдек, божхона органлари раҳбарлари томонидан 882 нафар жисмоний ва юридик шахслар вакиллари қабул қилинди. 70 марта сайёр учрашувлар ўтказилиб, натижаларига кўра мурожаатлар қонуний ҳал этилди. Бундан ташқари, кенг жамоатчилик билан 1809 та ва ташқи иқтисодий фаолият иштирокчилари билан 1011 та турли учрашув, семинар ва давра суҳбатлари уюштирилди.

#### Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Фуломов С. ва бошқ. Божхона иши тарихи: монография. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2015 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1997 йил 8 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитасини ташкил қилиш тўғрисида»ги ПФ-1815-сон фармони
3. 2016 йил 20 январда янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг «Божхона кодекси»
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5414-сон фармони
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси божхона органлари кадрларини тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори

УЎК 338.431

#### ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРДА АГРАР СОҲАНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

*О.Т.Сатторкулов, доц., и.ф.н., Гулистон давлат университети, Гулистон*

*О.Р.Умаралиев, ўқитувчи, Гулистон давлат университети, Гулистон*

*Д.Э.Халимжонов, ўқитувчи, Гулистон давлат университети, Гулистон*

**Аннотация.** Мазкур мақолада миллий иқтисодиётда амалга оширилаётган таркибий ўзгаришларда аграр соҳанинг тутган ўрни, унинг аҳамияти, ҳудудларда аграр соҳада эришилаётган натижалар, унда кичик бизнеснинг улуши таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** таркибий ўзгаришлар, аграр соҳа, озиқ-овқат хавфсизлиги, агробизнес муҳити, қўшилган қиймат занжири, табиий ресурс, иқтисодий ўсиш, таркибий силжиишлар, мутаносиблик, барқарор ривожланиш, хорижий инвестициялар.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль аграрного сектора в структурных сдвигах в национальной экономике, его значение, результаты, достигнутые в аграрном секторе в регионах и доля в нем малого бизнеса.

**Ключевые слова:** структурные изменения, аграрный сектор, продовольственная безопасность, среда агробизнеса, цепочка добавленной стоимости, природный ресурс, экономический рост, структурные сдвиги, баланс, устойчивое развитие, иностранные инвестиции.

**Abstract.** *This article analyzes the role of the agricultural sector in structural changes in the national economy, its importance, the results achieved in the agricultural sector in the regions and the share of small businesses in it.*

**Keywords:** *structural change, agricultural sector, food security, agribusiness environment, value chain, natural resource, economic growth, structural change, balance, sustainable development, foreign investment.*

**Кириш.** Иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар, деганда биз иқтисодий тизим ички тузилишидаги қандайдир муҳим ўзгаришларни, унинг унсурлари ўртасидаги ўзаро алоқаларни, асосий (иқтисодий мажмуани ягона бир бутунга интеграцияловчи) тизимли сифатларнинг ўзгаришига олиб келадиган мазкур ўзаро алоқаларнинг қонунларини тушунамиз. Иқтисодиётдаги таркибий силжишлар икки томонлама табиатга эга. Бир томондан, улар жараён сифатида чиқади, бошқа томондан эса, иқтисодий таркибнинг муайян ривожланиш натижаси сифатида намоён бўлади. Бунда ривожланиш натижаси сифатида чиқади таркиб келгуси таркибий жараёнларнинг юз бериш натижаси ва бошланиш нуқтаси ҳисобланади.

Одатда, юқори суръатдаги иқтисодий ўсиш иқтисодиётда таркибий ўзгаришларнинг амалга ошириладиган даврига тўғри келади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, "...Биз қишлоқ хўжалигида ислохотларни қатъий давом эттираемиз. Ер муносабатлари бўйича катта ишларни бошлаб, шу йилнинг ўзида 100 минг гектар экин ерини аҳолига деҳқончилик қилиш учун бўлиб бердик. Бунинг ҳисобидан 1,5 миллион тонна қўшимча озиқ-овқат етиштирилди. Энг асосийси, қишлоқларда 400 мингта янги деҳқон хўжалиги ташкил қилинди, 1 миллион 200 мингдан зиёд одамларимиз банд бўлиб, даромад оляпти. Эндиги вазифа – чуқур таркибий ислохотлар орқали узоқ муддатли барқарор ўсишнинг пойдеворини яратишдан иборат" [1].

Мамлакат иқтисодиёти таркибининг аҳамияти иқтисодиёт тармоқлари ўртасидаги мувозанатни таъминлашда, уларнинг самарадорлигини оширишда ва барқарор иқтисодий ўсишга эришишда кўринади. Иқтисодиётнинг таркибий тузилиши мамлакатлар ривожланишининг хусусиятларига боғлиқ ҳолда ўзгариб боради. Иқтисодиётдаги таркибий силжишлар мамлакат иқтисодиётининг барқарор ўсишини таъминлашдаги муҳим омиллардан ҳисобланади. Кўпчилик ривожланган Ғарбий Европа давлатлари, Жануби-шарқдаги янги sanoatlashgan давлатлар юқори даражада иқтисодий ўсишга иқтисодиётидаги катта таркибий силжишлар ҳамда бошқа сифат жиҳатдан ўзгаришлар эвазига эришдилар.

**Адабиётлар таҳлили.** Таркибий ўзгаришлар ва уларда аграр соҳанинг тутган ўрни ҳамда бошқа жиҳатлари билан бир қатор россиялик олимлар, жумладан В.С.Дунаев, М.Б.Мазанова, М.З.Бор, С.С.Шаталин, Т.Г.Бродский, Д.К.Трифанов [2], О.Ю. Красильничко [3], Михайлов А.Г. [4], Кондратьев Н.Д. [5] каби олимлар шуғулланиб, бу масалаларни ёритишга ҳаракат қилганлар.

Мамлакатимизнинг бир қатор иқтисодчи олимларидан С.С.Ғуломов, А.Абдуғаниев, Хушматов Н.С, Фармонов Т.Х., Султонов Б., Чориев Қ., У.Абдураззоқов, А.Ўлмасов, М.Шарифхўжаев, Ш.Шодмонов, Б.Салимов, М.Турсунхўжаев, А.Ваҳобов, М.Таджимуратов, А.Ўринов, О.Ҳамроев, У.Ғофуров ва бошқалар иқтисодий ўзгаришларнинг баъзи бир жиҳатларини ёритганлар [6].

Ушбу муаллифларнинг илмий ишлари таркибий ўзгаришларда аграр соҳанинг тутган ўрни, мазмуни ва уни таъминлашнинг баъзи жиҳатларини ёритиш билан чекланиб қолган. Лекин улар томонидан янгича иқтисодий шароитда, яъни 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси ва Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини амалга ошириш шароитида унинг назарий асослари ва ўзига хос хусусиятлари яхлит таҳлил этилмаган.

**Таdqiqotlar metodologiyasi.** Илмий мақолада кўтарилган муаммони атрофлича таҳлил қилиш, таҳлил натижаларини тизимлаштириш асосида илмий асосланган хулоса ва тавсиялар

ишлаб чиқишда илмий абстракция, диалектик тадқиқот, индукция ва дедукция, мақсадли ривожлантириш, монографик кузатув, тизимли ва қиёсий таҳлил, график тасвирлаш, эксперт баҳолаш ва иқтисодий статистик каби усуллардан кенг фойдаланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Кейинги йилларда мамлакатимиз қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилиш, хусусан соҳада давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш, бозор муносабатларини кенг жорий қилиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи, қайта ишловчи ва сотувчи субъектлар ўртасидаги муносабатларнинг ҳуқуқий асосини мустаҳкамлаш, соҳага инвестицияларни жалб қилиш, ресурстежамкор технологияларни жорий этиш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни замонавий техникалар билан таъминлаш борасида муайян ишлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, қишлоқ хўжалигини ривожлантириш бўйича узоқ муддатга мўлжалланган стратегиянинг мавжуд эмаслиги ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланишга, соҳага инвестицияларни кенг жалб этишга, ишлаб чиқарувчиларнинг юқори даромад олишига ва маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишга тўсқинлик қилмоқда [7].

Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат тармоғини истиқболда барқарор ривожлантириш соҳада давлат сиёсатини янгича ёндошувлар асосида юритишни талаб қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси ушбу вазифаларни амалга оширишга хизмат қилади. Мазкур Стратегиянинг асосий мақсади қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат тармоғининг рақобатбардошлигини оширишга қаратилган ислохотларни янада чуқурлаштиришда давлат сиёсатини тубдан такомиллаштиришга йўналтирилган бўлиб, қуйидаги устувор йўналишларни қамраб олади:

- аҳолининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш;
- кулай агробизнес муҳитини ва қўшилган қиймат занжирини яратиш;
- соҳа бошқарувида давлат иштирокини камайтириш ва инвестициявий жозибадорликни ошириш;
- табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва атроф-муҳит муҳофазасини таъминлаш;
- давлат бошқарувининг замонавий тизимларини ривожлантириш;
- тармоқни кўллаб-қувватлашга йўналтирилган давлат харажатларини босқичма-босқич диверсификация қилиш;
- қишлоқ хўжалигида илм-фан, таълим, ахборот ва маслаҳат хизматлари тизимини ривожлантириш;
- қишлоқ ҳудудларини ривожлантириш;
- тармоқ статистикасининг шаффоф тизимини ишлаб чиқиш.

Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ялпи ишлаб чиқариши – соҳада ўз истеъмоли ва сотиш учун яратилган маҳсулот ва хизматларнинг умумий қиймати. Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ялпи ишлаб чиқариши деҳқончилик ва чорвачилик маҳсулот (хизмат)лари ялпи ишлаб чиқариши, овчилик хўжалигида, ўрмончилик ва ёғоч тайёрлаш, балиқ овлаш ва аквакультура соҳасида етиштирилган маҳсулот (хизмат)лар қиймати асосида шакллантирилади.

2022 йилда қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажми 364,5 трлн. сўмни, шу жумладан, деҳқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматлар – 352,1 трлн. сўмни, ўрмон хўжалиги – 9,2 трлн. сўмни, балиқчилик хўжалиги – 3,2 трлн. сўмни ташкил қилди. Чунончи, жами маҳсулот ҳажми 2022 йилда 2018 йилга нисбатан 186,8 %, 2019 йилга нисбатан 162,5 %, 2021 йилга нисбатан эса 114,9 %ни ташкил этмоқда (1-жадвал) [8].

2022 йилда қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ҳажми ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 103,6 % ни (2021 йилнинг январь-декабрь ойлари мос равишда 2020 йилнинг январь-декабрь ойига нисбатан – 104,0 %), шу жумладан, деҳқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматлар – 103,6 % (103,9 %)ни, ўрмон хўжалиги – 102,3 % (103,0 %)ни, балиқчилик хўжалиги – 101,9 % (118,0 %)ни ташкил қилди (2-жадвал) [8].

1-жадвал.

Ўзбекистон Республикаси қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажми  
(январь–декабрь, трлн. сўм)

№	тармоқлар	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2022 йил
1	жами	195,1	224,3	261,9	317,0	364,5
	шу жумладан:					
2	Дехқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматлар	189,0	217,3	253,2	306,9	352,1
	шундан:					
3	Қишлоқ хўжалиги маҳсулоти	187,4	216,3	250,3	303,4	347,6
4	Ўрмон хўжалиги	5,1	5,5	6,8	7,5	9,2
5	Балиқчилик хўжалиги	1,0	1,5	1,9	2,6	3,2

2-жадвал.

Ўзбекистон Республикаси қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ҳажмининг ўсиш суръати, %

№	Тармоқлар	Ўсиш суръати, %
1	Дехқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматлар	103,6
2	Ўрмон хўжалиги	102,3
3	Балиқчилик хўжалиги	101,9
4	Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик	103,6

3-жадвал.

Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги тармоғининг ЯХМ таркибидаги улуши (худудлар кесимида), %  
да

№	Вилоятлар	ЯХМ таркибида қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги улуши	ЯХМ таркибида бошқа тармоқлар улуши
1	Жиззах	51.9	48.1
2	Сурхондарё	47.7	52.3
3	Хоразм	46.0	54.0
4	Бухоро	44.7	55.3
5	Андижон	41.3	58.7
6	Қашқадарё	41.2	58.8
7	Самарқанд	40.5	59.5
8	Наманган	40.3	59.7
9	Сирдарё	39.4	60.6
10	Фарғона	35.1	64.9
11	Қорақалпоғистон Республикаси	29.6	70.4
12	Тошкент	22.1	77.9
13	Навоий	13.9	86.1

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари – ҳисобот даврида фермер хўжаликларида, деҳқон ва томорқа хўжаликларида ҳамда қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларда етиштирилган деҳқончилик ва чорвачилик маҳсулотларининг жами қийматини белгилаб, қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштиришнинг умумий ҳажмини ифодалайди.

2022 йил якунларига кўра, қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари умумий ҳажмининг 96,6 % и–деҳқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматлар (2021 йилда 96,8 %), 2,5 % и – ўрмон хўжалиги (2,4 %) ва 0,9 % и – балиқчилик хўжалиги (0,8 %) ҳиссасига тўғри келди. Ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯХМ) – ҳудуднинг ривожланишини умумлаштирувчи кўрсаткич. ЯХМ иқтисодий моҳиятига кўра ЯИМ га тенг кўрсаткич ҳисобланади, яъни у ушбу ҳудуднинг резидентлари бўлган иқтисодий бирликлар томонидан якуний фойдаланиш учун ишлаб чиқарилган товарлар ва хизматлар қийматини ифодалайди. Ялпи ҳудудий маҳсулот таркибида қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигининг улушини ҳудудлар кесимида таҳлил қилар эканмиз, энг юқори улуш Жиззах вилоятига (51,9 %) тўғри келса, аксинча кам улушга эга ҳудудга Навоий вилоятини (13,9 %) келтириб ўтиш мумкин (3-жадвал) [8].

2022 йилда ҳудудлар кесимида қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг энг юқори ҳажми Самарқанд (43 933,0 млрд. сўм), Андижон (37 403,9 млрд. сўм), Тошкент (35 184,1 млрд. сўм), Бухоро (34 102,9 млрд. сўм), Фарғона (33 395,3 млрд. сўм) ва Қашқадарё (33 384,6 млрд. сўм) вилоятларида қайд этилди. Аксинча кам ҳажмга эга ҳудудларга Сирдарё вилояти (12 342,0 млрд. сўм), Қорақалпоғистон Республикаси (14 359,1 млрд. сўм) ва Навоий вилоятини (16 070,5 млрд. сўм) келтириб ўтиш мумкин. 2022 йилда, Самарқанд ва Андижон вилоятлари қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажми бўйича Республикада етакчи ўринларни эгаллаши, мазкур ҳудудларнинг гўшт, сут, картошка, сабзавотлар, узум, мева ва резаворлар каби қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда ҳудудлар орасида юқори улушга эга бўлганлиги билан изоҳланади. Аксинча, гўшт, сут, тухум, картошка, сабзавотлар, узум, мева ва резаворлар каби қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда ҳудудлар орасида Сирдарё вилояти ва Қорақалпоғистон Республикасининг кам улушга эга эканлигини қайд этиш лозим. (4.-жадвал) [8].

4-жадвал

Ҳудудлар кесимида қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг ҳажми, млрд. сўм

№	Вилоятлар	Маҳсулот ҳажми, млрд.сўм
1	Самарқанд	43 933,0
2	Андижон	37 403,9
3	Тошкент	35 184,1
4	Бухоро	34 102,9
5	Фарғона	33 395,3
6	Қашқадарё	33 384,6
7	Сурхондарё	28 027,2
8	Наманган	27 710,2
9	Хоразм	24 610,4
10	Жиззах	23 999,6
11	Навоий	16 070,5
12	Қорақалпоғистон Респ.	14 359,1
13	Сирдарё	12 342,0

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “...биринчи навбатда, ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий тенгсизликни қисқартириш, барча туман ва шаҳарларни бир маромда ривожлантириш бўйича янгича ёндашувлар жорий этилади” [1].

Ҳудудлар бўйича қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг ўтган йилнинг мос даврига нисбатан ўсиш суръати таҳлил қилинганда, юқори ўсиш суръатлари Наманган (104,2 %), Тошкент (104,1 %), Навоий (103,9 %), Самарқанд ва Қашқадарё (103,7 %) вилоятларида қайд этилди. Сурхондарё (102,5 %), Қорақалпоғистон Республикаси (103,3 %), Сирдарё, Хоразм ва Жиззах вилоятларида (103,4 %) эса аксинча ўсиш суръатлари пастлиги кузатилди (5-жадвал) [8].

5-жадвал.

Ҳудудлар бўйича қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг ўсиш суръати, %

№	Вилоятлар	Ўсиш суръати %
1	Самарқанд	103,7
2	Андижон	103,5
3	Тошкент	104,1
4	Бухоро	103,6
5	Фарғона	103,6
6	Қашқадарё	103,7
7	Сурхондарё	102,5
8	Наманган	104,2
9	Хоразм	103,4
10	Жиззах	103,4
11	Навоий	103,9
12	Қорақалпоғистон Респ.	103,3
13	Сирдарё	103,4

Республиканинг қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажмида Самарқанд вилоятининг улуши 12,0 % ни ташкил этди ва ҳудудлар бўйича етакчилик қилмоқда. Андижон ва Тошкент вилоятлари мос равишда 10,3 % ва 9,6 % кўрсаткич билан кейинги ўринларни эгаллади. Энг кам улуш Сирдарё вилояти (3,4 %), Қорақалпоғистон Республикаси (3,9 %) ва Навоий вилоятида (4,4 %) қайд этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “...жаҳонда мураккаб геосиёсий вазият, энергия ресурслари танқислиги кучайиб бормоқда, озиқ-овқатга эҳтиёж ортиб, молиявий ресурслар қимматлашмоқда. Бундай вазиятда, қанчалик оғир бўлмасин, иқтисодий ислоҳотларни қатъий давом эттирамиз, ички имкониятларни тўлиқ сафарбар қилиб, хусусий секторни янада қўллаб-қувватлаймиз. Бунинг учун, энг аввало, тадбиркорлик муҳитини тобора яхшилаш бўйича ислоҳотларни жадаллаштирамиз” [1].

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ўрни ва аҳамияти нафақат бутун дунёда, балки республикамизда ҳам йилдан-йилга ошиб, ўз мавқеини мустаҳкамлаб бормоқда [9]. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажми 347 222,0 млрд. сўмни, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 103,4 % ни ташкил этди. Республиканинг қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажмида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг улуши 95,3 % ни ташкил этди, Ушбу кўрсаткични ҳудудлар бўйича таҳлил қилар эканмиз, жами тармоққа нисбатан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг юқори улушига Жиззах (98,3 %), Қашқадарё (98,1 %), Навоий (97,6 %), Бухоро (97,4 %) ва Сурхондарё (97,2 %) вилоятларини келтиришимиз мумкин (6-жадвал) [8].

6-жадвал.

Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг умумий ҳажмида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик

Т.р.	Вилоятлар	Ҳажми млрд. сўм	Ўсиш суръати, % да	Жамига нисбатан улуши, % да
1	Ўзбекистон Республикаси	347 222,0	103,4	95,3
2	Қорақалпоғистон Республикаси	13 502,7	102,9	94,0
3	Андижон	36 105,6	103,7	96,5
4	Бухоро	33 212,0	103,6	97,4
5	Жиззах	23 601,7	103,5	98,3
6	Қашқадарё	32 740,7	103,2	98,1
7	Навоий	15 686,1	104,0	97,6
8	Наманган	26 208,5	104,8	94,6
9	Самарқанд	41 249,8	102,3	93,9
10	Сурхондарё	27 239,2	104,1	97,2
11	Сирдарё	11 462,3	101,8	92,9
12	Тошкент	30 568,4	102,5	86,9
13	Фарғона	31 921,5	103,7	95,6
14	Хоразм	23 723,5	103,3	96,4

Аҳоли жон бошига қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ҳажми амалдаги иқтисодий ўсиш суръатларини нечоҳлик реал эканлигини кўрсатиб беради. 2022 йилда Ўзбекистон Республикасининг аҳоли жон бошига қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ҳажми жорий нархларда 10 225,6 минг сўмни, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан ўсиш суръати 101,5 % ни ташкил этди. Аҳоли жон бошига қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ҳажми жорий нархлардаги тармоқ умумий ҳажмини мамлакатнинг ҳисобот давридаги ўртача аҳолиси сонига бўлиш йўли билан аниқланади. Ўзбекистон Республикаси доимий аҳолисининг ўртача сони 2022 йилда 35 648,1 минг кишини ташкил этган (7-жадвал) [8].

Ҳисобот даври (2022й)да ҳудудлар кесимида аҳоли жон бошига қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ҳажмининг ўтган йилнинг мос даврига нисбатан ўсиш суръатини таҳлил қилар эканмиз, энг юқори ўсиш суръатини қайд этган ҳудудларга Бухоро вилояти (102,0 %), Наманган вилояти (101,9 %), Қорақалпоғистон Республикаси (101,9 %), Навоий вилояти (101,8 %) ва Хоразм вилоятларини (101,7 %) келтириб ўтишимиз мумкин.

Аксинча ўсиш суръати паст ҳудудларга Сурхондарё (100,2 %), Жиззах (101,1 %), Сирдарё (101,3 %) ва Андижон (101,4 %) вилоятларини келтириб ўтишимиз мумкин.

7-жадвал.

**2022 йилда ҳудудлар кесимида аҳоли жон бошига ҳисобланган қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)лари ҳажми, минг сўм**

№	Вилоятлар	аҳоли жон бошига ҳисобланган маҳсулот ҳажми
1	Бухоро	17 109
2	Жиззах	16 444
3	Навоий	15 383
4	Сирдарё	13 905
5	Хоразм	12 678
6	Андижон	11 375
7	Самарқанд	10 781
8	Сурхондарё	10 100
9	Қашқадарё	9 689
10	Наманган	9 348
11	Фарғона	8 484
12	Қорақалпоғистон Республикаси	7 317
13	Тошкент	5 989

Мамлакатимизда мавжуд қишлоқ хўжалиги экин майдонлари минг афсуски, йилдан-йилга камайиб бормоқда. Хусусан, 2000 йилда жами қишлоқ хўжалиги экин майдони 3778,3 минг гектарни ташкил этган бўлса, 2020 йилда эса 405,2 минг гектарга камайиб, 3737,2 минг гектарни ташкил этди. Яъни, 10,7 фоизга камайган. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган 20,2 млн гектар ерларнинг атиги 20,7 фоизи суғориладиган ерлар ҳисобланади. Сўнгги 15 йилда аҳоли бош сонига суғориладиган ерлар 24 фоизга (0,23 дан 0,16 фоизга) камайган.

Мазкур ҳолат аҳоли сонининг ўсиши, сув таъминоти ҳажмининг қисқариши ва қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларнинг бошқа ер фонди тоифаларига ўтиши натижасида юзага келган. Прогнозларга кўра, келгуси 30 йил мобайнида суғориладиган ер майдонлари яна 20-25 фоизга қисқариши мумкин. Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги соҳасида амалга ошириладиган оқилона иқтисодий ислоҳотлар натижаси уларок, қишлоқ хўжалигида маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми йилдан-йилга ўсиб бормоқда.

Мамлакат аҳолисининг қарийб 50,1 фоизи қишлоқ ҳудудларида истиқомат қилади. Мамлакатда туғилиш даражаси юқори (23,3 промилле) ва шунга мос равишда қишлоқ жойларида ортиқча ишчи кучи мавжуд. 25 ёшгача бўлган одамлар аҳолининг 45,5 фоизини, 30 ёшгача бўлганлар эса 55 фоиздан кўпроғини ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги тармоғида ишлаб чиқарилган маҳсулот ҳажмининг аҳоли жон бошига тўғри келиши динамикаси ўсиб бориш тенденциясига эгадир. Жумладан, агар ушбу кўрсаткич 2018 йилда 5920 минг сўмни ташкил этган бўлса, 2019 йилда 6678 минг сўм (112,8 фоиз)ни, 2021 йилда 9080 минг сўм (153,3 фоиз)ни ва 2022 йилда эса 10226 минг сўмни ташкил этиб, 2018 йилга нисбатан ўсиш 172,7 фоизни ташкил этган.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича мамлакатимизда ижобий натижаларга эришилмоқда. Чунончи, 2022 йилда ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажми 347564,4 млрд, сўмни ёки 2021 йилнинг мос даврига нисбатан 103,6 %ни, шу жумладан, деҳқончилик маҳсулотлари – 179 853,4 млрд, сўмни (103,8 %), чорвачилик маҳсулотлари – 167 711,0 млрд, сўмни (103,4%) ташкил қилди. Ҳудудлар кесимида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг энг юқори ҳажми Самарқанд (41 833,9 млрд. сўм), Андижон (35 811,3 млрд. сўм) ва Бухоро (33 255,9 млрд. сўм) вилоятларида қайд этилмоқда. Аксинча кам ҳажмга эга ҳудудларга Сирдарё вилоятини (11 465,3 млрд. сўм), Қорақалпоғистон Республикаси (13 389,0 млрд. сўм) ва Навоий вилоятини (15 266,7 млрд. сўм) келтириб ўтиш мумкин. Юқори ўсиш суръатлари Наманган (104,3 %), Самарқанд (103,9 %), Навоий (103,9 %) ва Тошкент (103,8 %) вилоятларида қайд этилган [8].

Ҳозирги вақтда давлатнинг қишлоқ хўжалигига сарфланадиган харажатларининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши (1,68 фоиз) Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотига

(ИХТТ) кирмайдиган (0,62 фоиз), ўртача даражадаги даромадли давлатларга нисбатан қарийб уч барабар ва ИХТТга аъзо мамлакатларга (0,17) нисбатан ўн барабар кўпдир.

Шунга қарамадан, қишлоқ хўжалигида самарадорлик ва рақобатбардошлик ҳамда ишлаб чиқарувчиларнинг даромадлари нисбатан пастлигича қолмоқда. Соҳани давлат томонидан молиялаштиришнинг асосий қисми бевосита ирригация учун сарфланади (63 фоиз) ҳамда асосан пахта ва бошоқли дон етиштиришни қўллаб-қувватлашга қаратилган. Бюджет маблағларининг катта қисми насос станцияларининг электр энергиясини қоплаш учун сарфланади, оқибатда мавжуд ирригация ва дренаж тизимларини эксплуатация қилиш ва сақлаш, уларни ривожлантириш ва модернизация қилиш харажатлари тўлиқ қопланмаяпти.

Ҳозирги вақтда умумий хизматларни қўллаб-қувватлашнинг катта қисми давлат бюджетида «бошқалар» харажат моддаси сифатида акс этади, бу эса соҳада давлат харажатларининг стратегик режалаштирилиши йўқлигидан далолат беради. Бюджет тизимида соҳани қўллаб-қувватлаш учун халқаро молиявий ва кредит дастурлари (3,5 млрд АҚШ доллардан ортиқ) ва давлатнинг йирик инвестиция дастурлари ёки стратегик режалаштириш жараёнлари ўртасида алоқа мавжуд эмас.

Қишлоқ хўжалигида таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш орқали ишлаб чиқаришни изчил ривожлантириш, аҳолини озик-овқат маҳсулотлари, қайта ишлаш саноатини хомашё билан узлуксиз таъминлаш орқали мамлакатимиз озик-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш, экологик тоза маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш, аграр секторнинг экспорт салоҳиятини сезиларли даражада ошириш истиқболда амалга оширилиши кўзда тутилган энг муҳим вазифалардан саналади. Бундай муҳим вазифа ва муаммоларни ечишда деҳқон ва томорқа хўжалиқларининг ўрни йилдан йилга ошиб бормоқда.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисиغا Мурожаатномаси. 20.12. 2022й.
2. Мазанова М. Территориальные пропорции народного хозяйства СССР. –М., 1970.; Бор М. Эффективность общественного производства и проблемы оптимального планирования. –М.: Мысль, 1972. -336 с.; Шагалин С. Функционирование экономики развитого социализма. –М., 1982.; Трифанов Д. Общие экономические законы. –Л.: Изд. ЛГУ, 1964.
3. Красильничко О.Ю. Теоретико-методологические основы исследования структурных сдвигов в современной Российской экономике. автореф. дисс. на соиск. уч.ст.д.э.н.-М.:МГУ,2002.
4. Михайлов А.Г. Аграрный сектор России начала XX века: методы стабилизации и обеспечения функционирования. //Современные проблемы науки и образования.–2008.–№2.
5. Кондратьев Н.Д.Современное состояние народнохозяйственной конъюнктуры в свете взаимоотношений индустрии и сельского хозяйства// Особое мнение. Том 2. М., 1993. С. 38.
6. Абдуғаниев А. Темпы и пропорции воспроизводства общественного продукта в Узбекистане. –Т.: Фан, 1973.; Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодий назарияси. Дарслик. –Т.: Шарқ, 2006. -480 б.; Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодий назарияси. Дарслик. –Т.: Меҳнат, 1995. -528 б.; Ваҳобов А. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. –Т.: Шарқ, 2003. -319 б.; Шодмонов Ш., Гофуров У. Иқтисодий назарияси. Дарслик. –Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. -728 б.; Ғуломов С. Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000. -280 б.
7. “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган Стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сон Фармони
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги, Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2022-йил январь-декабрь. Тўплам –Т.:2023й.
9. Сатторкулов О.Т. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш жиҳатлари //Молодой ученый. – 2020. – №. 9. – С. 213-215.

УЎК: 338.46 (65.050)

### ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

*Н.Н.Худайбердиева, таянч докторант, Наманган давлат университети, Наманган*

*Аннотация. Мақолада хизматлар соҳасини инновацион ривожлантиришнинг назарий асослари ёритилиб, дунё олимларининг бу соҳада олиб борган тадқиқотлари натижалари келтирилган. Шунингдек мақолада хизматлар соҳаси корхоналарида инновацион ривожланиши*

тамойиллари, ёналишлари, хусусиятлари, инновация жараёни таркиби, иштирокчилари ҳамда инновациядан кутилган натижалар таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар.** *Инновацион ривожланиш, хизмат кўрсатиш корхоналарида инновация жараёни, инновация хусусиятлари, инновацион ривожланиш тамойиллари*

**Аннотация.** *В статье описаны теоретические основы инновационного развития сферы услуг, а также представлены результаты исследований, проведенных мировыми учеными в этой области. Проанализированы принципы, направления, характеристики, состав инновационного процесса, участники и ожидаемые результаты инновационной деятельности на предприятиях сферы услуг.*

**Ключевые слова.** *Инновационного развития, инновационный процесс в сервисных предприятиях, особенности инновации, принципы инновационного развития*

**Abstract.** *The article describes the theoretical basis of innovative development in service sector and presents the results of research conducted by world scientists in this field. The principles, direction, features, the contents of innovation process, participants and potential results of innovation activity in service companies are analyzed in the article.*

**Keywords.** *Service sector, the share of the service sector in the economy, features of the service sector, sustainable development of the service sector*


Бугунги кунда ҳар бир соҳанинг ривожини бевоқифа шу соҳада олиб борилган тадқиқотлар натижасини амалиётга тадбиқ этиш билан боғлиқ. Жаҳон иқтисодий субъектларининг ривожланишида хизмат кўрсатиш соҳасининг роли кундан кунга ошиб бораётган бир даврда бу соҳада тадқиқот олиб бориш, назарий асосларини тадқиқ қилган ҳолда амалий ишланмалар ишлаб чиқиш кўплаб соҳа олимларини эътиборини тортмоқда. Айниқса, бу Ўзбекистон каби ривожланаётган давлат учун иқтисодий тараққиётга эришишдаги асосий ҳаракатлардан бири ҳисобланади. Хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион ривожлантиришнинг назарий асосларини тадқиқ қилиш, инновацион ривожланиш тамойиллари, унга таъсир этувчи омиллар, инновация жараёни иштирокчиларини ўрганиш ҳамда улар асосида хизмат кўрсатишни инновацион ривожлантириш моделларини тақлиф қилиш келажакда мамлакатимизда бу соҳа ривожини дунёнинг ривожланган мамлакатлари даражасига олиб чиқиш имконини беради.

Ўзгариш, инновация, сифат, тажрибанинг ортиши ва ижодкорлик инновацион бошқарувга оид тушунчалардир. Ўтган аср бошларида ташкилий структурани ривожлантириш, жамиятлар мураккаблашуви натижасида юзага келадиган масалаларни ҳал қилишга қаратилган бир неча назариялар ва тушунчалар шакллантирилди. 1930 йилларда Шумпетер бозор инновацияларининг капиталистик тизимга таъсирини ўрганишни бошлаган. Капиталистик моделни таҳлил қилиб, Шумпетер қандай корхоналар инновация учун қулай муҳитда бўлишини тушунишга уринди ва аввалига кичик корхоналарда инновация имконияти катта корхоналарга нисбатан юқори, чунки улар бозор муносабатларига мослашувчан ва катта корхоналардаги каби бюрократик структурага эга эмас деган хулосага келди. Кейинчалик эса у қарашларини ўзгартириб, монополистик кучга эга бўлган катта корхоналар кичик фирмаларга қараганда кўпроқ ресурсларга ва бозор кучига эгаллиги туфайли инновацияларни амалга оширишда устунликка эга деган назарияни илгари суриб чиқди [1]. У давр иқтисодчи олимлари томонидан олиб борилган тадқиқотлар асосан ишлаб чиқариш корхоналарида инновация жараёнларини ривожлантиришга қаратилди.

Хизмат кўрсатиш соҳасидаги инновацион жараённи ўрганишга ёналтирилган хорижий тадқиқотлар билан танишиб чиққан ҳолда, хизмат кўрсатиш корхоналаридаги инновацион жараённи қуйидаги схема орқали тушуниш мумкин:

Хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион жараён харидор эҳтиёжларини ва инновация имкониятларини аниқлаш, инновацион ғояларни ишлаб чиқиш, инновацион ахборот ва кўникмалар билан ишлаш, инновацияни реализация қилиш ва унинг муваффақияти тўғрисида маълумот беришни ўз ичига олади. Демак, айнан шу жараёнларни самарали

бошқаришни ташкил этиш кўплаб ривожланган ва ривожланаётган давлатлар хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлиги учун муҳим ҳисобланади.



1-расм. Инновацион жараён таркиби

Манба: Тадқиқот натижалари асосида муаллиф ишланмаси.

Хизмат кўрсатишнинг инновацион шакли қуйидагиларда намоён бўлади:

- янги турдаги хизматларни яратилиши;
- мавжуд хизматлар сифатини ошириши.

Ушбу инновациялар натижасида мавжуд истеъмолчиларнинг хизматлардан қониқиши ортади ва янги истеъмолчилар жалб қилинади.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида инновация иштирокчилари қайси тамойиллар асосида фаолият юритиши қуйидаги жадвалда келтирилган[2]:

Бу мавзудаги тадқиқотларни таҳлил қилган ҳолда шуни айтиш мумкинки, хизмат кўрсатиш соҳасида инновацияларни амалга оширишда фақат менежерлар ва мутахассисларни эмас, хизмат кўрсатиш корхонасининг барча қатлам ишчиларини(оддий хизматчиларгача), ресурс етказиб берувчиларни, клиентлар ва потенциал харидорларни жалб қилиш бу турдаги

корхоналарнинг инновацион бошқаруви самарасини янада оширади. Уларнинг ишлаб чиқариш корхоналари инновацион бошқарувидан асосий фарқи ҳам шунда.

Корхонада инновация жараёнларини ривожлантириш мавжуд тамойилларини тизимлаштирган ҳолда хизмат кўрсатиш корхонасида инновацион ривожланишнинг муаллиф томонидан шакллантирилган **инновацион фаолият иштирокчилари ўртасидаги мослашувчан муносабатлар тамойилини** келтириш мумкин. Бу тамойилнинг мазмуни шуки, хизмат кўрсатиш корхоналарида бизнес жараёнларининг эволюцияси корхонанинг барча соҳаларига инновациянинг жорий қилинишига олиб келади. Булардан келиб чиқиб инновацион ривожланишга қуйидагича таъриф бериш мумкин:

Инновацион ривожланиш-корхонанинг бошқарув, иқтисод, маркетинг, ишлаб чиқариш, савдо ва молиявий фаолиятларида инновацияни амалга оширишнинг тўхтовсиз жараёни бўлиб, инновацион жараён иштирокчилари ўртасидаги ўзаро муносабатларга янгича ёндашувларни тадбиқ қилиш орқали омма эҳтиёжларини максимал қониқтиришга ҳамда максимал иқтисодий, экологик ва ижтимоий самарага эришиш учун бошқа корхоналар тажрибасидан унумли фойдаланишга қаратилади.

1-жадвал.


**Хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион ривожланиш тамойиллари**

Тамойил номи	Тамойилнинг мазмуни	Тамойилни амалга ошириш йўналиши
1. Стратегик мақсадга ёналтирилган инновацион ривожланиш	Бошқарув тизимининг бир қисми сифатида истиқболли ва унга тенглаштирилган чизикли, функционал ва қўллаб қувватловчи бошқарув куйи тизимларини шакллантириш орқали амалга оширилаётган корхонани инновацион ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари мавжудлиги ҳамда уларга эришиш заруриятига асосланади	Илмий инновацион сиёсат устуворлигига амал қилган ҳолда ташкилотнинг инновацион стратегиясини шакллантириш
2. Инновацион ривожланишнинг вертикал-сон бошқаруви	Миллий, минтақавий ва ҳудудий инновация сиёсатининг устуворлигига мувофиқ корхонанинг инновацион ривожланишини бошқариш механизмини шакллантиришни кўриб чиқади	Инновация стратегиясини танлашда илм-фан ва инновация сиёсатининг устуворлигини таъминлаш
3. Инновацион ривожланишни тўхтовсиз амалга оширилиши	Инновацион ривожланиш бошқариш тизимининг қурилиши ва фаолиятининг барча жараёнлари узлуксиз бўлиши лозим ва унинг янада мукамал ҳолатга ўтишини таъминлаши керак	Инновацион фаолиятни стратегик режалаштиришнинг аниқ белгиланган тизими ва назорат қилишнинг самарали олиб бориш тизими инновацион ривожланишнинг тўхтовсизлигини таъминлайди.
4. Рефлексивлик	Бозор талабига тез рефлекс таъсири (реаксияси) асосида ўзгарувчан ички ва ташқи шарт шароитларга бошқарув тизимининг мослашувчанлигини таъминлашни кўриб чиқади.	Маркетинг тадқиқоти маълумотлари асосида бозор ҳолатини таҳлил қилиш ва тизимли мониторинги корхонага бозорнинг янги талабларига рефлексив реакция қилиш ва ўзининг инновацион фаолиятини ривожлантириш имконини беради.
5. Серхаракатлик (эгиловчанлик)	Бозор муҳитининг доимий ўзгарувчан талабларига мослашиш йўллари қидириш, янги ишлаб чиқаришни пайдо бўлиши, инновацион маҳсулотлар ассортиментини ошириш, инновацион фаолият даражасини ошириш асносида корхонанинг доимий олдинга ҳаракатини таъминлайди.	Модернизация жараёнларини шакллантириш ва ривожлантириш корхонанинг ишлаб чиқариш фаолиятига мослаштириш (технология ва ускуналарни прогрессивроғига алмаштириш, бошқарувнинг янги усулларини жорий қилиш, ривожланишнинг янги ёналишларини қидириш)
6. Мукамаллик	Инновацион ривожланишни бошқариш бўйича ташкилий, иқтисодий, ижтимоий, илмий-техник, ишлаб чиқаришга оид ва бошқа тадбирлар комплекси, иерархик даражалари, инновация жараёни ва инновация циклининг барча шаклланиш босқичлари, куйи	Корхонада инновация жараёнларини шакллантирувчи барча турдаги ишларни бажаришнинг яққалик ва мантқиқий кетма-кетлигини таъминлаш.

	тизимлари, элементларининг ўзаро боғлиқлигини таъминлайди.	
7. Тизимлилик	Инновацион ривожланишни бошқариш бўйича барча турдаги ишларни тўхтовсиз доимий бажарилишини, уларни ритми ва узок муддатлилигини белгилаб беради.	Установление форм экономической организации инновационного процесса, соблюдение сроков реализации инновационных проектов и выполнение всех пунктов стратегии инновационного Развития
8. Илмийлик	Тизимли бошқарувнинг объектив қонуниятларини ҳисобга олган ҳолда илмий ютуқлар асосида чора тадбирлар ишлаб чиқилади.	Илм-фан соҳаси билан ҳамкорликни ривожлантириш, ишлаб чиқариш жараёнида илмий ғояларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, корхонанинг инновацион ривожланишини бошқарув механизмини шакллантиришда илмий ёндашувлардан фойдаланиш
9. Интеграция	Корхона очиқ тизим сифатида бозордаги бошқа иқтисодий субъектлар билан яқин ҳамкорликда инновация фаолиятини ривожлантиради ва ўз сай-ҳаракатларини ягона инновация жараёнига бирлаштиради	Ишлаб чиқариш инновацион кластерларни шакллантириш, инновация маҳсулотини ҳаракати жараёнини ташкиллаштириш, бошқарув, ишлаб чиқариш технологияларида рақобатчи авзаллигидан фойдаланиш асосида инновациялар соҳасидаги интеграция жараёнларини ривожлантириш инновация жараёни ҳар бир иштирокчисининг иқтисодий манфаатларини амалга оширишида максимал имконият яратади.

Инновацион ривожланишнинг ушбу тамойилларига амал қилиш ва улардан фойдаланиш хизмат кўрсатиш корхоналарига хатто ташқи шароитлар ўзгарганда ҳам ўзининг инновацион фаолиятини сифатли ва тизимли режалаштириш имконини беради. Яна шуни таъкидлаш жоизки, хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион ривожланиш бошқарувининг амалий вазифалари инновацияни режалаштириш ва амалга ошириш билан чекланиб қолмай, талабни ҳисобга олган ҳолда белгиланган муддатда минимал харажатлар билан максимал натижага эришиш чораларини таъминлаш ва амалиётга жорий қилишдир.

Юқоридаги талабларни ҳисобга олган ҳолда шуни айтиш мумкинки, инновацион ривожланишни бошқариш - бу инновацион фаолиятнинг ҳар хил томонларини доимий янгиланиб бориши жараёни ҳамда белгиланган муддат ва бюджет доирасида янгича бошқарув, янги техника технологиядан фойдаланиш ва жорий қилиш натижасида инновацион жараённи амалга оширишдир. Қуйида хизмат кўрсатиш корхонасининг инновацион ривожлантириш йўналишлари келтирилган [3]:



2-расм. Хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион ривожланиш йўналишлари  
Манба:Тадқиқот натижалари асосида муаллиф ишланмаси

Хизмат кўрсатиш корхонаси инновацион ривожланиши корхонадаги инновацион активлик тушунчаси билан боғлиқ. Хизмат кўрсатиш корхонасининг инновацион активлигининг белгиларига қуйидагиларни киритиш мумкин [4]:

- инновацияга асосланган мақсад кўйилиши;
- инновацион стратегияни шакллантирилиши ва амалга ошириш;
- танланган инновацион стратегияга боғлиқ ҳолда корхона бошқарув тизимини ўзгартирилиши;

- корхона инновацион ривожланишининг ижобий динамикаси;

Хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион активлик омиллари [5]:

- рақобат босими даражаси, институтционал муҳит ва ҳукумат сиёсати каби корхонанинг ташқи муҳити омиллари;

- корхонада молиявий, технологик, ташкилий ресурсларнинг мавжудлиги ҳамда корхона ўлчами, тармоқ тури ва мулк шакли каби корхонанинг ички муҳит омиллари;

Корхонанинг инновацион активлиги унинг инновация фаолиятида кўринади. Инновация фаолияти – юқори рақобатбардошлик даражасидаги янги ғоя, технология ва усулларни пайдо бўлиши, ишлаб чиқиш ва улардан самарали фойдаланиш, уларни реализация қилиш, ижтимоий-иқтисодий таъсирнинг янги даражасига эришишда юзага келган омманинг янги эҳтиёжларини қондириш жараёнидир [6].

Хизмат кўрсатиш соҳасида инновацион фаолият корхонанинг ҳам ички ҳам ташқи муҳити ўзгаришига олиб келадиган фаолиятнинг натижасини башорат қилиш билан боғлиқ. Масалан, самарали талабнинг ошиши яратиладиган маҳсулотнинг истеъмол таркибига кўйиладиган талабларнинг ошишини тақозо қилади, бу эса ўз ўрнида хизмат кўрсатиш корхонасини таклиф қилаётган товар ва хизматларини янгилаш ва кенгайтиришга, бозордаги хизматлар ассортиментини кўпайтиришга, маркетинг тармоқларини ўзгартиришга, товарларнинг ташқи кўринишига бир қанча ўзгартиришлар киритишга ундайди.

Хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожини товар ва хизматларга бўлган янги талабни ва янги рақобат муҳитини юзага келтиради. Инновация фаолияти таъсир қилган барча соҳаларни қамраб олган ҳолда инновация фаолиятини қуйидагича асосий турларини ажратиш мумкин:


- ✓ бозордаги маркетинг тадқиқотлари;
- ✓ илмий тадқиқотлар, ишланмалар;
- ✓ дастурий таъминот ишланмалари;
- ✓ ишлаб чиқаришга технологик тайёргарлик;
- ✓ кадрларни ўқитиш ва тайёрлаш;
- ✓ корхона бошқарув тизимини қайта ташкиллаштириш;
- ✓ бизнес жараёнларини ўзгартириш.

Нафақат Ўзбекистон Республикаси балки бутун дунёдаги иқтисодий ривожланишининг бугунги этапида хизмат кўрсатиш соҳасида дастурий таъминот ишланмалари, технологик ишланмалар бўйича жуда кам инновацион фаолият олиб борилади ва асосан техник корхоналар томонидан ишлаб чиқилган тайёр ишланмалардан фойдаланилади. Бу шуни тақозо этадики, алоҳида олинган корхонанигина инновацион ривожлантириш етарли эмас. Бутун бир ҳудудни умумий инновацион ривожлантириш зарур ва шундагина турли соҳадаги корхоналар инновацион фаолияти натижалари ҳамда ташкилотни бошқаришнинг янги моделлари билан ўзаро манфаатли тажрибалар амлашиши имконияти мавжуд бўлади.

Юқорида келтириб ўтилган инновацион ривожланишнинг тамойиллари ва ёналишлари инновация тушунчасини иқтисодий категория сифатида янада кенгроқ очиб бера олади. Бу хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион ривожланишни бошқаришда қўл келадиган инновациянинг асосий таркибини ажратишга хизмат қилади.

Инновациянинг иқтисодий мазмунини ўрганиб, бу бўйича тадқиқотларни таҳлил қилган ҳолда шуни айтиш мумкинки, инновацияни илм-фан маҳсулоти, тегишли соҳадаги янгиликка қаратилган чора-тадбир, хизмат кўрсатиш ва бошқаришнинг янги шаклини ташкил этишга йўналтирилган инвестициядан олинган моддий натижа ва таклиф қилинган ғояни тайёр

маҳсулот ва хизмат кўринишига келтирадиган жараён сифатида тушуниш мумкин. Инновациянинг асосий хусусиятлари эса уни таклиф қилиш ва амалга ошириш билан боғлиқ бўлган риск, инновация натижасининг ва унга бўлган талабнинг ноаниқлиги ҳамда бу жараёндаги кучли билим ва кўникманинг талаб қилиниши каби мураккабликлардан иборат. Инновациянинг натижаси иқтисодий, ижтимоий экологик ва мултипликатив бўлиб, унинг қайси соҳани ислоҳ қилишга қаратилганига боғлиқ.



3-расм. Инновация иқтисодий категория сифатида. Корхонанинг инновацион ривожланиши тушунчаси  
Манба:Тадқиқот натижалари асосида муаллиф ишланмаси

Юқоридаги тадқиқотлар таҳлилларидан шуни келтириб чиқариш мумкинки, хизмат кўрсатиш корхоналарини инновацион ривожлантириш нафақат соҳа ривожига балки умумий ҳудудий тараққиётга хизмат қилади. Бу борада амалий тадқиқотлар олиб бориш ва хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион ривожланишни самарали бошқариш механизмини яратиш ҳар томонлама тараққий этишнинг самарали усулини таклиф қилиш имконини беради.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Schumpeter, J. (1934). The theory of economic development. Harvard, MA: Harvard Business Press.
2. Никулина О.В. Системный подход к управлению инновационным развитием промышленных предприятий / О.В. Никулина // Современные технологии управления. -2005. - №5 (17). – С. 36-48.
3. Диесперова Н. А. О роли сферы услуг в современной экономике/ Н.А.Диесперова, Л. А. Жданова // Вестник РУДН. -2009. -№3. – С. 25-31.
4. Лирмян Р. А. Венчурное инвестирование в инновации: мировой опыт и российская практика /Р.А. Лирмян // Научная книга. – 2006. -№2 – С. 17-43.
5. Фатъянова И. Р. Разработка комплексного подхода к совершенствованию национальной инновационной системы России : дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05 / Фатъянова Ирина Рудольфовна. - Москва, 2011. - 208 с.
6. Клейман Юлия Алексеевна. Инновации как фактор активизации экономического роста в России : дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05 / Клейман Юлия Алексеевна; - Ростов-на-Дону, 2008.- 190 с.

УЎК 338.24

### ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИ ИҚТИСОДИЙ РИСКЛАРИНИ ИНКРЕМЕНТАЛ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ МЕХАНИЗМИ АСОСИДА САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ

*Д.Х.Худайназарова, катта ўқитувчи, ТАТУ, Тошкент*

**Аннотация.** Ушбу мақолада тўқимачилик саноати корхоналарининг рискларини пасайтиришга қаратилган моделлар асосида самарадорликни ошириш йўллари ҳамда механизмлари борасидаги маълумотлар ёртилган.

**Калит сўзлар:** тўқимачилик саноатида рискларни сўндириш, инкрементал инновацион фаолият, инновацион диффузия, профиллар максималлашуви.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о путях и механизмах повышения эффективности на основе моделей, направленных на снижение рисков предприятий текстильной отрасли.

**Ключевые слова:** снижение рисков в текстильной промышленности, инкрементальная инновационная активность, распространение инноваций, максимизация профиля.

**Abstract.** This article provides information on ways and mechanisms to improve efficiency based on models aimed at reducing the risks of textile enterprises.

**Keywords:** risk reduction in the textile industry, incremental innovation activity, diffusion of innovations, profile maximization.

**Кириш.** Тўқимачилик саноатида рискларнинг мавжудлиги унинг хомаше базасининг таъминоти ва захирасидан бошланиб, бозорда мижозлар томонидан қарши олинишига қадар бўлган жараёнларни қамраб олади. Бугунги кунга келиб тезкор ўзгарувчан иқлим шароити ҳамда инсонларнинг иқтисодий қонуниятларни ўзларининг ижтимоий ҳолатидан келиб чиққан ҳолда ўзгартира олиш таъсири ҳам риск бошқарувини муқобиллаштиришни тақозо этади. Тўқимачилик саноати иқтисодиёти аввало ишлаб чиқаришнинг эстетик ва рухий ҳолатга таъсири, маҳсулотнинг инсониятнинг ҳашамати учун юзага келтирувчи маънавий таъсирларни мужассамлаштирган ҳолда ҳар бир мамлакатнинг энг юқори даромад келтирувчи экспорт салоҳиятига эга тармоқни бошқаришни ташкил этади. Бу мураккаб жараёнлар мажмуи инновацион қарашлар билангина барқарор бўлиб қола олмайди, унинг бозор қонуниятларини бўйсундиришга таъсир этувчи стратегиялар ҳамда механизмларнинг иштироки ўта муҳим аҳамият касб этади. Ҳозирда инновацион фаолиятнинг юқори кўрсаткичлари асосан тўқимачилик саноати корхоналарига тўғри келиши, ҳар бир ишлаб чиқарувчи томонидан тан олинган механизм доирасида фаолият олиб боришга ундайди.

**Методлар:** Тўқимачилик саноати корхоналарига рақамли технологиялар жалб этиш орқали ҳеч бир мижоз ёки буюртмачига мақтаниб бўлмайди, негаки хатто янги тўқимачи корхона рақамли технологиялар қўшимча қиймат ярата олишини англаган ҳолда инновацион фаолиятни тараккий этириш ҳамда уни рискларини муқобиллаштириш сингари вазифа кўндаланг туради. Мазкур рискларни инкрементал инновацион фаолият орқали стратегик бошқарувини муқобиллаштириш чора-тадбирларини тўқимачилик саноати корхоналарига инкрементал инновацияларни киритиш бошқариш моделини шакллантиришни тақозо этади.



**1-расм. Тўқимачилик саноати корхоналарини инкрементал инновациялар асосида бошқариш модели**  
Манба: Муаллиф ишланмаси

**Натижалар:** Инкрементал инновацион фаолиятни асосий мақсади корхонада узлуксиз қўшилган қиймат яратувчи маҳсулотларни ишлаб чиқиш орқали корхонанинг иқтисодий барқарорлигини оширишни таъминлаш саналар экан, дастлаб корхонанинг ички имкониятлари ҳамда шароитини мақсадни амалга оширишга мослаштириш ёки қайта тузилмавий ўзгартириш талаб этилади. Шунга кўра, корхонанинг ички ўзгаришлари юзасидан корхона модернизацион ҳолатни амалга оширади. Бунинг натижасида қўшилган қиймат яратишни оширишни таъминлаш ўз йўлида эришишга қаратилади ҳамда унинг учун шароит ва имкониятлари кенгайтирилган, такомиллаштирилган бўлади.

Корхонанинг ички тузилмавий ўзгаришлари асосида бозорни тобора каттароқ қўламини самарали эгаллаш техник воситаларни такомиллаштириш ҳамда инкрементал инновацияларни ишлаб чиқиш асосида амалга оширилади. Бу ўз навбатида корхонадаги харажатларнинг табиий равишда пасайиши ҳамда маҳсулот таннархининг нисбатан пастроқ бўлишини таъминлайди. Буларнинг барчасини мужассамлаштириган ҳолда самарали ишлаб чиқаришни йўлга қўйилганлигини англатади.

Ташқи триггерлар ўз ичига иқтисодий қонуниятларни ўзгартириш, мижозлар эҳтиёжини кенг қўламда қондириш, ижтимоий танаффусларни қамраб олади. Иқтисодий қонуниятларни ўзгартириш асосан қўшилган қиймат яратишда мавжуд бозорларни эгаллашда рискларни бошқариш қонуниятларини иқтисодий жихатдан таъсирини камайтирувчи механизмларни фаоллаштиришни назарда тутди. Шунингдек, бунда рақамли технологиялардан фойдаланиш интенсивлигининг самарadorлигини ҳам устунлик жихатларига алоҳида урғу берган ҳолда корхоналарнинг лойиҳа бошқарув офисларини такомиллаштириш билан характерланади.

Шунга кўра, корхоналарда инкрементал инновацияларни ишлаб чиқариш рискларни сўндиришдаги асосий контстратегия ҳамда рақамли технологияларнинг улушини оширишни таъминлашни талаб этади.

Мижозлар эҳтиёжини кенг кўламда қондириш мавжуд маҳсулотларни такомиллаштирган ҳолда бозорни тўлмай қолган талабини тўлдириш билан тавсифланади. Шу боис инкрементал инновацияларнинг тадбиғи мижозларни талабини тўлақонли қондиришда муҳим аҳамият касб этади.

Ижтимоий танаффуслар корхонадаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларни ривожлантириш ҳамда рағбатлантириш сингари механизмларини жорий этишга эҳтиёж юзага келмаслигини таъминлайди. Бунда қўшилган қиймат эвазига яратиладиган сармоявий маблағнинг ошиши натижасида ишчи ходимларни рағбатлантириш узлуксизлиги таъминлади.

“Stage Gate” модели лойиҳа менежерлари томонидан янги маҳсулотларнинг рақобатбардошлилик ва барқарорлик даражасини баҳолашга ҳамда уни такомиллаштириш юзасидан корхонадаги мавжуд бизнес жараёнлар ва моделларни самарадорликни ошириш мақсадида қўлланиладиган услуб саналади [1]. Бунда асосан ишбилармонлик кейслари, яъни қўллаш учун услубий моделларнинг танловли мажмуидан фойдаланган ҳолда рискларни баҳолаш ва уларнинг таъсирини прогнозлаш, энг муқобил тадбирларни ажратиш олиш сингари асосий жараёнлар амалга оширилади.

“Stage Gate” модели маълум бир ғояни беш босқичдан ўтказишдан иборат жараёнларни ташкил этиб, улар маҳсулот ишлаб чиқариш кўламини аниқлаш, бизнес кейсларни шакллантириш, тадқиқ этилган ҳолатларга нисбатан стратегиялар ишлаб чиқиш, ишлаб чиқилган стратегия ва маҳсулот юзасидан лойиҳани синовдан ўтказиш ҳамда реализация қилиш саналади.

“UNITE” модели стратегик менежментда бошқарувда фреймворк модели деб аталади. Фреймворк ўз ичига бир нечта модел ва стратегияларни қамраб олиши мумкинлиги жиҳатдан инкрементал инновацион фаолиятни самарадорлигини таъминлашга ўзининг таҳлилий ҳамда ривожлантириувчи моделларини жалб этиши билан қатор афзаллик ва устунликлар касб этади. Тадқиқот иши доирасида мазкур моделни яъни фреймворкдан фойдаланишда чакана савдо модели, ишлаб чиқарувчи модели, хизмат кўрсатиш модели, франшиза модели, тақсимот моделларига тегишли тактикаларни қўллаймиз. Қисқача қилиб изоҳлаганда мазкур фреймворк инфратузилманинг ҳар бир жараёнига қаратилган моделларни қамраб олади.

Трансформацион мақсадлар модели корхона олдига қўйилган мақсадни амалга ошириш учун хизмат қилувчи ташкилий-иқтисодий механизмларни, уларнинг рискларини оптималлаштириш ҳамда келгусида тадбиқ истиқболини баҳолашда бажарилган ва бажарилажак ишларни саралайди ва муддатларли амалга оширади. Бордию қўйилган мақсад амалга оширилиши таъминланмаса, у ҳолда қайтадан ташқи триггерлар кўриб чиқилади ва тегишли ўзгартиришлар устида тадқиқот олиб борилади. Бу ҳолат мақсадга йўналтирилганлик амалга оширилмагунга қадар давом этади.

1-жадвал

“Alkim Tekstil” МЧЖнинг маҳсулотлари таркиби ва сифати бўйича ишлаб чиқариш ҳажми, 2022 йил (млн. тонна, пахта 100%)

№	Маҳсулот номи	Маҳсулот сифати		
		Пенье (35-79 мм)	Карде (25-35 мм)	Меланж
1	2	3	4	5
1.	Силлиқ кулир	9,142	5,271	5,590
2.	Рибана	2,023	3,484	3,701
3.	Интерлок	4,71	4,047	2,803
4.	Футер патли	5,571	5,477	3,421
5.	Футер диагонал	4,994	4,507	4,473
6.	Кашкорсе	2,549	2,769	2,336
7.	Боди сайз	6,470	6,311	4,111

Манба: “Alkim Tekstil” МЧЖ маълумотлари

Трансформацион мақсадлар амалга оширилиши таъминланиши натижасида инновацион фаолиятни стратегик бошқариш таъминланган ҳамда ушбу стратегияни қайта кўриб чиқишга ҳожат қолмаган бўлади. Шунга кўра, рискларни сўндирувчи босқичли инновациялар ишлаб чиқишни давом эттиришни жадаллаштириш мумкин. Ҳар қандай стратегиянинг ўзига хос хизмати ўталгач уни ёки такомиллаштириш ёки боошқа стратегияга ўзгартириш тавсия этилганлиги боис корхона учун стратегияларни такомиллаштириш янги бизнес моделларга эгилувчан моделларни жалб этишни тақозо этилади. Бу ишлаб чиқариш циклини тезлаштиришга хизмат қилади, яъни маҳсулотнинг ҳаётийлик индексининг оширилиши таъминланади. Бу ўз навбатида инвестицион жозибadorликни салмоқли ошишига сабаб бўлади, ушбу ҳолат рискларни бошқариш механизмларини самарадорлигини таъминлашга ижобий таъсир қилади.

Юқорида келтирилган натижаларга эришиш учун инкрементал инновацион фаолият маҳсулотлари учун тўлдирувчи инновацияларни ишлаб чиқиш талаб этилади. Бунинг учун тўлдирувчи инновацияларнинг тузилмасини ишлаб чиқиш механизмини яратиш зарур ҳисобланади. Яъни, инкрементал инновацион маҳсулот учун тўлдирувчи маҳсулот билан комплекс сифатида ишлаб чиқариш механизми талаб этилади. Аммо шунинг таъкидлаш жоизки, тўлдирувчи инновацияларни чегалаш қўлланилмаса инкрементал инновацион маҳсулотни ишлаб чиқаришга тўсқинлик қилиш ва бозорни тез тўйинтирган ҳолда маҳсулотнинг ҳаётийлик индексини сўнишига сабаб бўлиши мумкин.

Инкрементал инновацион фаолиятни тўқимачилик саноати корхоналарида тадбиқ этиш учун корхонанинг ишлаб чиқарадиган маҳсулотлари юзасидан “инновацион кўрик” ўтказиш лозим бўлади, яъни маҳсулотларнинг сифати ҳамда уларнинг таркиби, шунингдек савдо қобилиятини аниқлаш талиб этилади. (1-жадвал)

“Alkim Tekstil” МЧЖнинг маҳсулотлари таркиби ва сифати бўйича ишлаб чиқариш 2022 йилда энг кўп силлиқ кулир матосига тўғри келиб, унинг йирик ҳажмдаги мазкур корхонани танитган пенье сифати бўйича олинган маҳсулот саналади. Пенье карде ҳамда меланжга қараганда анча сифати юқори бўлган тури ҳисобланиб, барча маҳсулотлар бўйича асосий ишлаб чиқариш ҳажми айнан шу навга тўғри келади. “Alkim Tekstil” МЧЖ йилига 10 миллион тонна маҳсулотни кесиб, тикиш учун андозалайди. Бунда илғор технологиялардан бири бўлган “ASSIST” дастгоҳида амалга оширади ҳамда уни буюртмачиларнинг истаклари ҳамда буюртма комплектациясига биноан кашталайди (вышивка). Мазкур жараённи амалга оширишда 12 хил рангдан фойдаланган ҳолда аппликацияла пайеткалар 5 мм га қадар бўлиши мумкин ҳамда буни матодан ташқари тасмага ҳам тикиш мумкин. Экологик тоза “Antex” бўёқларидан фойдаланган ҳолда “МНМ” дастгоҳида тайёр маҳсулотларга гул босилади. Мазкур жараённи, яъни шойига ишлов беришни корхона йилиги 2 миллион бирлик маҳсулотни ишлаб чиқариш қувватига эга. Ҳар бир ишлаб чиқариш жараёни ва босқичи изчил назорат остида олиб борилади ҳамда сифати лаборатория натижаларига асосан сайқалланади.

2-жадвал

“Alkim Tekstil” МЧЖнинг инкрементал инновацион фаолият учун танлов маҳсулотлари

№	Маҳсулот номи	Маҳсулот сифати	
		Пенье (35-79 мм)	Карде (25-35 мм)
1	2	3	4
	Силлиқ кулир	Супрем лайкра билан	
2.	Рибана	2 ва 3 қаватли рибана	
3.	Интерлок	Атлас, 2 қаватли ластик	
4.	Футер патли	2 ва 3 игнатўқиш	
5.	Кашкорсе	Юпқа параметрли (150 -190 г/кв. м.) Ўрта параметрли (190 -280 г/кв. м.) Қалин параметрли (280 ва ундан юқори г/кв. м.)	

Манба: Муаллиф ишланмаси

“Alkim Tekstil” МЧЖнинг инкрементация учун маҳсулотнинг регенерацион салоҳиятини ўрганиш талаб этилади. Бунинг натижасида корхонанинг инкрементал инновацион фаолиятини такомиллаштириш мақсадида аниқ маҳсулотлар доирасида ишланмалар олиб

бориш имконияти кенгайди. Инкрементал инновацион фаолиятни амалга оширишда 2-жадвалда шакллантирилган тўқима мато турларини ишлаб чиқариш дастлаб диверсификацион фаолият каби олиб борилади, ammo маҳсулотнинг инновацион ишланмалар ва лойиҳалар остида тадқиқ этилишини давом эттириш натижасида унинг сифати, параметрлари, тана учун қулайлиги ҳамда ундан фойдаланиш функциясига кўра такомиллаштирилиши мумкин.

“Osborn Textile” МЧЖ учун инкрементал инновацион фаолиятни тадбиқ этиш мақсадида унинг ишлаб чиқариш таркибини “Alkim Tekstil” МЧЖ каби маҳсулот таркибини ва турларини ўрганиб чиқиш юзасидан 3-жадвалда корхона маълумотлари келтирилди.

3-жадвал

**“Osborn Textile” МЧЖнинг маҳсулотларини тайёрлашда хомашё таркиби бўйича ишлаб чиқариш хажми, 2022 йил (млн.тонна)**

№	Маҳсулот номи	Маҳсулот сифати
		Меланж
1	2	3
1.	100% пахта	2,309
2.	Пахта/полиэстер	2,871
3.	Вискоза	1,773
4.	Пахта/модал	2,005
5.	Полиэстер/вискоза	1,988
6.	Пахта/акрил	2,012
7.	Неа	1,545
8.	Фантазия	1,279

**Манба: “Osborn Textile” МЧЖ маълумотлари**

“Osborn Textile” МЧЖнинг матоларни ишлаб чиқариши меланж сифати доирасида ишлаб чиқарилади, уларни дастлаб карде ҳамда пенъе сифати бўйича ҳам ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш тавсия этилади. Бу инкрементал инновацион фаолиятнинг энг асосий ютуғи сифатида корхонада стратегик лойиҳа бўлади. Маҳсулотларнинг меланж асосида ишлаб чиқаришни давом эттириш тавсия этилмайди, негаки халқаро бозорда корхонанинг келгуси муваффақияти ҳамда истикболи учун бу рақобатбардош сифат таъминоти бўла олмаслиги мумкин. Шу нуқтаи назардан, мазкур корхона доирасида тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришни такомиллаштиришда истеъмолчиларнинг узоқ йиллар давомида эҳтиёжини қондиришга хизмат қилувчи маҳсулот турларини кенгайтирган ҳолда ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш зарурдир. Шунинг ҳам таъкидлаш жоизки, маҳсулотнинг 70 фоизи ўзгариши натижасида инкрементал инновацион маҳсулот мақомига эга бўла олади. Бу эса камида жорий ва келгуси ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар орасида 3 та фарқ бўлишини англатади.

**Мунозара:** Инкрементал инновацион фаолият механизмини тадқиқ этилаётган тўқимачилик саноати корхоналарига тадбиқ этилиши натижасида корхонанинг самарадорлиги кўрсаткичларида салмоқли ўзгаришлар амалга оширилади. Бу корхонанинг ташкилий-иктисодий инфратузилмасини ўзгартириши мумкин бўлиб, барчаси корхонанинг иқтисодий самарадорлик асосида барқарор фаолият олиб бориши учун хизмат қилади.

4-жадвал

**“Alkim Tekstil” МЧЖда инкрементал инновацион фаолият асосида ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги, 2023 йил (1 чорак, фоизда)**


№	Самарадорлик кўрсаткичи	2023 йил	2022 йил (1 чорак) нисбатан
1	2	3	4
1.	Умумий маҳсулотни харид қобилияти	45	33
2.	Умумий маҳсулотларнинг таннархининг пасайиши	1,7	0,3
3.	Соф фойданинг ўсиш суръати	2,2	1,0
4.	Меҳнат унумдорлиги	1,3	0,7
5.	Рентабеллик	3,3	1,1

**Манба: “Alkim Tekstil” МЧЖнинг маълумотлари**

Маҳсулот устида олиб борилган тадқиқотлар ва ишланмалар ўта чуқурлаштирилмаган бўлсада, “Alkim Tekstil” МЧЖда Финландиянинг инкрементал инновацион фаолият маҳсулоти тажрибасидан фойдаланган ҳолда 2 бирлик маҳсулот яъни силлиқ қулир ҳамда рибана маҳсулотларини инкрементациялаш натижасида 2023 йилда мазкур маҳсулотларнинг

харид қобилияти 2022 йилга нисбатан 12 фоизга ошган. Мазкур тадбиқ асосида маҳсулотларга бўлган талабни кашф этган ҳолда корхона нисбатан кўпроқ буюртма олишга муваффақ бўлган.

Мавжуд маҳсулотни модулини ўзгартириш корхонада маҳсулот ишлаб чиқариш таннархини 1,7 фоизга пасайтиришга эришган, бу рақамли технологик ишлаб чиқариш эвазига қўлга киритилган 2022 йил кўрсаткичига нисбатан 1,5 фоиз кўпроқ натижавийликни билдиради.



2-расм. “Alkim Tekstil” МЧЖда инкрементал инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқаришдан эришган устуворликлари

Манба: “Alkim Tekstil” МЧЖнинг маълумотлари

Корxonанинг соф фойдаси кўрсаткичларидаги ўзгаришлар 2022 йилга нисбатан 2023 йилда чораклар кесимида 1,2 фоизга ўсиш суръатига эгаллиги билан ўзининг самарадорлигини намоён этган. шу билан бир қаторда, меҳнат унумдорлиги 2023 йилда чораклар ҳисобида 2022 йилга нисбатан 0,6 фоизга салмоқли ошган. Бу кўрсаткичларнинг тавсифи иқтисодий ҳамда технологик жиҳатдан самарадор ва унумдор эканлигига урғу беради. Корxonанинг асосий иқтисодий кўрсаткичларидан бири бўлган рентабеллик 2023 йилда 2022 йилга нисбатан дастлабги чоракларни нисбати кесимида баробарга ошган. Қисқача хулоса қилиш мумкинки, инкрементал инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқариш фаолиятини кенгайтириш корxonанинг техник-иқтисодий кўрсаткичларини самарадорлигини ошишига ижобий таъсир қилади.

“Alkim Tekstil” МЧЖда инкрементал инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқаришни тадбиқ этиш самарадорлик кўрсаткичларининг таҳлилий натижаларига киритилмаган, аммо муваффақиятидан ўрин олган жиҳатлари ҳам мавжуд бўлиб, улар 2-расмда келтирилган.

Корxonала инкрементал маҳсулот ишлаб чиқариш мақсадида рақамли технологияларининг дастурий таъминотининг такомиллаштирилиши мавжуд дастгоҳларга қўшимча рецепт киритиш учун янада модернизациялаштирилиши билан тавсифланади. Мавжуд маҳсулотни такомиллаштириш юзасидан ишлаб чиқариш корхона ҳодимлари учун бошланғич инновацион фаолиятнинг янада тараққий этириш вазифаси сифатида топширик берилиши сингари даврий ривожланиб боради.

Модули ишлаб чиқаришнинг замон ва макон танламаслиги жиҳадан маҳсулотни такомиллаштирган ҳолда ишлаб чиқаришни йўлга қўйишда маҳсулотнинг тегишли соҳа мутахассислариги қисмлари устида ривожлантириш тадқиқотини олиб бориш учун зарурий шароит ва маблағ билан таъминланиши эвазига эркин ижодий ёндошувни назарда тутати. Бунинг натижасида инновацион фаолиятни олиб боришда чегараланишлар бўлмайди.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://slidemodel.com/stage-gate-process-for-product-development/>
2. Худайназарова Д.Х. Тўқимачилик саноати корxonаларида риск бошқаруви кўрсаткичларини баҳолаш усуллари //Prospects of development of science and education. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 134-138.
3. Khudaynazarova D. Introduction of new banking services in the conditions of innovative economy in Uzbekistan. III International Scientific and Practical Conference «The modern vector of the development of science»,

4. Khudaynazarova D. Increasing efficiency of economic risks of textile industry enterprises based on the mechanism of incremental innovative activity // Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF 7.607 & GIF 0.626, April-May. 22 Vol. 12 No. 01,55-62 (08.00.00; №12)

5. Khudaynazarova D. Prospects of strategic transformation of the risks of textile industry enterprises within the framework of the green economy // Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF 7.607 & GIF 0.626, April-May. 22 Vol. 12 No. 01, 69-82 (08.00.00; №12)

6. Худайназарова Д.Х. Тўқимачилик саноати корхоналарини риск бошқаруви механизмларини қўллашда жаҳон мамлакатлари тажрибаси. «Саноат иқтисодиёти ва менежменти: муаммо ва ечимлар» мавзусидаги III - халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.: 2023.118-121

7. Худайназарова Д.Х. Тўқимачилик саноати корхоналарида риск бошқаруви Механизмлари кўрсаткичларини баҳолаш усуллари. «Саноат иқтисодиёти ва менежменти: муаммо ва ечимлар» мавзусидаги III -халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.: 2023. 113-116

8. Khayrullaevna, K. D. . (2021). Innovative Power of the Region: Nature, Structure and Development Directions. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 133–137 <https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/154>

УЎК 338.27

## ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА РИСКЛАРНИ ПАСАЙТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ПРОГНОЗЛАШТИРИШ

*Д.Х.Худайназарова, катта ўқитувчи, ТАТУ, Тошкент*

**Аннотация.** *Мазкур мақолада тўқимачилик саноати корхоналарининг ишлаб чиқариш фаолияти давомида юзага келувчи рискларни пасайтириш, сўндириш ҳамда улардан воз кечиш механизмларининг башиоратли истиқболлари келтирилган ҳамда иқтисодий жиҳатдан самарадорлиги асосланган.*

**Калит сўзлар:** *тўқимачилик саноатида рискларни сўндириш, инкрементал инновацион фаолият, ёпиқ цикли иқтисодий тизми асосида ишлаб чиқариш, яшил иқтисодиёт, барқарор ўсиш.*

**Аннотация.** *В данной статье представлены прогностические перспективы механизмов снижения, гашения и недопущения рисков, возникающих в процессе производственной деятельности предприятий текстильной промышленности и основанных на их экономической эффективности.*

**Ключевые слова:** *снижение рисков в текстильной промышленности, инкрементальная инновационная деятельность, производство на основе экономической системы замкнутого цикла, «зеленая» экономика, устойчивый рост.*

**Abstract.** *This article presents the prognostic prospects for the mechanisms for reducing, extinguishing and avoiding risks arising in the process of production activities of textile industry enterprises and based on their economic efficiency.*


**Key words:** *risk reduction in the textile industry, incremental innovation, circular economy production, green economy, sustainable growth.*

**Кириш.** Тўқимачилик саноати корхоналарининг техник-иқтисодий рискларини муқобиллаштириш механизмлари тадқиқот иши давомида сервитизация, инкрементал инновацион фаолият ҳамда ёпиқ цикли иқтисодий фаолият сингари модел, стратегияларни тадбиқ этиш асосида корхонанинг ташкилий-иқтисодий тизими доирасида юзага келадиган кўрсаткичлар истиқболи ҳамда мамлакат иқтисодиёти учун амалий аҳамиятга касб этган жиҳатларни илмий асослар юзасидан уларнинг прогноз кўрсаткичлари ҳамда кўрсаткичлари натижасига кўра тегишли тавсиялар ишлаб чиқишни тақозо этади.

**Методлар.** Сервитизация механизми доирасида динамик имкониятлар тизими асосида прогнозли баҳолаш келгуси 10 йил учун корхонанинг стратегик имкониятларининг иқтисодий ҳолати ва шароитини тадқиқ этиш мумкин. Шунингдек, рискларни баргараф этиш мақсадида ёпиқ цикли иқтисодий тимиз асосидаги ёндошувдан ҳам самарали фойдаланилди.

Прогнозлаштириш IBM компаниясининг SPSS Statistics 2.0 дастурида 22 такомиллаштирилган дастурий авлоди ёрдамида ARIMA усулида 3:1:2 нисбатда қилинди.

**Натижалар:** Сервитизация модели асосида динамик имкониятларини рискларни сўндиришга нисбатан қўллаганда корхонада олиб борилган тадбирларнинг натижаларнинг қисқа муддатли натижалари асосида келгуси йилларга мўлжалланган прогноз кўрсаткичлари 1-расмда келтирилган бўлиб, натижаларнинг асосий кўрсаткичлари рискларни сўндиришда самарали қўлланма сифатида танланганини англатади.



1-расм. “Alkim Tekstil” МЧЖ нинг инновацион фаолият ва барқарорликни таъминланиши даражаси прогнози, 2023-2032 йй (фоизда)

Манба: Муаллиф ҳисоб-китоблари асосида тузилди


“Alkim Tekstil” МЧЖ нинг ишлаб чиқарадиган маҳсулотининг инновацион даражаси 2023 йил якунига қадар 28 фоизни ташкил этиши кутилмоқда. 2024 йилда бу кўрсаткич 2023 йилга нисбатан 1 фоиз кўпроқ натижа кўрсатиши кутилса, келгуси 2025 йилда 2024 йилга нисбатан 2 фоизга пастлаши эҳтимоли мавжуд. Бу ҳолат кузителишида корхонанинг ишлаб чиқарадиган маҳсулотининг рақобатбардошлилиги ҳамда савдо имкониятларининг пастлаши кузатилмайди. 2026 йилда 2025 йилга нисбатан 2 фоиз ўсиш суръати билан корхона томонидан ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг фоизи ортиши кутилади, мазкур ҳолатни 2027 йилда ҳам кузатиш мумкин. 2028 йилда мазкур кўрсаткич 32 фоизга етган бўлиб, 2029 йилдан 2032 йилга қадар ўсишнинг ўртача суръати 28 фоизни ташкил этади. Умумий ҳолатда корхона маҳсулотининг барқарорлигини баҳолашда юқоридаги прогноз кўрсаткичлар инновацион даражасини сақлаб қолишга қодирлигини ҳамда бозорда маҳсулот рақобатбардош бўла олишини англатади. Шу жиҳатдан таъкидлаш жоизки, “Alkim Tekstil” МЧЖ томонидан ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг инновацион даражасининг мақобиллаштирилиши юзасидан маҳсулотни такомиллаштириш тадқиқотларини давом эттириш ёки илғор технологик ишлаб чиқаришни жалб этишни узлуксизлигини таъминлаш тавсия этилади. (1-расм.)

“Alkim Tekstil” МЧЖда инновацион салоҳият даражаси 2023 йилда 28 фоизни ташкил этиши кутилса, 2024 йилга келиб бу кўрсаткич 2026 йилга қадар 33 фоизни ташкил этган ҳолда ўсиш суръатига эга бўлади. 2027 йилда 2026 йилга нисбатан 1 фоизга камайиш ҳолати корхонада кузатилсада, 2028 йилдан 2032 йилга қадар кўрсаткичлар фақатгина ўсиши кузатилиши мумкин. (1-расм.) Бу корхонада инновацион фаолиятни юксалтирувчи кадрлар ва технологияларнинг кенг жалб этилишини ҳам билдиради. (2-расм.)

2008 йилдан бошлаб инновацияларни жорий қилиш юзасидан статистик маълумотлар 304 та корхонанинг фаоллигини намоён этса, 2018 йилга келиб инновацияларни жорий қилишга муваффақ бўлган корхоналар сони 3 баробарга ошган, 10 йил ичида эришилган мазкур натижа илмий тадқиқот ишларнинг мамлакатимизда изчил олиб борилишини ва маҳсулотлар ишлаб чиқаришда ишлаб чиқарувчилар томонидан стратегик жиҳатдан тўғри баҳоланганини англатади. 2022 йилда уларнинг жами сони 11дан ортиқ корхона ва ташкилотларни ташкил этиши мамлакатдаги мавжуд корхоналарнинг 5,7 фоизига тўғри келади. Шундан энг кўп жалб этилган инновациялар технологик инновациялар саналиб, 90 дан ортиқ фоиз улушини ташкил этади. (3-расм)




2-расм. Ўзбекистонда инновациялар жорий қилган корхона ва ташкилотлар сони, 2008-2022 йй  
Манба: Stat.uz маълумотлари



3-расм. Ўзбекистонда инновация турлари бўйича инновациялар жорий қилган корхона ва ташкилотлар сони, 2008-2022 йй  
Манба: Stat.uz маълумотлари

Корхоналарнинг аксарият қисми технологик инновацияларни киритган бўлсада, баъзи ташкилотлар технологик инновациялар билан бир қаторда маркетинг ҳамда ташкилий инновацияларни ҳам жорий этган. Мазкур тадқиқот ишида сервитизация модели механизмини фаоллаштириш доирасидасида кўзланган инновацион салоҳият барча инновация турларини камраб олишга қаратилган бўлиб, унинг асосида корхонада инновация коэффиценти прогнози кўрсаткичлари мамлакатнинг инновацион фаолиятини ривожлантиришда ҳисса кўшишга йўналтирилган. (4-расм)



4-расм. Тўқимачилик саноати корхоналарида илмий тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишланмалари билан банд бўлган ходимлар улуши, 2023-2028 йй (фоизда)

Профиллар максималлашуви ҳамда корхонада инновацион салоҳиятни оширишга қаратилган тадбирларнинг барчаси тўқимачилик саноатида тадқиқотчилар сонини ошишига ижобий таъсир этади. Аммо корхоналар инжиниринг мутахассисларини кўпроқ қадрлашларини ҳисобга олган тўқимачилик саноати мутахассислари, муҳандислари ҳамда технологлари инновацион фаолиятни фаоллаштиришдаги улушлари тадқиқотчиларга қараганда анча юқори фоизларни ташкил этиши кутилади. Ёрдамчи персонални жалб этилиши натижасида

тадқиқотчиларнинг улуши ортиб бориши кузатилади, негаки илмий иш билан машғул бўлган персонал унинг амалий тадқиқоти учун тадқиқотчи мақомида карьеравий ўсиш ҳаракатида бўлиши кутилади. (4-расм) Бунинг натижасида тўқимачилик саноати корхоналарининг инновация коэффиценти натижалари ҳам ўзгариб боради. Хусусан, 2023 йилда “Alkim Tekstil” МЧЖда инновация коэффиценти 16 фоизни ташкил этиши кутилса, 2024 йилга келиб бу коэффицент 2 фоизга ўсиши ҳисобида 18 фоизни ташкил этиши кузатилади. Мазкур ҳолатнинг такрорланишини 2025 йилда 2 фоиз ўсиш суръати асосидаги тенденцияни кўришимиз мумкин. 2026 йилда 2025 йилга нисбатан 1 фоиз ўсиш прогнозли кутилади, аммо 2027 йилда 19 фоиз ҳисобида 2 фоизга пастлаш кузатилади. Шунга қарамасдан инновация коэффиценти салмоғи келгуси 2028 йилда қайта тикланиб, 2029 йилдан 2031 йилга қадар барқарор 20 фоизни ташкил этади. 2032 йилга келиб инновация коэффиценти “Alkim Tekstil” МЧЖда 23 фоизни ташкил этиши ҳисобида максимал даражага етиши кутилади. (2-расм)

Инкрементал инновацион маҳсулотларни ишлаб чиқариш натижасида кўшилган қиймат асосидаги маҳсулотнинг барқарорлиги “Alkim Tekstil” МЧЖда динамик имкониятларга нисбатан ўзгаришларга фарк қилади.

Инкрементал маҳсулотларни ишлаб чиқариш асосида кўшилган қиймат яратиш самарадорлигининг прогнозли кўрсаткичи 5,3 фоиздан бошланиши корхонанинг иқтисодий ҳолати учун жуда салмоқли фаолиятни кафолатловчи кўрсаткич саналади. Унинг келгуси 5 йил давомида ўсиб бориши динамик имкониятларни кенгайтиришга хизмат қилишига ижобий таъсир кўрсатади. Шу билан бир қаторда, динамик имкониятлар уйғунлигида фаолиятининг юритилиши янада корхона истикболини юксалтира олишга қодирлиги прогнозли кўрсаткичлар асосида намоён бўлди. Жумладан, 2024 йилда инкрементал маҳсулотнинг кўшилган қиймат улуши 2023 йилга нисбатан 0,5 фоизга, 2025 йилда 2024 йилга нисбатан 0,4 фоизга, 2026 йилда 2025 йилга нисбатан 0,3 фоизга ўсиш суръати билан ижобий ўзгаришларни кузатишимиз мумкин. Шунингдек, 2027 йилда 0,7 фоиз ўсиш фоизи билан кўрсаткич 7,1 фоизни ташкил этган бўлса, 2028 йилда 0,3 фоиз ўсиш суръати билан кўрсаткич 7,4 фоизни ташкил этган. (1-жадвал)

Динамик имкониятлар уйғунлигида кўшилган қиймат самарадорлиги 2023 йилда 0,9 фоизга ошиши кутилади. 2024 йилда эса 2024 йилга нисбатан динамик имкониятлар билан инкрементал маҳсулотнинг кўшилган қиймат самарадорлиги 0,4 фоизга, 2025 йилда 2024 йилга нисбатан 0,3 фоизга ошиши кузатилади. 2027 йилда 2026 йилга нисбатан мазкур кўрсаткич корхонада кескин 0,8 фоизга ошиши билан 7,7 фоизни ташкил этади. 2028 йилда мазкур ҳолатнинг ўсиш суръатида 2027 йилга қараганда 0,8 профицитни кузатишимиз мумкин, шунингдек 0,5 фоиз ўсиш билан 2028 йилда прогнозли кўрсаткични қайд этиш мумкин (1-жадвал).

**1-жадвал**

**“Alkim Tekstil” МЧЖда инкрементал маҳсулот ишлаб чиқаришнинг кўшилган қиймат яратиш самарадорлиги прогнози (2023-2032 йй, фоизда)**

Кўрсаткич номи Йиллар	Кўшилган қиймат самарадорлиги	
	Инкрементал маҳсулот	Динамик имконият уйғунлигида
2023	5,3	6,2
2024	5,8	6,6
2025	6,2	6,9
2026	6,5	7,7
2027	7,1	8,5
2028	7,4	9,0

**Манба: Муаллиф ишланмаси**

Умумий маҳсулотнинг харид қобилияти “Alkim Tekstil” МЧЖда 2023 йил якунига қадар 33 фоизни ташкил этса, 2024 йилда бу кўрсаткич 36 фоизга етиши кутилади. 2025 йилда маҳсулотнинг харид қобилиятининг кутилаётган кўрсаткичи 39 фоизни ташкил этиб, 2024 йилга нисбатан 3 фоиз ўсиш суръатини намоён этади. 2026 йилда маҳсулотнинг харид қобилияти бошқа маҳсулотлар кириб келиши эвазига умумий ҳисобда пасайсада, хусусий ҳолда юқори кўрсаткични қайд этиб боради. Хусусан, бу ҳолат 2027 йил ҳамда 2026 йиллар мобайнида кузатилади. 2028 йилда ҳамда 2032 йилда маҳсулотнинг харид қобилиятини юқори

42 foizni b'lishi kutiladi, 2029 yildan 2031 yilga qadar k'rsatkichlar biron pasayishi kutilsa, ma'sulotning xaraj qobiliyatining yuqoriligi saqlanib qoladi. Umumiy ma'sulotlarning tannarxining pasayishi xarajatlarning tejalashi, texnologik samaradorlik hamda k'ushilgan qiymat miqdorining oshishini anglatadi. Mazkur k'rsatkich yuzasidan prognoz k'rsatkichi 2023 yilda va 2024 yilda 0,2 foizni tashkil etgan, ya'ni ma'sulot ishlab chiqarishda tanнарх 0,2 foizga pasaygan. 2025-2030 yillar mobaynida mazkur k'rsatkich 0,3 foizga tuishi ta'minlangan va barqaror 0,3 foizdan pasaytirib borilgan. 2031-2032 yillar davomida ma'sulot tanнарxining pasayishi keskin 1 foizga qadar tuishi kuzatiladi. Kelgusi 10 yil davomida mazkur natijalar salmoqli va iqtisodiy samarador k'rsatkichlar sanaladi. Samaradorlikning asosiy k'rsatkichlaridan biri b'lgan soф fойda qiymatini aniqlash prognozli ravishda 2023 yil yuniga qadar 1,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. 2024 yilda 2023 yilga nisbatan foiz k'rsatkichi 2,2 foizga qadar etishi hisobida 0,7 foiz k'uproq fойdaга эга b'lish prognozini beradi. 2025 va 2026 yillarda soф fойdaning u'sishi 2024 yilga nisbatan 1,1 foizga u'sishi kutiladi. 2026 yilda mazkur k'rsatkich 2025 yilga nisbatan 0,3 k'uproq natijaviylik k'rsata olgan. Kelgusi besh yil davomida u'rtacha u'sish sur'yati 1,6 foizni tashkil etadi. Soф fойda hisobida yuqorida keltilirilgan prognoz k'rsatkichlari tadqiqot ishida berilgan tavsiviy xaraktergan эга model va mexanizmlarning korxonaga tadbiq etilishining iqtisodiy samaradorligini asoslab berishda ijobiy natijaviylikni berishi bilan tavsiflanadi. Shunga k'ra, aytish mumkin, tadqiqot ishida keltilirilgan tavsiviy yuzasidan tadbiqlarning amalga oshirishi u'zini oklay olish qobiliyatini kasb etadi. Mexnat unumdorligi 2023 yilda 0,9 foizni tashkil etishi kutilsa, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan bu k'rsatkich 0,2 foizga oshishi kuzatiladi. Kelgusi yillarda k'rsatkichlar nisbatan past k'urinishiga qaramasdan, oldingi yillar nisbatida u'sish sur'yatini barqarorligini ta'minlay olishi bilan samaradorlikka эга sanaladi. Rentabellik k'rsatkichi korxonada 2023-2032 yillar mobaynida u'rtacha u'sish sur'yatini 1,49 foizni tashkil etadi. Rentabellik sarxhisobida bu yuqori k'rsatkich sanalib, mavjud texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni uzluksiz davomi ettirish mobaynida yuqori natijaviylikni bildiradi. (2-jadval)

**Мунозара:** Инкрементал инновацион фаолият асосида “Alkim Tekstil” МЧЖда ички рискларни прогнозлаш корхона олдида турган ички омилларнинг самарали ишлаб чиқариш фаолиятига тўсқинлик қилувчи жиҳатларни бартараф этиш учун аниқланиши тавсия этилади. Шунга кўра, инкрементал инновацион фаолиятни корхонага жорий этиш асосида корхонада юзага келувчи рисклар 5-расмда келтирилган.

2-жадвал


“Alkim Tekstil” МЧЖда инкрементал инновацион фаолият асосида ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги, 2023-2032 йил (фоизда)

Самарадорлик к'рсаткичи	2023 йил	2024 йил	2025 йил	2026 йил	2027 йил	2028 йил	2029 йил	2030 йил	2031 йил	2032 йил
Умумий ма'sулотнинг харид қобилияти	33	36	39	38	37	42	40	40	41	42
Умумий ма'sулотларнинг таннархining пасайиши	0,2	0,2	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	1,0	1,0
Соф фойданинг u'sish sur'yati	1,5	2,2	1,1	1,0	1,3	1,7	1,0	1,4	1,7	2,3
Мехнат unumdorligi	0,9	1,1	0,4	0,5	1,1	0,7	0,5	1,3	1,0	1,0
Рентабеллик	2,3	1,5	1,6	1,4	1,7	0,7	0,8	0,8	2,1	2,0

**Манба:** Муаллиф ишланмаси

Мазкур рискларни баҳолашда “Alkim Tekstil” МЧЖнинг mavjud ишлаб чиқариш ҳамда ташкилий-иқтисодий имкониятлари шароитини tadqiq etgan ҳолда тизимлаштирилди. Уни аниқлашда “RiskProjectLite” дастуридан фойдаланган ҳолда mavjud юзага келиши mumkin b'lgan рискларнинг k'rsatkichlarинг prognozli баҳолашда фойдаланилди. Унга кўра, инкрементал инновацион ма'sулотларни ишлаб чиқаришнинг риск бошқарувида ички

рисklarнинг прогрессив салоихиятга эга бўлмасада, уларни инобатга олган ҳолда қайта ўқриб чиқиш тавсия этилиши мумкин.



5-расм. Инкрементал инновацион фаолиятни корхонага тадбиқ этишнинг ички рисklarини прогношлаш, фоизда

Манба: Муаллиф ишланмаси

Ёпиқ цикли иқтисодий тизим асосида ишлаб чиқариш фаолиятини “Alkim Tekstil” МЧЖда жорий этишнинг ички рисklари прогнози 6-расмда келтирилган.



6-расм. “Alkim Tekstil” МЧЖда ёпиқ цикли иқтисодий тизимни тадбиқ этишнинг ички рисklarини прогношлаш, фоизда

Манба: Муаллиф ишланмаси

Ёпиқ цикли иқтисодий тизимнинг рисklари “Alkim Tekstil” МЧЖда инновацион фаолияти, меҳнат унумдорлиги ҳамда ташаббускорлик учун рағбатлаштириш механизмининг жорий этилиши ҳамда рисklarни бошқариш бўлимини келгусида ташкил этишни тақозо этишини прогнозли намоён этди. Мазкур прогноз кўрсаткичлари асосида юқорида келтирилган тавсиялар мотивацион характерга эгалиги ҳамда корхона истиқболини кўзлаган ҳолда прогнозли баҳоланган тадбир саналади. қолган рисklar юзасидан прогнозли таҳлил қилганда, уларнинг корxonанинг иқтисодий ва техник инфратузилмасига ҳеч қандай зарар этиш эҳтимолининг белгилари мавжудмаслиги ҳамда уларга қарши рисklarни қабул қилиш стратегиясини қўллаш асосида уларни бартараф этиш мумкинлиги билан ҳал этиш мумкин.

Рисklarнинг ҳар доим ҳар қандай вазиятда ҳар қандай ишлаб чиқаришда ўзига хос ўринга эга саналади, тўқимачилик саноати корxonаларига сервитизацион модел механизмини жорий этиш рисklarни бошқаришда механизмларга тақсимлаш орқали сўндириш стратегиясини бажаришга хизмат қилади. Инкрементал инновацион маҳсулот ишлаб чиқариш фаолияти корxonанинг ўрин эгаллаб бўлган бозорга ўзининг такомиллаштирилган маҳсулотларини илгари суришда рисklarни сўндирувчи стратегияси асосида ҳаракатини амалга оширишда самарали позицион тадбир ҳисобланади. Шунга қўра, таъкидлаш жоизки, ҳар бир корxonанинг инновацион фаолиятини амалга оширишда инновацион кластерларни синергиясини таъминлаш рисklarни максимал сўндиришга қаратилган стратегияни ўзида мужассамлаштиради ва бунинг натижасида ташкилий-иқтисодий механизмдаги мавжуд муаммолар ҳал бўлиши схемасини ишлаб чиқиш улкан машаққат туғдирмайди.

Динамик имкониятлар доирасида ёндошувни корхонада қўллаш асосида корxonанинг рисklarини инновацион фаолиятини салоҳиятини ва унинг асосида кутилажак корxonанинг иқтисодий барқарорлигини баҳолашда қўл келса, инкрементал инновацион фаолият билан биргаликда олиб борилишининг таъминланиши натижасида корхонадаги техник-иқтисодий

рисklarнинг муқобиллашувига эришилади. Бу эса рисklarни бошқаришда стратегик асос ва иқтисодий тузилманинг ҳимоявий дастури бўлиб хизмат қилишини англатади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Худайназарова Д.Х. Тўқимачилик саноати корхоналарида риск бошқаруви кўрсаткичларини баҳолаш усуллари //Prospects of development of science and education. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 134-138.
2. Khudaynazarova D. Introduction of new banking services in the conditions of innovative economy in Uzbekistan. III International Scientific and Practical Conference «The modern vector of the development of science», March 02 – 03, 2023, Philadelphia, USA. 144 p. ISBN 978-92-44513-38-5 DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.7709801>, p.22-29
3. Khudaynazarova D. Increasing efficiency of economic risks of textile industry enterprises based on the mechanism of incremental innovative activity // Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF 7.607 & GIF 0.626, April-May. 22 Vol. 12 No. 01,55-62 (08.00.00; №12)
4. Khudaynazarova D. Prospects of strategic transformation of the risks of textile industry enterprises within the framework of the green economy // Journal of Management Value & Ethics, ISSN-2249-9512, SJIF 7.607 & GIF 0.626, April-May. 22 Vol. 12 No. 01, 69-82 (08.00.00; №12)
5. Худайназарова Д.Х. Тўқимачилик саноати корхоналарини риск бошқаруви механизмларини қўллашда жаҳон мамлакатлари тажрибаси. «Саноат иқтисодиёти ва менежменти: муаммо ва ечимлар» мавзусидаги III - халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.: 2023.118-121
6. Худайназарова Д.Х. Тўқимачилик саноати корхоналарида риск бошқаруви Механизмлари кўрсаткичларини баҳолаш усуллари. «Саноат иқтисодиёти ва менежменти: муаммо ва ечимлар» мавзусидаги III -халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.: 2023. 113-116
7. Khayrullaevna, K. D. . (2021). Innovative Power of the Region: Nature, Structure and Development Directions. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 133–137

УЎК 657.6

## ШАҲАРДА ЖАМОАТ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АФЗАЛЛИКЛАРИ

**Б.Б.Ғиёсидинов, катта ўқитувчи, Тошкент давлат транспорт университети, Тошкент**

**Аннотация.** Ўтказилган тадқиқотлар асосида маркетинг қарорларини такомиллаштириш, йўловчиларни жамоат транспорти хизматларидан фойдаланишнинг афзалликлари, ҳорижий мамлакатларда жамоат транспортининг тутган аҳамияти ёритиб ўтилган. Хизмат кўрсатиш, ишчиларнинг (масалан, ҳайдовчининг) хулқ-атвори, етарли маълумот, транспорт воситалари сифати, алоҳида йўлақлар ва вақт жадваллари, йўловчиларни мамнун бўлишига таъсир қилувчи омиллар таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** транспорт, жамоат транспорти, маркетинг тадқиқотлари, маркетинг стратегияси, йўловчилар, жамоат транспорти.

**Аннотация.** На основе проведенных исследований выделены усовершенствование маркетинговых решений, преимущества использования услуг общественного транспорта для пассажиров, значение общественного транспорта в зарубежных странах. Были проанализированы факторы, влияющие на предоставление услуг, поведение сотрудников (например, водителей), адекватность информации, качество транспортных средств, отдельные полосы движения и расписания, а также удовлетворенность пассажиров.

**Ключевые слова:** транспорт, общественный транспорт, маркетинговые исследования, маркетинговая стратегия, пассажиры, общественный транспорт.

**Abstract.** On the basis of the conducted researches, the improvement of marketing decisions, the advantages of using public transport services for passengers, the importance of public transport in foreign countries are highlighted. Factors affecting service delivery, employee (eg driver) behavior, adequate information, vehicle quality, separate lanes and timetables, and passenger satisfaction were analyzed.

**Keywords:** transport, public transport, marketing research, marketing strategy, passengers, public transport.

**Кириш.** Тошкент шаҳрининг охириги йилларидаги жамоат транспорт соҳасида бўлиб ўтаётган ислохотлар ўзининг самарасини кўрсатмоқда. Давлатимиз раҳбарининг

Мурожаатномасида йўловчи ташиш сифатини яхшилаш мақсадида 2023 йилда яна 2 мингта автобус олиб келиниши айтилган эди.

Уларнинг аксарияти Тошкент шаҳрининг аҳолисига мўлжалланган. Ҳозирги кунда Тошкент метросининг умумий узунлиги 59,5 километрдан ортиқ бўлиб, 43 та станция фаолият кўрсатмоқда. Янги станциялар фойдаланишга топширилгунга қадар ўртача кунлик йўловчи ташиш ҳажми 420 минг нафарни ташкил этган бўлса, янги бекатлар очилиши билан ўртача кунлик йўловчи ташиш ҳажми 450-480 минг нафарга кўпайган.

Бироқ, ҳам маълум объектив ва субъектив сабабларга кўра Тошкент шаҳри йўлларидаги тирбандлик, атроф-муҳитни ифлосланиши, аҳоли томонида жамоат транспортига бўлган ҳақли эътирозлар мавжуд. Бунинг асосий сабаблардан бири тариқасида жамоат транспорти соҳасида етарли даражада маркетинг тадқиқотларини ўтказилмаслигини таъкидлаб ўтишимиз мумкин. Ваҳоланки, маркетинг тадқиқотларининг ўтказилишининг асосий мақсади нафақат транспорт ташуви бозорини ўрганиш, балки аҳолининг эҳтиёжларини қондириш, уларнинг жамоат транспортдан фойдаланишни рағбатлантиришдан иборатдир.

**Адабиётлар таҳлили.** Аҳолига транспорт хизмати кўрсатишни такомиллаштириш аҳолининг транспорт хизматларидаги эҳтиёжларини чуқур ва ҳар томонлама ўрганиш ва уларни транспорт хизматларидан мамнун бўлиш усуллари асосида амалга ошириш мақсадга мувофиқдир. Маркетинг тадқиқотлари йўловчи транспорти тизимининг самарадорлигини холисона баҳолаш, ўзига хос камчиликларни аниқлаш ва аҳолига транспорт хизмати кўрсатиш сифатини ошириш ва ривожлантиришга қаратилган аниқ чора-тадбирларни ишлаб чиқиш имконини беради.

Шаҳар йўловчи транспортининг маршрут тармоқларини оптималлаштириш усуллари ишлаб чиқиш самарадорлиги ва уни амалга ошириш усуллари тўғрисида хорижий олимлар С.М.Мочалин ҳамда Ю.А.Коллеберларнинг “Перспективы развития методов оптимизации маршрутных сетей городского пассажирского транспорта” номли илмий ишларида кўрилган.

Л.Б.Миротин, Д.С.Самойлов, С.М.Сафронов, С.М.Коренкова ва бошқа бир қанча хорижий олимларнинг илмий тадқиқотларида шаҳарда умумий фойдаланишдаги йўловчи транспорти тизимларини ривожлантириш муаммоларига катта эътибор қаратганлар.

Маҳаллий олимлардан С.А.Юлдашевнинг “Marketing And Information Support In Public Sector” номли илмий мақоласида жамоат транспорти корхоналарида маркетинг тадқиқотларини ўтказиш усуллари, ахборотнинг тутган ўрни ва уларнинг корхона ва аҳолига таъсир этиш кўрсаткичлари, шаҳар йўлларидаги тирбандлик ва атроф-муҳит бузилишини олдини олиш каби муҳим ҳисобланган жиҳатлар таҳлил қилинган.

Шаҳар транспорт тизимининг шаҳар фаолияти ва ривожланишига, айниқса аҳоли сонининг ўсганида жамоат транспорти тизимларининг хизмати техник, технологик, ташкилий ва бир-бирига мувофиқлиги билан аниқланиши тўғрисида Харватиялик олим М.Ражсманнинг “Public Urban Passenger Transport as Important Factor in the Development of Cities” номли илмий ишида кенг ёритиб берган.

Маҳаллий олимлардан Г.Шадиёва, С.Юлдашевларнинг “Соха маркетинг ва менежменти” номли ўқув қўлланмасида транспорт корхоналарида маркетинг ва менежмент соҳаларидан фойдаланиш йўллари кенг ёритиб берилган.

**Тадқиқот методологияси.** Ривожланишнинг замонавий тенденцияларини аниқлаш ва шаҳарлардаги умумий фойдаланишдаги йўловчи ташиш тизимида маркетинг фаолиятини бошқариш зарурлигини оқлаш, шаҳардаги йўловчи ташиш бозорини ўрганиш, йўловчи транспорти тизимида маркетинг фаолиятини бошқариш самарадорлигини оширишга имкон берадиган интерактив маркетинг коммуникациялари тизимини ишлаб чиқиш муаммоларини ҳал қилиш учун тизимли ёндашувни, кузатув усуллари, таққослашни, таҳлил қилишни ва синтезни, индукцияни ва чегирмаларни, ижтимоий, иқтисодий ва статистик усулни ва эксперт баҳолаш усули каби методлардан фойдаланилган.

**Таҳлил ва натижалар муҳокамаси (асосий қисм).** Жамоат транспорти фаолиятини ривожлантириш тирбандликни олдини олиш; атроф-муҳитга акс таъсир кўрсатмаслик; маблағни тежаш; инсоннинг жисмоний ҳаракатини яхшилаш; табиий ва ёқилғи ресурслар

камайишини олдини олиш; туризмнинг ривожланишига туртки бўлиш; хавфсизликни таъминлаш ва бошқа ижобий натижаларга олиб келиши мумкин.

**Тирбандликни олдини олади.** Дунё бўйлаб турли шаҳарлар бўйлаб йўлларимиздаги гавжум тирбандликларнинг аксарияти шахсий транспорт воситаларидан фойдаланиш ва шахсий ҳаёти ва қулайлиги учун шахсий автомобилларидан фойдаланишни истаган ҳар бир кишининг тушунчаси билан боғлиқ. Яқинда ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, жамоат транспорти тизимида тўлиқ ташиш автобуси битта йўловчига эга бўлган йўлда тахминан 55 та автомобилга тенг;

**Экологияга камроқ зарар етказиш.** Бу ўз навбатида, ҳавоси табиий ифлосланганлиги бўйича юқори ўринда турадиган шаҳарларимиз учун манфаатлидир. Айниқса Тошкент шаҳри бу соҳада дунёда етакчилар қаторида;

**Аҳолининг маблағи тежалди.** Жамоат транспортдан фойдаланиш шахсий машинада қатнов учун сарфлаган пулдан тўрт бараваргача тежашга имкон беради. Шахсий автоуловдан мунтазам равишда фойдаланиш техник хизмат кўрсатиш харажатларини ва бошқа қўшимча тўловларни талаб қилади, масалан, тўхташ жойи тўловлари ва тезликни оширувчи жарималар. Жамоат транспортдан фойдаланиш орқали шахсий транспорт воситасидан фойдаланишнинг ҳар хил харажатларига йўналтирилган барча пулларни тежаш мумкин;

**Инсоннинг фаоллигини ошириш.** Юриш одамнинг онгини бўшатиши ва руҳий саломатлигини яхшилаши исботланган. Бинобарин, жамоат транспорти тартиб-қоидалари орасида юриш руҳий саломатлик ва жисмоний фаровонликни яхшилашга ёрдам беради;

**Табиий ва ёқилғи ресурслари камайишини олдини олади.** Поездлар, автобуслар, паромлар ва трамвай қатновлари қазиб олинадиган ёқилғи захираларига ва табиий муҳитни йўқ қилишни давом эттирадиган материалларга боғлиқликни сезиларли даражада тежайди .

**Туризмнинг ривожланишига туртки бўлади.** Сайёҳлар жамоат транспорти тизимларидан, масалан, поезд ва автобуслардан фойдаланишдан анча хавфсизроқ ва эркинроқ бўлишлари мумкин, чунки бу уларга турли маданиятлардан янги ва қизиқарли одамлар билан танишиш имкониятини беради.

